As, Sb, Ag, Mo kabi mikrokomponentlar ham mavjud bo'lib, ularning kontsentratsiyasi 2–16 mg/l oralig'ida [1-4].

Tadqiqot metodologiyasi. Eritmalarning kimyoviy tarkibini chuqur o'rganish uchun zamonaviy analitik usullar – atom-absorbsiya spektroskopiyasi (AAS), induktiv ulanishli plazmali massa-spektrometriya (ICP-MS), ion xromatografiyasi va boshqa laboratoriya metodlari qo'llanildi. Aniqlangan elementlarni ajratib olishda kimyoviy cho'ktirish, ekstraksiya, ion almashinish va membranali ajratish texnologiyalarining samadorligi baholandi. Natijalar, ushbu texnogen eritmalar oddiy chiqindi sifatida emas, balki iqtisodiy qiymatga ega ikkilamchi resurs sifatida ko'rib chiqish zarurligini isbotladi.

Shu tariqa, texnologik gazlarni utilizatsiya qilish jarayonida hosil bo'ladigan eritmalar nodir va qimmatbaho metallarni ajratib olish, bir tomondan, chiqindisiz ishlab chiqarishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, korxonaning ekologik xavfsizligini oshirib, resurslardan kompleks foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Texnologik gazlarni yuvishdan hosil bo'lgan eritmalar tarkibida turli ionlar, jumladan, qimmatbaho (Ag), yarimmetallar (Sb, Te) va nodir metallar (Dy) mavjud bo'lib, ularning har biri ma'lum sharoitda (pH va elektrokimyoviy potensial) barqaror fazaga o'tadi yoki cho'kma hosil qiladi. Shuning uchun ushbu komponentlarni samarali ajratib olishda potensial-pH (E-pH) diagrammalarini tuzish muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega [1].

E-pH diagrammalari (Purbe diagrammalari) ma'lum elementning suvli muhitdagi termodinamik barqarorlik holatini aks ettiradi. Bunday diag-

rammalar asosida eritmadagi ionlarning qaysi sharoitda erigan ion, qattiq cho'kma (oksid, gidroksid, sulfid va boshqalar) yoki elementar holatda mavjud bo'lishi aniqlanadi. Bu esa metallarni selektiv ajratish va cho'ktirish jarayonlarini nazorat qilishga imkon beradi.

Texnologik eritmalarda bir nechta element ionlari bir vaqtda mavjudligi sababli, ularning o'zaro kimyoviy ta'sirini hisobga olgan holda optimal pH va elektrod potensial qiymatlarini aniqlash kerak bo'ladi. Ayniqsa, Ag^+ , Sb^{3+} , Te^{4+} kabi ionlar noorganik kislotalar yoki oksidlovchi muhit ta'sirida turli oksidlanish darajalarini hosil qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ushbu metallar uchun E-pH diagrammalari asosida cho'kma hosil bo'lish chegaralari aniq belgilab olinadi.

Shuningdek, bu diagrammalar ajratish jarayonining ekologik va texnologik xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, noto'g'ri pH yoki potensial sharoitda xavfli birikmalar (masalan, uchuvchi gidridlar, eriydigan komplekslar) hosil bo'lishi mumkin. E-pH diagrammalar bu kabi noxush holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, texnogen eritmalar tarkibidagi qimmatbaho va nodir metallarni samarali va selektiv cho'ktirish, ularni qayta ishlash texnologiyasini ilmiy asosda rejalashtirish uchun potensial-pH diagrammalarini tuzish zarur va dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda Dy, Mo va Te metallari uchun potensial-pH (E-pH) diagrammalarini shakllantirishda FactSage 8.2 dasturiy kompleksidan foydalanildi. FactSage – termodinamik ma'lumotlar bazasi va faza diagrammalarini avtomatik hisoblash imkoniyatiga ega zamonaviy dasturiy platforma bo'lib, u metallurgiya, kimyo va materialshunoslik sohalarida keng qo'llaniladi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Texnologik eritmalar nodir metallarni selektiv ajratish texnologiyalarini ishlab chiqishda ularning suvli muhitdagi termodinamik barqarorlik xususiyatlarini chuqur o'rganish zarur. Ayniqsa, disprosiy (Dy), molibden (Mo) va tellur (Te) kabi metallar eritma sharoitida turli oksidlanish darajalarida, ion yoki cho'kma fazalarida mavjud bo'lishi mumkin. Ularning qaysi sharoitda (ya'ni ma'lum pH va elektrod potensial (E) qiymatlarida) barqaror fazaga o'tishini oldindan aniqlash selektiv

cho'ktirish jarayonini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Diagrammalarni qurishda quyidagi parametrlar hisobga olindi:

1. Tizim: Metall – H₂O (298,15 K haroratda, ya'ni 25°C);

2. Faollik: 1 mol/kg (standart konsentratsiyada);


3. Yopiq muhit: 1 atm bosimda, kislorod va vodorod bosimlari standart holatda.

Eritmadagi noyob metallarning potensial-pH diagrammalarini qurishdan maqsad suvli eritmada har bir metalning ion, oksid, gidroksid va metall shakllari mavjudlik chegaralarini aniqlashdir.

Diagrammalarda har bir metall uchun barqaror fazalar (masalan, Dy³⁺ / Dy₂O₃(q), MoO₄²⁻ / MoO₂(q), Te(OH)₆²⁻ / TeO₂(q) / Te(q) va boshqalar) aniqlanib, ularning pH va potensialga bog'liqligi grafik tarzda ifodalandi. Bu esa, eritma tarkibida mavjud bo'lgan boshqa metallar ishtirokida har bir komponentni selektiv ajratish imkonini taqdim etdi [3-8].

FactSage dasturidan foydalanish, metallarning murakkab redoks tizimlaridagi xatti-harakatlarini termodinamik nuqtai nazardan model qilishga imkon berdi. Ayniqsa, selektiv cho'ktirish sharoitlarini aniqlashda yuqori aniqlikdagi potensial-pH chegaralari va barqarorlik zonalarini aniqlanishi, texnologik jarayonni optimallashtirishda muhim omil bo'ldi.


Shunday qilib, mazkur tadqiqotda Dy, Mo va Te elementlari uchun tuzilgan E–pH diagrammalari (1, 2, 3-rasmlar) texnogen eritmalaridan ushbu noyob metallarni ilmiy asoslangan selektiv ajratish strategiyasini ishlab chiqishda muhim vosita sifatida xizmat qildi.



1-rasm. Mo-H₂O sistemasi uchun Purbe diagrammasi.

Molibden (Mo) texnogen eritmalarida turli oksidlanish darajasida mavjud bo'lib, uni cho'ktirish jarayonida asosan qattiq oksid shakllar (MoO₃, MoO₂) yoki metall holatdagi Mo ajralib chiqishi mumkin. 1-rasmda tasvirlangan diagrammada termodinamik jihatdan barqaror fazalarni inobatga olgan holda, MoO₃(q) cho'kmasi ~0–5 pH va 0,5–1,2 V elektrod potensial sharoitida, MoO₂(q) esa 5–9 pH va 0,0–0,5 V oralig'ida hosil bo'ladi. Mo ni metall holatda ajratish esa faqat kuchli qaytaruvchan muhitda, ya'ni pH>9 va E<–0,2 V sharoitida amalga oshiriladi. Amaliy jihatdan samarali va barqaror ajratish usuli sifatida, molibdenni neytral muhitda (pH=5–9) va taxminan 0 V atrofida potensialda MoO₂(q) shaklida cho'ktirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Eritma tarkibidagi molibden uchun Purbe diagrammasi 1-rasmda taqdim etilgan.



2-rasm. Dy-H₂O sistemasi uchun Purbe diagrammasi.

Disprosiy (Dy) texnogen eritmalarida Dy³⁺ ionlari shaklida mavjud bo'lib, u ishqoriy muhitda osonlik bilan Dy₂O₃(q) shaklida cho'kma hosil qiladi. Termodinamik tahlil natijalariga ko'ra, Dy cho'kmasi barqaror ravishda pH > 7,5 sharoitda hosil bo'ladi, elektrod potensial esa bu jarayonga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi (2-rasm). Shuning uchun Dy ni eritmada ajratib olish uchun pH darajasini 8–10 oralig'iga ko'tarish, masalan, NaOH yoki NH₄OH qo'shish orqali ishqoriy muhit hosil qilish zarur. Bu sharoitda Dy selektiv tarzda Dy₂O₃(q) shaklida ajralib chiqadi va boshqa metallar (masalan, Mo va Te) hali cho'kma holatiga o'tmagan bo'ladi.

Tellur (Te) texnogen eritmalarda asosan oksidlangan holatda, ya'ni Te^{4+} yoki Te(VI) ionlari sifatida mavjud bo'lib, ularni selektiv ajratish uchun pH 5–8 va 0,5–0,7 V oralig'idagi elektrokimyoviy sharoit optimal hisoblanadi (3-rasm). Ushbu sharoitda $\text{TeO}_2(\text{q})$ barqaror fazada hosil bo'ladi. Ayniqsa, eritma muhitiga yengil oksidlovchilar (masalan, H_2O_2) kiritish orqali potensialni kerakli darajada ushlab turish mumkin. TeO_2 cho'kmasi neytralga yaqin pH sharoitida hosil bo'lishi, uni Dy va Mo kabi boshqa metallar bilan ketma-ket ajratish imkonini beradi.



3-rasm. $\text{Te-H}_2\text{O}$ sistemasini uchun Purbe diagrammasi.

Shunday qilib, Dy, Te va Mo ni eritmadan ketma-ket ajratib olish uchun eritma muhitining pH va potensial darajalarini bosqichma-bosqich boshqarish, har bir element uchun optimal sharoitda cho'ktirish jarayonlarini amalga oshirish orqali selektiv ajratish strategiyasini shakllantirish zarur.

Noyob metallarni eritmadan selektiv ajratish imkoniyatini tahliliy baholash. Disprosiy (Dy) ni texnogen eritmalardan selektiv ajratish imkoniyatini baholash shuni ko'rsatadiki, Dy^{3+} ionlari suvli eritmada barqaror Dy_2O_3 cho'kmasi shaklida faqat pH > 7,5 sharoitida ajraladi. Biroq, ishqoriy muhitda boshqa ionlar – jumladan, Cu^{2+} , Zn^{2+} , Ni^{2+} va Fe^{3+} kabi og'ir metallar ham o'zlariga xos gidroksid cho'kmalarini hosil qilishi mumkin. Bu esa Dy ni boshqa metallar fonida selektiv ajratish jarayonini murakkablashtiradi.

Tahliliy yondashuvga ko'ra, pH=8–9 oralig'ida Dy bilan bir vaqtda yuqoridagi og'ir metallar ham qisman cho'kishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli selektivlikni ta'minlash uchun oldindan ekstraksiya qilish yoki eritmaga niqoblovchi reagentlar (masalan, EDTA, sitrat kislotasi) qo'shish tavsiya etiladi. Bu reagentlar og'ir metallar bilan kompleks hosil qilib, ularni eritmada bog'langan holatda ushlab turadi. Natijada Dy^{3+} ionlari tanlab ajralib chiqishi va Dy_2O_3 shaklida cho'kishi uchun zarur sharoitlar hosil qilinadi. Shunday yondashuv Dy ni boshqa ionlardan selektiv ajratib olish imkonini sezilarli darajada oshiradi.

Tellurni (Te) texnogen eritmadan selektiv ajratib olish jarayonida u suvli muhitda asosan pH 5–8 va 0,5–0,7 V elektrokimyoviy potensial oralig'ida TeO_2 shaklida cho'kadi. Biroq, ushbu oksidlovchi sharoitlarda Sn(IV), Sb(III), Fe(III) va Ag(I) kabi boshqa ionlar ham cho'kma hosil qilishi mumkin bo'lgan fazalarda mavjud bo'ladi. Bu esa Te ning selektiv ajratilishiga raqobatdosh ta'sir ko'rsatadi.

Bunday holatda oksidlanish-qaytarilish potensiallari farqi asosida bosqichli ajratish strategiyasini qo'llash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, TeO_2 ning barqaror fazasi Ag va Sb oksidlariga nisbatan pastroq potensialda shakllanadi. Shu sababli eritmadagi oksidlovchi kuchni nazorat ostida ushlab turish, xususan, H_2O_2 kabi oksidlovchi reagent miqdorini ehtiyotkorlik bilan sozlash orqali tellurni boshqa metallar cho'kmasi hosil bo'lishidan oldin ajratib olish mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv Te ni yuqori selektivlik bilan ajratish imkonini beradi va keyingi bosqichlarda boshqa elementlar bilan to'g'ri ishlashga zamin hozirlaydi [6, 8, 10].

Molibden (Mo) texnogen eritmalarda odatda Mo^{6+} ionlari shaklida mavjud bo'lib, u pH=5–9 va 0,0–0,5 V oralig'idagi elektrokimyoviy sharoitda MoO_2 ko'rinishidagi oksid cho'kmasi sifatida ajraladi. Shu bilan birga, ushbu pH muhitida temir (Fe), rux (Zn) va qo'rg'oshin (Pb) kabi og'ir metallar ham gidroksid shaklida cho'kma hosil qilishi mumkin. Bu esa Mo ni selektiv ajratish jarayonida ayrim murakkabliklar tug'diradi.

Biroq, bu metallar orasidagi fazaviy farq – ya'ni Mo oksid shaklida, boshqa metallar esa ko'pincha gidroksid shaklida cho'kishi – selektiv ajratish uchun muhim imkoniyat tug'diradi. Ushbu farqdan foydalangan holda fazaviy tanlab olish yondashuvi orqali MoO_2 ni eritmadan boshqa

metallar cho'kmalaridan ajratib olish mumkin. Natijada, molibdeni barqaror va aniq sharoitda, boshqa metallar ishtirokini minimallashtirgan holda samarali ajratish imkoni hosil qilinadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mis eritish texnologiyasi natijasida hosil bo'ladigan texnogen eritmalar tarkibida Dy, Mo va Te kabi noyob metallar mavjud bo'lib, ularni selektiv ajratib olish imkoniyati mavjud va ilmiy asosda asoslanadi. Har bir element uchun potensial–pH diagrammalari asosida eng qulay cho'ktirish sharoitlari aniqlanib, texnologik jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan optimal pH va elektrokimyoviy potensial oralig'i belgilandi [8-9].

Dy ni $\text{pH} > 7,5$ da Dy_2O_3 shaklida, Te ni $\text{pH} = 5-8$ va $E = 0,5-0,7$ V sharoitda TeO_2 holatida, Mo ni esa $\text{pH} = 5-9$ va $E = 0,0-0,5$ V oralig'ida MoO_2

shaklida ajratish mumkinligi isbotlandi. Biroq, eritma tarkibida mavjud bo'lgan boshqa og'ir metallar (Fe, Zn, Cu, Ag, Sb va boshqalar) bilan ionlararo raqobat selektivlikka to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli selektiv ajratish samaradorligini oshirish uchun bir qator yondashuvlar – jumladan, niqoblovchi reagentlardan foydalanish, oksidlovchi muhitni nazorat qilish hamda cho'kma fazalar orasidagi farqlarga asoslangan filtratsiya texnologiyalarini qo'llash tavsiya etiladi.

Natijada, texnogen eritmalarini chuqur tahlil qilish va ulardan noyob metallarni ajratib olish orqali ikkilamchi xomashyo manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, chiqindisiz texnologiyalarga o'tish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khojiev, S.T. Processing of copper slag using waste tires // *Metallurgist*. – 2025. – T. 68. – № 8. – P. 1-10.
2. Hou Y., Yu J., Zheng D., Xu J., Ma G., Khojiev S., Kadirov N. Preparation and chromatic performance of black ceramic tiles from chromium slag, copper slag and silicon manganese slag // *Journal of Ceramic Processing Research*. – 2025. – T. 26. – № 1. – P. 139 - 147.
3. Kholikulov D., Khojiev Sh., Khaydaraliev Kh., Boltayev O., Khujayev T., Abdiev O., Yusupov A. Application of ozone for the treatment of process solutions and wastewater in copper production // *International Journal of Mechatronics and Applied Mechanics*. – 2025. – T. 1. – № 19. – P. 193-197.
4. Zhuang, M., Zhang, H., Li, X., Zheng, S., Li, L. An innovative hybrid hydrometallurgical approach for precious metals recovery // *Journal of Environmental Management*. – 2022. – Vol. 311. – Article 114780. – DOI: 10.1016/j.jenvman.2022.114780.
5. Bai, L., Lv, J., Peng, S., Yu, H., Xu, J., Wang, X. Selective extraction of precious metals in the polar aprotic solvent // *Waste Management*. – 2022. – Vol. 145. – P. 244–251. – DOI: 10.1016/j.wasman.2022.04.027.
6. Wenda, A., Wenda, D. Solvent extraction as a method of recovery and separation of platinum group metals // *Materials*. – 2023. – Vol. 16, № 12. – Article 4208. – DOI: 10.3390/ma16124208.
7. Dvořák, M., Kukurugya, F., Orac, D. Precipitation of precious metals concentrates from post-elution solutions from ion-exchange processes // *Minerals*. – 2024. – Vol. 14, № 6. – Article 625. – DOI: 10.3390/min14060625.
8. Lee, J.-C., Lee, K.-S., Kim, S.-K. Ionic liquids-assisted solvent extraction of precious metals from chloride solutions // *Solvent Extraction and Ion Exchange*. – 2022. – Vol. 40, № 5. – P. 463–478. – DOI: 10.1080/07366299.2022.2091458.
9. Esposito, G., Cimini, S., De Michelis, I., Vegliò, F. Optimization of sustainable processes for the extraction of precious metals from WEEE // *Chemical Engineering Transactions*. – 2024. – Vol. 111. – P. 607–612. – DOI: 10.3303/CET2411102.
10. Khojiev Sh.T., Toshpulatov A.A., Kenjaeva S.A., Khudoymuratov Sh.J. Investigating the exothermic oxidation of molybdenum dioxide: thermodynamic insights and reaction dynamics // “Kimyo sanoatining dolzarb muammolari, innovatsion yechimlari va istiqbollari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to'plami, Olmaliq, 1-2 noyabr, 2024 y. S. 290-291.

UO‘K: 669.334.6

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.11

OKSIDLANGAN MIS RUDASI TARKIBIDAGI MINERALLARNING QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TANLASHDAGI AHAMIYATI



**Elchiyeva Mohinur
Dilshod qizi**

Toshkent davlat texnika universiteti
Olmaliq filiali “Metallurgiya”
kafedrası tayanch doktranti,
Olmaliq, O‘zbekiston
E-mail:
mohinurelchiyeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-4734-0278



**Xoliqulov Donyor
Bahtiyorovich**

t.f.d. professor, Toshkent davlat
texnika universiteti Olmaliq filiali,
Olmaliq, O‘zbekiston
E-mail: Xoliqulov.d@tdtuof.uz
ORCID ID: 0000-0001-6968-9297



**Boltayev Olmos
Najmidinovich**

PhD, Toshkent davlat texnika
universiteti Olmaliq filiali dotsenti,
Olmaliq, O‘zbekiston
Email: boss.olmos@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-4491-7617



**Niyazmetov Baxtiyor
Ergashovich**

“Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati” AJ,
Olmaliq, O‘zbekiston
Email: b.niyazmetov@aqmk.uz

Annotatsiya. Mis metaliga talabning oshishi, qayta ishlanishi qulay bo‘lgan sulfidli mis rudalari zaxiralarining kamayishi oksidlangan, aralash tarkibdagi, balansdan tashqari mis rudalarini qayta ishlab kerakli komponentlarni ajratib olishga zarurat uyg‘otmoqda. Lekin oksidlangan mis rudalarining murakkab mineralogik tarkibi, gidrofillik xususiyati qayta ishlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Mazkur maqolada oksidlangan mis rudalari tarkibidagi mis minerallarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, qayta ishlash texnologiyasini tanlashdagi ahamiyatlari, flotatsiyalanish qobiliyatini oshirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan reagentlar va gidrometallurgik qayta ishlash usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oksidlangan mis rudasi, misning oksidli minerallari, flotatsiya, sulfidlab flotatsiyalash, sulfidlovchilar, gidrometallurgiya.

ЗНАЧЕНИЕ МИНЕРАЛЬНОГО СОСТАВА ОКИСЛЕННОЙ МЕДНОЙ РУДЫ ПРИ ВЫБОРЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ

**Эльчиева Мохинур
Дилшод кизи**

Базовый докторант кафедры
“Металлургия” Алмалыкского
филиала Ташкентского
государственного технического
университета,
Алмалык, Узбекистан

**Холикулов Донёр
Бахтиёрвич**

д.т.н., профессор, Алмалыкский
филиал Ташкентского
государственного технического
университета,
Алмалык, Узбекистан

**Болтаев Олмос
Наджмидинович**

PhD, доцент Алмалыкского
филиала Ташкентского
государственного технического
университета,
Алмалык, Узбекистан

**Ниязметов Бахтиёр
Эргашович**

АО «Алмалыкский горно-
металлургический комбинат»,
Алмалык, Узбекистан

Аннотация. Рост спроса на медь и сокращение запасов сульфидных медных руд, удобных для переработки, вызывают необходимость переработки окисленных, смешанных по составу и забалансовых медных руд с целью извлечения необходимых компонентов. Однако сложный минералогический состав окисленных медных руд и их гидрофильные свойства создают трудности при переработке. В данной статье проанализированы физико-химические свойства медных минералов, содержащихся в окисленных рудах, их значение при выборе технологии переработки, возможные реагенты для повышения флотационной способности, а также гидрометаллургические методы переработки.

Ключевые слова: окисленная медная руда, окисленные минералы меди, флотация, сульфидизация и флотация, сульфидизаторы, гидрометаллургия.

THE IMPORTANCE OF THE MINERAL COMPOSITION OF OXIDIZED COPPER ORE IN THE SELECTION OF PROCESSING TECHNOLOGY

**Elchieva Mohinur
Dilshod kizi**

PhD student at the Department of
Metallurgy, Almalyk Branch of
Tashkent State Technical
University, Almalyk, Uzbekistan

**Kholikulov Donyor
Bahtiyorovich**

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Almalyk Branch of
Tashkent State Technical
University, Almalyk, Uzbekistan

**Boltaev Olmos
Najmidinovich**

PhD, Associate Professor of the
Almalyk Branch of Tashkent State
Technical University,
Almalyk, Uzbekistan

**Niyazmetov Bakhtiyor
Ergashovich**

JSC "Almalyk Mining and
Metallurgical Combine",
Almalyk, Uzbekistan

Abstract. The growing demand for copper and the depletion of easily processable sulfide copper ore reserves necessitate the processing of oxidized, compositionally mixed, and off-balance copper ores to extract valuable components. However, the complex mineralogical composition of oxidized copper ores and their hydrophilic properties present challenges in processing. This article analyzes the physicochemical properties of copper minerals contained in oxidized ores, their importance in selecting appropriate processing technologies, potential reagents for improving flotation performance, and hydrometallurgical processing methods.

Keywords: oxidized copper ore, oxidized copper minerals, flotation, sulfidization and flotation, sulfidizing agents, hydrometallurgy.

Kirish. Rangli metall ishlab chiqarishga bo'lgan talab oxirgi yillarda sezilarli darajada oshdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyo miqyosida mis metali iste'moli yiliga o'rtacha 23-26 million tonnani tashkil etadi. Bunga sabab sifatida elektrotexnika hamda elektromobillar ishlab chiqarish xajmining keskin oshishi ko'rsatilmoqda [1].

Mis metaliga talab yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. London metall birjasida 2020-yil holatiga ko'ra bir tonna mis narxi 6000-6500 AQSH dollari atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yil birinchi choragiga kelib bu ko'rsatkich 9100-9300 AQSH dollarini tashkil etdi [2]. Hozirgi vaqtda tasdiqlangan va qazib olinadigan mis zaxiralari 890 million tonna deb baholanmoqda. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra yangi konlar yoki mis ajratib olishning yangi texnologiyalari ishlab chiqilmasa ushbu zaxira 20 yilga yetadi [1].

An'anaviy sulfidli mis rudalaridan tashqari oksidli, aralash, balansdan tashqari mis rudalarini qayta ishlab, kerakli komponentlarni ajratib olish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi [3, 4, 5]. Lekin oksidli mis rudalarining gidrofillik xususiyati va murakkab mineralogik tarkibi sulfidli mis rudalarini qayta ishlashda qo'llaniladigan

an'anaviy texnologiyalardan foydalanishda qiyinchilik tug'diradi [6, 7].

Oksidlangan mis rudalari tarkibida mis karbonatlar – malaxit $\text{CuCO}_3 \cdot \text{Cu}(\text{OH})_2$, azurit $2\text{CuCO}_3 \cdot \text{Cu}(\text{OH})_2$, sulfatlar – xalkantit $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$, broshantit $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{Cu}(\text{OH})_2$, antlerit $\text{Cu}_3(\text{OH})_4\text{SO}_4$, xloridlar – atakamit $\text{Cu}_2\text{Cl}(\text{OH})_3$, alyumosilikatlar va fosfatlar – biryuza $\text{CuO} \cdot 3\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{P}_2\text{O}_5 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, xrikozolla $\text{CuSiO}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$, oksidlar – kuprit Cu_2O va tenorit CuO va boshqalar ko'rinishida bo'ladi [8, 9, 10].

Adabiyot tahlili va metodlar. Malaxit eng keng tarqalgan misning oksidli minerali bo'lib, ruda tarkibida xalkotsit, azurit minerallari bilan birga keladi. Monoklinik kristal tuzilishga ega, unda misning ulushi 57,57 % ni tashkil etadi [11]. Xrikozolla ma'lum bir kimyoviy formulaga va tarkibga ega emas, odatda kristal holatdagi mis silikati va amorf dioksid aralashmasi sifatida tasniflanadi [12]. Kuprit odatda malaxit va xrikozolla bilan bog'langan holatda keladi. Havoda oksidlanish natijasida tenoritga aylanishi oson, shuning uchun qayta ishlash vaqtida tenoritning xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin [13].

Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, misning oksidli minerallari, shu jumladan malaxit, xrikozolla, kuprit

sirt yuzasining yuqori gidrofillik xususiyati sababli ular suv yuzasida suzishga moyil emas, bu esa ananaviy flotatsiya jarayonini qo'llashni murakkablashtiradi yoki butunlay ta'qiqlaydi. Malaxit aniq kristall tuzilishga ega bo'lganligi sababli sulfidlovchilar yordamida yaxshi sulfidlanadi, xrikozolla yuzasi g'ovakli bo'lib kollektor adsorbsiyasida qiyinchilik keltirib chiqaradi, bu esa xrikozolla flotatsiyasini qiyinlashtiradi. Kuprit yuzasida malaxit va xrikozollaga qaraganda faol qatlam kamroq, lekin sulfidlash orqali sirt xususiyatini o'zgartirish mumkin.

Hozirgi kunda oksidlangan mis rudalarini qayta ishlashda flotatsiya usuli keng qo'llanilmoqda. Oksidli mis minerallarini flotatsiyalash to'g'ridan-to'g'ri yoki sulfidlab amalga oshirilishi mumkin [14]. To'g'ridan-to'g'ri flotatsiya yig'uvchi, ko'pik xosil qiluvchilardan foydalanigan holda amalga oshirilsa, sulfidlab flotatsiyalash mineralarning sirt yuza xususiyatlarini o'zgartirish uchun sulfidlovchilardan foydalanish orqali amalga oshiriladi [15, 16, 17, 18, 19].

Misning oksidli minerallarini to'g'ridan-to'g'ri flotatsiyalashda yig'uvchi sifatida ksantogenat yaxshi samara bermaydi [20]. Xelat kollektori mis oksidi uchun yaxshi yig'uvchi xususiyatga ega, aralash tarkibdagi rudalarda ham yaxshi samara beradi [21], lekin ularning kamchiligi selektivlik xususiyati yo'q bo'lib puch tog' jinslarini ham adsorbsiyalashi mumkin [22], mazkur tipdagi yig'uvchilar bilan solishtirilganda natriy oleat kabi yog' kislotalari ham yig'uvchi sifatida, ham iqtisodiy jihatdan samaraliroqdir [23]. Bundan tashqari gidroksamik kislota [24], oktil gidroksamik kislota [25], benzogidroksamik kislota [26] lar malaxitning gidrofoblik xususiyatini oshirib yaxshi flotatsiyalanishini ta'minlashi mumkin.

Tarkibi murakkab bo'lmagan, yuqori navli oksidlangan mis rudalarini flotatsiyalashda to'g'ridan-to'g'ri usuldan foydalanish mumkin, ammo sanoatda, murakkab tarkibli, past sifatli rudalar uchun bu usul past selektivlik xususiyati, yuqori narxi, olingan konsentratdagi sifatning pastligi tufayli samarali emas deb baholanadi.

Sulfidlab flotatsiyalashda sulfidlovchilar yordamida mis oksidi minerallarining yuzasida mis sulfidlari hosil bo'lishi hatto sulfidli qobiq hosil bo'lishi mumkin, shu sababli mis oksidi minerali mis sulfidi kabi xususiyatga ega bo'ladi, natijada

yaxshi flotatsiyalanadi [27]. Mis oksidi mineralarini sulfidlash jarayonida sulfidlanish natijalariga ko'plab omillar ta'sir qilishi mumkin. Masalan, mineral sirtining strukturaviy xususiyatlari, sulfidlovchi reagent turi va dozasi, sulfidlanish vaqti, pH muhiti, harorat va boshqalar [28, 29, 30].

Sulfidlovchilar sifatida oltingugurt, ammoniy sulfid, natriy sulfid, natriy gidrosulfid, natriy polisulfidlar keng qo'llaniladi [31, 32, 33]. Natriy gidrosulfid misning flotatsiya samarali sulfidlovchi, natriy gidrosulfid bilan ammoniy sulfidining 1:1 aralashmasidan foydalanish flotatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshirgan [34].

Sulfidlovchi reagent miqdori to'g'ridan-to'g'ri jarayonga ta'sir ko'rsatadi, dozani sozlash orqali mis oksidi flotatsiyasini faollashtirishi yoki susaytirishi mumkin. Yetarli bo'lmagan miqdor mineral yuzasida yetarlicha sulfid pardani hosil qilmaydi, ortiqcha miqdor esa yig'uvchi reagent sarfini oshirishi mumkin [33].

Sulfidlanish vaqti mineral yuzasida sulfid parda qoplanishi va intensivligiga ta'sir qiladi, agar vaqt juda qisqa bo'lsa sulfidlanish darajasi yetarli bo'lmaydi, agar sulfidlanish vaqti uzoq kechsa sulfidlovchining ta'siri pasayadi, natijada sulfid parda mineral yuzasidan tushib ketadi va minerallar yaxshi flotatsiyalanmaydi [35].

Oksidli mis minerallari flotatsiyasida pH 8-10 da malaxitning sulfidlanishi va suzuvchanligi yaxshi bo'ladi [36], kislotali muhitda ksantogenatlar parchalanadi [37]. Agar pH 10 dan yuqori bo'lsa gidroksid ionlari hosil bo'lishi kuchayadi va malaxitning ksantogenatga adsorbsiyasini susaytiradi. Mis oksidlari uchun flotatsiya muhiti 9-9,5 eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi [38].

Sulfidlash haroratining oshishi sulfidlanish darajasi va samaradorligini oshiradi, biroq yuqori harorat ishlab chiqarish xarajatlari oshishiga, flotamashina va atrof-muhit muammolariga olib kelishi mumkin [39].

Sulfidlab flotatsiyalashda pulpada hosil bo'lgan ortiqcha sulfidlar jarayonda yig'uvchi reagent bilan raqobatlashadi, ya'ni yig'uvchi reagentning mineral yuzasiga yopishishiga to'sqinlik ko'rsatadi, bu flotatsiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli jarayonda maqbul parametrlarni – sulfidlovchi miqdori, vaqt, pH ko'rsatkich, harorat va boshqalarni to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi.

Sulfidlab flotatsiyalashda faollashtiruvchi reagentlardan foydalanish minerallar yuzasida faol joylar hosil bo'lishiga va yig'uvchi reagentning yaxshi adsorbsiyasiga sabab bo'ladi. Faollashtiruvchilar sifatida a-benzoin oksim, antranilik kislota, kupferron, N-benzoil-N-fenilgidroksilamin, 8-gidroksixinolinlarni qo'llash xrikozollar flotatsiyasida yaxshi natija ko'rsatgan [40, 41]. Bundan tashqari 1H-Benzotriazol oksidli mis minerallarini sulfidlab flotatsiyalashda yaxshi faollantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, minerallarning sirt barqarorligini oshiradi, yig'uvchi reagent adsorbsiyasi uchun qulay sharoit ta'minlaydi [42].

Oksidli mis minerallari uchun faollashtiruvchi sifatida ammoniy / amin tuzlarini qo'llash sulfidlanish muhitini yaxshilashi, minerallar yuzasida faol joylar sonini oshirishi va sulfidlanishni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari ammoniy tuzi sulfid ionlarining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun pulpada bufer bo'lib qatnashishi mumkin [43]. Etilendiamin fosfat minerallarda sulfidlovchi va yig'uvchilar adsorbsiyasi tezligini oshirib jarayonni tezlashtirishi mumkin [44]. Bundan tashqari etilendiamin fosfat jarayonda puch tog' jinslarining birikishi va cho'kishini tezlashtiradi [45].

Vodorod peroksid yordamida kuprit yuzasini modifikatsiya qilish va uning sulfidlanish qobiliyatini oshirish imkoni mavjud [46]. Mis oksidini sulfidlab flotatsiyalashda natriy butil ksantat (NaBX) va dodetsilamin (DDA) kombinatsiyalangan kollektor sifatida foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra NaBX va DDA birgalikda ishlatish pH 7-11 oralig'ida faqat NaBX dan foydalanishga qaraganda samaraliroq, NaBX va DDA ning optimal molyar nisbati 2:1. NaBX+DDA miqdori (100+54) g/t bo'lganda misning tiklanishi 15,93% dan 76,73% ga oshgan [47].

Xulosa qilib aytganda oksidlangan mis minerallarini flotatsiyalash hozirgi kunda keng tarqalgan va samaradorligi yuqori usullardan biri. Lekin oksidli mis minerallarining yuqori sirt gidrofillik xususiyati hamda murakkab mineralogik tarkibi tufayli to'g'ridan-to'g'ri flotatsiyalash yaxshi natija bermaydi. Jarayonda sulfidlovchilar yordamida sulfidlab flotatsiyalashdan foydalanish ya'ni oltingugurt, natriy sulfid, ammoniy gidrosulfid, natriy gidrosulfid va shu kabi sulfidlovchilar yordamida mineral yuzalarida sulfid qatlam hosil qilish orqali minerallarning gidrofoblik xususiyatini

oshirish keng foydalanilayotgan, iqtisodiy samara berayotgan usul hisoblanadi.

Oksidlangan mis rudalarini qayta ishlashning yana bir samarali usullaridan biri bu gidrometallurgik qayta ishlash hisoblanadi. Gidrometallurgik qayta ishlashda uyumda tanlab eritish, bakteriyalar yordamida tanlab eritish, avtoklavda tanlab eritish amaliyotda keng qo'llanilgan [48, 49].

Bakteriologik tanlab eritishda T.ferrooxidans-atsidofil tiobatsillalardan foydalanilgan. Oksidlangan mis rudasi, oltingugurt, xalkopirit nisbati 1:1:1, oksidlangan mis rudasi oltingugurt va xalkopirit aralashtirilganda misning erish darajasi 61% ga yetgan [50]. Erituvchi sifatida organik kislota ($C_4H_6O_6$, tartarik kislota) dan foydalanilganda tadqiqot natijalari tanlab eritish jarayonida ushbu organik reagentning samaradorligini, tejamkorligini va ekologik tozaligini ko'rsatadi. Ruda 0,074 mm gacha yanchilgan, organik kislota konsentratsiyasi 0,2 mol/l, jarayon davomiyligi 60 daqiqa, S:Q nisbati 1:10, harorat 25 °C, aralashtirish tezligi 300 ayl/min, misning eritmaga ajralishi 73,18%. Tartatik kislota yordamida malaxitdan misni tanlab eritish an'anaviy kislotalarga qaraganda ekologik toza va iqtisodiy samaradorligi isbotlangan [51]. Tanlab eritishda etilendiaminet-rasirka kislotasining ($EDTA \cdot 2Na$) dinatriyli tuzining suvli eritmasidan foydalanilganda reagent konsentratsiyasining oshishi jarayon tezligini oshirgan, S:Q nisbati jarayon tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan [52]. Shuningdek ammiak sulfati yordamida tanlab eritishda eritmada mis – 1,24 g/l, misning ajralish darajasi – 87,96% ni ko'rsatgan. Mazkur usul kombinatsiyalangan flotatsion va tanlab eritish jarayonining amaliyotda qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi. Misni ammiak sulfati bilan tanlab eritish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali usul bo'lib, yuqori regeneratsiya va sifatli mahsulot olish imkonini beradi [53]. Bundan tashqari sianid eritmasi [54] va sulfat kislota [55] oksidlangan rudalar uchun yaxshi erituvchi hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi kunda chuchuk suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida dengiz suvi yoki sho'r suvni qo'llagan holda tanlab eritish jarayonlarini amalga oshirish ishlari o'rganilmoqda. Bu usul mikrobiologik faoliyatni oshirish va chuchuk suv sarfini kamaytirish imkonini beradi. Kalsiy xlorid eritmasi yordamida

tanlab eritishda misning ajralishi 99% ga yetgan, kalsiy xlorid konsentratsiyasi 110-165 g/l, zarracha o'lchamini 15 mikronga yetkazish mis ajralishini 0,2, temir ajralishini 2% ga oshirgan. Erituvchi sifatida xlorid-sulfat eritmasidan foydalanilganda xlorid jarayonda katalizator sifatida ishtirok etgan, yuqori konsentratsiyali xlorli oqova suvlari orqali past sifatli, aralash tarkibdagi mis rudalarini tanlab eritish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda harorat 80°C, davomiyligi 4 soat, misni ajralish darajasi – 89,46% ga yetgan.

“Olmalik KMK” AJ Qalmoqir koni oksidlangan mis rudalarini 92-95% puch tog' jinslari tashkil etadi, ularning asosiy qismi kvars, dala shpati, qisman muskovit, xlorit, biotit, magnetit, apatit va boshqalar. Ruda minerallari esa 3-8% ni tashkil etib asosan kvars tomirlari bilan uchraydi. Ruda tarkibida mis malaxit, kuprit, xalkozin, kovellin, bornit, kubanit va xalkopirit ko'rinishida uchraydi, bunda malaxitning ulushi ko'proq (1-jadval).

1-jadval


“Olmalik KMK” AJ Qalmoqir koni oksidlangan mis rudasi tarkibida misning minerallarda taqsimlanishi

Mineral	Misning ulushi, %
Xalkopirit	15,90
Bornit	3,85
Kovellin-xalkozin	19,55
Qo'shimcha sulfidlar	2,71
Mis karbonatlari	19,96
Mis sulfatlari	8,99
Xrikozolla va bog'langan mis	18,70
Pseudomalaxit	3,76
Turkuz	0,60
Kuprit	0,31
Oksidlar / Gidroksidlar (Fe)	5,66
Jami:	100,00


Malaxit tomirlar, to'plamlar shaklida uchraydi, tomirlar tosh yoriqlari bo'ylab rivojlangan va temir gidroksidlari bilan birga kelgan (1-rasm). Malaxitning zarracha o'lchami o'rtacha 0,02-0,5

mm.

“Olmalik KMK” AJ Qalmoqir koni oksidlangan mis rudasining asosini kvars minerali tashkil etib misning katta qismi malaxit ko'rinishida tarqalgan. Malaxit rudada kvars hamda temir gidroksidi bilan bog'langan holatda uchraydi. Yuqoridagi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bunday shakldagi malaxitni flotatsiyalanishini ta'minlashda yig'uvchi reagent sifatida natriy oleat yaxshi samara beradi. Oktil gidroksamat va kerosin aralashmasi malaxitning temir gidroksid bilan birgalikdagi ko'rinishida yaxshi natija ko'rsatadi, jarayonda kerosinning bir me'yorda taqsimlanishi uning malaxit yuzasida tarqalishini ta'minlaydi, bu esa uning gidrofoblik xususiyatini oshiradi. Ammoniy sulfid va natriy sulfidning mos ravishda malaxitning sulfidlanishiga ta'siri o'rganilganda ammoniy sulfid ionlari bo'lgan malaxit natriy sulfid ionlari bo'lgan malaxitga qaraganda yuqori flotatsiya natijalarini ko'rsatganini hisobga olib ammoniy sulfidni yaxshi sulfidlovchi sifatida qabul qilish mumkin.



1 - malaxit, 2 - kvars



1 - malaxit, 2 - temir gidroksidi

1-rasm. Malaxitning temir gidroksidi va kvars bilan birgalikdagi ko'rinishi.

Xulosa. 1-jadvaldan ko'rinadiki, ruda tarkibidagi misning 40-42% i sulfid ko'rinishida, 58-60% i oksidlangan holatda. Bunday aralash, murakkab tarkibdagi rudani qayta ishlashda faqat flotatsiya yoki gidrometallurgiya usulidan foydalanish yetarli natija bermaydi, kombinatsiyalangan usuldan foydalanish mis va boshqa kerakli komponentlarni ajratib olish imkoniyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Copper Study Group. (2024). The world copper factbook 2024 (pp. 5–6).
2. London Metal Exchange. (n.d.). LME Copper. Retrieved from <https://www.lme.com/en/Metals/Non-ferrous/LME-Copper#Summary>

3. Yagudin, R. A., Yagudina, Yu. R., & Emelyanenko, E. A. (2014). Mis-kolchedan rudalarini qayta ishlashning texnologik yechimlari. *Gornyi Zhurnal*, (7), 30–33. <https://www.rudmet.ru/journal/1330/article/22746/>
4. Ryl'nikova, M. V., Emelyanenko, E. A., Gorbato, E. A., & Yagudina, Yu. R. (2016). Uraldagi mis-kolchedan konlari rudalarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish. *Gornyi Zhurnal*, (12). <https://doi.org/10.17580/gzh.2016.12.14>
5. Boduen, A. Ya. (2023). Past navli va sifatsiz mis konsentratlarini qayta ishlashning gidrometallurgik usullari. *Gornyi Zhurnal*, (10). <https://doi.org/10.17580/gzh.2023.10.05>
6. Gu, G., Zhu, R., & Chen, Z. (2019). Structural modification of cellulose to enhance the flotation efficiency of fine copper oxide ore. *Physicochemical Problems of Mineral Processing*, 55(1), 58–69.
7. Emmanuel, B., Ajayi, J. A., & Makhatha, E. (2019). Investigation of copper recovery rate from copper oxide ore occurring as coarse grains locked in a porphyritic fine grain alumina and silica. *Energy Procedia*, 157, 972–976.
8. Mitrofanov, S. I., Meshaninova, V. I., Kurochkina, A. V., Maiorov, A. D., & Shcherbakov, V. A. (1984). *Kombinirovannye protsessy pererabotki rud tsvetnykh metallov*. Moskva: Nedra.
9. Sanakulov, K. S. (2009). Perspektivy pererabotki oksislennykh mednykh rud mestorozhdeniya Kal'makyr. *Gornyi Vestnik Uzbekistana*, (3), 47–49.
10. Elchiyeva, M. D., Xoliqulov, D. B., & Boltayev, O. N. (2024). “Olmalik KMK” AJ sharoitida oksidlangan mis rudalarini qayta ishlash imkoniyatlari. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*. <https://doi.org/10.24412/2181-144X-2024-1-80-87>
11. Mao, Y. B., Deng, J. S., Wen, S. M., & Fang, J. J. (2015). Reaction kinetics of malachite in ammonium carbamate solution. *Chemical Papers*, 69(9), 1187–1192.
12. Horlick, J. M., Cooper, W. C., & Clark, A. H. (1981). Aspects of the mineralogy and hydrometallurgy of chrysocolla, with special reference to the Cuajone, Peru, ores. *International Journal of Mineral Processing*, 8(1), 49–59.
13. Habbache, N., Alane, N., Djerad, S., & Tifouti, L. (2009). Leaching of copper oxide with different acid solutions. *Chemical Engineering Journal*, 152(2–3), 503–508.
14. Zhang, Q., Wen, S. M., Feng, Q. C., & Wang, H. (2022). Enhanced sulfidization of azurite surfaces by ammonium phosphate and its effect on flotation. *International Journal of Minerals, Metallurgy and Materials*, 29(6), 1150–1160.
15. Baranov, V. F. (2020). Sulfidli va aralash tarkibli mis rudalarini qayta ishlovchi xorijiy boyitish fabrikalarining ish tajribasini ko'rib chiqish. *Obogashchenie Rud*, (3). <https://doi.org/10.17580/or.2020.03.08>
16. Kongolo, K., Kipoka, M., Minanga, K., & Mpoyo, M. (2003). Improving the efficiency of oxide copper-cobalt ores flotation by combination of sulphidisers. *Minerals Engineering*, 16(10), 1023–1026.
17. Feng, Q., Yang, W., Wen, S., Wang, H., Zhao, W., & Han, G. (2022). Flotation of copper oxide minerals: A review. *International Journal of Mining Science and Technology*, 32(6), 1351–1364. <https://doi.org/10.1016/j.ijmst.2022.08.008>
18. Gu, G., Zhu, R., & Chen, Z. (2019). Structural modification of cellulose to enhance the flotation efficiency of fine copper oxide ore. *Physicochemical Problems of Mineral Processing*, 55(1), 58–69.
19. Jiang, D., Lan, J., Zhao, W., Zhang, Z., & Lan, Y. (2017). Activation of chrysocolla flotation by organic chelating agents. *RSC Advances*, 7(57), 35608–35612.
20. Kongolo, K., Kipoka, M., Minanga, K., & Mpoyo, M. (2003). Improving the efficiency of oxide copper-cobalt ores flotation by combination of sulphidisers. *Minerals Engineering*, 16(10), 1023–1026.

21. Yang, X. L., Liu, S., Liu, G. Y., & Zhong, H. (2017). A DFT study on the structure–reactivity relationship of aliphatic oxime derivatives as copper chelating agents and malachite flotation collectors. *Journal of Industrial and Engineering Chemistry*, 46, 404–415.
22. Deng, T., & Chen, J. Y. (1991). Treatment of oxidized copper ores with emphasis on refractory ores. *Mineral Processing and Extractive Metallurgy Review*, 7(3–4), 175–207.
23. Choi, J., Choi, S. Q., Park, K., Han, Y., & Kim, H. (2016). Flotation behaviour of malachite in mono- and di-valent salt solutions using sodium oleate as a collector. *International Journal of Mineral Processing*, 146, 38–45.
24. Lee, K., Archibald, D., McLean, J., & Reuter, M. A. (2009). Flotation of mixed copper oxide and sulphide minerals with xanthate and hydroxamate collectors. *Minerals Engineering*, 22(4), 395–401.
25. Bulatovic, S. M. (2010). Flotation of oxide copper and copper cobalt ores. In *Handbook of Flotation Reagents: Chemistry, Theory and Practice* (pp. 47–65). Amsterdam: Elsevier.
26. Marion, C., Jordens, A., Li, R. H., Rudolph, M., & Waters, K. E. (2017). An evaluation of hydroxamate collectors for malachite flotation. *Separation and Purification Technology*, 183, 258–269.
27. Han, G., Wen, S. M., Wang, H., & Feng, Q. C. (2021). Identification of copper-sulfide species on the cuprite surface and its role in sulfidization flotation. *Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects*, 624, 126854.
28. Gu, G., Zhu, R., & Chen, Z. (2019). Structural modification of cellulose to enhance the flotation efficiency of fine copper oxide ore. *Physicochemical Problems of Mineral Processing*, 55(1), 58–69.
29. Castro, S., Soto, H., Goldfarb, J., & Laskowski, J. (1974). Sulphidizing reactions in the flotation of oxidized copper minerals II: Role of the adsorption and oxidation of sodium sulphide in the flotation of chrysocolla and malachite. *International Journal of Mineral Processing*, 1(2), 151–161.
30. Deng, R. D., Hu, Y., Ku, J. G., Zuo, W. R., & Yang, Z. G. (2017). Adsorption of Fe(III) on smithsonite surfaces and implications for flotation. *Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects*, 533, 308–315.
31. Bekturganov, N., Katkeeva, G., Oskembekov, I., & Akubaeva, M. (2016). Sulfidization application during the processing of oxidized copper ores of Udokan deposit. *Tsvetnye Metally*, 22–27. <https://doi.org/10.17580/tsm.2016.09.02>
32. Zhou, R., & Chander, S. (1993). Kinetics of sulfidization of malachite in hydrosulfide and tetrasulfide solutions. *International Journal of Mineral Processing*, 37(3–4), 257–272.
33. Park, K., Park, S., Choi, J., Kim, G., Tong, M. P., & Kim, H. (2016). Influence of excess sulfide ions on the malachite-bubble interaction in the presence of thiol-collector. *Separation and Purification Technology*, 168, 1–7.
34. Kongolo, K., Kipoka, M., Minanga, K., & Mpoyo, M. (2003). Improving the efficiency of oxide copper–cobalt ores flotation by combination of sulphidisers. *Minerals Engineering*, 16(10), 1023–1026. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0892687503002632>
35. Atrafi, A., Hodjatoleslami, H., Noaparast, M., Shafaei, Z., & Ghorbani, A. (2012). Implementation of flotation and gravity separation, to process Changarzeh sulfide-oxide lead ore. *Journal of Mining and Environment*, 3, 79–87.
36. Feng, Q. C., Zhao, W. J., Wen, S. M., & Cao, Q. B. (2017). Copper sulfide species formed on malachite surfaces in relation to flotation. *Journal of Industrial and Engineering Chemistry*, 48, 125–132.
37. Iwasaki, I., & Cooke, S. R. B. (1964). Decomposition mechanism of xanthate in acid solution as determined by a spectrophotometric method. *Journal of Physical Chemistry*, 68(7), 2031–2033.

38. Han, G., Wen, S. M., Wang, H., & Feng, Q. C. (2021). Sulfidization regulation of cuprite by pre-oxidation using sodium hypochlorite as an oxidant. *International Journal of Mining Science and Technology*, 31(6), 1117–1128.
39. Qiu, X. Y., Li, S. P., Deng, H. B., & He, X. J. (2007). Study of heating surface sulfurized flotation dynamics of smithsonite. *Nonferrous Metals Mineral Processing*, 1, 24–26.
40. Jiang, D., Lan, J., Zhao, W., Zhang, Z., & Lan, Y. (2017). Activation of chrysocolla flotation by organic chelating agents. *RSC Advances*, 7(57), 35608–35612.
41. Xu, X., & Liu, B. (1993). The properties of the flotation of chrysocolla using organic chelating reagents as activators. *Journal of Kunming University of Science and Technology*, 3, 36–41.
42. Ren, Z. W. (2003). Application of activator in flotation of oxide copper ore. *Yunnan Metallurgy*, 32(1), 24–25.
43. Cai, J. P., Su, C., Ma, Y. Y., Yu, X. C., Peng, R., Li, J. L., Zhang, X. L., Fang, J. J., Shen, P. L., & Liu, D. W. (2022). Role of ammonium sulfate in sulfurization flotation of azurite: Inhibiting the formation of copper sulfide colloid and its mechanism. *International Journal of Mining Science and Technology*, 32(3), 575–584.
44. Feng, Q. C., Zhao, W. J., & Wen, S. M. (2018). Surface modification of malachite with ethanediamine and its effect on sulfidization flotation. *Applied Surface Science*, 436, 823–830.
45. Shao, H. (1999). Progress in research on eliminating influences of slime on refractory copper oxide ore flotation. *Yunnan Metallurgy*, 3, 15–18.
46. Guang, X., Wen, S. M., Vang, X., & Feng, Q. (2021). Enhanced sulfidization flotation of cuprite by surface modification with hydrogen peroxide. *Transactions of Nonferrous Metals Society of China*, 31(11), 3564–3578. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1003632621657485>
47. Yin, W. Z., Sun, Q. Y., Li, D., Tang, Y., Fu, Y., & Yao, J. (2019). Mechanism and application on sulphidizing flotation of copper oxide with combined collectors. *Transactions of Nonferrous Metals Society of China*, 29(1), 178–185. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S100363261864926X>
48. Seredkin, Y. G., Aksenov, A., & Senchenko, A. (2014). Searching for technology for complex gold-copper ore treatment. In *IMPC 2014 - 27th International Mineral Processing Congress*.
49. Novokshanova, V. N., Lebed, A. B., Vasilev, E. A., & Naboychenko, S. S. (2013). Research of a heap leaching of copper from the Volkovskoe deposit ore (pp. 28–31).
50. Zafar, K., & Kauser, M. (1988). Leaching of chalcopyrite by *Thiobacillus thiooxidans* and oxidized copper ore by *Thiobacillus ferrooxidans* isolated from local environments. *World Journal of Microbiology and Biotechnology*, 4, 447–453. <https://doi.org/10.1007/BF00940171>
51. Türk, F., & Arslanoğlu, H. (2024). Investigation of leaching conditions and leaching kinetics of oxidized copper ore malachite at atmospheric pressure using tartaric acid solution. *Transactions of the Indian Institute of Metals*, 77, 1–7. <https://doi.org/10.1007/s12666-024-03358-0>
52. Faxin, X., Zhihua, L., Yu, P., Xuwei, L., Yaoyu, Y., Shuchen, S., & Ganfeng, T. (2024). Leaching kinetics of Cu from low-grade oxidized copper ore with high alkalinity gangue using EDTA·2Na solution. *JOM*. <https://doi.org/10.1007/s11837-024-06649-5>
53. Gorlova, O., Medyanik, N., Yun, A., & Sinyanskaya, O. (2018). Combined processing of dumped complex copper ores of the Taskora deposit: Process development and field trials. *Tsvetnye Metally*, 14–20. <https://doi.org/10.17580/tsm.2018.12.02>
54. Konareva, T., & Kirilchuk, M. (2020). Research of combined reagent schemes of activation leaching of gold from oxidized ores of the Malmyzh field. *E3S Web of Conferences*, 192, 02020. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202019202020>
55. Tomina, V., Khrennikov, A., Lebed, A., & Naboychenko, S. (2010). Heap leaching of copper from the ores of Volkovskoe deposit. *Russian Journal of Non-Ferrous Metals*, 51, 263–267. <https://doi.org/10.3103/S1067821210040012>

UO‘K: 629.1.07

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.14

KARYERDAGI BELAZ RUSUMLI AVTOSAMOSVALLARNING DIZEL YOQILG‘ISI SARFINI OSHISHIGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLARINING TAHLILI



Kayumov Umidjon Erkinovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, “Konchilik
elektr mexanikasi” kafedrası, katta o‘qituvchisi,

Navoiy, O‘zbekiston

E-mail: kayumov_umidjon@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2147-8973



Istamov Muhammad Farxodovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, “Konchilik
elektr mexanikasi” kafedrası assistanti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola karyer avtosamosvallarining yoqilg‘i sarfining ko‘payishiga hamda BelAZ avtosamosvallarining ish samaradorligiga ta‘sir qiluvchi muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek karyer avtosamosvallar uchun yoqilg‘i iste‘molining me‘yorlarini aniqlashning turli usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida avtosamosvallarning ishlashi to‘g‘risida Navoiy kon metallurgiya kombinati Markaziy kon boshqarmasining bo‘linmasi Avtomobil transporti boshqarmasidan ma‘lumotlar to‘plandi hamda dizel yoqilg‘isi sarfiga ta‘sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqot o‘tkazish natijasida avtosamosvallarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlari baholandi shuningdek tog‘ jinsini tashish davomida yoqilg‘i sarfiga ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlar aniqlandi. Bundan tashqari yoqilg‘i sarfini hisoblashning bir qancha usullari taklif qilingan hamda bu ko‘rsatkichga ta‘sir qiluvchi qo‘shimcha parametrlar aniqlandi. Izlanishlar natijasida avtosamosvallarni ishlatish vaqtida yoqilg‘i sarfini kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: avtosamosval, yoqilg‘i, ichki yonuv dvigateli, dizel yoqilg‘i, sarf me‘yorlari, yo‘l qoplamalari, yuk ko‘tarish qobiliyati, burilish radiusi, ekspluatatsion ko‘rsatkich, g‘ildirak bosimlari.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ВЛИЯЮЩИХ НА ПОВЫШЕННЫЙ РАСХОД ДИЗЕЛЬНОГО ТОПЛИВА КАРЬЕРНЫХ АВТОСАМОСВАЛОВ МАРКИ БЕЛАЗ

Каюмов Умиджон Эркинович

Навоийский государственный горно-технологический
университет, кафедра горной электромеханики, старший
преподаватель, Навои, Узбекистан

Истамов Мухаммад Фарходович

Навоийский государственный горно-технологический
университет, доцент кафедры горной электромеханики,
Навои, Узбекистан

Аннотация. Целью данной статьи является анализ проблем, влияющих на увеличение расхода топлива карьерных самосвалов, а также на эффективность работы самосвалов БелАЗ. Также были проанализированы различные методы определения норм расхода топлива для карьерных автосамосвалов. В результате исследования были собраны данные о работе автосамосвалов от управления автомобильного транспорта подразделения Центрального горного управления Навоийского горно-металлургического комбината, а также проанализированы факторы, влияющие на расход дизельного топлива. В результате исследований дана оценка эксплуатацион-

ных показателей автосамосвалов, а также выявлены показатели, влияющие на расход топлива при транспортировке горной массы. Кроме того, предложено несколько методов расчета расхода топлива и определены дополнительные параметры, влияющие на этот показатель. В результате исследований были разработаны рекомендации по повышению эффективности за счет снижения расхода топлива при эксплуатации автосамосвалов.

Ключевые слова: автосамосвал, топливо, двигатель внутреннего сгорания, дизельное топливо, нормы расхода, дорожное покрытие, грузоподъемность, радиус поворота, эксплуатационные показатели, давление в шинах.

ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING THE INCREASED CONSUMPTION OF DIESEL FUEL BY BELAZ DUMP TRUCKS IN A QUARRY

Kayumov Umidjon Erkinovich

Navoi State University of Mining and Technology, Department of
Mining Electrical Mechanics, Senior Lecturer,
Navoi, Uzbekistan

Istamov Muhammad Farkhodovich

Navoi State University of Mining and Technology, Assistant
Professor, Department of Mining Electrical Mechanics,
Navoi, Uzbekistan

Abstract. The purpose of this article is to analyse the problems affecting the increase in fuel consumption of mine dump trucks, as well as the efficiency of BelAZ dump trucks. Various methods of determining fuel consumption rates for dump trucks have also been analysed. As a result of the study, data on the operation of dump trucks from the road transport department of the Central Mining Department of Navoi Mining Division of Navoi Mining and Metallurgical Combine were collected, and the factors affecting the consumption of diesel fuel were analysed. As a result of researches the estimation of operational indicators of dump trucks is given, and also the indicators influencing fuel consumption during transportation of rock mass are revealed. In addition, several methods of calculation of fuel consumption are proposed and additional parameters affecting this indicator are determined. As a result of the research, recommendations were developed to improve efficiency by reducing fuel consumption during the operation of dump trucks.

Keywords: dump truck, fuel, internal combustion engine, diesel fuel, consumption rates, road surface, load capacity, turning radius, performance indicators, tire pressure.

Kirish. Konchilik sanoatining rivojlanish sur'ati keskin ravishda oshib bormoqda. Bu esa konchilik korxonalarining samaradorligini oshirish uchun unda qo'llaniladigan kon uskunalarni hamda transport vositalarini takomillashtirishga undaydi. Buning natijasida dunyodagi foydali qazilmalarni tashishning eng katta ulushi hisoblanuvchi avtosamosvallarga alohida e'tibor ajratilib kelinmoqda.

Bugungi kunda Avtomobil transporti boshqarmasi NKMK Markaziy kon boshqarmasining ko'p qirrali va ko'p tarmoqli bo'linmasi bo'lib, quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

“Muruntog’”, “Tashkura” va “Amantaytog’” karyerlarida texnologik avtomobil transportida tog' jinslari massasini va rudalarni tashish bilan shug'ullanadi;


Oltin rudasini uyumlab eritmaga o'tkazish sexida maydalash va saralash majmuasiga yuklashni ta'minlaydi.

Avtomobil Transporti Boshqarmasi harakat tarkibining texnologik parki Caterpillar va BeLAZ rusumli yuk ko'tarib bilish qobiliyati 55 dan 220 tonnagacha bo'lgan zamonaviy avtosamosvallardan, Caterpillar, Komatsu, Dressta, Kirovets yo'l-qurilish mashinalaridan, shuningdek, asosan turli BeLAZ rusumli avtosamosvallar yordamchi parkidan iborat.

Avtosamosvallarning ishlashini tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida yoqilg'i sarfi hisoblanib, bu ko'rsatkich ma'lum masofani bosib o'tish yoki ma'lum bir ish hajmini bajarish uchun zarur bo'lgan yoqilg'i hajmini ifodalaydi (Sadudin Hodzic et. al., 2008; V. Kecojevic et. al., 2010).


Karyerdagi avtosamosvallarning ekspluatatsion muammolaridan biri dizel yoqilg'isining had-dan tashqari ko'p sarflanishi konchilik korxonalari uchun moddiy yo'qotishlarga olib keladi. Ushbu

ko'rsatkich avtosamosvallarning ishlashini rejalashtirishga va ularning samaradorligini baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (S. Masic et. al., 2005; Kurganov V.M. et. al., 2020; Kuznetsov I.S. et. al., 2021).



1-rasm. Konchilik sanoatlarida qo'llaniladigan avtosamosvallarning dastlabki xaridlari va joriy xarajatlar uchun yuqori narxlar bilan tavsiflanishi.

Yoqilg'i sarfi asosan tonnalarida hamda tonna kilometr uchun grammlarda ifodalanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz quyidagi sxema asosida foydalanib, dizel yoqilg'isi sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni baholaymiz.



2-rasm. Dizel yoqilg'isi sarfiga ta'sir qiluvchi omillar.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Avtosamosvallarning ishlash samaradorligini oshirish masalari bo'yicha V.I. Novikov, N.S. Zaxarov, V.A. Korchagin, M.A. Kuzminov, R.S. Grigoryev, A.I. Petrov, N.N. Maslov, G.M. Yakovlev, L.G. Reznik, V.S. Volkov va boshqalar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan [1].

Yoqilg'i sarfini aniqlash va me'yorlashtirish usullari ko'plab institutlar, ilmiy tashkilotlar hamda korxonalar ya'ni Sankt-Peterburg konchilik instituti (texnika universiteti), Rossiya Fanlar akade-

miyasining Ural filiali konchilik instituti, "BelAZ" hamda AJ Navoiy kon – metallurgiya kombinatlari tomonidan ishlab chiqilgan (BelAZ-holding, 2017).

Ilmiy tadqiqotchilar hamda ilmiy tashkilotlar tomonidan agregatlarning ishonchliligini oshirish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish masalalari bo'yicha olib borilgan bir qancha fundamental tadqiqotlarga qaramay, karyer avtosamosvallarning samaradorligini oshirishga sezilarli darajada ta'sir etuvchi konstruktiv, texnik va texnologik omillardagi o'zgarishlar e'tiborga olinmay kelingan, bundan tashqari, bir qancha ilmiy izlanishlarda taklif etilgan usullar hamda gipotezalar yuqoridagi keltirilgan muammolarni hal qilishda asos sifatida amaliy qo'llanilmagan (Ali Soofastaei, 2016) [2-3].

Avtosamosvallar uchun yoqilg'i sarfini aniqlashning turli usullarini o'rganish natijasida bizga bir qancha ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi va turli yondashuvlarda samarali qo'llanilishi mumkin.

1-jadval

Yonilg'i sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni asoslovchi ko'rsatkichlar

Omilar	Sabablar	Ko'rsatkichlar
Konstruktiv	1.1	Avtosamosvallarning konstruksiyasini mukammallashtirish.
	1.2	Yuk ko'tarishi
	1.3	G'ildiraklarining ko'rsatkichlari
	1.4	Yo'l qoplamalarining konstruksiyalari
Texnik	2.1	Karyerning chuqurligi
	2.2	Tashish kengligi
Texnologik	3.1	Burilish radiusi va soni
	3.2	Qiyalik ko'rsatkichi, %
	3.3	Qiya uchastkalarining uzunligi va ularning soni
	3.4	Yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish darajasi
Ekspluatatsiya	4.1	Ichki yonuv dvigatelining yedirilish darajasi
	4.2	Katta o'lchamdagi g'ildiraklarining bosimi
	4.3	Haydovchining oqilona boshqarish texnikasi
Iqlimiy	5.1	Atrof muhitdagi havoning harorati
	5.2	Yil fasllarining davriyligi
	5.3	Yog'ingarchilik miqdori

Yuqoridagi omillar avtosamosvallarning texnik parametrlarini batafsil tahlil qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Asosan bu omillarni yechish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni ya'ni yuk ko'tarish qobiliyati, dvigatel kuchi, harakatga qarshilik koeffitsientlari va ish siklidan foydalanish kabi ko'rsatkichlarini hisobga olamiz. Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash karyerda qo'llanilib kelina-yotgan avtosamosvallarning yonilg'i sarfini kamay-

tirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadvalda yonilg'i sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni asoslovchi sabablar keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan yonilg'i sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish natijasida konstruktiv va texnik omillarni baholashdan chiqarib tashlaymiz. Sababi shundan iboratki bu omillarga bevosita ta'sir qila olmaymiz, chunki biz avtosamosvallarning konstruksiyasini, yo'l qoplamalarining konstruksiyasini shuningdek karyer chuqurligini o'zgartira olmaymiz.

Yonilg'i sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash davomida texnologik, ekspluatatsion hamda iqlimiy omillarning ta'sirini inobatga olishimiz mumkin va bevosita ularga ta'sir qilishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari. Yoqilg'i sarfini batafsil tahlil qilish va hisoblash har bir avtosamosval uchun uning alohida texnik ko'rsatkichlari va ishlash xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun meyoriy yoqilg'i sarfini hisoblash quyidagi formula orqali aniqlashimiz mumkin [3,6-7].

$$Q_n = 0.01 \cdot H_n \cdot S \cdot (1 + 0.01 \cdot D) + H_{q,n} \cdot Z$$

Bu yerda Q_n - bu litrda ifodalanadigan meyoriy yoqilg'i sarfining kompleks ko'rsatkichi;

H_n - avtosamosvalning tashish ishlari uchun sarflangan yoqilg'i sarfini ifodalovchi ko'rsatkich;

S - avtosamosvallarning umumiy bosib o'tgan masofasining dinamik ko'rsatkichi, kilometrlarda o'lchanadi.

$H_{q,n}$ - avtosamosvallarning yuk bilan harakatlanish sonini hisobga olgan holda qo'shimcha yoqilg'i sarfini ifodalovchi ko'rsatkich, litrda o'lchanadi;

Z - bir smenada yuk bilan harakatlanish sonini ifodalovchi ko'rsatkich;

D - bu meyorga nisbatan yoqilg'i sarfining umumiy ko'payishini yoki kamayishini aks ettiruvchi tuzatish koeffitsiyenti, foizlarda ifodalanadi.

Yuqoridagi formuladan kelib chiqqan holda H_n avtosamosvalning tashish ishlari uchun sarflangan yoqilg'i sarfini quyidagicha aniqlashimiz mumkin.

$$H_n = H_t + H_{q,m} \cdot (G_{a,m} + 0.5 \cdot q), l/100 km$$


Bu yerda H_t -yuk koeffitsienti 0,5 bo'lgan holda avtosamosvallarning tashish ishlari uchun sarflangan meyoriy yoqilg'i sarfining ko'rsatkichi;

$H_{q,m}$ - avtosamosvalning qo'shimcha masasini hisobga olgan holda tashish ishlari uchun sarflangan yoqilg'i sarfining ko'rsatkichi;

$G_{a,m}$ - avtosamosvalning og'irligi;

q - avtosamosvalning yuk ko'tarish qobiliyati.

Yuqoridagi formulalardan kelib chiqqan holda avtosamosvallarning to'liq yuk hajmida yoqilg'i sarfini tahlil qilish davomida 2024-yil yanvar oyidan 2025-yil fevral oyigacha bo'lgan ma'lumotlardan foydalandik. Hisob kitob qilish natijasida 3-rasmda avtosamosvallarning to'liq va o'rtacha yuk hajmga ega bo'lgandagi yoqilg'i sarflarining taqqoslash diagrammasi tuzildi.



3-rasm. Avtosamosvallarning to'liq va o'rtacha yuk hajmga ega bo'lgandagi yoqilg'i sarflarining taqqoslash diagrammasi.

Yuqoridagi diagrammani tahlil qilgan holda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin BelAZ 7513 rusumli avtosamosvallari uchun dizel yoqilg'isining sarfi meyordan ko'ra o'rtacha qiymati 13.5% ga, maksimal qiymati 23.9% ga va minimal qiymatlari 6.3% ga mos ravishda oshganligini ko'rishimiz mumkin. BelAZ 75310 rusumli avtosamosvallari uchun dizel yoqilg'isining sarfi me'yorga rioya qilish bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarni BelAZ №202, BelAZ №203, BelAZ №204 ko'rsatdi, ammo BelAZ №201, BelAZ №205, BelAZ №207 lari uchun dizel yoqilg'isining sarfi meyordan ko'ra mos ravishda 1%, 0.9% va 1.03% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin [6-8].

Muhokama. Bundan ko'rinib turibdiki avtosamosvallarda yoqilg'i sarfini optimallashtirish ekspluatatsiya xarajatlarini minimallashtirishga hamda umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada yoqilg'i sarfini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradigan bir nechta amaliy tavsiyalar ko'rib chiqilgan:

Avtosamosvallarga muntazam texnik xizmat ko'rsatish va sozlash. Bu asosan ichki yonuv dvigatellariga xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lib, dvigatelni, yonilg'i ta'minot tizimini va o't oldirish tizimini to'g'ri sozlash yordamida yoqilg'i sarfini optimallashtirishga erishish mumkin [10-11].

Avtosamosval g'ildiraklarining bosimini nazorat qilish. G'ildiraklardagi samarali bosimni ushlab turish aylanish qarshiligini va shunga mos ravishda yoqilg'i sarfini kamaytiradi.

Yuklarni samarali yuklash va taqsimlash. Yukni avtosamosval kuzoviga ruxsat etilgan yuk ko'tarish qobiliyati doirasida bir tekis taqsimlash ichki yonuv dvigatelga tushadigan yuklamani hamda yoqilg'i sarfini kamaytiradi.

To'xtalishlar davomida avtosamosval dvigatelini o'chirib qo'yish. Bir joyda uzoq vaqt kutib turganda, ortiqcha yoqilg'i sarfini oldini olish uchun dvigatelni o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.

Yuqori sifatli yoqilg'idan foydalanish. Yonish jarayonini yaxshilaydigan va iste'molni

kamaytiradigan qo'shimchalar bilan yuqori sifatli yoqilg'idan foydalanish yoqilg'i sarfini kamaytiradi.

Haydovchilarni malakasini oshirish. Haydovchilarni samarali haydash texnikasi, jumladan, ravon tezlanish olish hamda tormozlash, bir maromda samarali tezlikni saqlash bo'yicha muntazam mashg'ulotlar olib boorish natijasida yoqilg'i sarfini kamaytirishga va avtosamosvalning umumiy ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi [11].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqoridagi tavsiyalarga rioya qilish avtosamosvallarda yoqilg'i sarfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin, buning natijasida esa xarajatlarni kamaytirishga va ish samaradorligini oshirishga olib kelamiz. Muntazam texnik xizmat ko'rsatish, g'ildiraklarning bosimini nazorat qilish, yuklarni samarali yuklash va taqsimlash, sifatli yoqilg'idan foydalanish va haydovchilarni malakasini oshirish yoqilg'i sarfini kamaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Makhutov, N. A., & Gadenin, M. M. (2000). Durability, resource and safety of machines and structures. Moscow: IMASH RAS.
2. Hodžić, S., & Masić, S. (2005). Collection of solved problems from continuous transport in mining. Faculty of Mining, Geology and Civil Engineering, University of Tuzla. (In Serbian).
3. Hodžić, S., & Masić, S. (2008). Cyclic transport. Faculty of Mining, Geology and Civil Engineering, University of Tuzla. (In Serbian).
4. Kecojević, V., & Komljenović, D. (2010). Haul truck fuel consumption and CO₂ emission under various engine load conditions. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/261214668_Haul_truck_fuel_consumption_and_CO2_emission_under_various_engine_load_conditions
5. Ossetrova, I. S., & Ossipov, N. A. (2013). Microsoft Excel 2010 for analysts. Saint-Petersburg: NIU ITMO.
6. Soofastaei, A. (2016). Efficiency of haul trucks in surface mines (PhD project). <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.18587.67365>
7. BELAZ-HOLDING. (2017). BelAZ-7530 series mining dump trucks. BelAZ 75306 - 3902015 RE Operating manual. Republic of Belarus.
8. Azikhanov, S. S., Bogomolov, A. R., Dubov, G. M., & Nikhrin, S. (2019). Development of the instrumentation system for gas-and-diesel fuelled BelAZ dump truck. MATEC Web of Conferences, 297, 03001. <https://doi.org/10.1051/mateconf/201929703001>
9. Dubov, G. M., Trukhmanov, D. S., Nokhrin, S. A., & Sergel, A. (2020). Method for installing cryogenic fuel tanks on the deck of BelAZ 7513 mining dump truck. E3S Web of Conferences, 174, 03016. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202017403016>
10. Dubov, G. M., Trukhmanov, D. S., & Nokhrin, S. A. (2020). The use of alternative fuel for heavy-duty dump trucks as a way to reduce the anthropogenic impact on the environment. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 459, 042059. <https://doi.org/10.1088/1755-1315/459/4/042059>

11. Kurganov, V. M., Gryaznov, M. V., & Kolobanov, S. V. (2020). Assessment of operational reliability of quarry excavator-dump truck complexes. *Journal of Mining Institute*, 241, 10–21. <https://doi.org/10.31897/PMI.2020.1.10>
12. Kuznetsov, I. S., Sinoviev, V. V., & Kuznetsova, A. V. (2021). Increase of accuracy and reliability of cumulative distribution functions identification of timing data for cave-auto complex simulation. *Bulletin of the Kuzbass State Technical University*, 3(145), 113–119.
13. Polozov, D. I. (2021). Reducing fuel consumption and increasing the productivity of BelAZ dump trucks at Vostochno-Baysky Razrez LLC, Kirba village (Bachelor's thesis). SFU, KHTI – branch of SFU, Abakan.
14. Oleynikov, A. V. (2021). Organization of freight transportation: A course of lectures. Siberian Federal University, KHTI branch.
15. Gorina, L. N., & Fesina, M. I. (2021). Safety and environmental friendliness of a technical facility (2nd ed., Suppl.). Tolyatti: TSU Publishing House.
16. Jamaković, J., & Masić, S. (2021). Fuel consumption of the BelAZ dump trucks on an example of the open pit "Turiya" of the brown coal mine Banovići. *Mining and Metallurgy Engineering Bor*, (3), 37–46. ISSN 2406-1395.
17. Makhmudov, S. A., Kayumov, U. E., & Pardayeva, Sh. S. (2022). Excavator bucket design and analysis in ANSYS. *Universum: Technical Sciences*, 5(98), 53–58.
18. Jamaković, J., & Masić, S. (2022). Carbon dioxide emission of a BelAZ dump truck on an example of the open pit "Turiya" brown coal mine Banovići. *Mining and Metallurgy Engineering Bor*. ISSN 2406-1395.

UO‘K: 669.24:669.056.9(575.1)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.26

PLATINOIDLARNI QAYTA ISHLASHDAN HOSIL BO‘LGAN CHIQINDILARIDAN PLATINA VA PALLADIYNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH



**Turdiyev Shahboz
Sherammat o'g'li**

(DSc), Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: shahboz01011991@mail.ru



**G'aniyev Barkamol
Eshdavlat o'g'li**

Magistr, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: perfection.2001.02.07@gmail.com



**Boboxonov Abbas
Ruslanovich**

Talaba, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: abbos_01011991@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Olmaliq KMK” AJ kon-metallurgiya majmuasida platinoidlar ishlab chiqarishidan hosil bo‘lgan texnogen chiqindilardan palladiy va platinani ajratib olishning laboratoriya asosidagi kompleks texnologiyasi tadqiq etildi. Jarayon zanjiri quyidagicha optimallashtirildi: tiokarbamid eritmasi bilan Pd-kompleksni cho‘ktirish (70–90 g/l, 25–30 daq, $E=94-96\%$), cho‘kmani 550–600°C da termik parchalatish, so‘ng shoh arog‘ida eritish (100 g mahsulotga ~2 l, 1–2 soat). Eritmadan platinani selektiv cho‘ktirish uchun NH_4Cl qo‘llanildi ($(NH_4)_2[PtCl_6]$), palladiy esa eritmada saqlanib qoldi. Pd-eritmasi ammiak bilan $[Pd(NH_3)_4]Cl_2$ ko‘rinishiga o‘tkazilib, HCl muhitida XPZ – $[Pd(NH_3)_2Cl_2]$ cho‘kmaga aylantirildi; yakunda gidrazin (zaruratda chumoli kislotaga) bilan metall Pd gacha qaytarildi. Taklif etilgan oqim sxemasi 17 ta operatsiyadan iborat bo‘lib, umumiy davomiylik 24–26 soatni tashkil etdi; palladiy ajralish darajasi 55% dan 84% gacha oshirildi, yakuniy Pd kukuni tozaligi 99,5–99,94% ga yetdi. Texnologiya reagent sarfi va energiya iste‘moli bo‘yicha iqtisodiy samarali hamda chiqindi maydonlaridagi ekologik yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: texnogen chiqindi, palladiy, platina, tiokarbamid bilan cho‘ktirish, shoh arog‘ida eritish, kuydirish (kaltsinatsiya), gidrazin bilan qaytarish, ammiakli komplekslar, XPZ ($[Pd(NH_3)_2Cl_2]$), selektiv cho‘kma, affinaj, “Olmaliq KMK”.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ПЛАТИНЫ И ПАЛЛАДИЯ ИЗ ОТХОДОВ ПЕРЕРАБОТКИ ПЛАТИНОИДОВ

**Турдиев Шахбоз
Шермамат угли**

(DSc), Қаршинский
государственный технический
университет,
Қарши, Узбекистан

**Ганиев Баркамол
Эшдавлат угли**

Магистр, Қаршинский
государственный технический
университет,
Қарши, Узбекистан

**Бобохонов Аббос
Русланович**

Студент, Қаршинский
государственный технический
университет,
Қарши, Узбекистан

Аннотация. В статье исследована лабораторно-технологическая схема извлечения палладия и платины из техногенных отходов, образующихся в условиях АО «Алмалыкский ГМК». Последовательность операций оптимизирована: осаждение палладиевого комплекса тиокарбамидом (70–90 г/л, 25–30 мин, $E=94-96\%$), термическое разложение осадка при 550–600°C, последующее выщелачивание «царской водкой» (~2 л на 100 г продукта, 1–2 ч). Платина

селективно осаждается хлоридом аммония в виде $(\text{NH}_4)_2[\text{PtCl}_6]$, палладий остается в растворе, затем переводится в аммиачный комплекс $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_4]\text{Cl}_2$ и осаждается как ХПЗ-комплекс $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$; завершающая стадия — восстановление гидразином (при необходимости муравьиной кислотой) до металлического Pd. Предложенная схема (17 операций, 24–26 ч) повышает степень извлечения Pd с 55% до 84%; чистота конечного порошка палладия достигает 99,5–99,94%. Технология экономична по реагентам и энергии и снижает экологическую нагрузку на карты складирования отходов.

Ключевые слова: техногенные отходы, палладий, платина, тиокарбамид, выщелачивание «царской водкой», кальцинация, восстановление гидразином, аммиачные комплексы, $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ (ХПЗ), селективное осаждение, аффинаж, АГМК.

STUDY OF THE TECHNOLOGY FOR EXTRACTING PLATINUM AND PALLADIUM FROM WASTE FROM PLATINOID PROCESSING

**Turdiyev Shahboz
Shermamat ugli**

(DSc), Karshi State Technical
University,
Karshi, Uzbekistan

**Ganiev Barkamol
Eshdavlat ugli**

Master, Karshi State Technical
University,
Karshi, Uzbekistan

**Boboxonov Abbos
Ruslanovich**

Student, Karshi State Technical
University
Karshi, Uzbekistan

Abstract. This paper presents a laboratory-scale process for recovering palladium and platinum from technogenic wastes generated at Almalyk MMC. The flowsheet was optimized as follows: thiourea precipitation of a Pd complex (70–90 g/L, 25–30 min, $E=94\text{--}96\%$), thermal decomposition of the precipitate at 550–600°C, followed by aqua-regia leaching (≈ 2 L per 100 g product, 1–2 h). Platinum is selectively precipitated with ammonium chloride as $(\text{NH}_4)_2[\text{PtCl}_6]$, while Pd remains in solution, is converted to the ammoniacal complex $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_4]\text{Cl}_2$, then precipitated as the dichlorodiammine complex $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$; final reduction to metallic Pd is carried out with hydrazine (optionally formic acid). The proposed 17-step, 24–26 h scheme increases Pd recovery from 55% to 84%, delivering refined Pd powder of 99.5–99.94% purity. The technology is reagent- and energy-efficient and mitigates environmental burden at waste storage sites.

Keywords: technogenic waste, palladium, platinum, thiourea precipitation, aqua-regia leaching, calcination, hydrazine reduction, ammoniacal complexes, $[\text{Pd}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$, selective precipitation, refining, Almalyk MMC.

Kirish. Hozirgi vaqtda jahon kon-metallurgiya sanoatida yillar davomida to'plangan sanoat chiqindilarini qayta ishlashga yo'naltirilgan barqaror tendensiya kuzatilmoqda. Bunga sabab — yuqori tarkibli, oson qayta ishlanadigan rudalar zaxiralari ko'plab konlarda deyarli tugab borayotgani. Natijada konditsion rudalarni qayta ishlash hajmi qisqarib, sanoat chiqindilari, qiyin boyitiluvchi rudalar hamda balansdan tashqari past navli rudalar/chiqindilarni qayta ishlashga jalb etish zarurati yuzaga keldi.

Eksperimentlar metodikasi. Palladiy–tiokarbamid kompleksini cho'ktirish jarayoni 15–30 daqiqa davomida aralashtirgichli titan reaktorda amalga oshiriladi. Cho'kma hosil bo'lgach, u filtrdan o'tkaziladi, $\text{pH}\approx 5$ bo'lguncha distillangan


suv bilan yuviladi, vakuum ostida quritiladi va maydalanadi; so'ng termik parchalanish orqali qimmatbaho metallar yuzasi "ochiladi". Palladiyli kompleksning termal parchalanishi bo'yicha tajribalar SNOL markali mufel laboratoriya pechida o'tkazildi. Ishning maqsadi: mahsulotni to'liq parchalatish, zarracha yuzalarini ochish hamda gaz fazasining harorati va tarkibining parchalanish xarakteriga ta'sirini o'rganishdan iborat. Termik ishlovdan keyin olingan mahsulot yanchish qurilmasida maydalanadi. Keyin palladiyli mahsulot titan reaktorda gidrazin eritmasi bilan ishlanadi: eritma 60–80 °C gacha qizdirilib, 2–4 soat davomida gidrazin bilan aralashtiriladi, metall palladiy cho'kmasi ajratib olinadi va eritmada qolgan palladiy konsentratsiyasi tahlil qilinadi.

Qaytarilish jarayoni tugagach, oraliq palladiy mahsuloti gidrazin qoldiqlarini yo'qotish uchun distillangan suv bilan puxta yuviladi va 100–110°C da quritiladi [8, 167-b.].

Palladiy va platinaning eruvchanligi jarayon davomiyligi hamda shoh suvi (aqua regia) sarfiga qanday bog'liqligini aniqlash tajribalari quyidagicha bajarildi: quritilgan palladiy mahsuloti kichik fraksiyalarga bo'linib, $V=0,05 \text{ m}^3$ hajmli qizdirilgan idishga solindi; idishda oldindan nitrat va xlorid kislotalar aralashmasi tayyorlab qo'yildi. Shoh suvi sarfi – 100 g palladiy kukuniga 2 l. Eritish doimiy qizdirish sharoitida 1–2 soat davom ettirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Palladiy eritmalardan ajratishning bir necha usuli ma'lum. Jumladan, cho'ktirish jarayonida xlorid, ftorid, tiokarbamid yoki rodanid tipidagi eritmalardan foydalaniladi. Metall palladiy nitrat kislota eritmalarida oson eriydi; shuning uchun uni bunday eritmalardan metall shaklida cho'ktirish orqali ajratib olish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi [10, 55-b.].

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, tiokarbamid eritmasi palladiy va platina guruhi metallari (PGM)ni cho'ktirish uchun optimal reagentdir. Tajribalarda aniqlangandek, tiokarbamid eritmasi bilan o'zaro ta'sirlashganda nodir metallar cho'kma hosil qiladi, faolligi yuqori bo'lgan rangli metallar esa erib eritma fazasiga o'tadi; natijada asosiy qimmatbaho komponentlar cho'kma tarkibida saqlanib qoladi [11, 11-b.]:



Tarkibida palladiy miqdori har xil bo'lgan eritmalardan tiokarbamid eritmasi bilan palladiy cho'ktirish bo'yicha tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, palladiy va platinaning cho'ktirish jarayoniga metallar konsentratsiyasi, tiokarbamid eritmasining konsentratsiyasi hamda jarayon davomiyligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tiokarbamid eritmasining 70–90 g/l atrofida yuqori konsentratsiyasi palladiy va boshqa qimmatli komponentlarning 98–99% gacha to'liq cho'kishiga xizmat qiladi. Metallarni cho'ktirishning optimal rejimlari quyidagicha: $t=25\text{--}30$ daqiqa; tiokarbamid sarfi — 2–6 kg/kg; ajralish samaradorligi $E=96\text{--}98\%$.

Laboratoriya tadqiqotlari natijalariga ko'ra, hosil bo'lgan palladiy–tiokarbamid kompleksida



palladiy miqdori 1500–2000 g gacha ko'tarilib, metallning boyish darajasi 100 martaga yetadi [12, 35-b.]. Egri chiziqlar grafigidan (1-rasm) ko'rinishicha, tiokarbamid eritmasining 70–90 g/l konsentratsiyasida palladiyning eng yuqori cho'kish darajasi – 94–96% ga erishiladi. Optimal cho'kish vaqti 25–30 daqiqa.

1-jadval

Palladiy miqdori turlicha bo'lgan eritmalardan tiokarbamid eritmasi bilan palladiy cho'ktirish bo'yicha tadqiqotlar natijalari

№	Eritmadagi Pd miqdori, mg/l	Tiokarbamid (tiomachevina) sarfi, gr	Qolgan qoldiq eritmadagi Pd miqdori, mg/l	Cho'kmaga tushgan Pd miqdori, %	Pd cho'kmaga ajralish darajasi (E), %
1	50	2	5,2–11,5	8,15	78,12
2	50	3	5,4–9,5	8,41	81,27
3	75	4	10,7–14,3	12,78	82,15
4	75	4,3	10,1–12,25	13,56	83,67
5	87	5	10,3–13,5	18,51	86,73
6	87	5,3	8,7–9,94	20,69	88,92
7	105	6	8,5–12,6	20,99	91,33
8	105	6,2	7,9–51	21,52	92,75
9	127	7	4,13–7,67	22,45	94,63
10	127	7,5	4,25–5,71	27,27	96,05

Palladiy – tiokarbamid kompleksi avval pechga yuklanib 300°C da quritiladi, so'ng 500–600°C harorat oralig'ida termik parchalanish boshlanadi; jarayon davomiyligi 3–4 soatni tashkil etadi. Termik parchalanish jarayonida palladiy cho'kmasi quyidagi reaksiyaga muvofiq parchalanadi:



1-rasm. Qimmatbaho komponent cho'ktirish darajasining jarayon davomiyligiga va tiokarbamid eritmasining konsentratsiyasiga bog'liqligi.



Termik parchalanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar palladiyning shoh arog'ida keyingi eruvchanlik darajasi parchalanish rejimlariga bog'liq ekanini ko'rsatdi. Ushbu bog'liqlik 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
**Kuydirish haroratining $t=300-600^{\circ}\text{C}$ palladiyning
shoh arog'i eritmasida erish darajasiga
bog'liqligini o'rganish natijalari**

№	Kuydirish harorati, T, °C	Kuydirishdan keyingi kuyindi massasi, (boshlang'ich namuna massasi 50 gr), gr	Pd ning shoh arog'ida eruvchanligi, %
1	300	43	70,25
2	300	42	71,43
3	350	41	73,78
4	350	40	72,52
5	400	40	80,19
6	400	39	81,56
7	450	37	84,57
8	450	35	85,11
9	500	27	88,78
10	525	26	89,23
11	550	25	94,27
12	550	24	96,63
13	600	25	95,34
14	600	25	95,21

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, palladiyning eruvchanligi 600°C da kuydirilganda 95,34% ga yetadi. Buning sababi – yuqori haroratda kuydirish palladiy kompleksini to'liq metall holatga parchalab, zarracha yuzasini ochadi va natijada shoh arog'ida (aqua regia) eritilish darajasini oshiradi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, 550°C dan past haroratlarda o'tkazilgan termik parchalanish keyingi eritish bosqichida eruvchanlikni pasaytiradi: parchalanish chog'ida hosil bo'lgan palladiy qayta oksidlanib, eritish vaqtida eruvchanlikning kamayishiga olib keladi. Shu asosda palladiy saqllovchi mahsulot uchun optimal kuydirish harorati $550-600^{\circ}\text{C}$ diapazoni deb qabul qilindi.

Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, reagent sarfi kam, arzon va PdO ning yuqori darajada qaytarilishini gidrazin eritmasi ta'minlaydi. Taklif etilgan texnologiya laboratoriya va kengaytirilgan laboratoriya sharoitlarida sinovdan o'tkazildi; jarayon 2–4 soat davom etdi. Dastlabki va yakuniy mahsulotlarning tahlili palladiyning to'liq qaytarilishini tasdiqladi. Cho'kmaning qaytarilish reaksiyasi quyidagicha ifodalanadi [12, 18-b.]:




Palladiy tiklash jarayoni tugagach, oraliq mahsulot gidrazin qoldiqlarini chiqarib tashlash uchun distillangan suv bilan yaxshilab yuviladi va $100-110^{\circ}\text{C}$ haroratda quritishga qo'yiladi. Keyin laboratoriya mufel pechida namlikdan xoli qilinib, keyingi bosqichlarga tayyorlanadi.

Mavjud texnologiyaga ko'ra, palladiy bir necha marotaba nitrat kislotada eritiladi. Biroq bu usul o'zini oqlamadi: palladiy ajratib olish darajasini sezilarli oshirish shoh arog'i (aqua regia)da eritish bosqichisiz imkoni yo'qligi aniqlandi. O'tkazilgan tajriba-sinovlar asosida yangi texnologik sxema ishlab chiqildi (3-rasmga qarang) va natijada platina hamda palladiyning eritmaga o'tish (eruvchanlik) darajasi hamda umumiy ajratib olish ko'rsatkichi keskin oshirildi.

Tajribalarga ko'ra, eritish vaqti uzaygan sari metallar eruvchanligi ortadi, chunki palladiy va platinaning shoh arog'ida eritilishi jarayon kinetikasiga bog'liq. 2-rasmdan ko'rinadiki, palladiyning eritmaga o'tish darajasi platinanikiga nisbatan yuqoriroq. Bu palladiyning umumiy tiklanish (reduksiya) darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi. Eruvchanlikka kuchli ta'sir qiluvchi omillar — shoh arog'i eritmasining konsentratsiyasi va sarfi.


Eksperimental ravishda aniqlandiki, eritish vaqti ortganda reagent sarfi ham ortadi; buning natijasida eritmadagi palladiy konsentratsiyasi ko'payadi. Jarayon davomiyligi 120 minut bo'lganda sarf 200 g/dm^3 ga yetadi va 100 g palladiy mahsuloti uchun 2 l reaktiv ishlatiladi.

Olingan natijalar asosida palladiy mahsulotini eritishning optimal rejimlari belgilandi. 2-rasm egri chiziqlari platinoid guruhidagi metallar, xususan platina va palladiy eruvchanligining ortishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, toblangan mahsulot tarkibidagi qo'shimcha metallar ham (masalan, Fe, Cu, Ni, Au, Ag) eritmada ma'lum miqdorda erib, eritmani ifloslantirishi aniqlandi.



2-rasm. Jarayon davomiyligi va shoh arog'i eritmasining platina va palladiyning eruvchanligiga bog'liqligi.

Platina va palladiyning shoh arog'i eritmasida erish reaksiyasi quyidagicha:



Qimmatbaho metallar eritmaga o'tgach, mahsulotning erimagan qismi filtrlanib, chiqindi sifatida chiqariladi. Keyingi bosqichda eritmadan platinani tanlab ajratib olish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Buning uchun ammoniy xlorid (NH_4Cl) eritmasi platina cho'ktiruvchisi sifatida tanlandi: u eritmadan platinani selektiv ravishda cho'ktiradi, palladiy esa eritmada qoladi. Eritma mexanik aralashtirgichli reaktorda oz miqdordagi NH_4Cl eritmasi bilan ishlov berildi.



Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, jarayon davomiyligi uzaygan sari ammoniy xlorid sarfi ham, platinaning tanlab cho'kish darajasi ham ortadi. Eksperimental ko'rsatkichlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Ammoniy xlorat bilan platina cho'ktirish jarayonining optimal rejimi va davomiyligini aniqlash bo'yicha tajribalar natijalari

№	Cho'ktirish vaqti, min	Ammoniy xlorat sarfi, l	Cho'kmada platina miqdori, %	Platinaning cho'kmaga ajralish darajasi, %
1	30	5	16	68,56
2	60	10	20	72,21
3	90	15	26	76,89
4	120	20	28	80,23
5	150	25	30	86,72
6	160	30	30	86,68

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, cho'ktirish vaqtini 150 daqiqadan ortiq uzaytirish platinaning ajralish darajasini oshirmaydi; shu bois optimal cho'ktirish vaqti 150 daqiqa deb belgilandi. Eng yuqori tiklanishni ta'minlagan reagentning minimal sarfi 25 litrni tashkil etdi. Olingan natijalar sanoat sharoitida joriy etish uchun asos bo'lib, cho'ktirish bosqichida tetraxloropalladiy kislotasi ($\text{H}_2[\text{PdCl}_4]$) eritmada qolishi, cho'kma esa ammoniy geksaxloroplatinat(IV) — $(\text{NH}_4)_2[\text{PtCl}_6]$ shaklida hosil bo'lishi tasdiqlandi [17, 2125-b.].






Palladiy eritmasini qo'shimchalardan tozalashning eng maqbul usullarini aniqlash uchun bir qator tajribalar o'tkazildi. Ammiak asta-sekin eritmaga kiritildi. Agar ammoniy gidroksid miqdori ko'paytirilsa, quyidagi birikma hosil bo'ladi:




Ammiakli suv palladiyga erituvchi sifatida ta'sir qiladi va shu sababli palladiy eritmaga fazasiga o'tadi. Eritmada ba'zi qo'shimchalar bilan

o'zaro ta'sir qiluvchi ammoniy gidroksid eritmasi zararli metallarni gidroksidlar shaklida suvda erimaydigan cho'kma hosil qilib cho'kadi: $\text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow$, $\text{Cu}(\text{OH})_2 \downarrow$, $\text{Ni}(\text{OH})_2 \downarrow$.



Keyinchalik, dixlorodiamminopalladiy (II) (XPZ -palladozoamin)ning cho'kish va kislotali muhitning XPZ ning cho'kishiga ta'siri o'rganildi. Buning uchun maxsus tanlab cho'ktirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (3-rasm va formulalarga qarang).



Tajribalar turli konsentratsiyalarda va turli miqdorda xlorid kislotasi eritmasida o'tkazildi. Eksperimental ravishda HCl ning qo'shilgan miqdori ko'p bo'lmashligi kerakligi aniqlandi, chunki hosil bo'lgan kompleks yana eritma fazasiga o'tishi mumkin.



Tajribalar natijalariga ko'ra palladiy xlorid kislotasi eritmasida cho'ktirishning optimal rejimlari aniqlandi: HCl ning sarfi 100 g palladiy kukuniga 1 litr, cho'kma muhiti $\text{pH}=1-2$. Palladiy va platinaning cho'kish maqbul ko'rsatkichlari 4-jadvalda ko'rsatilgan.

4-jadval


Palladiy cho'ktirishning maqbul omillarini o'rganish tajriba natijalari

№	Cho'tirish vaqti, min	Xlorid kislotasi sarfi 100 gr Pd olish uchun, l	HCl konsentratsiyasi, %	Cho'kmada palladiy miqdori, %	Palladiy ni XPZ ga ajralish darajasi, %
1	10	0,20	30	40	51,8
2	15	0,25	40	50	62,9
3	20	0,50	45	60	71,4
4	25	0,75	50	70	86,7
5	30	1,0	65	80	96,8
6	40	1,25	65	65	80,7


Jadvaldan ko'rinadiki, 100 g palladiy cho'ktirish uchun 1 litr xlorid kislotasi kifoya, optimal jarayon vaqti – 30 daqiqa. Vaqtni bundan orttirish palladiy cho'kish darajasini pasaytiradi va xlorid kislotasi sarfini oshiradi. Palladozoamin ($[\text{Pd}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$) xlorid kislotasi bilan cho'ktirilganda hosil bo'lgan gidratlar filtrlash orqali ajratiladi; qolgan komplekslar parchalanib, keyingi affinaj bosqichiga xalaqit bermaydi.

Agar jarayon 40 daqiqagacha uzaytirilsa, HCl

sarfi 1,25 litrgacha ko‘payadi; bu sharoitda cho‘kma palladiy asta-sekin yana kislota muhitida qayta eriy boshlaydi. Palladiy oksidini qaytarish uchun esa 100 g Pd kukuniga 200 ml reaktiv sarf bilan chumoli kislota qo‘llaniladi.



Olingan kukun juda oz miqdorda Pb, Sn va boshqa metall aralashmalarini saqlaydi. Uni qo‘shimchalardan tozalash uchun biz kukunni limon kislota bilan qayta ishlaymiz (limon kislotasining iste‘moli 100 g Pd kukuniga 200 ml). Qo‘shimchalardan tozalangandan so‘ng, kukun distillangan suv bilan yuviladi va mahsulot quritiladi. Natijada tozalangan Pd kukuni hosil bo‘ladi.



3-rasm. Texnogen chiqindilardan platina va palladiy metallarini ajratib olishning tavsiya etilgan innovatsion texnologik sxemasi.

Taklif etilayotgan texnologiya jarayonning davomiyligini qisqartirishi aniqlandi, bu amaliyotda katta hajmdagi chiqindini qayta ishlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Keng qamrovli tadqiqotlar, jumladan, bir qator tajriba va sinovlar natijasida 17 ta operatsiyadan va umumiy jarayon davomiyligi 24-26 soatdan iborat yangi texnologik sxema ishlab chiqildi (3-rasmga qarang). Bunda palladiyning 1 litrda 50 mg ni tashkil etgan eritmalaridan 84% gacha ajralish darajasi bilan palladiyni maksimal ajratib olish ta'minlandi. Natijada palladiyning massa ulushi 99,5-99,94% holda bo‘lgan tozalangan va affinajlangan palladiy kukuni hosil bo‘ldi (5-jadvalga qarang).

Ishlatilgan elektrolitlarni qayta ishlashning zamonaviy kompleks usullaridan foydalanish natijasida chiqindilar tarkibidan platina va palladiyni to‘liq ajratib olishni oshirishga olib keladi. Texnologiya ekologik nuqtai nazardan ham maqsadga muvofiq bo‘lib, texnogen chiqindilarni qayta ishlash natijasida chiqindilar yig‘ilgan yerlar bo‘shatiladi va atrof muhitga tasiri kamayadi, shuningdek qo‘shimcha qimmatbaho metallarni ajratib olish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Ushbu texnologiyani joriy etilishi, shubhasiz, platina va palladiyni qo‘shimcha ajratib olinishi hisobiga ijobiy iqtisodiy (7764547682,08 so‘m) samara beradi va sanoat chiqindilari to‘plangan joylarda ekologik vaziyatni yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa. Taklif etilgan texnologiya texnogen elektrolitlardan palladiy va platina guruhidagi metallarni samarali ajratib olishga imkon berdi: aqua regia uchun optimal reagent-parametrlar, selektiv cho‘ktirish va qaytarish (reduksiya)

5-jadval

Affinajlangan palladiy kukunining fizik-kimyoviy tahlil natijalari

Namuna №	Maxsulot nomi	Ulushi, %										
		Pd	Pt	Rh	Ir	Ru	Au	Pb	Fe	Si	Sn	Al
10	Pd kukuni	99,90	0,0036	0,0312	0,0003	0,0038	0,0068	0,0026	0,00119	<0,0001	<0,0001	0,0002
		Ulushi, %										
		Sb	Ag	Mg	Zn	Cu	Ni	Mn	Cr	Co	Ca	
		0,0025	0,0244	0,0003	<0,0001	0,0055	0,0012	0,0001	0,0004	0,0005	0,0006	
Namuna №	Maxsulot nomi	Ulushi, %										
		Pd	Pt	Rh	Ir	Ru	Au	Pb	Fe	Si	Sn	Al
11	Pd kukuni	99,94	0,0022	0,0310	0,0003	0,0039	0,0032	<0,0001	0,0055	<0,0001	<0,0001	0,0003
		Ulushi, %										
		Sb	Ag	Mg	Zn	Cu	Ni	Mn	Cr	Co	Ca	
		0,0022	<0,0001	0,0001	<0,0001	0,0050	0,0012	0,0001	0,0006	0,0005	0,0004	

yoʻllari asosida ishlab chiqilgan yangi texnologik sxema yuqori mahsuldorlik, past energiya sarfi va reagent tejamkorligini taʼminladi. Natijada palladiyning chegaralangan tiklanish darajasi 55% dan 84% gacha oshirildi, yakuniy mahsulot tozaligi 99,9–99,94% ga yetkazildi, platina esa tanlab choʻktirish orqali kamida ikki baravar yuqori

darajada ajratib olindi. Kompleks yondashuv chiqindi oqimlaridan PGMlarni toʻliqroq qaytarish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ekologik yukni kamaytirish imkonini beradi; shuning uchun texnologiyani sanoat miqyosida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Маслениский, И. Н., Чугаев, Л. В., Борбат, В. Ф., Никитин, М. В., & Стрыйко, Л. С. (1987). *Металлургия благородных металлов*. Москва: Metallurgiya.
2. Котляр, Ю. А., Меретуков, М. А., & Стрыйко, Л. С. (2005). *Металлургия благородных металлов (Кн. 2)*. Москва: Руда и металл.
3. Xursanov, A. X., Xasanov, A. S., Abdukadirov, A. A., & Voxidov, B. R. (2021). *Tehnologiya platinoidov*. Toshkent: Muharrir.
4. Хурсанов, А. Х., Хасанов, А. С., & Вохидов, Б. Р. (2019). Разработка технологии получения аффинированного палладиевого порошка из отработанных электролитов. *Горный вестник Узбекистана*, 1(76), 58–61. <https://gorniyvestnik.uz/ru/release/2019/1>
5. Хасанов, А. С., & Вохидов, Б. Р. (2019). Современные проблемы и инновационные технологии решения вопросов переработки техногенных месторождений Алмалыкского ГМК. В *Материалах I международной научно-практической конференции* (сс. 122–126). Алмалык, Узбекистан: Мухаррир.
6. Хасанов, А. С., Вохидов, Б. Р., Хамидов, Р. А., Сирождов, Т. Т., Мамараимов, Г. Ф., & Хужамов, У. У. (2019). Исследование повышения степени извлечения и чистоты аффинированного палладиевого порошка из сбросных растворов. *UNIVERSUM: Технические науки*, (9), 20–30. <https://7universum.com/ru/tech/archive/category/966>
7. Хасанов, А. С., Вохидов, Б. Р., Рустанов, С. У., Норов, Г. М., Баракаев, А. М., Тошимов, Б. Н., & Туробов, Ш. Н. (2019). Исследование технологии извлечения палладия из отработанных электролитов. *Достижения науки и образования*, 7(48), 5–7. Иваново, РФ.
8. Борбат, В. Ф. (1977). *Металлургия платиновых металлов*. Москва: Metallurgiya.
9. Xursanov, A. X., Xasanov, A. S., Abdukadirov, A. A., & Voxidov, B. R. (2020). *Platinoidlar texnologiyasi*. Toshkent: Muharrir.
10. Vokhidov, B. R. (2019, June 10–11). Nauchnoe obosnovanie tekhnologii polucheniya chistogo poroshka palladiya iz tekhnogennykh elektrolitov. In *International scientific review of the technical sciences, mathematics and computer science* (pp. 55–62). Boston, USA.
11. Хурсанов, А. Х., Хасанов, А. С., Абдукадилов, А. А., Усманкулов, О. Н., Вохидов, Б. Р., Аскарлов, Б. М., Умаралиев, И. С., & Абдуваитов, Д. С. (2019). Способ извлечения аффинированного палладиевого порошка из отработанных электролитов (Заявка на патент № IAP 20190183; приоритет от 30.04.2019).
12. Шарипов, Х. Т., Борбат, В. Ф., Даминова, Ш. Ш., & Кадилова, З. Ч. (2018). *Химия и технология платиновых металлов*. Ташкент: Университет.

УДК: 622.765:553.493(575.1)

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.27

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБОГАЩЕНИЯ МЕДНО-ПОРФИРОВЫХ РУД



Мамаисакова Зебо Баходир кизи

Базовый докторант, Алмалыкский филиал НИТУ «МИСИС», Алмалык, Узбекистан
E-mail: mamaisakovazebo@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается разработка эффективной технологии обогащения медно-порфировых руд в Узбекистане с учётом местных условий. Приведена минерально-химическая характеристика руд месторождений «Кальмакыр», «Сары-Чеку» и «Ёшлик», описаны теоретические основы и экспериментальные исследования флотации и гравитационного обогащения. Предложена схема коллективной флотации с последующей доочисткой, сочетающая флотометаллургические и термодинамические методы. Полученные результаты свидетельствуют об эффективности разработанной схемы по сравнению с существующими технологиями.

Ключевые слова: медь, медно-порфировые руды, обогащение, флотация, термодинамический анализ, Кальмакыр, Сары-Чеку, Ёшлик, технологическая схема.

MIS-PORFIRLI RUDALARNI BOYITISHNING SAMARALI TEKNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Mamaisaqova Zebo Bahodir qizi

Tayanch doktorant, NITU "MISIS" Olmaliq filiali, Olmaliq, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda mis-porfir rudalarini boyitishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish ko'rib chiqilgan. "Qalmoqir", "Sariq-Cho'qqi" va "Yoshlik" konlari rudalarining mineral-kimyoviy tavsifi keltirilgan, flotatsiya va gravitatsion boyitishning nazariy asoslari va eksperimental tadqiqotlari bayon etilgan. Flotometallurgik va termodinamik usullarni birlashtirgan, keyinchalik qo'shimcha tozalash bilan kollektiv flotatsiya sxemasi taklif etilgan. Olingan natijalar ishlab chiqilgan sxemaning mavjud texnologiyalarga nisbatan samaradorligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: mis, mis-porfir rudalari, boyitish, flotatsiya, termodinamik tahlil, Qalmoqqir, Sariq-Cho'qqi, Yoshlik, texnologik sxema.

DEVELOPMENT OF AN EFFICIENT TECHNOLOGY FOR COPPER PORPHYRY ORE BENEFICIATION

Mamaisakova Zebo Bahodir kizi

Basic doctoral student, Almalyk branch of NITU "MISIS", Almalyk, Uzbekistan

Abstract. This article discusses the development of an effective beneficiation technology for copper-porphyry ores in Uzbekistan, taking into account local conditions. It provides a mineralogical and chemical characterization of ores from the Kalmakyr, Sary-Cheku and Yoshlik deposits, describes the theoretical basis and experimental studies of flotation and gravity beneficiation methods. A collective flotation scheme with subsequent refining, integrating flotometallurgical and thermodynamic methods, is proposed. The results obtained demonstrate the efficiency of the developed scheme compared to existing technologies.

Keywords: copper, copper-porphyry ores, beneficiation, flotation, thermodynamic analysis, Kalmakyr, Sary-Cheku, Yoshlik, technological scheme.

Введение. Медь – стратегически важный цветной металл, широко используемый в электротехнике, строительстве и других отраслях. В Узбекистане единственным производителем меди является «Алмалыкский ГМК», сырьевой базой которого служат месторождения медно-порфировых руд Кальмакыр, Сары-Чеку и Ёшлик. Совокупные запасы этих месторождений оцениваются примерно в 17 млн т меди, при этом извлечено лишь около 20 % этих запасов. С учётом растущего спроса и государственного плана по увеличению добычи меди (до 400 тыс. т в год к 2030 г.) актуальной является задача разработки более эффективных технологий обогащения, учитывающих особенности узбекских руд. В данной работе проведён анализ текущих методов обогащения медно-молибденовых руд, выполнены теоретические расчёты и лабораторные испытания, а также предложена оптимизированная технологическая схема, адаптированная под местные условия.

Основные области применения меди в промышленности. Медь обладает высокой электропроводностью и коррозионной стойкостью, поэтому её наибольшее потребление приходится на электротехнику и электроэнергетику. Значительная часть меди идёт на производство проводов, кабелей и трансформаторов, а также на компоненты возобновляемой энергетики (ветро- и солнечные установки). Около 46 % мирового потребления меди приходится на строительные нужды. Значимые объёмы меди используются в машиностроении (двигатели, генераторы), транспортном машиностроении (автомобили, железнодорожная электрификация) и производстве электроники. Для оценки областей применения меди можно ориентироваться на

отчёты «Copper Development Association» – доля меди в зданиях оценивается свыше 46 %, что отражает её ключевую роль в инфраструктуре (рисунки 1) [1].




Рис.1. Роль меди в энергетике и высокотехнологичных отраслях.

Обоснование необходимости исследования. Существующие мощности узбекских обогатительных фабрик испытывают ограничение по извлечению меди из бедных порфировых руд. В частности, по данным АО «АГМК», текущая выемка меди составляет лишь 20% от общего объёма запасов. При этом заводы переориентированы на коллективную флотацию с отделением концентратов меди и молибдена, но существуют потери металла в отвальных хвостах. Принят план развития медного кластера, предполагающий к 2030 г. наращивание добычи до 400 тыс. т с обработкой 80% руды на месте. Решение этой задачи требует более эффективного обогащения низкосортных порфировых руд. В ряде других стран для сходных руд разработаны комбинированные схемы (флотация с предварительным обжигом или кислотным выщелачиванием), однако в условиях Узбекистана с его специфическим сырьём (сульфидная фаза

Cu–Mo с включением Au, Ag) необходимо учитывать локальные особенности минералогии и компоновку технологических звеньев. Настоящее исследование направлено на создание адаптированной технологии, позволяющей повысить извлечение меди и комплексное использование ценных компонентов руды [2, 3].

Теоретическая и экспериментальная основа исследования. Обогащение медно-порфириновых руд базируется на флотации сульфидных минералов меди и молибдена. Для прогноза результатов и оптимизации режимов обычно используют термодинамический анализ распределения поверхностных зарядов и потенциалов минералов, а также модель равновесий химических форм реагентов. В частности, установлено, что флотацию сульфидов меди и пирита ведут в слабощелочной среде (с вводом извести до 1 кг/т), при этом эффективными коллекторными реагентами являются соли ксантогеновых кислот (ксантогенаты) или их смеси с аэрофлотами, а в качестве пенообразователей – сосновое масло и аналогичные углеводородные флотофоры. Лабораторные испытания проводились на образцах руды месторождения Кальмакыр. Исходная руда содержит примерно 0,49 % Cu (соответственно, 4–5 кг меди на тонну руды) и мелкие включения золота ($\approx 0,9$ г/т). Экспериментально определены оптимальные условия: pH флотации около 9, дозировки реагентов (ксантогенаты и «Аэрофлот») порядка сотен граммов на тонну, режимы перемешивания и наполнительной дозы [4].

Методики обогащения. Основным методом обогащения сульфидных медных руд является флотация, тогда как гравитационные методы имеют вспомогательное значение. Гравитационное обогащение (буртование, грохочение, гидросепарация) может использоваться для предварительного обогащения свободной формы минералов (например, крупносернистых конкреций пирита или самородной меди), но в типичных порфириновых рудах медь присутствует в виде мелких вкраплений халькопирита, что ограничивает эффективность гравитации. Флотация ведётся по схеме коллективного концентрата: сначала выделяется об-

щий концентрат меди и железа, затем его доизмельчают и разделяют на медный и молибденовый концентраты. В коллективной флотации поддерживают $pH \leq 7,5$ для одновременной флотации пирита, после чего селективно флотацией (или депрессией) извлекают «чистый» медный концентрат. Комбинированные схемы предполагают введение предварительных стадий – например, обжиг руды с отжигом серы или щелочная селективная активация меди – что повышает извлечение труднофлотируемых минералов. В целом, на основе литературных данных ожидаемые показатели обогащения колеблются в пределах 15–40% Cu в конечном концентрате при общем извлечении металла до 90–95% [5].

2. Гуменюк, Т. Е. (1958). Исследование проветривания подземными участковыми вентиляторами без перемычки. Труды Карагандинского горного института, (3).
3. Алыменко, Д. Н. (1999). Работа вентиляционной установки комбинированного типа в рудничной вентиляционной сети (Диссертация кандидата технических наук). 159 с.
4. Идельчик, И. Е. (1948). Потери в потоке с неравномерным распределением скоростей. Труды института им. Н. Е. Жуковского, (62).
5. Казаков, Б. П., & Шалимов, А. В. (2002). Оптимизация подготовительных работ при проведении воздушно-депрессивной съёмки рудника. Горное эхо. Вестник горного института, (3), 35–37.
6. Ravshanov, A.A., Bo'riyev, F.M., & Bobomurodov, A.Y. (n.d.). Yer osti shamollatish qurilmalarini tanlash va samaradorligini oshirish. In "Respublika janubida geologiya, kon-metallurgiya va neft-gaz sohalarining istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami (pp. 135–137).

UO‘K: 622.7

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.33

ARALASH MIS RUDALARIDAN OLTIN VA MISNI SAMARALI AJRATIB OLISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI



Babayev Mirdodojon Sharofjon o'g'li

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston

E-mail: babayevmirdodojon@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-8669-8774

Annotatsiya. Rangli va qimmatbaho metallar tarkibli sanoat chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish kon-metallurgiya ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada "Yoshlik-I" konining balansdan tashqari aralash mis rudalaridan mis va qimmatbaho metallarni kompleks ajratib olish texnologik sxemasi ishlab chiqildi. Olib borilgan tajribalar asosida ishlab chiqilgan texnologiya "O'zkumirgo'zallik kombinat" AJ tarkibidagi MOF-1 fabrikasida amaliyotga tatbiq etildi. Tadqiqotlar jarayonida aralash mis rudalarini Knelson konsentratorida ikki bosqichli boyitishning optimal parametrlari belgilandi, natijada oltinni ajratib olish darajasi 78% gacha, misning esa qo'shimcha qayta ishlash operatsiyalari bilan birgalikda 85,4% dan ortiq kompleks ajralishi ta'minlandi.

Kalit so'zlar: Aralash mis rudalari, qimmatbaho va noyob metallar, gravitatsion konsentratsiya, sianlash jarayoni, sorbsion usullar, texnogen chiqindilar, qayta ishlash texnologiyasi, ekologik xavfsizlik.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЗОЛОТА И МЕДИ ИЗ СМЕШАННЫХ МЕДНЫХ РУД

Бабаев Мирдодожон Шарофжон угли

Доктор философии (PhD) по техническим наукам, Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан

Аннотация. Разработка научно обоснованных технологий переработки промышленных отходов, содержащих цветные и благородные металлы, является важным направлением повышения экономической эффективности горно-металлургического производства. В данной статье представлена технологическая схема комплексного извлечения меди и благородных металлов из забалансовых смешанных медных руд месторождения «Ёшлик-I». На основе проведённых опытов разработанная технология была внедрена в практику на МОФ-1 АО «АГМК». В ходе исследований установлены оптимальные параметры двухступенчатого обогащения смешанных медных руд на концентраторе Кнельсона. В результате степень извлечения золота достигла до 78%, а комплексное извлечение меди превысило 85,4% с дополнительными операциями по меди.

Ключевые слова: Смешанные медные руды, драгоценные и редкие металлы, гравитационная концентрация, процесс цианирования, сорбционные методы, выщелачивание, техногенные отходы, технологии переработки, экологическая безопасность.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR EFFICIENT EXTRACTION OF GOLD AND COPPER FROM MIXED COPPER ORES

Babaev Mirdodojon Sharofjon ugli

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Navoi State Mining and Technology University, Navoi, Uzbekistan


Abstract. The development of scientifically grounded technologies for the processing of industrial wastes containing non-ferrous and precious metals is an important direction for improving the economic efficiency of mining and metallurgical production. This article presents a technological scheme for the integrated extraction of copper and precious metals from off-balance mixed copper ores of the “Yoshlik-I” deposit. Based on experimental studies, the developed technology was implemented in practice at MOF-1 of Almalyk Mining and Metallurgical Complex (AMMC). The research established the optimal parameters for two-stage beneficiation of mixed copper ores using a Knelson concentrator. As a result, the gold recovery reached up to 78%, while the comprehensive copper extraction exceeded 85.4% with additional copper recovery operations.

Keywords: Mixed copper ores, precious and rare metals, gravity concentration, cyanidation process, sorption methods, leaching, technogenic wastes, processing technology, environmental safety.

Kirish. Metallurgiya sohasining asosiy vazifalaridan biri ruda va texnogen xomashyolardan tarkibiy komponentlarni tayyor mahsulotga ajratib olish darajasini oshirishdir. O‘zbekiston Respublikasida aralash kelib chiqishga ega va tarkibida mis hamda qimmatbaho metallar, xususan oltin va kumush miqdori past bo‘lgan katta hajmdagi balansdan tashqari mis rudalari mavjud. Aralash rudalardan rangli metallar va qimmatbaho metallarni kompleks ajratib olish texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar metallurgiya ishlab chiqarish sanoati uchun dolzarb hisoblanadi. Mazkur ish aynan past navli aralash rudalardan qimmatbaho metallarni olishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Vaqt o‘tishi bilan hosil bo‘lgan qoplama jinslari, yig‘ilib qolgan balansdan tashqari rudalar, mineralizatsiyalangan massalar, ruda tayyorlash jarayonining oraliq chiqindilari O‘zbekiston metallurgiyasini rivojlantirish uchun istiqbolli xomashyo bazasi bo‘lib xizmat qiladi. “Olmaliq KMK” AJda rangli metallar zaxirasi qo‘shimcha manba sifatida kon ag‘darmalari va chiqindi saqlash joylarida mavjud [1].

Balansdan tashqari rudalar va texnogen chiqindilar bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish, ularni dastlabki boyitish orqali qimmatbaho metallarni ajratib olish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jarayonda, qo‘shimcha tarzda, tarkibida nisbatan past miqdorda bo‘lsada, misni ham ajratib olish rejalashtiriladi.

Obyektlar va tadqiqot usullari. Ushbu ishning tadqiqot obyekti sifatida “Olmaliq KMK” AJning “Yoshlik-I” konidan olingan aralash oksidli va sulfidli mis rudalari tanlandi. Ishda zamonaviy kompleks tadqiqot usullari, laboratoriya sharoitida olib borilgan texnologik tajribalar hamda tajriba-sanoat sinovlari keng qo‘llanildi. Fizik-kimyoviy tadqiqot usullari: IK-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), energodispersiv spektroskopiya (EDS), energodispersiv rentgen-fluorestsent spektroskopiya, atom-emission tahlil, oltin va kumushni aniqlash uchun probirkali tahlil usullari tanlandi.



1-rasm. “Yoshlik-I” konining aralash mis rudalarining mineralogik tarkibi.


Kimyoviy va mineralogik tahlillar aralash mis rudalaridan olingan namunalar asosida “Olmalıq KMK” AJ Markaziy analitik laboratoriyasi hamda “Navoiy KMK” AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida bajarildi. Fazaviy tahlil va zarracha oʻlchamlarini aniqlash ishlari esa Oʻzbekiston–Yaponiya yoshlar innovatsion markazida hamda Mineral resurslar instituti (MRI) mutaxassislari tomonidan amalga oshirildi [2; b. 51–59].

Qimmatbaho va noyob metallar miqdorini aniqlash uchun yuqori samarali energodispersiv rentgen-fluorestscent spektrometri (NEX CG RIGAKU)dan foydalanildi. Ushbu maxsus usul “Yoshlik-I” konining aralash chiqindi rudalarining modda tarkibini chuqur oʻrganish imkonini berdi.

Kimyoviy tahlil maʼlumotlariga koʻra, sulfid ruda oʻrta namunada quyidagi tarkibga ega: %: SiO₂ - 47,4; Al₂O₃ -13,7; MgO - 7,93; SO₃ - 3,06; K₂O - 2,8; CaO - 13,8; Fe₂O₃ - 9,67; CuO - 0,204; ZnO - 0,06; Ga₂O₃ - 0,0042; As₂O₃ - 0,0114; SeO₂ - 0,0009; Rb₂O - 0,0207; SrO - 0,0238; Au - 0,0019; Ag - 0,0019; PbO -0,0155; NiO - 0,0023; Co₂O₃ - 0,0153; MnO - 0,255; Cr₂O₃ - 0,0055; V₂O₅ - 0,0423; TiO₂ - 0,588; Ac - 0,0070; Cl - 0,0264; Sb₂O₃ - 0,0029; BaO - 0,0285; OsO₄ - 0,00043; Eu₂O₃ - 0,05; U₃O₈ - 0,001.

Analyzed result(FP method)					
No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLQ
1	Cl	0.0561	mass%	0.0005	0.0004
2	Na	2.52	mass%	0.0077	0.0064
3	Mg	2.17	mass%	0.0208	0.0266
4	Al	13.4	mass%	0.0237	0.0097
5	Si	43.2	mass%	0.0270	0.0013
6	P	(0.0140)	mass%	0.0025	0.0066
7	S	1.18	mass%	0.0033	0.0006
8	K	9.72	mass%	0.0339	0.0112
9	Ca	11.4	mass%	0.0314	0.0191
10	Ti	0.799	mass%	0.0062	0.0064
11	V	0.0467	mass%	0.0022	0.0055
12	Cr	0.0069	mass%	0.0008	0.0022
13	Mn	0.582	mass%	0.0059	0.0053
14	Fe	13.5	mass%	0.0210	0.0030
15	Co	(0.0256)	mass%	0.0036	0.0108
16	Ni	0.0050	mass%	0.0005	0.0012
17	Cu	0.255	mass%	0.0021	0.0006
18	Zn	0.0461	mass%	0.0008	0.0005
19	Ga	0.0085	mass%	0.0003	0.0005
20	As	0.0118	mass%	0.0003	0.0005
21	Rb	0.0737	mass%	0.0005	0.0002
22	Sr	0.131	mass%	0.0006	0.0002
23	Y	0.0091	mass%	0.0002	0.0005
24	Zr	0.541	mass%	0.0048	0.0014
25	Mo	(0.0055)	mass%	0.0016	0.0027
26	Sn	0.0077	mass%	0.0006	0.0010
27	Sb	(0.0038)	mass%	0.0006	0.0014
28	Ba	0.175	mass%	0.0032	0.0052
29	Os	(0.0074)	mass%	0.0013	0.0040
30	Ir	(0.0038)	mass%	0.0008	0.0022
31	Pb	(0.0045)	mass%	0.0006	0.0017
32	Eu	(0.105)	mass%	0.0129	0.0377
33	Ac	0.0101	mass%	0.0004	0.0007
34	U	(0.0032)	mass%	0.0004	0.0012


Spectrum




2-rasm. “Yoshlik-I” konidagi aralash mis rudalarining moddiy tarkibi.

Kimyoviy tahlil natijalariga koʻra, oʻrta namunadagi aralash rudada quyidagi moddalar mavjud: %: SiO₂ - 54,3; Al₂O₃ - 16,5; MgO - 2,49; SO₃ - 1,49; K₂O - 5,72; Na₂O - 2,52; CaO - 7,26; Fe₂O₃ - 7,96; CuO - 0,119; ZnO - 0,0214; Ga₂O₃ - 0,0042; As₂O₃ - 0,0057; SnO₂ - 0,0037; Rb₂O - 0,00295; SrO - 0,0566; Au - 0,0019; Ag - 0,0017; PbO - 0,0018; NiO - 0,0022; MnO - 0,312; TiO₂ - 0,571; Ac - 0,0037; Cl - 0,028; Sb₂O₃ - 0,0017; U₃O₈ - 0,0014; MoO₃ - 0,003; Co₂O₃ - 0,0132; BaO - 0,0761; Cr₂O₃ - 0,0042; V₂O₅ - 0,0352.

Zaxiradagi rudalardan ortib qolgan chiqindilardan noyob va nodir metallarni taqsimlanishini oʻrganish maqsadida monominerallar – pirit, xalkopirit, molibdenit va boshqalar tanlab olindi. Tadqiqot natijalariga koʻra, aralash rudalardagi qimmat metallar taqsimlanishi (g/t) quyidagicha aniqlangan: Au - 12,2; Ag - 41,2; Pd - 0,25; Pt - 0,20; Rh - 0,02; Ru - 0,93; Os - 0,015. Aralash rudalarning turli minerallashtirilganligi sababli, minerallar tarkibi va ularning mavjudlik shakllarini aniqlash maqsadga muvofiq deb topildi. Bu maqsadda turli tadqiqot metodlari qoʻllanilib, mineral tarkibini aniqlash va keyinchalik boyitish metodikasini tanlash ishlari olib borildi. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) JSM-IT200 yordamida oʻtuzilishini tkazilgan tahlillar oʻrganilayotgan obyektlarning elementar, minerallar tarkibi va aniqlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlarning muhim bosqichi hisoblanadi.




3-rasm. Namunaning butun yuzasining umumiy elementar tahlili.



4-rasm. A7 namunalari tahlil natijalari.

O'rganilgan elementlar yuzasi asosan misdan iborat bo'lib, temir minerallarining izlari aralashgan bo'lib ular oltingugurt bilan birikib, temir sulfid minerallarini hosil qiladi. Shuningdek, yuqori cho'qqida sezilarli miqdorda kalsit mavjud. Tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan namunadagi mis miqdori 0,17% ni tashkil qiladi. Mis sulfidining tuzilishi zich bo'lganligi sababli, namunaning ba'zi qismlarida yorqin va biroz yashil rangda aks ettiradi. Bu esa asosan oltingugurt bilan bog'liq. Shu bilan birga, A7 namunalari EDS (energodispersiya spektroskopiyasi) orqali moddiy tarkibi bo'yicha ham o'rganilgan, natijalar quyidagi rasmlarda keltirilgan.



5-rasm. A7 namunalari bo'yicha energodispersiya spektroskopiyasi (EDS) tahlili natijalari.

Spektr 005 da namunaning misli yuzasi ko'rsatilgan bo'lib, o'rganilgan namunada mis miqdori 0,17% ga teng. Mis sulfidlar bilan birikkan va shu paytda cho'kma temir sulfid minerallari bilan tepadagi piklar bir-biriga mos keladi. Mis asosan xalkopirit mineralida mavjud bo'lib, qo'shimcha ravishda titan, alyumin, kvarts va kalsit minerallari uchraydi.

Natijalar. Oltin qayta ishlash zavodlarida kammiqdorli texnogen chiqindilarni boyitish texnologiyasini ishlab chiqishda, minerallarni zichlik xususiyatlariga asoslangan gravitatsion kuch maydonida ajratish prinsipi bo'yicha turli konsentratorlar sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida "Olmaliq KMK" AJning aralash balansdan tashqari mis rudalarida 100–400 mkm o'lchamdagi tabiiy oltin zarralari mavjud emasligi aniqlangan. >70 mkm o'lchamdagi zarrachalardan olingan konsentratlarda ham oltin topilmadi. Bu zavodlarning texnologik bo'g'inlarida yirik kristalli tabiiy zarralar juda kam miqdorda bo'lib, faqat mayda oltin mavjudligiga bog'liq.

Ushbu xulosa gravitatsion boyitish tadqiqotlari vaqtini qisqartirdi, chunki vintli separatorlar, selektor mashinalari va shlyuzlar kabi yirik metall zarrachalarini ajratishga mo'ljallangan uskunalarining samaradorligi yetarli bo'lmadi. Shu bois, sanoat qo'llanilishi uchun yuqorida sanab o'tilgan uskunalar yetarli natija bermadi. Shuningdek, uzoq yillar davomida texnogen chiqindilarni saqlash natijasida tarkiblarining o'zgarishi aniqlangan [4; S.29-33].

"NKMK" AJ Markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasi sharoitida texnogen chiqindilarni gravitatsion boyitish bo'yicha Knelson MD3 markali markazdan qochma konsentrator yordamida tadqiqotlar o'tkazildi va uning parametrlarining o'zgarishi tahlil qilindi. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi sharoitida boshqa texnogen chiqindilardan qimmatbaho va noyob metallarni boyitish bo'yicha laboratoriya tajribalari Knelson GX9 konsentratorida amalga oshirildi. Tadqiqotda asosiy e'tibor texnogen chiqindilarda mavjud, zichligi yuqori bo'lgan qimmatbaho va noyob metallarga qaratildi, ular markazdan qochma maydonda samarali ajralalishi kuzatildi.

Aralash namunaning boyitish tajribalari 10 kg dastlabki materialdan o'tkazilib, gravitatsion konsentratsiyaning 1-bosqichida 90G, 2-bosqichida 120G markazdan qochma kuch, suv sarfi mos ravishda 2 l/daq va 5 l/daq bilan amalga oshirildi. Gravitatsion boyitishdan so'ng aralash rudalardan olingan gravitatsiya boyitmasi qimmatbaho metallar bilan boy bo'lib, uning tarkibi quyidagicha: oltin o'rtacha 14,31–20,12 g/t, kumush 59,42–67,3 g/t saqlaydi. Olingan qimmatbaho metall konsentrati keyinchalik konvertorli eritishga yo'naltirilishi mumkin, bunda oltin, kumush va mis xomaki mis fazasiga o'tadi. Boyitish chiqindilarining tarkibida umumiy mis hajmidan 73,13% mis qolgan bo'lib, bu dastlabki rudaning mis tarkibi 0,2025% edi. Boyitishdan keyingi chiqindilarning holati pulpa shaklida bo'lib, Q:S nisbatida 1:4 ga teng, bu esa ularni gidrometallurgik texnologiyada qayta ishlashga mosligini anglatadi.

O'tkazilgan tajribalar seriyasi natijasida, balansdan tashqari rudalaridan mis va qimmatbaho metallarni kompleks ajratib olish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan. Shu bilan, past konsentratsiyali mis mahsulotiga misni cho'ktirish bilan

agitatsion yuvish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu paytda ekstraksion va sorbsion usullar iqtisodiy nuqtai nazardan rentabellikka ega emas [6; S.42-51].

Misli chiqindilarning fazaviy tahlili yuqori erituvchanlikni ko'rsatib, sulfat kislota eritmasida yaxshi natija bergan. Olingan sulfatli mis eritmasi yuqori miqdordagi aralashmalar bilan ifloslangan bo'lib, ularning miqdori mis elektrolizi jarayoni bilan cheklangan. Laboratoriya tadqiqotlari natijasida misni tanlab eritishning optimal parametrlarini va temir chiqindilaridan foydalangan holda misni cho'ktirish usulini aniqlash mumkin bo'ldi.

Xulosa. Birinchi marta aralash mis rudalaridan qimmatbaho metallarning markazdan qochiruvchi konsentratsiyasi orqali kombinatsiyalangan texnologiya ishlab chiqildi, bunda qimmatbaho metallarning konsentrat fazasiga o'tishi ta'minlandi, shuningdek, oltin, kumush va misni selektiv ajratib olish uchun sorbsiya usuli bilan tanlab eritish ishlari olib borildi va boyitishdan qolgan mahsulotlardan misni sulfatli eritma

yordamida ajratib olishning optimal parametrlari aniqlandi.

Aralash mis rudalarini birinchi bosqichda markazdan qochiruvchi kuch 90G da boyitish uchun optimal parametrlar belgilandi. Suv sarfi 2 l/daq bo'lib, oltinning asosiy miqdorini konsentrat-siyalash natijasida olinadigan umumiy gravitatsion konsentratda oltin tarkibi o'rtacha 14,31–20,12 g/t, oltinning ajratilish darajasi esa 72,98–77,95% ni tashkil etdi. Ikkinchi bosqichda markazdan qochiruvchi kuch 120G, suv sarfi 5 l/daq bo'lib, gravitatsion boyitish natijasida kumush konsentrati 59,42–67,3 g/t tarkibida va ajratilish darajasi 68,46–69,95% ga yetkazildi.

O'tkazilgan tajribalar seriyasi natijasida aralash mis rudalaridan mis va qimmatbaho metallarning kompleks ajratib olinishi texnologik sxemasi ishlab chiqildi, barcha jarayonlarning optimal parametrlari aniqlanib, ishlab chiqarish miqyosida jihozlash uchun apparat zanjir sxemasi asoslandi. Metallarning material balansiga ko'ra, oltinning ajratilish darajasi 66,88%, kumush 60,46%, mis esa 85,40% ni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sanakulov, K. S. (2019). Texnogen xomashyoni qayta ishlash muammolarini hal etishning kontseptual asoslari. In "Olmaliq KMK texnogen konlarini qayta ishlash masalalarini hal etishning zamonaviy muammolari va innovatsion texnologiyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (pp. 18–21).
2. Vokhidov, B., Hasanov, A., Babayev, M., Mamaraimov, G., & Yandashev, A. (2024, May). New technologies for processing tailings of a copper processing plant for the extraction of platinoids. *Acta Innovations*, (52), 51–59. <https://doi.org/10.62441/ActaInnovations.52.6>
3. Vokhidov, B. R., Khasanov, A. S., Tolibov, B. I., Saidakhmedov, A. A., & Babaev, M. Sh. (2023). Development of technology for processing off-balance waste ores with a pilot test for the integrated extraction of precious metals. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 14(3), 2336–2344. (pnrjournal.com)
4. Xursanov, A. X., Xasanov, A. S., Abduqadirov, A. A., & Vohidov, B. R. (2021). Platinoyidlar texnologiyasi. Toshkent: Muharrir.
5. Vokhidov, B. R. (2021). Development and improvement of technology for extraction of precious metals from technogenic raw materials. *Universum: Технические науки*, 12(93), 11–15.
6. Vokhidov, B. R. (2022). New horizons processing of technogenic waste of the copper industry. *The American Journal of Applied Sciences*, 4(5), 42–51.

UO‘K: 622.7

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.34

GMZ-2 SHAROITIDA SORBSIYALASH JARAYONI CHIQINDI BO‘TANALARIDAN RANGLI METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH



**Voxidov Baxriddin
Raxmidinovich**

Texnika fanlar doktori DSc,
professor, Navoiy davlat konchilik
va texnologiyalar universiteti,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
bakhriddin.vokhidov@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-0819-6752



**Babayev Mirdodojon
Sharofjon o'g'li**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori PhD, Navoiy davlat
konchilik va texnologiyalar
universiteti, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
babayevmirdodojon@mail.ru
ORCID ID: 0009-0001-8669-8774



**Yandashev Alisher Anvar
o'g'li**

Assistent, Navoiy davlat konchilik
va texnologiyalar universiteti,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: karmana.tiger@gmail.com
ORCID ID : 0009-0002-9683-3201



**Hamroyeva Muhabbat
Habib qizi**

Magistr, Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, Navoiy,
O‘zbekiston
E-mail: khamrayeva.29@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot GMZ-2 sorbenti yordamida chiqindi bo‘tanalaridan rangli metallarni ajratib olish texnologiyasini o‘rganishga qaratilgan. Chiqindi bo‘tanalarining atrof-muhitga salbiy ta’siri va rangli metallarni qayta ishlash orqali ularning qayta ishlanishi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Rangli metallarni ajratib olishda sorbsiyalash jarayoni samarali va ekologik toza usul sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotda GMZ-2 materialining sorbsiyalash xususiyatlari, pH darajasi, harorat, vaqti va boshqa omillar ta’siri ostida rangli metallarni sorbsiyalash samaradorligi o‘rganildi. **Kalit so‘zlar:** Rangli metallar, chiqindi bo‘tanalar, sorbent materiallari, qayta ishlash texnologiyasi, ekologik ta’sir, kimyoviy jarayonlar, fizik-kimyoviy jarayonlar, metall ionlari.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЦВЕТНЫХ МЕТАЛЛОВ ИЗ ОТХОДОВ СОРБЦИОННОГО ПРОЦЕССА В УСЛОВИЯХ ГМЗ-2

**Вохидов Бахриддин
Рахмидинович**

Доктор технических наук,
профессор Навоийского
государственного горно-
технологического университета,
Навои, Узбекистан

**Бабаев Мирдодожон
Шарофжон угли**

Доктор философии (PhD) по
техническим наукам, Навоийский
государственный горно-
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Яндашев Алишер
Анвар угли**

Ассистент, Навоийский
государственный горный и
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Хамроева Мухаббат
Хабиб кизи**

Магистр, Навоийский
государственный горный и
технологический университет,
Навои, Узбекистан

Аннотация. Это исследование направлено на изучение технологии извлечения цветных металлов из отходов растительных материалов с использованием сорбента GMZ-2. Негативное воздействие отходов растительных материалов на окружающую среду и переработка цветных металлов являются актуальными проблемами в настоящее время. Процесс сорбции признан эффективным и экологически чистым методом для извлечения цветных металлов. В ходе исследования были изучены сорбционные характеристики материала GMZ-2, а также влияние таких факторов, как уровень pH, температура, время и другие параметры на эффективность сорбции цветных металлов.

Ключевые слова: Цветные металлы, отходы растительных материалов, сорбентные материалы, технологии переработки, экологическое воздействие, химические процессы, физико-химические процессы, металлические ионы.

STUDY OF THE TECHNOLOGY FOR EXTRACTING COLORED METALS FROM WASTE PLANT MATERIALS USING SORPTION IN GMZ-2 CONDITIONS

**Vokhidov Bakhridin
Rakhmidinovich**

Doctor of Technical Sciences,
Professor of Navoi State Mining
and Technology University, Navoi,
Uzbekistan

**Babaev Mirdodojon
Sharofjon ugli**

Doctor of Philosophy (PhD) in
Technical Sciences, Navoi State
Mining and Technology University,
Navoi, Uzbekistan

**Yandashev Alisher Anvar
ugli**

Assistant, Navoi State Mining and
Technology University,
Navoi, Uzbekistan

**Hamroeva Muhabbat
Habib kizi**

Master's degree, Navoi State
Mining and Technology University,
Navoi, Uzbekistan

Abstract. This study focuses on investigating the technology for extracting colored metals from waste plant materials using the GMZ-2 sorbent. The negative impact of waste plant materials on the environment and the recycling of colored metals are current pressing issues. The sorption process is recognized as an effective and environmentally clean method for extracting colored metals. The study examined the sorption properties of the GMZ-2 material, as well as the influence of factors such as pH level, temperature, time, and other parameters on the efficiency of colored metal sorption.

Keywords: Colored metals, waste plant materials, sorbent materials, recycling technology, environmental impact, chemical processes, physicochemical processes, metal ions, economic efficiency.

Kirish. Chiqindi bo'tanalarining tashlanishi va atrof-muhitga ta'siri hozirgi kunda ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Dunyo bo'ylab sanoat va maishiy chiqindilarining ortishi, shu jumladan rangli metallarni o'z ichiga olgan chiqindilar, atrof-muhitni ifloslantirib, inson salomatligiga jiddiy xavf solmoqda. Rangli metallar, masalan, mis (Cu), qo'rg'oshin (Pb), nikel (Ni) va boshqa og'ir metallar, asosan sanoat ishlab chiqarish, qurilish materiallari va elektronika chiqindilaridan olinadi. Ushbu metallarni ajratib olish va qayta ishlash, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qiladi. Rangli metallarni ajratib olish uchun mavjud texnologiyalar orasida sorbsiyalash jarayoni samarali va ekologik jihatdan toza usul sifatida tanilgan. Sorbsiyalash jarayonida, zarur moddalarning ionlari yoki molekulalari, sorbent materiallari tomonidan yutiladi. Bu usul chiqindi materiallaridan rangli metallarni ajratib olishda keng qo'llanilmoqda. Sorbsiyalash jarayonining samaradorligi, sorbentning xususiyatlariga, shuningdek, jarayon sharoitlariga bog'liq. GMZ-2 – bu rangli metallarni ajratib olishda ishlatiladigan yuqori samarali sorbent materialidir. GMZ-2 ning kimyoviy tarkibi va

fizikaviy xususiyatlari uni chiqindi bo'tanalaridan rangli metallarni ajratib olish uchun samarali vosita qiladi. Bu material yuqori yutish qobiliyatiga ega bo'lib, rangli metallarni ajratish samaradorligini oshiradi. Shuning uchun, GMZ-2 sorbentini qo'llash rangli metallarni qayta ishlash jarayonini ekologik jihatdan toza va iqtisodiy samarali qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi GMZ-2 sharoitida sorbsiyalash jarayonini o'rganish, rangli metallarni chiqindi bo'tanalaridan ajratib olish texnologiyasini optimallashtirish va uning samaradorligini tahlil qilishdir. Tadqiqotda sorbsiyalash jarayonini boshqaruvchi omillar — pH darajasi, harorat, vaqti va boshqa fiziko-kimyoviy sharoitlarning ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, bu tadqiqotning natijalari chiqindi bo'tanalaridan rangli metallarni ajratib olishda GMZ-2 materialining afzalliklarini namoyon etishi kutilmoqda.

Texnogen chiqindilar turlari — bu sanoat jarayonlari natijasida hosil bo'ladigan ikkilamchi xomashyolardir. Ular quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: konsentratlar, shlaklar va katalizatorlar. Konsentratlar — metallurgik jarayonlardan olingan, metall miqdori yuqori bo'lgan materiallar bo'lib, ko'pincha ruda sifatida saqlanadi. Shlaklar —

metall ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan qattiq qoldiqlar bo'lib, ular tarkibida noyob yoki rangli metallar bo'lishi mumkin. Katalizatorlar esa kimyo sanoatida ishlatilganidan so'ng o'z faol xususiyatini yo'qotgan, biroq qimmatbaho komponentlarni o'z ichiga olgan texnogen chiqindilardir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Rangli metallarni chiqindi bo'tanalaridan ajratib olish texnologiyalari sohasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligi chiqindi materiallardan foydali metallarni ajratish uchun turli usullarni, jumladan, fizikaviy, kimyoviy va biotexnologik jarayonlarni o'rganishga qaratilgan. Sorbsiyalash jarayoni bu usullardan biri bo'lib, chiqindi materiallardan metallarni ajratish uchun keng qo'llanilmoqda. [1].

2-GMZ texnogen chiqindilaridan metallarni ajratib olish jarayonlari ekologik xavfsizlikni yaxshilash va qayta ishlash samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, boyitish jarayonlarida zararli moddalar miqdori kamayishi, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi muhim jihatlar metallurgiya sohasining afzalliklaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda, 2-GMZ sorbsiyalash jarayoni bo'tana texnogen chiqindilarini materialining rangli metallarni sorbsiyalash jarayonidagi samaradorligi o'lchandi va ularning pH muhit tasiri o'rganilgan. Olingan natijalar jadvalda keltirilgan turli eksperimental sharoitlarda o'rganilgan. Har bir metodning afzalliklari va cheklovlari aniq belgilab, ularning o'zaro ta'sirini yaxshilash va jarayonlarni optimallashtirish yo'llari ko'rsatilgan [3].

Ajratish usullari — bu texnogen chiqindilardan rangli va noyob metallarni qayta tiklashda qo'llaniladigan asosiy texnologik jarayonlardir. Ular to'rt guruhga bo'linadi: kimyoviy, fizik, biologik va termal usullar. Kimyoviy ajratishda metall ionlari turli eritmalar orqali kimyoviy reaksiya va eruvchanlik xususiyatlariga ko'ra ajratiladi. Fizik metodlar magnit ajratish yoki flotatsiya kabi jarayonlarga asoslanib, metall zarrachalarini jismoniy xususiyatlariga qarab ajratadi. Biologik metodlarda esa ayrim bakteriyalar va mikroorganizmlar chiqindilardagi metall birikmalarni parchalab, ularni qayta tiklash imkonini beradi. Termal usullar yuqori haroratda eritish yoki qizdirish orqali metallarning ajralishini ta'minlaydi.

Natijalar. Tadqiqotda GMZ-2 sorbsiyalash jarayoni bo'tana texnogen chiqindilarining tarkibidagi rangli metallarning sorbsiyalash jarayoni samaradorligi va shu bilan birga bu jarayonga pH muhitning tasiri o'rganildi. Har bir usulning samaradorligi va parametrlar bo'yicha olingan natijalar quyida keltirilgan.

Sorbsiyalash jarayonining natijalari. Sorbsiyalash jarayonida olingan boyitma va chiqindilar tahlil qilingan. Quyidagi jadvalda gravitatsiya boyitish natijalari keltirilgan:

- pH daraja;
- Rangli metallar;
- Sorbsiya samaradorligi.

1-jadval


Sorbsiyalash natijalari

pH darajasi	Rangli Metallar (Cu, Pb)	Sorbsiya Samaradorligi (%)
3	Cu: 150 mg/L, Pb: 100 mg/L	85%
5	Cu: 200 mg/L, Pb: 120 mg/L	90%
7	Cu: 250 mg/L, Pb: 130 mg/L	95%
9	Cu: 180 mg/L, Pb: 110 mg/L	87%

2-jadval

Turli pH muhitlarda rangli metallarni yutilish darajalari

pH darajasi	Mis (Cu) Yutish (%)	Qo'rg'oshin (Pb) Yutish (%)	Nikel (Ni) Yutish (%)
4	75	82	68
6	85	88	80
8	90	89	85
10	87	84	78




1-rasm. Har bir bosqich uchun zarrachalar o'lchamini ajralish darajasiga bog'liqlik grafigi.

3-jadval

Turli haroratlarda metallarni sorbsiyalanish darajasi

Harorat (°C)	Mis (Cu) Yutish (%)	Qo'rg'oshin (Pb) Yutish (%)	Nikel (Ni) Yutish (%)
15	70	75	60
25	85	82	75
35	88	85	80
45	90	88	85




2-rasm. Eritmadagi metallarni qatronga yutilishining haroratga bog'liqlik grafiki.

Haroratning o'zgarishi bilan sorbentning rangli metallarni yutish samaradorligi qanday ta'sirlanishini ko'rsatadi. Bu jadvalda haroratning yutish samaradorligiga qanday ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishini tasvirlaydi.

4-jadval

Turli vaqt birligidagi sorbsiyalash jarayoniga ta'sirini

Vaqt (soat)	Mis (Cu) Yutish (%)	Qo'rg'oshin (Pb) Yutish (%)	Nikel (Ni) Yutish (%)
1	60	65	55
2	75	78	68
3	85	84	78
4	90	88	85



3-rasm. Eritmadagi metallarni qatronga yutilishining vaqtga bog'liqlik grafiki.

Sorbsiyalash jarayoni davomida vaqt o'tishi bilan rangli metallarni yutish samaradorligining qanday o'zgarishini ko'rsatish mumkin. Bu, odatda, jarayonning optimal vaqtini topish uchun foydalidir.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda GMZ-2 sorbentining chiqindi bo'tanalaridan rangli metallarni ajratib olishdagi samaradorligi keng qamrovda va chuqur tahlil qilindi. Olingan eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, GMZ-2 sorbenti metall

ionlarini yutishda yuqori selektivlik va yuqori sorbsion qobiliyatga ega. Ayniqsa, pH darajasi 6–8 oralig'ida va harorat 25–35°C sharoitida eng maqbul natijalar qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, sorbentning ishlash mexanizmi aynan tabiiy sharoitga yaqin muhitda yuqori darajada samarali bo'lib, uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari keng ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqot davomida GMZ-2 sorbenti nafaqat samaradorligi, balki ekologik barqarorligi bilan ham ajralib turishi aniqlandi. Rangli metallarni chiqindilardan ajratib olish jarayonida ko'plab texnologik usullar mavjud bo'lsa-da, GMZ-2 asosidagi sorbsiyalash usuli atrof-muhitga minimal zarar yetkazadi va xavfsiz, tejamkor texnologiya sifatida ajralib turadi. Bu esa uni barqaror rivojlanish tamoyillariga javob beradigan yechimlardan biriga aylantiradi. Shuningdek, ushbu sorbentning sanoat miqyosida keng joriy etilishi chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish, rangli metallarning ikkilamchi manbalaridan samarali foydalanish hamda tabiiy resurslarga bo'lgan bosimni kamaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, GMZ-2 sorbenti asosida yaratilgan texnologiya kelajakda ekologik toza, iqtisodiy samarali va innovatsion yechimlardan biri sifatida rivojlanish istiqboliga ega. Mazkur texnologiya yordamida chiqindilar tarkibidagi qimmatbaho va rangli metallarni qayta ishlash orqali iqtisodiyot uchun qo'shimcha qiymat yaratiladi, ishlab chiqarish tannarxi pasayadi va korxonalar uchun moliyaviy samaradorlik oshadi. Shuningdek, ushbu yondashuv orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindi oqimlarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot sorbsiyalash texnologiyalarining fundamental asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Olingan natijalar sorbsiya kinetikasi, diffuziya jarayonlari va ion-almashinish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot akademik hamkorlik uchun ham yangi istiqbollar yaratadi. Xususan, GMZ-2 sorbentining qo'llanilishi xalqaro miqyosda ekologik muammolarni hal etishda, yangi sorbent materiallarini ishlab chiqishda va resurslarni qayta ishlash bo'yicha global loyihalarda muhim o'rin tutishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, GMZ-2 sorbenti

chiqindi boʻtanalaridan rangli metallarni samarali ajratib olishda yuqori natija koʻrsatdi. Tadqiqot natijalari ekologik toza texnologiyalarni yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va ekologik xavfsizlikni taʼminlash borasida yangi

imkoniyatlar yaratdi. Ushbu yondashuv nafaqat Oʻzbekiston, balki butun dunyo uchun dolzarb boʻlgan ekologik va iqtisodiy muammolarga yechim taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Jumaniyozov, K. (2017). Chiqindi suvlaridan ogʻir metallarni ajratib olishning yangi usullari. Tabiat resurslari va atrof-muhitni muhofaza qilish, 12(1), 45–52.
2. Tashpulatov, A., & Mamatov, R. (2018). Chiqindilarni qayta ishlashda sorbsiyalash jarayonining ahamiyati. Kimyo va ekologiya, 7(3), 34–40.
3. Mahmudov, S. (2020). Sorbentlar yordamida ogʻir metallarni ajratish texnologiyalarining rivojlanishi. Oʻzbekiston kimyo jurnali, 15(4), 80–88.
4. Miller, P. C. (1997). The design and operating practice of bacterial oxidation plant using moderate thermophiles. In D. E. Rawlings (Ed.), Biomining: Theory, microbes and industrial processes. Berlin: Springer-Verlag.
5. Вохидов, Б. Р., & Хасанов, А. С. (2021, 6–9 сентября). Исследование и разработка технологии извлечения металлов платиновых групп из техногенного сырья АО «АГМК». В XIV Международная научно-практическая конференция «Металлургия цветных, редких и благородных металлов» (с. 29–32). Красноярск, Россия: Сибирское отделение РАН.

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI
ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UO‘K: 622.692:620.193 (575.1)

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.12

KONLARDA NEFT VA GAZ MAHSULOTLARINI BIRLAMCHI YIG‘ISH,
SAQLASH VA TASHISH USKUNALARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR
HAMDA ULARNING KORROZIYAGA QARSHILIGI VA GIDROABRAZIV
ISHONCHLILIGINI TA’MINLASH



**Dustqobilov Eldor
Nurmatovich**

Dotsent, Qartshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O‘zbekiston



**Yuldashev Tashmurza
Raxmonovich**

Professor, Qartshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O‘zbekiston



**Djumabayev Alijon
Bakishyevich**

Professor, Qartshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Konlarda neft va gaz sohasidagi magistral quvuruzatmalarida gazlar asosan metall quvurlar orqali uzoq masofaga tashiladi. Neft va neft mahsulotlari birlamchi kon sharoitida zaxarli birikmalardan tozalanadi va sisternalarga yuklash davrigacha katta rezervuarda saqlanib turiladi. Shuning uchun gazquvurlari orqali haydaladigan tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalanganda ularning tarkibida tajavuzkor aralashmalarining elementlarini qolishi natijasida kimyoviy jarayonlarni keltirib chiqarish va salbiy ta’sir qilish holatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: korroziya, yig‘ish, tashish, bardoshlilik, zaxarli komponentlar, geterokompozit materiallar, oksidlar, karbonatlar.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОБОРУДОВАНИЕ ДЛЯ ПЕРВИЧНОГО
СБОРА, ХРАНЕНИЯ И ТРАНСПОРТИРОВКИ НЕФТЕГАЗОВЫХ
ПРОДУКТОВ В УСЛОВИЯХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ, И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИХ
КОРРОЗИОННОЙ СТОЙКОСТИ И НАДЕЖНОСТИ К
ГИДРОАБРАЗИВНОМУ ВОЗДЕЙСТВИЮ

**Дустқобиллов Эльдор
Нурматович**

Доцент, Қаришский
государственный технический
университет,
Қариш, Узбекистан

**Юлдашев Ташмурза
Рахмонович**

Профессор, Қаришский
государственный технический
университет,
Қариш, Узбекистан

**Джумбабаев Алижон
Бакышевич**

Профессор, Қаришский
государственный технический
университет,
Қариш, Узбекистан

Аннотация. В нефте- и газопроводах газы транспортируются на большие расстояния в основном по металлическим трубам. Нефть и нефтепродукты очищаются от токсичных соединений в первичных полевых условиях и хранятся в большом резервуаре до погрузки в танкеры. Поэтому при очистке природных газов, перекачиваемых по газопроводам, от кислых компонентов изучено возникновение химических процессов и негативных эффектов, обусловленных наличием в их составе элементов агрессивных соединений.

Ключевые слова: коррозия, монтаж, транспортировка, прочность, токсичные компоненты, гетерокомпозиционные материалы, оксиды, карбонаты.

FACTORS AFFECTING EQUIPMENT FOR PRIMARY COLLECTION, STORAGE AND TRANSPORTATION OF OIL AND GAS PRODUCTS IN FIELDS, AND ENSURING THEIR CORROSION RESISTANCE AND RELIABILITY AGAINST HYDRO-ABRASIVE EFFECTS

**Dustkobilov Eldor
Nurmamatovich**

Docent, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Yuldashev Tashmurza
Rakhmonovich**

Professor, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Djumabaev Alijon
Bakishevich**

Professor, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. Oil and gas pipelines transport gases over long distances, mostly through metal pipes. Oil and petroleum products are purified from toxic compounds in the primary field and stored in a large tank before being loaded onto tankers. Therefore, when cleaning natural gases pumped through gas pipelines from acidic components, the occurrence of chemical processes and negative effects caused by the presence of aggressive compounds in their composition has been studied.

Keywords: corrosion, assembly, transportation, durability, toxic components, heterocomposite materials, oxides, carbonates.

Kirish. Korroziyaga qarshi bardoshlilikini oshiradigan materiallar va ular asosidagi kompozitlar har doim neft va gaz sohasida, neft-gaz mahsulotlarini yig'ish, tashish saqlash tizimlarida keng qo'llanilgan va qo'llanilmoqda. Respublikamizda "Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi", "Sho'rtan neft gaz qazib chiqarish boshqarmasi" tizimlarida qo'llaniladigan quvuruzatmalarida, saqlash rezervuarlarida metall konstruksiyali jihozlardan keng foydalaniladi va ularga mahsulotning tarkibidagi zaxarli komponentlar korroziya bardoshliligiga va gidroabrazivlik ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ekspluatatsiya qilish muddatini qisqartiradi. Respublikamizda "Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi va Ustyurt gaz-kimyo majmualarida poliolefinlarning keng assortimenti, xususan, polietilen va polipropilen materiallari ishlab chiqariladi. Shuning uchun polimerlar asosidagi geterokompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida ularning yangi

kompozitsiyalarini yaratish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Adabiyot tahlil va metodlar. Polimer asosida olinadigan geterokompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari va tavsiflari turli komponentlar va modifikatsiyalash usullaridan foydalanilgan holda ishlab chiqariladi. Bunday komponentlardan biri turli tabiatdagi, geometrik o'lchamdagi va shakldagi to'ldiruvchi moddalar bo'lib, ular mustahkamlik, deformatsiya, korroziyaga qarshi bardoshlilik xususiyatlarini yaxshilash hamda ekspluatatsiya muddatini uzaytirish imkonini beradi. Bu esa ularning tarkibiy miqdorini oshirish darajasiga qarab tartibga solinishi mumkin. Odatda polimerlarni to'ldirish darajasi 5% dan 50% gacha o'zgarib turadi, lekin ayrim hollarda bu ko'rsatkich ekstremal qiymatlarga yetadi va to'ldiruvchi modda polimer bog'lovchi miqdoridan bir necha baravar ko'p bo'lishi ham mumkin [1].

Geterokompozit materiallarning ishlash xususiyatlarini yaxshilashda eng ko'p qo'llaniladigan

qattiq to'ldiruvchi moddalar dispers (changsimon) va tolali [1; 2] materiallarga bo'linadi hamda tashqi agressiv ta'sirlarga qarshi mustahkamlovchi sifatida xizmat qiladi.

Geterokompozit polimer materiallarni mustahkamlash — bu ularga dispers yoki tolali to'ldiruvchi moddalarni qo'shish orqali ularning chidamliligi va boshqa mexanik xususiyatlarga bardoshlilikini oshirish jarayonidir. Oksidlar, karbonatlar va boshqa noorganik birikmalar kabi dispers to'ldiruvchi moddalar polimer tuzilmasida bir tekis taqsimlanib, uning qattiqligini va bosim kuchini oshiradi. Shisha tolasi, uglerod tolasi va boshqa tolali materiallar kabi mustahkamlovchi to'ldiruvchi moddalar, hatto qayta ishlangan bo'lsa ham, polimerning valentlik va ta'sirga chidamliligini oshiradi [3].

Mualliflarning ta'kidlashicha, geterokompozit polimerlarni dispers to'ldiruvchi moddalar bilan mustahkamlash mexanizmi to'ldiruvchi moddalar polimerning elastiklik va qattiqlik modulini oshirish, ularning yo'lida to'siqlar yaratish orqali polimer matritsasida yorilishni hosil bo'lishi va tarqalishining oldini olishiga asoslanadi. Tuzilmadagi to'ldiruvchi moddalarining mustahkamlovchi ta'siri ularning tarkibi, hajmi va shakliga, shuningdek to'ldiruvchilarning taqsimlanishiga bog'liq. Polimer matritsasida to'ldiruvchi moddalarining bir xil taqsimlanishi maksimal mustahkamlovchi ta'sirni ta'minlaydi, bu esa to'ldiruvchi miqdori ortishi bilan kuchayadi [3].

Geterokompozit polimerlarni to'ldiruvchi moddalar bilan mustahkamlash mexanizmi ularning polimer matritsasiga tushadigan yukning bir qismini o'ziga singdirib, geterokompozit polimerning cho'zilish kuchi va ta'sirga chidamliligini, shuningdek qattiqligini oshirishiga asoslanadi. Ushbu nazariya geterokompozit polimerlarning mexanik xususiyatlarini oshirish mexanizmlarini tushunishga imkon beradi. Biroq, agar to'ldiruvchi modda miqdori juda yuqori bo'lsa, to'ldiruvchi moddalar va matritsa orasidagi yopishishning yomonlashishi tufayli polimerning mexanik xususiyatlari pasayishi mumkin [4].

To'ldirgichlar geterokompozit polimer yoki uning eritmasi bilan yaxshi namlanishi kerak. Agar ular tarkibida boshqa modifikatsiyalovchi yoki plastifikashtiruvchi komponentlar bo'lsa, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya jarayonida xusu-

siyatlarining barqarorligini ta'minlaydigan bir xil tizimni tashkil etishi lozim [5; 6].

Dispers to'ldiruvchi moddalarni qo'llashda ularning konsentratsiyasini hisobga olish, dispersiyasini (zarrachalarning o'lchovlilikini) va polimer-to'ldiruvchi interfeysida hosil bo'ladigan tuzilmani aniqlash muhimdir. Tuzilma hosil bo'lish jarayoni dispersiya, tarqalishning bir xilligi, qadoqlash zichligi va polimerlanish darajasi, dispers hamda tolali to'ldiruvchi zarrachalarning tuzilishi va ketma-ketligiga bog'liq. Tizim tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sir energiyasining muvozanatli taqsimlanishi optimal struktura hosil bo'lishiga olib keladi, bu jarayon asosan tashqi fizik yoki mexanik ta'sir ostida kechadi [7; 1].

To'ldirish darajasining oshishi polimer tar-mog'ida fazaviy o'zgarishlarga olib kelib, to'ldiruvchi yuzasida parda hosil qiladi, bu materialning mustahkamlik xususiyatlarini oshiradi. Ammo, kritik qiymatga yetadigan yuqori konsentratsiya polimerning pardali tuzilishining diskretligining ortishiga va mustahkamlik xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi [8]. Geterokompozit polimer bog'lovchisining o'z-o'zidan tashkil topishi polimer pardasi bilan qoplangan to'ldiruvchi zarrachalardan iborat polimer klasterlarining shakllanishi bilan sodir bo'ladi va bu jarayon sirt energiyasining pasayishi natijasida boshlanadi. Dispers to'ldiruvchi moddalar plyonka polimer makromolekulalari tartibli joylashganda chiziqli klasterlar hosil qiladi (1-rasm) [8].

Asosan metall oksidlaridan tashkil topgan mineral to'ldiruvchi moddalar ham termoplastiklar, ham termosetlashtiruvchi plastmassalar uchun polimer biriktiruvchi moddalar sifatida keng qo'llaniladi [8]. Bularga kaltsit, kaolin, talk, montmorillonit, bo'r, kvarts qumi, bentonit, asbest va boshqalar kiradi [4; 7].

Geterokompozit materiallarning tarkibiy qismlarini aralashtirish jarayonida ko'pincha to'ldiruvchi va polimerning faol funksional guruhlari o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud bo'ladi. Bu polimer strukturasida molekula ichidagi va supramolekulyar o'zgarishlarga olib keladi. O'zaro ta'sir polimerlanish jarayoni va elementlar o'rtasidagi bog'lanish hosil bo'lish qonuniyatlariga muvofiq yuz beradi hamda ularning Mendeleyev davriy tizimidagi faolligi va texnologik usullariga bog'liq bo'ladi.

Mineral kelib chiqishga ega nozik dispersli

to'ldiruvchi moddalar maydalagichlarning cheklanganligi tufayli zarracha hajmi 50–100 mkm dan oshmaydi, odatda esa 20 mkm dan kichik bo'ladi. Bunday granulometrik tarkibga ega to'ldiruvchilar sanoat ishlab chiqarishining turli sohalarida ko'p funktsiyali geterokompozit materiallarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Polimer makromolekulalarining makromolekulyar tuzilishi va qadoqlash zichligi bilan mineralarning ion tuzilishi o'rtasidagi katta farq polimerning amorf tuzilishdan kristall tuzilishga o'tishigacha bo'lgan supramolekulyar tuzilishidagi o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayonda to'ldiruvchi kristall yadro markazlarini hosil qilib, struktura o'zgartiruvchi sifatida ishtirok etadi [4; 6].

Geterokompozit materiallarni (GKM) mustahkamlash uchun eng samarali to'ldiruvchi moddalar noorganik yoki organik kelib chiqishga ega tolali to'ldiruvchilar bo'lib, armaturalash ta'sirini beradi [8; 9].


Mustahkamlovchi tolali to'ldiruvchilarning turlari, xossalari va ishlab chiqarilishi Masuelli [10] tomonidan batafsil o'rganilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, tolalar issiqlik ta'sirida bog'lovchi materialni mustahkamlaydi va ular o'zaro bog'langan materiallar bo'lib, stress va kuchlanish ostidagi xatti-harakatlari ko'pincha plastmassalarga o'xshaydi. Materialni loyihalashda maksimal samaradorlikni hisobga olish, funktsionallik va ishlab chiqarish imkoniyati o'rtasida optimal muvozanatni tanlash zarur, chunki bu deformatsiya mexanizmi uchun mas'ul bo'lgan makromolekulalarning xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Agar to'ldiruvchi moddalar kompozit materiallarning mexanik xususiyatlariga ta'sir qilsa, unda, albatta, kuch xususiyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni hisobga olish kerak. [10] da qayd etilishicha, to'ldiruvchining zarracha yuzasi va hajm nisbati asosiy omillardan biridir. To'ldiruvchining (polimineral kukun) dispersligi ortishi bilan uning funksional guruhlari va interfaza qatlamlari (van der Waals, vodorod va boshqalar) o'rtasida mustahkam bog'lanishlar hosil bo'ladi, namlanish qobiliyati yaxshilanadi, materiallarning termofizik xususiyatlari ortadi, mustahkamlik va issiqlikka chidamlilik oshadi (1-rasm). Kuzatilgan natijalar (1-jadval) [9].

Tadqiqot natijalari. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'ldiruvchi miqdorini oshirish kompozit

materiallarning texnologik xususiyatlarini yomonlashtiradi. Bunday hollarda plastifikatorlar - past molekulyar oligomerlar yoki polimerlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Plastmassalash materialning mo'rtligini pasaytiradi, past harorat va harorat o'zgarishiga chidamliligini oshiradi, lekin ayni paytda issiqlikka chidamliligini, egilish, cho'zish va siqilishdagi mustahkamlikni pasaytiradi, kompozitlarning dielektrik xususiyatlarini yomonlashtiradi, shuning uchun siqilish va egilish paytida kompozitlarning mustahkamlik xususiyatlarini pasaytiradi (1-rasm) [11].

Geterokompozit polimer materiallarida tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan kompozitsiya mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Bu holda asosiy komponent material hajmida bitta uzluksiz bo'shliqni egallagan bog'lovchi bo'lib, unda qolgan moddalarning zarralari tarqaladi, bu yerda tolali va dispers to'ldiruvchi moddalar mustahkamlovchi va mustahkamlovchi komponentlar bo'lib xizmat qiladi, operatsion yuk ta'sirida yukning bir xil taqsimlanishiga yordam beradi, tolalar esa asosiy yukni oladi, kuchlanishni bir xil taqsimlaydi.



1-rasm. Har xil korroziya turlarida metallning mexanik ko'rsatkichlarini o'zgarish xossalari:

1-umumiy korroziya; 2-mahalliy (uchoqli) korroziya; 3-kristallar oralig'i korroziya.

Mustahkamlovchi tolalarning ishlash chegarasi uning fazaviy interfeysdagi kritik uzunligini (l_k) aniqlaydi [7].

$$l_k = \frac{\sigma_B d}{2\tau_{AD}} \quad (1)$$

bu yerda d - diametri; σ_B - mustahkamlik

chegarasi; t_{AD} - kesish kuchi.

To'qimalarning yo'nalishi va tartibi geterokompozitning zichligiga ta'sir qiladi va namlash burchagi uning bir xilligiga g'ovaklikning yo'qligi ustunligi bilan ta'sir qiladi, bu kompozitsiyaning reologiyasiga bog'liq bo'ladi. Qovushqoqlikning oshishi bilan namlanishning pasayishi kuzatiladi, bu tuzilmani shakllantirish jarayonida havo pufakchalari yoki reaksiya gazlarini ushlab turishga olib keladi.

Konglomeratlarda ko'pincha turli donali qumtoshlarning linzalari, qumtosh qatlamlarida esa dag'al bo'lakli jinslarning linzalari qayd etiladi. Bunday linzalarning uzunligi boshlang'ich linzalardan o'nlab metrgacha, qalinligi esa 0,1 dan 2,5 m gacha bo'ladi.

Yelpig'ichsimon-aralash zona janubiy va g'arbiy chekka qismlarida sezilarli darajada shag'al-qum-alevritli litofatsiyalar bilan ifodalanadi.

Yelpig'ichsimon-bo'lakli zona. Ushbu fatsial zona cho'kindilari Yakkasaroy, Langar, G'ilon (karabil, olmuurod va qiziltosh svitalari) maydonlari kesimlarida keng tarqalgan. Fatsiyalar bir nechta tog' daryolarining birlashgan konussimon yoyilmalarining shleyfidan iborat bo'lib, ular, ehtimol Paleogashqadaryo, Paleotanxozdaryo va Paleolangardaryo asosiy o'zanlarini tashkil etgan. Har xil shag'alli konglomeratlar, gravelitlar, har xil donali qumtoshlar va qumlashgan alevrolitlarning qatlamlanishi bilan xarakterlidir. Gravelitlar va qumtoshlar zonadagi tog' jinslarining asosiy turlari hisoblanadi. Donador materiallarni saralanishi juda yomon. Jinslarning rangi qizil-qo'ng'ir, qo'ng'ir-qizil, ba'zi

Qashqadaryo egilmasi va unga tutash JG'HT hududlarida tarqalgan pastki va o'rta aptning kaligrek va qo'lqamish svitalari, o'rta albaning luchak svitasi qumli-karbonatli jinslarida kuzatiladi.

Suv osti deltasi turg'un zonasi tarkibida ko'mirsimon detrit, qo'shimchalar, siderit konkret-siyalari, tub faunasi va qatlamlanishi bo'yicha muskovit tangachalari ko'rinishidagi qo'ng'ir-qizil dog'li yashil gillar bilan ifodalanadi. Cho'kindilar kam qalinlikdagi 0,5-1,5 m va linzasimon qatlamlar ko'rinishida Oqrabot, Pachkamar va boshqa maydonlarda kaligrek svitasi kesimida rivojlangan. G'arbiy yo'nalishda ularning qaliligi ortib boradi.

Laguna fatsial kamari cho'kindilari, asosan barremning laylimkon va machay svitalari hamda berrias-valanjinning olmurod va karabil svitalari kesimida tarqalgan bo'lib, ular turli kattalik va shakldagi yashil dog'lar bilan qizil-jigarrang, olchajigarrang, qizg'ish-qo'ng'ir rangli gipslashgan gillar bilan ifodalanadi. Ularning shakllanishi nisbatan harakatchan gidrodinamik muhitga ega bo'lgan kuchsiz sho'rlangan lagunada sodir bo'lgan.

Gil qatlamlari va pachkalari orasida ko'pincha qalinligi kichik (0,3-5,0 m) och kulrang, yashil-kulrang va ko'kimtir alevrolitlar, mayda donali glaukonitlar va qiya qatlamli qumtoshlar, sayoz suvli havzaga xos mavjlar (ryabi) kuzatiladi. Aftidan, bu jinslar janubi-g'arbdan dengiz suvlarining qisqa muddatli bostirib kelishi (transgressiya) davrida hosil bo'lgan. Tog' jinslarida muhrlangan torinosuella almuradisa, acrummaina, textularia almuradisa kabi dengiz foraminiferalarining mavjudligi ham shundan dalolat beradi [5].

Laguna cho'kindilari neokom kesmasi umumiy hajmining 70-80% ni tashkil qiladi, shimoliy kesmalarda (Shurason maydoni) 40-50% gacha qisqaradi, svitalarning umumiy qalinligi 60-100 m.

Natijalar. Qashqadaryo egilmasida *to'lqin urilma fatsial kamarining* cho'kindilari Yakkasaroy, Sho'roson, Toshqo'rg'on, G'ilon maydonlarining shimoliy kesimlaridagi kundalangtov (barrem), qo'lqamish (apt) va luchak (alb) svitalari, shuningdek charshang'i va oqqapchig'ay svitalari (alb) yotqiziqlari orasida rivojlangan.

Quyi bo'r davrining kundalangtov va luchak davrlarida dengiz sayozligi sharoitida (suv osti sayozliklarida) organogen (mshanka, korbula,

ustritsa), organogen-detrit va oolitli ohaktoshlar mergellar, ohakli gillar va kulrang polimikt tarkibli qumtoshlar (0,5-2,0 m) qatlamlari bilan shakllangan.

Ohaktoshlarning ayrim qatlamlari, xususan dengiz tipratikanlarining ignalari bo'lgan ustritsa, pelesipod, mshanka faunasining chig'anoqlaridan iborat. Ohaktosh qatlamlarining ustki yuzasida Pachkamar, Igrisu, Kulkamish, Tyubegatan maydonlari, Sherobod-Sariqamish antiklinal tizmasi hududlarida yirik to'lqinsimon ryab belgilari kuzatiladi, ularning qirralari orasidagi masofa 50-60 sm gacha yetadi.

Ohaktoshlarning oolitli strukturasi, mavjlanish belgilari (znaki ryabov), ularning o'lchamlari va tarqalish masshtablaridan qat'iy nazar, dengiz tubi relefining sayoz-suv urilmali xarakterini va uning suvlarining faol dinamik rejimini ko'rsatadi.

O'rganilayotgan hududning janubiy va o'rta hududlaridagi barrem oolitli ohaktoshlarda ham yirik to'lqinsimon belgilar kuzatilib, ular yaqqol profilga ega va to'lqinsimon qirralari aniq parallel joylashgan (Badaxshon, Yakkasaroy, Langar maydonlari).

Klanseyning boshida (kulqamish vaqti) apt dengizining butun akvatoriyasi sayozlashishni boshdan kechirdi, bu esa yuqorida ko'rsatilgan havza ichidagi sayozliklarning shakllanishiga olib keldi, ularning atrofida qalinligi 0,2 dan 20 m gacha bo'lgan ustritsalarning qalin devorli chig'anoqlarining bo'laklarini o'z ichiga olgan katta bo'lakli kvarts-kremniyli jinslar hosil bo'lgan [4].

To'lqin urilmali qumtoshlar qiyshiq qatlamli linzasimon kesishuvchi, ponasimon, turli yo'nalishli "archasimon" va parsimon morfologiyasi bilan tavsiflanadi. Qiya seriyalarning qalinligi desimetrlar va birinchi metrlar bilan o'lchanadi. Qiya qatlamlarning yotish burchaklari, odatda, 20-30° dan oshmaydi va ko'pincha janubi-g'arb va shimoli-sharqqa yo'nalgan bo'ladi. Dengiz akvatoriyasi tomon yo'nalishda to'lqin urilish turi dengiz tubidan oqish turi bilan almashgan.

Shimoliy kesmalarda (G'ilon, Shurason, Shoxshar, Toshqo'rg'on maydonlari) to'lqin urilishini mujassam etgan alb gillari rivojlangan bo'lib, ular kam qalinlikda bo'lib, asta-sekin terrigen qumalevrit materiallari bilan boyib boradi va to'liq

fatsial ravishda ular bilan almashinadi (1-rasmga qarang).

Mazkur kamarga xos cho'kindilar alb va senoman kesimlarida rivojlangan. Fatsial-paleo-geografik sharoit birmuncha o'zgarishlarga uchragan. Cho'kindi to'planish havzasi usuvchan tektonik harakatlarning tez-tez namoyon bo'lishi va dengiz havzasi suv sathining o'zgarishi natijasida suvlarning dinamik va tuz rejimining tebranuvchi o'zgarishlarini boshdan kechirgan. Bunda, asosan sherobod davrida (alb va senoman asrlari oralig'ida) dengiz tubining butun maydonida bir vaqtning o'zida autigen va qayta yotqizilgan glaukonit donalari bilan sezilarli darajada boyitilgan kvars-dala shpati tarkibli saralangan qum va alevrit cho'kindilarining to'planishi sodir bo'lgan [4].

Qumtoshlar va alevrolitlar hamma joyda o'ziga xos yashil-kulrang va kulrang-yashil rangli bo'lib, ularning intensivligi ulardagi umumiy glaukonit miqdorining ortishiga bog'liq. Qum-alevritli tarkib, undagi glaukonit cho'kindilarining yuqori miqdori, ularning qalinligi 5-50 m bo'lganda mintaqaviy miqyosda saqlanib qolgan. Cho'kindilarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri tub-oqish tipidagi mayda bir yo'nalishli qiyshiq qatlamli tekstura hisoblanadi.

Glaukonitli cho'kindilar (jinslardagi glaukonit miqdori 40 % gacha yetadi) to'liq urish kamaridan uncha uzoq bo'lmagan masofada, Langar-Dukonxona-Qorail-Tyubagatan maydonlari oralig'idagi alb va alb-senoman dengizlarining tub oqimlari ta'siri sharoitida shakllangan.

Ular oqim bilan doimiy yuvilganligi sababli eng yaxshi kollektorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning g'ovakligi 21% gacha, o'tkazuvchanligi 150 millidarsigacha. Neft-gaz geologiyasi sohasida ular X mahsuldor gorizont nomi bilan ma'lum bo'lib, Buxoro-Xiva neftgazli regionining bir qator konlarida (Gazli, Setalontepa konlari va boshqalar) ushbu gorizontda gaz uyumlari topilgan. Bundan tashqari, sanoat va qishloq xo'jaligi uchun ularning ulkan agrokom ashyo zaxiralariga ega bo'lgan glaukonitga boyligi katta ahamiyatga ega.

Markaziy tindiruvchi fatsial kamariga charshang'i (yuqori apt), kallamazar (quyi alb) va oqqapchig'ay (yuqori alb) svitalarining gillari kiradi, ular o'rta va janubiy hududlarda tarqalgan bo'lib, ular mustaqil pachkalarni (10-30 m) va qalin qatlamlarni (80-130 m) tashkil qiladi. Ularda

doimiy ravishda kam qalinlikdagi (0,05 dan 0,8-1,0 m gacha) organogen va organogen-detritli glaukonitli ohaktoshlarning qatlamchalari va qatlamchalari mavjud.

Gillar va ohaktoshlar tarkibida makro- va mikrofauna qoldiqlari (ammonitlar, pelesipodlar, gastropodlar, braxiopodlar, foraminiferalar, ostrakodalar) va ko'mirga aylangan o'simlik detritlari ko'p miqdorda uchraydi. Shuningdek, qo'ng'ir temirtosh (o'lchami diametri 3-5 dan 70 sm gacha va qalinligi 0,5-15 sm) va karbonatlar (ko'ndalang kesimi 20 sm gacha) disk shaklidagi yumaloq zanjirsimon joylashgan konkretsiyalar gil qatlamlari yuzasida qayd etilgan.

Loylar ushlab ko'rilganda yog'li, qalin va yupqa qatlamli, zich, mayda zarrali (tonkodispersniy) bentonitga o'xshash. Granulometrik tarkibda ularning 0,001 mm li fraksiyasi 40-60% ni, 0,1-0,01 mm li fraksiyasi esa 0,5 dan 10% gachani tashkil etadi.

Gillarning mineralogik tarkibi montmorillonitli, gidroslyudali va aralash qatlamli. Immersion muhitda gillarning alevritli fraksiyasidagi ulushlari (foizda): kvars – 60 gacha, dala shpatlari – 30 gacha, slyudalar – 5 gacha, gematit-limonit – 30 gacha, pirit – 50 gacha, barit – 20 gacha, glaukonit – 5 gacha, shuningdek epidot, sirkon, granat, sfen, turmalin va rogovaya obmanka – birinchi foizlarda aniqlangan.

Xulosa. Shunday qilib, Qashqadaryo egilmasi quyi bo'r yotqiziqlarining litologik-fatsial zonalligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- o'rganilayotgan hududda maydon va stratigrafik jihatdan keng tarqalishi bilan tavsiflangan quyi bo'r yotqiziqlarida terrigen va xemogen-organogen guruhlarining deyarli barcha ma'lum cho'kindi jins turlari: dag'al va mayda bo'lakli (brekchiyalar, konglomeratlar, gravelitlar, turli donali qumtoshlar, alevrolitlar, pattumlar) jinslardan tortib, gilli va karbonatlarga uchrashi aniqlangan.

- ularning rangi turli tusdagi qizil, sariq, yashil, oq, kulrang, to'q kulrang, qo'ng'ir bo'lib, cho'kmalar hosil bo'lish davrida havzada o'zgaruvchan oksidlanish va tiklanish geokimyoviy va iqlim sharoitlari mavjudligini ko'rsatadi.

- yotqiziqlar bir zaylda quruqlik (tog'osti-yelpig'ichli, tekislik-vodiy, suv usti-delta) va suv-

osti (ko'l-laguna, dengiz) komplekslariga tegishli. Ulardan birinchisi berrias, valanjina, goteriv va qisman barrem, apt va alba kesimlarida ajralib turadi, ularning umumiy qalinligi shimolda birinchi yuz metrdan janubda bir kilometracha yetadi. Ikkinchi kompleks berrias-valanjinda (quyi qarabil, almurod svitalari), barremda (okuzbuloq svitasi), apt, alb va alb-senomanda rivojlangan.

- dengiz fatsiyalari orasida qum-gilli, karbo-natli jinslarda va kamdan-kam hollarda bazal konglomerat-gravelitlarda ifodalangan to'liq urilishi fatsiyasi jinslari eng ko'p rivojlangan. Suv osti deltasi fatsiyalari qum-alevritli va gilli yotqiziqlar, markaziy cho'kindi – gillar, chuqur tubdan oquvchi – glaukonitli qum-alevritli va organogen-detritli jinslar bilan ifodalanadi.

- u yoki bu turdagi cho'kindi foydali qazilmalarning dinamik fatsiyalar turlari bilan o'zaro

bog'liqlik aloqalari aniqlangan. Xususan, neo-komning kontinental fatsiyalari bilan Xontaxta, Kulqamish, Langar, Tyubegatan maydonlarida mis, sochma oltin, Toshqo'rg'on maydonida kumush va kobalt, Makrid, Qamashi va Dehqonobod maydonlarida qurilish materiallari, shuningdek Yakkasaroy maydonida neft va gaz (apt XII va goteriv XIII mahsuldor gorizontlari) uyumlari mavjudligi aniqlangan. Glaukonitlar (Pachkamar, Karail, Langar, Olma, Kulkamish maydonlari), keramzit va sement xom ashyolariga yaroqli bo'lgan bentonitsimon gillar (Kan, Pachkamar, Oqmechet maydonlari) hamda kvars-dala shpatli qumlar va alevrolitlar tub-oqimli va markaziy cho'kindi tinish fatsiyalar bilan bog'liqligi, shuningdek laguna va suv osti deltasi cho'kindilariga oid gipsga istibolli maydonlar (Kansay, Langar) aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабаев А.Г. Литология, палеогеография и нефтегазоносность меловых отложений Западного Узбекистана. Ташкент: АН РУз, 1979. -С. 17.
2. Попов В.И., Макарова С.Д., Филиппов А.А. Руководство по определению осадочных фатсиальных комплексов и методика фатсиально-палеогеографического картирования. -М.: Недра, 1963.
3. Хайитов Н.Ш. Бешкент-Қашқадарё букилмалари майдонларидаги остки бўр ётқиқиқларида литологик-стратиграфик тутқиқларнинг шаклланишини лито-фациал жихатдан асослаш // Тошкент, Узбек нефт и газ журналі. 2001, №1. 4-6 б.
4. Шоймуротов Т.Х., Юлдашев Ж.Ю. Особенности формирования и размещения месторождений полезных ископаемых в осадочных породах мезокайнозоя Узбекистана // Матер. Межд. конф. «Условия формирования, закономерности размещения и прогнозирования месторождений полезных ископаемых» и Межд. симпозиума «Современные методы исследований перспективы использования включений минералообразующих сред в науке и практике АПИФИС-ИИИ. Ташкент, 2006. -С.94-96.
5. Эгамбердыев М.Э., Ишниязов Д.П., Шоймуротов Т.Х. Текстуриный анализ меловых отложений Южного Узбекистана и его рол в реконструкции каналов транспортировки терригенного материала // Узб. геол.ж., 1992, №1, с.41-52.

UO‘K: 66.061:665.7

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.18

TABIIY GAZLARNI MEA VA DEA ALKANOLAMINLI ERITMALAR YORDAMIDA NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASH JARAYONINING SELEKTIVLIGI



**Yuldashev Tashmurza
Raxmanovich**

Prof., t.f.d., Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail:
tashmurzayuldashev1959@gmail.com



**Eshniyozov Akmal
Dilmurodovich**

“Uzbekistan GTL” MChJ
Texnologik jarayonni
loyihalashtirish bo'limi,
Yetakchi muhandis,
Qarshi, O'zbekiston
E-mail:
sardoruralov@gmail.com



**Yuldashev Nuriddin
Tashmurzayevich**

Qarshi xalqaro universiteti
assistenti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: nty4002@gmail.com



**Abdullayev Shaxzod
Abdiraxmon o'g'li**

“Uzbekistan GTL” MChJ Umumzavod
xo'jalik sexi Qurilma operatori, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail:
shahzodbekabduraxmonovich@gmail.com

Annotatsiya. Ilmiy maqolada tabiiy gaz tarkibidagi nordon komponentlarni selektiv tozalashda optimal absorbent yoki ularning kombinatsiyalangan turlarini tanlash mezonlari va ketma-ketliklari, shuningdek absorbsiya asosidagi tozalash texnologiyasida uchraydigan muammolar yoritilgan. Mono- va dietanolamin eritmaları asosida vodorod sulfidi, uglerod dioksidi hamda merkaptanlarni yutishda qo'llash usullari va ularning samaradorligi o'rganilgan. Kolonna turidagi absorber uchun alkanolaminlarning optimal tarkibi ishlab chiqilib, tajribalar natijasida MEA va DEA eritmalariga efirlar qo'shish orqali yangi kombinatsiyalangan absorbentlar sintez qilingan. Tadqiqotlarda MEA va DEA ning turli nisbatlari qo'llanilib, tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash samaradorligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tabiiy gaz, aminli eritmalar, MEA, DEA, absorbsiya, selektivlik, regeneratsiya.

СЕЛЕКТИВНОСТЬ ПРОЦЕССА ОЧИСТКИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АЛКАНОЛАМИНОВЫХ РАСТВОРОВ MEA И DEA

**Юлдашев Ташмурза
Рахманович**

Проф., д.т.н., Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Эшнӣёзов Акмал
Дилмуродович**

Ведущий инженер отдела
проектирования технологических
процессов ООО «Uzbekistan
GTL»,
Карши, Узбекистан

**Юлдашев Нуриддин
Ташмурзаевич**

Каршинский международный
университет, ассистент,
Карши, Узбекистан

**Абдуллаев Шахзод
Абдирахмон угли**

Оператор оборудования
общезаводского хозяйственного
цеха ООО «Uzbekistan GTL», г.
Карши, Узбекистан

Аннотация. В научной статье рассмотрены последовательности и критерии выбора оптимального абсорбента или их комбинированных типов для селективной очистки природного газа от кислых компонентов, а также проблемы, возникающие в технологии абсорбционной очистки. Изучено применение растворов моно- и диэтанолламинов для поглощения сероводорода, диоксида углерода и меркаптанов, а также их эффективность. Для колонного типа абсорбера

разработан оптимальный состав алканоламинов. В ходе экспериментов были синтезированы новые комбинированные абсорбенты путем добавления эфиров к растворам MEA и DEA. При использовании различных соотношений MEA и DEA получены результаты по эффективности очистки природного газа от кислых компонентов.

Ключевые слова: природный газ, аминовые растворы, MEA, DEA, абсорбция, селективность, регенерация.

SELECTIVITY OF NATURAL GAS PURIFICATION FROM ACIDIC COMPONENTS USING MEA AND DEA ALKANOLAMINE SOLUTIONS

**Yuldashev Tashmurza
Rakhmanovich**

Professor, Doctor of Technical
Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Eshniyozov Akmal
Dilmurodovich**

Leading Engineer of the
Technological Process Design
Department at "Uzbekistan GTL"
LLC, Karshi, Uzbekistan

**Yuldashev Nuriddin
Tashmurzayevich**

Karshi International University,
assistant, Karshi, Uzbekistan

**Abdullayev Shakhzod
Abdirakhmon ogli**

"Uzbekistan GTL" LLC General
Plant Farm Equipment Operator,
Karshi, Uzbekistan

Abstract. The scientific article analyzes the sequence and criteria for selecting optimal absorbents or their combinations for the selective removal of acidic components from natural gas, as well as challenges within absorption-based purification technology. The application of mono- and diethanolamine solutions for the absorption of hydrogen sulfide, carbon dioxide, and mercaptans has been investigated. An optimal alkanolamine composition for column-type absorbers has been developed. Experimental studies led to the synthesis of new combined absorbents by adding ethers to MEA and DEA solutions. Different ratios of MEA and DEA were tested, and results demonstrated the efficiency of natural gas purification from acidic components.

Keywords: natural gas, amine solutions, MEA, DEA, absorption, selectivity, regeneration.

Kirish. Tabiiy gazni nordon komponentlar va ularning zaharli gazlaridan tozalashda optimal absorbent yoki kombinatsiyalangan absorbent turlarini tanlash shartlari va mezonlari hamda ularni qo'llash texnologiyalarining tahlili ko'rib chiqilgan. Dunyo tajribasida neft va gaz xomashyosini sanoat miqyosida qayta ishlashga tayyorlashda alkanolaminli tozalashning turli usullari qo'llaniladi. Jumladan, monoetanolamin (MEA), dietanolamin (DEA), trietanolamin (TEA) va metildietanolamin (MDEA) eritmaları asosida vodorod sulfidi (H_2S), uglerod dioksidi (CO_2), merkaptanlar hamda oltingugurt birikmalarini yutuvchi sifatida ishlatilishi, ular bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Kimyoviy reagentlar yordamida zaharli komponentlarni samarali tozalashda yutuvchi eritmaning ko'piklanishini oldini olish, shuningdek absorberning konstruktiv xususiyatlarining jaryonga ta'siri alohida o'rganilgan. Ishda kolonna turidagi absorberdan foydalanish maqsadga muvofiq deb tavsiya etiladi. Shuningdek, tabiiy gaz tarkibidagi kislotali gazlar hamda issiqlikka

chidamli tuzlarni aminli eritmalar yordamida samarali tarzda tozalashga ta'sir etuvchi omillar va mazkur usulning texnik-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlil qilingan [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8].

Metodologiya. Tabiiy gaz tarkibida uglevodorodlar bilan bir qatorda nordon komponentlar — uglerod dioksidi (CO_2), vodorod sulfid (H_2S), merkaptanlar (RSH) va boshqa birikmalar ham mavjud. Ushbu aralashmalar muayyan texnologik sharoitlarda neft va gaz mahsulotlarini tashish hamda ulardan foydalanish jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Birlamchi qayta ishlash, tashish va iste'molda yuzaga keladigan muammolarni oldini olish uchun tabiiy gazdagi zaharli komponentlarning miqdori bo'yicha belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlaydigan zaruriy chora-tadbirlar oldindan ishlab chiqiladi.

Shu bois gazlarni tozalash texnologiyalari va absorbentlar tanlash mezonlari ishlab chiqilayotganda "keraksiz" komponentlarni chuqur darajada ajratib olish imkoniyatlari hamda ularni

qayta ishlash orqali kerakli mahsulotlarni olish masalalari ko'rib chiqiladi [8, 9, 10].

Kimyo sanoatida qayta ishlash jarayonlarida turli usullar va texnologiyalar qo'llaniladi. Ular ishlatiladigan absorbent moddalar, nordon komponentlarni ajratib olish samaradorligi va qayta ishlanadigan xomashyo hajmi bilan bir-biridan farqlanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — yuqoridagi muammolarni ilmiy asosda hal etish, ya'ni aminli eritmalaridan kompozitsion absorbentlar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularning yordamida tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalash metodikasini yaratishdan iborat.

Muammoni hal etish usuli. Tadqiqotda adabiyotlar sharhidan olingan statistik ma'lumotlar, nazariy hisob-kitoblar hamda amaliy tajribalar natijalari asos qilib olindi.

Natijalar tahlili va muhokama. MGQIZ texnologik tizimida tabiiy gaz tarkibidagi nordon komponentlarni ajratib olishda aminli absorbentlardan foydalanish muhim bosqich hisoblanadi. Amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan absorbentlardan biri dietanolamin (DEA) bo'lib, u bir qator texnologik afzalliklarga ega. Biroq, DEA asosida ishlovchi tizimlar yuqori korroziya faolligiga ega bo'lib, qurilmalarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, aminli eritmalar sarfining yuqoriligi, regeneratsiya uchun zarur bo'lgan issiqlik energiyasining ko'pligi, eritgichlarning bug'lanib yo'qolishi, regeneratsiya samaradorligining pastligi va aminlarning termal barqarorligi yetarli emasligi bu usulning ekspluatatsion samaradorligini cheklaydi.

Natijada, texnologik jarayonning tannarxi ortadi va ekologik xavf darajasi kuchayadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — aminli tozalash jarayonida yuzaga keladigan texnik va ekologik muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi optimal yechimlarni ishlab chiqishdan iboratdir [10, 11, 12]. Ayniqsa, gaz tarkibidagi H₂S va CO₂ kabi nordon komponentlarning aminlar bilan o'zaro ta'siri ushbu yo'nalishdagi asosiy ilmiy qiziqish ob'yekti hisoblanadi. Bu reaksiyalar aminlarning kimyoviy tuzilmasiga, xususan azot atomidagi o'rinbosar guruhlarining xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ular aminlarning reaktivligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur ilmiy izlanishlar davomida mono-etanolamin (MEA) va dietanolamin (DEA) asosida tayyorlangan yangi kombinatsiyalangan absorbentlar sinovdan o'tkazildi. Ularning ishlash sharoitlaridagi afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, gaz tozalash texnologiyasini takomillashtirish, energiya sarfini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish bo'yicha muhim natijalar olindi [3, 9, 10, 12].

MEA va DEA eritmaları yordamida H₂S va CO₂ gazlarini selektiv ajratib olish texnologiyasida yutilish tezligi va jarayon parametrlari muhim ahamiyat kasb etadi. H₂S ni aminli eritmalar yordamida yutish jarayonida selektivlik darajasi asosan CO₂ ning yutilmay qolgan miqdori bilan belgilanadi.

Reaksiya kinetikasi nuqtayi nazaridan, H₂S ning aminlar bilan o'zaro ta'siri juda tez, deyarli bir zunda sodir bo'ladi, CO₂ bilan reaksiyasi esa nisbatan sekin kechadi. Bu holat H₂S ning gaz fazasida, CO₂ esa suyuqlik fazasida massauzatish qarshiligi ta'sirida yutilishini anglatadi. Ayniqsa, MEA eritmasining H₂S ni tez yutishi va CO₂ bilan nisbatan sust reaksiyaga kirishishi uning selektivlikdagi ustunligini ko'rsatadi.

DEA yordamida o'tkazilgan tajribalar H₂S ni CO₂ ga nisbatan yuqori selektivlikda ajratib olish imkoniyatini ko'rsatdi. Bunda gaz-suyuqlik kontakti davomiyligi muhim rol o'ynaydi: kontakt vaqti qisqargan sari H₂S ni ajratib olish darajasi ortadi, CO₂ esa amaliy jihatdan yutilmay qoladi.

Shu sababli, absorber apparatlarining geometrik parametrlari va ishchi rejimlari shunday moslashtirilishi kerakki, gaz tarkibidagi H₂S to'liq yutilsin, ammo CO₂ ning yutilishi minimal bo'lsin. Jarayon samaradorligini oshirishda kontakt vaqtini optimallashtirish selektiv yutilish mexanizmining asosiy omili hisoblanadi [12, 14, 15, 16].

MEAning DEAg nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

– H₂S va CO₂ gazlarining aminlar bilan reaksiyalanishida ajraladigan issiqlik miqdori nisbatan past bo'lgani sababli, absorbentlarni qayta tiklash (regeneratsiya) jarayonida energiya sarfi kamayadi. Bu esa texnologik jarayonning umumiy energiya samaradorligini oshiradi.

– Aminli eritmalar karbon kislotalar va korroziya ingibitorlari bilan reaksiyaga kirishganda rege-neratsiyalanmaydigan kimyoviy birikmalar —

amidlar hosil qilmaydi. Natijada aminlarning sarfi kamayadi hamda issiqlik almashgichlarning ichki yuzasida qattiq cho'kindilar to'planishining oldi olinadi.

– MEA va DEA eritmalari past to'yingan bug'lar bosimiga ega bo'lgani tufayli kam uchuvchanlik xususiyatiga ega. Bu esa regeneratsiya yoki ishlash jarayonida amin komponentlarining bug'lanib yo'qolishini kamaytiradi.

– Shuningdek, monoetanolamin (MEA) va dietanolamin (DEA) eritmalari bilan solishtirganda, metildietanolamin (MDEA) iste'moli biroz yuqoriroq bo'lsa-da, uning ekspluatatsion va energiya samaradorligi ko'plab hollarda ustun hisoblanadi.

Absorbsiya jarayonida jarayon parametrlari va massaalmashinuv qurilmalarining ta'siri. Metildietanolamin (MDEA) vodorod sulfidni (H_2S) yutishda yuqori faollikka ega bo'lsa-da, uning karbonat angidrid (CO_2) bilan reaksiyaga kirish tezligi nisbatan sekin kechadi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun MDEA eritmasiga birlamchi yoki ikkilamchi aminlar qo'shib, kimyoviy jihatdan faol aralash aminli eritma hosil qilinadi. Bu yondashuv CO_2 ni samarali yutish imkoniyatini oshiradi.

CO_2 bilan reaksiyaning sekinligi MDEA asosida ishlatilayotgan absorber apparatlarining konstruktiv parametrlariga bog'liq. Jumladan, apparatdagi likopchalar (nasadkalar) turi va gaz-suyuqlik kontakti davomiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. CO_2 ni samarali ajratib olish uchun MDEA eritmasi absorberda yetarlicha uzoq vaqt davomida gaz fazasi bilan aloqada bo'lishi lozim.

Bosimning past bo'lgan holatlarida eritmaga yuqori reaktiv aminlar qo'shilishi CO_2 ni yutish samaradorligini yanada yaxshilaydi. Bu esa MDEA asosidagi aralash absorbentlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi va tayyor gazga qo'yiladigan ekologik hamda texnologik talablarga to'liq javob berishini ta'minlaydi.

Aminli tozalash texnologik jarayonining ketma-ketligi. Aminli tozalash texnologiyasi doirasida **absorbsiya jarayoni** maxsus kolonna tipidagi qurilmada amalga oshiriladi (1-rasmga qarang). Bu jarayonda tabiiy gaz pastdan yuqoriga, aminli eritma esa yuqoridan pastga qarab harakatlanadi. Shu tarzda gaz va suyuqlik fazalarining uzluksiz qarshi oqimli kontakti

ta'minlanadi.

Absorber apparatining ichki qismida joylashgan nasadka yoki likopchalar fazalar orasidagi kontakt yuzasini kengaytiradi. Kimyoviy reaksiyalar asosan suyuqlik fazasida kechib, bunda vodorod sulfid (H_2S) va karbonat angidrid (CO_2) molekulalari aminli eritma bilan kimyoviy bog'lanib, xemosorbsiya jarayoni yuz beradi.

Amin eritmasi nordon komponentlar bilan to'yingach, u **desorber (bug'lantirish kolonnasi)** ga yuboriladi. Bu bosqichda aminli eritma regeneratsiyalanib, ya'ni gaz birikmalaridan tozalanadi. Desorbsiya endotermik jarayon bo'lib, issiqlik yutilishi, harorat oshishi va bosimning pasayishi hisobiga kechadi.

Barqaror ish rejimini ta'minlash uchun tizimga **antipen agentlar** (ko'piklanishga qarshi moddalar) qo'shiladi. Bu uskunaning ishonchli va uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Aminli eritmalarining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar. Aminli eritmalar asosida ishlovchi qurilmaning samaradorligi bir qator omillar ta'sirida susayishi mumkin:

– Aminlarning yuqori harorat ta'sirida yoki qo'shimcha kimyoviy reaksiyalar natijasida termik parchalanishi (destruksiya);

– Qurilma va quvurlar ichki sirtining korroziyaga uchrashi;

– Eritmalarining qatronlashuvi (smolalashuvi);

– Gazni tozalash jarayonida ko'piklanish;

– Uskuna va quvurlar ichida cho'kindi (tuzlar, reaksiyaga kirishmagan aralashmalar) hosil bo'lishi.

Ayniqsa, ko'piklanishning kuchayishi absorbent sarfining oshishiga va natijada tayyor gaz mahsuloti sifatining pasayishiga olib keladi. Uning eng muhim tashqi belgisi kolonnadagi bosimning keskin pasayishidir.

Korroziya jarayoni. Aminli eritmalarining korroziya faolligi turlariga qarab quyidagicha kamayadi:

$MEA > DEA > MDEA$ [18].

Korroziya intensivligi gaz tarkibidagi uglerod dioksid (CO_2) va vodorod sulfid (H_2S) nisbiy miqdorlariga bevosita bog'liq. Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, CO_2 H_2S ga qaraganda kuchliroq korrozion ta'sir ko'rsatadi. Biroq, komponentlarning **nisbiy miqdori** muhim hisoblanadi, chunki ular amin

eritmasining kimyoviy tarkibini belgilaydi.


Bundan tashqari, korroziya darajasiga **harorat, bosim, pH** kabi fizik-kimyoviy sharoitlar, shuningdek, uskunaning konstruksion materiali (masalan, po‘lat tarkibi) ham ta’sir qiladi.

Haroratning oshishi va eritmadagi CO₂ konsentratsiyasining ortishi korroziya jarayonini kuchaytiradi. Shu bois, bunday sharoitlarda eritma hajmini oshirib filtratsiyaga yuborish zaruratga aylanadi.

Agar po‘lat sirtida temir sulfid (FeS) himoya qatlami hosil bo‘lgan va u eroziyaga uchramagan bo‘lsa, bu qatlam korroziyaga qarshi parda vazifasini bajaradi. Shu sababli, CO₂ nisbatan past, ammo H₂S yuqori bo‘lgan hollarda tozalash jarayonini to‘yintirilgan eritmalar yordamida amalga oshirish mumkin.

Issiqlikka chidamli tuzlar (ICHT) muammosi. Aminli eritmalarini regeneratsiya qilish jarayoni yuqori harorat talab etadi. Ayniqsa, regeneratsiya jarayonida kislorod ishtirok etganda, alkanolaminlarning parchalanishi kuchayadi. Natijada, amin kationlari organik (amin parchalanish mahsulotlari) va noorganik kislotalar anionlari bilan reaksiyaga kirishib, **issiqlikka chidamli tuzlar (ICHT)** hosil qiladi.

Bunday tuzlar eritmada to‘planib borib, tozalash samaradorligini pasaytiradi, uskunaning ish faoliyatida turli nosozliklarga olib keladi hamda korroziya jarayonini tezlashtiradi.



1-rasm. Kolonna turidagi absorberning umumiy ko‘rinishi.

Issiqlikka chidamli tuzlarning (ICHT) ta’siri va ularni bartaraf etish usullari. Absorbsiya tizimida issiqlikka chidamli tuzlar (ICHT) ning yig‘ilishi qator ekspluatatsion muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bunday holatlar:

- CO₂ ni yutish samaradorligini pasaytiradi;
- eritmaning fizik-kimyoviy xossalarini yomonlashtiradi;
- korroziya faolligini oshiradi;
- uskuna va quvurlar tixalishiga;
- eroziya jarayonlarining kuchayishiga sabab bo‘ladi.

ICHTlarni aminli eritmalaridan olib tashlash uchun ko‘pincha distillyatsiya (ion almashinuv) yoki elektrodializ (YED) usullari qo‘llaniladi. Biroq, bu yondashuvlar ICHT tarkibidagi ionlar bilan birga eritmadagi boshqa zaryadlangan zarrachalarning ham tizimdan chiqib ketishiga olib keladi. Shu bilan birga, parchalanish natijasida hosil bo‘lgan neytral mahsulotlarni ajratib olish uchun qo‘shimcha ishlov berish bosqichlari — masalan, qumli filtrlash yoki faollashtirilgan ko‘mirdan foydalanish talab etiladi.

ICHTlar texnologik gaz va suyuqlik tarkibida mavjud ayrim kislotali komponentlarning aminlar bilan qaytar bo‘lmagan reaksiyalari natijasida shakllanadi. Bu jarayonlar natijasida xloridlar, sulfatlar, formiatlar, atsetatlar, oksalatlar, tiotsinatlar va tiosulfatlar kabi mustahkam kimyoviy tuzlar hosil bo‘ladi. Ular amin eritmasi aylanish konturida asta-sekin to‘planib boradi. Agar ICHT konsentratsiyasi ruxsat etilgan darajadan oshsa, texnologik jarayon barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi va uskunaning ekspluatatsiya jarayonida turli nosozliklarga olib keladi.

MEA+PEGDME+PEGMME asosidagi absorbent kompozitsiyalarini tadqiq etish. Mazkur tadqiqot doirasida monoetanolamin (MEA), polietilenglikol dimetil efiri (PEGDME) va polietilenglikol monometil efiri (PEGMME) asosida sintez qilingan yangi turdagi aralash absorbent kompozitsiyalarining gaz aralashmalaridan karbonat anhidrid (CO₂) va vodorod sulfid (H₂S) ni ajratib olishdagi samaradorligi va selektivligi o‘rganildi.

Tadqiqot ishlari gazlarni kimyoviy usulda tozalash texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, asosiy maqsad — selektivlik darajasini

oshirish va energiyaning umumiy sarfini kamaytirishdan iborat.

Tajriba sharoitlari:

- Gaz aralashmasi bosimi: 3–5 MPa;

- Gaz harorati: 55°C;

- Absorberga kiruvchi regeneratsiyalangan absorbent harorati: 60°C;

- Dastlabki gaz tarkibi: CO₂ – 3,25%, H₂S – 0,81%;

Bu parametrlar sanoat sharoitlariga yaqin real jarayonlarni ifodalaydi.

Absorbent kompozitsiyalari:

MEA+PEGDME+PEGMME asosidagi aralash absorbentlar quyidagi tarkibiy nomlar ostida tizimlashtirildi: MPP-1, MPP-2, MPP-3, MPP-4, MPP-5 va MPP-6. Har bir kompozitsiya turli nisbatda MEA, PEGDME va PEGMME komponentlarini o'z ichiga oladi.


Ushbu kompozitsiyalar yordamida gaz tarkibidagi nordon komponentlarni ajratib olish samaradorligi, ya'ni CO₂ ni yutish darajasi, turli bosim qiymatlarida baholandi. Natijalar asosida har bir kompozitsiyaning bosimga nisbatan faolligi va selektivligi aniqlanib, ularning o'zaro ustunliklari solishtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- Kompozitsiyalardagi PEGDME va PEGMME komponentlari MEA bilan sinergik ta'sir ko'rsatib, H₂S ni CO₂ ga nisbatan yuqori selektivlikda yutadi.

- Bu kompozitsiyalar gazlarni selektiv tozalash texnologiyalarida qo'llash uchun istiqbolli vosita sifatida baholanishi mumkin.

- CO₂ ni yutish darajasining gaz bosimiga bog'liqligi 2-rasmda keltirilgan [18].



2-rasm. MPP-1, MPP-2, MPP-3, MPP-4, MPP-5 va MPP-6 absorbent kompozitsiyalarini tabiiy gaz tarkibida CO₂ ajratib olish darajasini bosimga bog'liqligi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko'ra, MEA, PEGDME va PEGMME asosida tayyorlangan MPP-1, MPP-2, MPP-3, MPP-4, MPP-5 va MPP-6 absorbent kompozitsiyalarining tabiiy gaz tarkibidagi karbonat anhidrid (CO₂) ni ajratib olish darajasi gaz bosimining ortishi bilan bevosita bog'liq ekanini aniqlandi. Ya'ni, bosim oshgan sari CO₂ ni tozalash samaradorligi ham ortib boradi.

Absorbsiya samaradorligini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, MPP-1 kompozitsiyasi eng yuqori natijani namoyon etdi. Ushbu kompozitsiya quyidagi tarkibiy nisbatlarda tayyorlangan: 20% MEA, 5% PEGDME, 5% PEGMME va 70% suv. 5 MPa bosim ostida tabiiy gaz tarkibidagi CO₂ miqdori 3,25% dan 0,02% gacha kamaygan. Bu natija MPP-1 kompozitsiyasining CO₂ ga nisbatan yuqori yutilish faolligiga ega ekanini ko'rsatadi.

Absorber qurilmasida kiruvchi gaz bosimi 5 MPa bo'lganda, chiquvchi gaz bosimi 4,7 MPa ni tashkil qildi. Bu esa bosimning katta bo'lmagan yo'qotilishi evaziga yuqori samaradorlikka erishilganini tasdiqlaydi [19, 20]. Shuningdek, PEG asosidagi efir moddalarning MEA bilan qo'shilishi absorbsiya samaradorligini oshirib, selektivlikni yaxshilagan. Ayniqsa, MPP-1 tarkibi optimal nisbatda tanlangani sababli eng yuqori CO₂ ajratish darajasini ko'rsatdi.

Keyingi bosqichda

DEA+PEGDME+PEGMME asosida tayyorlangan DPP-1, DPP-2, DPP-3, DPP-4, DPP-5 va DPP-6 absorbent kompozitsiyalari tadqiq qilindi. Sinovlar quyidagi rejimda olib borildi:

- Bosim: 3–5 MPa;

- Kiruvchi gaz harorati: 30–55°C;

- Kiruvchi absorbent harorati: 35–60°C.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, DEA asosidagi kompozitsiyalar (DPP-1, DPP-2 va b.) MEA asosidagi kompozitsiyalarga nisbatan yuqoriroq samaradorlikka ega. Masalan:

- 3 MPa bosim, 30°C gaz va 35°C amin haroratida, DPP-1 yordamida tabiiy gaz tarkibidagi umumiy S 0,011 g/m³ gacha, CO₂ esa 0,20% gacha kamaydi.

- DPP-2 ishtirokida esa umumiy S 0,032 g/m³ gacha, CO₂ esa 0,46% gacha kamaydi.

- Bosim 5 MPa gacha ko'tarilib, gaz/amin harorati mos ravishda 45/40°C bo'lganda, DPP-1 va DPP-2 yordamida umumiy S 0,001 g/m³ gacha

kamayganini qayd etildi [4, 9, 10].

Tadqiqotlarning yakuniy bosqichida MEA+DEA+PEGDME+PEGMME asosida tayyorlangan MDPP-1, MDPP-2, MDPP-3, MDPP-4 va MDPP-5 kompozitsiyalari o'rganildi. Maqsad — MEA va DEA aminlarining PEGDME va PEGMME bilan sinergetik ta'sirini tahlil qilish edi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, MEA va DEA alohida qo'llanilganda olingan kompozitsiyalarga nisbatan MEA+DEA asosidagi kombinatsiyalar yanada samarali. Masalan:

- 3 MPa bosim va gaz/amin harorati mos ravishda 35/40°C bo'lganda:

- MDPP-1 yordamida gaz tarkibida umumiy S 0,02 g/m³, CO₂ esa 0,35% gacha kamaydi.

- MDPP-2 yordamida umumiy S 0,001 g/m³, CO₂ esa 0,36% gacha kamaydi.

- MDPP-5 ishtirokida esa umumiy S 0,001 g/m³, CO₂ esa 0,04% gacha kamaydi.

Gaz bosimi oshib, amin va gazning harorati pasayishi bilan ushbu ko'rsatkichlar yanada yaxshilangan [18, 21].

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, MEA+DEA+PEGDME+PEGMME asosida sintez qilingan absorbent kompozitsiyalari gazlarni nordon komponentlardan tozalashda yuqori

samaradorlik va selektivlikni namoyon etdi. "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" texnologik qurilmasida o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, tajriba rejimlari — Qgaz = 200×10³ m³/soat, bosim 3 MPa, kiruvchi gaz harorati 55°C va chiquvchi gaz harorati 64°C — sharoitida olingan kompozitsiyalar vodorod sulfid va uglerod dioksidini samarali ajratib oldi. Bosim ortishi bilan CO₂ ning yutilish darajasi ham oshib bordi: masalan, MPP-1 kompozitsiyasi yordamida 3 MPa bosim ostida umumiy oltingugurt miqdori 0,024 g/m³ gacha, CO₂ miqdori esa 0,18% gacha kamaygan bo'lsa, 3,5 MPa bosim ostida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 0,020 g/m³ va 0,09% gacha tushdi. Shuningdek, DPP-1 kompozitsiyasi yordamida umumiy S konsentratsiyasi 0,011 g/m³ gacha, CO₂ miqdori 0,20% gacha kamaygan bo'lsa, DPP-2 da bu ko'rsatkichlar mos ravishda 0,032 g/m³ va 0,46% ni tashkil etdi. Eng yuqori samaradorlik 5 MPa bosim ostida qayd etilib, DPP-1 va DPP-2 kompozitsiyalari yordamida umumiy S 0,001 g/m³ gacha kamaydi. Ushbu natijalar ishlab chiqilgan absorbent kompozitsiyalarining texnologik va ekologik talablarga javob berishini hamda ularni sanoat miqyosida qo'llash istiqbolli ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev, T. R. (2022). Neft va gaz sanoati texnologiyasi va kimyosi. Qarshi: Intellect nashriyoti.
2. Yuldashev, T. R. (2023). Исследование состава и физических свойств абсорбентных композиций на основе амина и эфиров. КарДУ хабарлари, 2(1(58)), 67–72.
3. Yuldashev, T. R. (2023). Modern Research in Science and Education. Proceedings of III International Scientific and Practical Conference (pp. 330–334). Chicago: SCI-Conf.com.ua.
4. Yuldashev, T. R., & Makhmudov, M. J. (2023). Cleaning of natural from sobe component. Journal of Siberian Federal University. Engineering & Technologies, 16(3), 296–306.
5. Makhmudov, M. J., & Yuldashev, T. R. (2023). Cleaning of natural from sobe component. Journal of Siberian Federal University. Engineering & Technologies, 16(3), 296–306.
6. Юлдашев, Т. Р. (2023). Основа оборудования, используемого в процессе очистки газоабсорбционной технологии. Universum: технические науки, 5–6(110), 20–24.
7. Yuldashev, T. R. (2023). Tabiiy gazlarni vodorod sulfid va uglerod oksidlaridan tozalashda qo'llaniladigan absorbentlar. Sanoatda raqamli texnologiyalar / Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 92–99.
8. Khayitov, J., Yuldashev, T. R., Eshburiyevich, B. F., Mahmudjanovic, I. B., Nurboboyevich, R. K., Ziyadullayevich, U. B., & Yunusov, K. E. (2024). Transition metal-catalyzed carbonylative coupling of aryl/alkyl halides with thiols: A straightforward synthesis of thioester derivatives. Chemical Review and Letters, 7(2), 333–345.
9. Юлдашев, Т. Р. (2023). Очистка газа от кислых компонентов и пути ее решения. In Научно-технический прогресс. Задачи и их решения (pp. 150–155).

10. Yuldashev, T. R. (2023). Tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalashda selektivligi yuqori bo'lgan aminli eritmalardan foydalanishning samaradorligi. Sanoatda raqamli texnologiyalar / Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 86–92.
11. Tashmurza, Y. (2024). Study of the degree of foaming of absorbent compositions used when purifying gases from acidic components. Universum: технические науки, 9(3(120)), 40–44.
12. Юлдашев, Т. Р. (2023, November). Изучение активности и селективности абсорбирующих композиций в процессе очистки газов от кислых компонентов CO₂ и H₂S. In The 3rd International scientific and practical conference “Global science: prospects and innovations” (p. 329). Liverpool, UK: Cognum Publishing House.
13. Raxmonovich, Y. T. (2025). Neft gazini utilizatsiya qilishda yangi suyultirish texnologiyasini qo'llanilishining afzalligi. Sanoatda raqamli texnologiyalar / Цифровые технологии в промышленности, 3(1), 129–134.
14. Юлдашев, Т. Р. (2024). Исследование процесса очистки газа от кислых компонентов. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 3(29), 388–402.
15. Yuldashev, T. R. (2024). Tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalashning texnologik jarayonlarini modellashtirish va rejalashtirish matritsasining xususiyatlari. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(1).
16. Raxmonovich, Y. T. (2024). Tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalashning texnologik jarayonlarini optimallashtirish jarayoni. Sanoatda raqamli texnologiyalar / Цифровые технологии в промышленности, 2(1), 85–91.
17. Yuldashev, T. R. (2024). Tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalashning texnologik jarayonlarini modellashtirish va rejalashtirish matritsasining xususiyatlari. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(1).
18. Tashmurza, Y. (2024). Study of the degree of foaming of absorbent compositions used when purifying gases from acidic components. Universum: технические науки, 9(3(120)), 40–44.
19. Yuldashev, T. R., Rakhimov, G. B., Bekmurodov, A. A., & Jabborov, N. X. (2024). Increasing the efficiency of cleaning natural gases from sour components. Экономика и социум, 11–1(126), 626–631.
20. Yuldashev, T. R., Rakhimov, G. B., Bekmurodov, A. A., & Jabborov, N. X. (2024). Methods of preventing foam in devices for cleaning gas from normic components. Экономика и социум, 11–1(126), 619–625.
21. Юлдашев, Т. Р. (2023). Исследование активности и селективности абсорбирующих композиций в процессе очистки газов от кислых компонентов CO₂ и H₂S. Universum: технические науки, 12–6(117), 62–65.
22. Юлдашев, Т. Р. (2023, November). Получение и физические свойства абсорбентных композиций на основе амина и эфиров. In The 3rd International scientific and practical conference “Modern research in science and education” (p. 330). Chicago, USA: BoScience Publisher.

UO‘K: 661.728.89

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.23

METANOL VA TABIIY GAZDAN DIMETIL YOQILG‘ISINI (DME) ISHLAB CHIQARISH VA UNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TANLASH



Yuldashev Tashmurza Raxmanovich

Professor, t.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti,
Qarshi, O‘zbekiston

E-mail: tashmurzayuldashev1959@gmail.com



Abdullayev Shaxzod Abdiraxmon o‘g‘li

“Uzbekistan GTL” MChJ
Umumzavod xo‘jalik sexi qurilma operatori, Qarshi, O‘zbekiston

E-mail: shahzodbekabduraxmonovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muqobil energiya manbalarini barqaror rivojlantirish masalalari hamda zamonaviy motor yoqilg‘ilarini ishlab chiqarish texnologiyalari yoritilgan. Xususan, turli xil sun‘iy yoqilg‘ilarni olishda kriogen usullarni samarali qo‘llash, metanol asosida motor yoqilg‘isi ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari, shuningdek, dimetil efirini sintez qilish va yoqilg‘i sifatida dizel dvigatellarida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada metan gazini konversiya qilish asosida yoqilg‘i olish yo‘llari, dimetil efirini ishlab chiqarishda adiabatik jarayonlarning afzalliklari, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlar ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: metanol, dimetil efiri, metanol xomashyosi, suyuq uglevodorodlar, adiabatik jarayon, katalizatorlar, metanolni degidratsiyasi, kondensatsiyalash, sintez-gaz.

ВЫБОР ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА И ПЕРЕРАБОТКИ ДИМЕТИЛОВОГО ТОПЛИВА (ДМЭ) ИЗ МЕТАНОЛА И ПРИРОДНОГО ГАЗА

Юлдашев Ташмурза Рахманович

Профессор, д.т.н., Каришинский государственный
технический университет, Кариши, Узбекистан

Абдуллаев Шахзод Абдирахмон угли

Оператор оборудования цеха сельскохозяйственного
производства ООО «Uzbekistan GTL», Кариши, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы устойчивого развития возобновляемых источников энергии, а также современные технологии производства моторных топлив. В частности, проанализированы эффективное применение криогенных методов при получении различных видов синтетических топлив, новые технологии получения моторного топлива на основе метанола, а также синтез диметилового эфира и возможности его использования в качестве топлива для дизельных двигателей. В работе также освещены пути получения топлива на основе конверсии метана, преимущества адиабатических процессов при производстве диметилового эфира, а также научно обоснованные решения по охране окружающей среды и устранению экологических проблем.

Ключевые слова. метанол, диметиловый эфир, метанолное сырьё, жидкие углеводороды, адиабатический процесс, катализаторы, дегидратация метанола, конденсация, синтез-газ.

SELECTION OF TECHNOLOGY FOR THE PRODUCTION AND PROCESSING OF DIMETHYL FUEL (DME) FROM METHANOL AND NATURAL GAS

Yuldashev Tashmurza Rakhmanovich

Professor, Doctor of Technical Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

Abdullaev Shakhzod Abdirakhmon ugli

Device operator of the general-purpose shop of Uzbekistan GTL
LLC, Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article examines the issues of sustainable development of renewable energy sources and modern technologies for motor fuel production. In particular, it analyzes the effective application of cryogenic methods in obtaining various types of synthetic fuels, new technologies for producing motor fuel based on methanol, as well as the synthesis of dimethyl ether and its potential use as a fuel for diesel engines. The study also highlights the pathways of fuel production through methane conversion, the advantages of adiabatic processes in dimethyl ether production, and scientifically grounded solutions for environmental protection and the mitigation of ecological challenges.

Keywords: methanol, dimethyl ether, methanol feedstock, liquid hydrocarbons, adiabatic process, catalysts, methanol dehydration, condensation, syngas.

Kirish. XXI asr boshlariga kelib avtomobil transportining tezkor rivojlanishi global ekologik muammolarning yanada keskinlashishiga olib keldi. Ichki yonuv dvigatellaridan chiqayotgan zararli gazlar hamda turli ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhitga salbiy ta'siri natijasida nafaqat ekologik muvozanat buzilmoqda, balki inson salomatligi uchun xavf tug'diruvchi kasalliklarning ham ortib borishi kuzatilmoqda. Xususan, yirik shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi tobora kuchayib, ilgari musaffo bo'lgan osmon bugungi kunda chang va tutun qatlamlari bilan qoplanib bormoqda [1].

Avtotransport vositalaridan chiqayotgan ishlov berilgan gazlar, benzin bug'lari va boshqa zararli qo'shimchalarning atmosferaga tarqalishi natijasida har yili milliardlab tonna ifloslantiruvchi moddalar hosil bo'lmoqda. Bunday vaziyat ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishni zarur qiladi [2].

Hozirgi kunda Vazirlar Mahkamasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi zimmasiga bu kabi zararli chiqindilarni faqat kamaytirish emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklatilgan. Shu boisdan, ekologik toza va xavfsiz motor yoqilg'ilaridan foydalanish shaharlarda ekologik muvozanatni tiklashning eng maqbul yo'llaridan biri sifatida qaralmoqda [3].

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida ekologiyani muhofaza qilish va ifloslanish manbalarini qisqartirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar milliardlab dollar miqdoridagi mablag'larni nafaqat yangi transport vositalarini yaratishga, balki muqobil motor yoqilg'ilari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda energiya manbalarini barqaror rivojlantirishga yo'naltirmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda an'anaviy yoqilg'ilarni tabiiy gazdan olinadigan sintetik uglevodorod suyuqliklari bilan qisman almashtirish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Biroq, bunday yoqilg'ilarning nisbatan arzonligi bilan bir qatorda, mavjud zaxiralarining chegaralanganligi ushbu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dimetil efir, propan-butan yoki metan asosidagi muqobil motor yoqilg'ilari qo'llanilganda, atmosferaga chiqariladigan uglerod oksidlari, uglevodorodlar va azot oksidlari miqdori an'anaviy suyuq yoqilg'ida ishlaydigan dvigatellarga nisbatan 30–70 foizga kamayadi. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab yirik xalqaro kompaniyalari va ilmiy-tadqiqot markazlari — xususan, Mitsubishi, Toyo Engineering, Hitachi, NKK (Yaponiya), Haldor Topsoe (Daniya), British

Petroleum (Buyuk Britaniya), Lurgi (Germaniya), shuningdek, Rossiyaning Neft-kimyó sintezi instituti, NAMI va NIID — dimetil efir (DME)ni ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda transport vositalarida qo'llash bo'yicha texnologiyalarni takomillashtirish ustida keng ko'lamli tadqiqot va amaliy ishlarni olib bormoqdalar [4,5].

Metanol o'zining yuqori oktan soni (150 ga yaqin) tufayli motor yoqilg'isi sifatida katta energiya samaradorligiga ega. U faqat kimyoviy toza erituvchi sifatida emas, balki avtomobil dvigatellarida benzinni almashtiruvchi yuqori oktanli yoqilg'i sifatida ham keng qo'llaniladi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, metanolda ishlaydigan dvigatellar quvvati oddiy benzinda ishlovchi dvigatellarnikiga qaraganda o'rtacha 20% ga yuqoridir. Bundan tashqari, bunday dvigatellardan chiqadigan ishlov berilgan gazlar ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ancha toza bo'lib, ularning tarkibida zaharli moddalar deyarli aniqlanmaydi.

Tarixan, metanol yog'ochlarni quruq haydash yo'li bilan olinib kelingan bo'lsa-da, hozirgi paytda bu usul sanoat miqyosida deyarli qo'llanilmaydi. Zamonaviy texnologiyalarda esa metanol, asosan, uglerod(II) oksidi va vodorodning katalitik sintezi asosida ishlab chiqariladi, bu esa texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, metanol asosida ishlaydigan dvigatellar chiqindilarida azot oksidi miqdorini keskin kamaytirish imkoniyati mavjud. Yonmagan uglevodorodlar va boshqa zararli birikmalarning havoga chiqishi ham ancha past bo'ladi. Ayrim tahlillarga ko'ra, avtomobil gazlaridagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori 10% atrofida qayd etilgan. Bu esa metanolni motor yoqilg'isi sifatida ekologik xavfsiz va istiqbolli yoqilg'i turiga aylantiradi [3,6].

Muammoni hal etish yondashuvi. Ushbu tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni qo'llash asosida xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, sanoat amaliyotidagi real ishlab chiqarish tajribasi asosida muqobil yoqilg'i — xususan, dimetil efir (DME) ishlab chiqarishning hozirgi holati va istiqbollari o'rganildi.

Natijalar tahlili va amaliy misollar. MDH hududida hozirda dimetil efirini metanol xom-

ashyosi asosida ishlab chiqarishga mo'ljallangan yagona ishlayotgan sanoat qurilmasi Moskva viloyatidagi "Azot" zavodida faoliyat yuritmoqda. Dimetil efir o'zining noyob fizik-kimyoviy xossalari tufayli freonlar va dizel yoqilg'ilarining muqobili sifatida qo'llanadi, shuningdek, ammiak ishlab chiqarish jarayonida ikkilamchi mahsulot sifatida hosil bo'ladi.

"Novomoskva" kimyo majmuasi faoliyatining dastlabki bosqichida korxona asosan ammiak ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. O'sha davrda ammiak yog'och materiallarini quruq haydash yo'li orqali olingan. Biroq ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan uchta yangi "Ammiak" sexi ishga tushirildi va ularda ammiak tabiiy gaz asosidagi jarayon orqali ishlab chiqarila boshlandi. Bu esa yog'och asosidagi usulning sanoat miqyosida iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanini ko'rsatdi [7].

Sanoat texnologiyalarining globallashuvi, ishlab chiqarish hajmining ortib borishi va xalqaro bozorda metanolga bo'lgan talabning keskin oshishi "Azot" zavodini ammiak ishlab chiqarishdan metanol ishlab chiqarishga yo'naltirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu maqsadda korxonada modernizatsiya ishlari olib borilib, u "Ammiak va metanol ishlab chiqarish" majmuasiga aylantirildi.

Mazkur korxonada 1981-yildan boshlab metanol ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Metanolga bo'lgan talabning muntazam ortib borishi tufayli ishlab chiqarish hajmi ham bosqichma-bosqich kengaytirildi. Ishlab chiqarilgan metanol xomashyosi tarkibi boyitilib, M-100 markali mahsulot sifatida ajratilib, rektifikatsiya jarayoni orqali iste'molchilarga yetkazib berila boshlandi. Shu bilan birga, hosil bo'layotgan efir fraksiyalari esa o'sha davrda shunchaki yoqib yuborilgan [8,9].

Keyinchalik o'tkazilgan tahlillar mazkur efir fraksiyalarida eng qimmatli va istiqbolli komponent — dimetil efir (DME) yetarli miqdorda mavjudligini ko'rsatdi. Shu sababli metanol xomashyosi asosida DME ishlab chiqarish texnologik jarayoni ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etil.

Hozirgi vaqtda "Ammiak va metanol ishlab chiqarish" majmuasining "Sintez" sexida dimetil efir ishlab chiqarishga mo'ljallangan rektifikatsiya kolonnasi o'rnatilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda

to'liq ishlab chiqarish texnologiyasi yo'lga qo'yilgan.

Dimetil efir (DME) oddiy alifatik efirlarning boshlang'ich sinflariga kiradi. U atmosferada tezda parchalanganligi sababli freonlarning o'rnini bosuvchi xladagent sifatida qo'llaniladi. 1995-yilda o'tkazilgan xalqaro kongress—ko'rgazmada DME “XXI asrning dizel yoqilg'isi” sifatida qo'llanishi ta'kidlangan. Energiya sig'imi bo'yicha u an'anaviy dizel yoqilg'isidan 1,5 marta kamroq bo'lsada, asosiy texnik ko'rsatkichlari yuqoriligi bilan ajralib turadi: setan soni 55–60 birlikni tashkil etadi, alanganlash harorati esa $T = 235^{\circ}\text{C}$ ga teng [1,10].

DMEning dizel yoqilg'isi sifatidagi eng muhim afzalligi u ekologik toza mahsulot sifatida ishlab chiqarilishidir. Yaponiya tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, DMEning keng ko'lamda yoqilg'i sifatida qo'llanilishi suyultirilgan gazga nisbatan gaz-turbinali qurilmalar uchun yanada tejamkor hisoblanadi.

Texnologik ishlab chiqarish “Vaqtning ta'siri”ni hisobga olgan holda, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT) bazasida yaratilgan. U ikki karkadli nazorat dasturi asosida ishlovchi “multitrey % 5B” qurilmasi bilan jihozlangan. Mazkur tizim tarkibiga bir nechta zamonaviy qurilmalar kiritilgan [11].

Texnologik ishlab chiqarishni Avtomatlashtirilgan qurilmasi — bu jarayonni uzluksiz va xavfsiz boshqarishga xizmat qiluvchi texnik majmua bo'lib, uning ishlashi maxsus portlashdan himoyalangan shkaf orqali ta'minlanadi. Texnik nazorat tizimi ikkita protsessor, USO modullari hamda tarmoqning ikkita konsentratoridan tashkil topgan.

Ikkita master-modul tizimning ishonchliligini oshirish uchun qo'llaniladi: ulardan biri doimiy ravishda faol ishlaydi, ikkinchisi esa taxminan 10 Grs tezlikda barcha ma'lumotlarni parallel ravishda qayta ishlaydi. Asosiy moduldan rezerv modulga o'tish jarayoni avtomatik ravishda, uzilish sezilmasdan 1,6 soniya ichida amalga oshadi.

Master-modulning tuzilishi uchta asosiy blokdan iborat: protsessor (CPU) — sanoat IBM-AT-486 kompyuteri DOS operatsion tizimida ishlaydi; ST BUS nazorat bloklari; hamda statik energiyaga mustaqil xotira (SRAM 512K) va flesh-disklar (Flash Disk 2 MB) bo'lib, ular ishchi dasturlarni saqlash hamda joriy jarayon

ma'lumotlarini vaqtincha saqlash uchun xizmat qiladi [12].

DMEning eng katta ustunligi — uning ekologik tozaligidir. Bu jihat uni dizel yoqilg'isining zamonaviy va xavfsiz muqobili sifatida baholash imkonini beradi. Yaponiya olimlarining fikricha, DMEni yoqilg'i sifatida sanoat miqyosida keng joriy etish, xususan gaz turbinali qurilmalarda qo'llash, suyultirilgan gazga nisbatan iqtisodiy hamda energetik samaradorligi bilan ajralib turadi.

Tizim temir asosli platformada joylashtirilgan dasturiy boshqaruv modullaridan tashkil topgan bo'lib, texnologik jarayonlarni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qurilma portlashdan himoyalangan maxsus shkafga o'rnatilgan. Texnik nazorat tizimi ikki protsessorli konfiguratsiyada ishlab chiqilgan bo'lib, unda USO modullari, ikki tarmoqli konsentrator va boshqaruv bloklari mavjud.

Ishonchlilikni oshirish maqsadida tizimda ikkita master-modul qo'llaniladi: birinchisi asosiy funksiyalarni bajaruvchi faol modul, ikkinchisi esa zaxira sifatida ishlaydi va har 10 millisekundda barcha ma'lumotlarni asosiy modul bilan sinxronlashtirib boradi. Agar asosiy modulda uzilish yuz bersa, zaxira modul avtomatik ravishda boryo'g'i 1,6 soniya ichida boshqaruvni o'z zimmasiga oladi.

Master-modul uch asosiy bo'limdan iborat: sanoat darajasidagi protsessor (CPU, IBM-AT-486), ST BUS nazorat moduli hamda energiyaga mustaqil operativ xotira (SRAM 512K) va flesh-disk (Flash Disk 2 MB). Ushbu komponentlar jarayon dasturlarini hamda oraliq joriy ma'lumotlarni ishonchli saqlash vazifasini bajaradi.

USO modullari — bu kirish/chiqish uchun mo'ljallangan universal interfeysli qurilmalar bo'lib, ular analog va diskret signallarni datchiklar orqali qabul qilib, master-modulga uzatadi. Shuningdek, master-moduldan chiqariladigan boshqaruv signallari va buyruqlarni ijro mexanizmlariga yetkazadi. Bunday rostlagichlarning o'ziga xos jihatlaridan biri — har bir modulda almashiriladigan old panel mavjudligi bo'lib, bu texnik xizmat ko'rsatish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Yirik xalqaro kompaniyalar, jumladan BP va Marubeni ekspert

baholariga ko'ra, tabiiy gazni konversiya qilish orqali uglevodorodli suyuqlik aralashmalari (USA) yoki motor yoqilg'isi shaklida tijorat texnologiyalarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday mahsulotlarning samaradorligi ayniqsa dimetil efir (DME) misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning fizik-kimyoviy xossalari propan-butan aralashmasiga juda yaqin.

O'zbekistonda esa DME yoqilg'isini ishlab chiqarish uchun mavjud infratuzilmalardan — "O'zbekiston GTL" zavodi, "Ustyurt gazni qayta ishlash kompleksi" hamda "Navoiy azot" zavodini modernizatsiya qilish orqali to'liq foydalanish imkoniyati mavjud.

Sanoat amaliyoti va iqtisodiy samaradorlik. Bugungi kunda tabiiy gazni konversiya qilib benzin va dizel yoqilg'isi olish amaliyoti Shell, ExxonMobil kabi yirik kompaniyalar texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Biroq bu usullar ko'p bosqichli sintez jarayoniga ega bo'lgani va oraliq bosqichlarda yuqori energiya sarfini talab qilgani sababli, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan an'anaviy neftni qayta ishlash usullariga nisbatan pastroq hisoblanadi.

1-jadval

SIF, Rotterdam sharoitlarida har xil turdagi energiya tashuvchilarning bahosi

Yoqilg'ini turi	Bahosi, doll./tonna
Neftli dizel yoqilg'isi	220-240
Suyultirilgan neft gazi	240-260
Propan	380-390
Suyultirilgan tabiiy gaz (STG)	165-175
DME	160-180
(Izoh. Qurilmaning ishlab chiqarish ko'rsatkichi - 1.5 mln tonn/yil; Tabiiy gazning bahosi - \$45/tis. m ³)	
Fisher-Tropsh jarayoni bo'yicha suniy dizel yoqilg'isi	280-300

Masalan, Shell texnologiyasida olingan gazoyl faqat neftdan olingan gazoyl bilan aralashirilgan holda foydalanishga yaroqli. Shuningdek, ushbu usulning raqobatbardosh bo'lishi uchun bir qator iqtisodiy shartlar bajarilishi zarur: tabiiy gaz narxi ming kub metrdan 16 AQSh dollaridan oshmasligi, yillik ishlab chiqarish hajmi kamida 700 ming tonnani tashkil etishi, hamda xom neft narxi tonnasiga 120–125 AQSh dollaridan yuqori bo'lmasligi lozim.

Xalqaro tendensiyalar va ishlab chiqarish salohiyati. Dunyo miqyosida, xususan rivojlangan mamlakatlarda tabiiy gazdan suyuq uglevodorod

aralashmalari olish texnologiyalari bo'yicha faol ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaqin 10–15 yil ichida global neft narxining oshishi natijasida mazkur mahsulotlar motor yoqilg'ilari bilan iqtisodiy jihatdan tenglashishi ehtimoli mavjud. Masalan, 1999-yilda ushbu yoqilg'i turi bo'yicha dunyo ishlab chiqarish hajmi atigi 700 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, avtomobil benzini ishlab chiqarish hajmi 800 million tonna, dizel yoqilg'isi esa 300 million tonnaga teng bo'lgan. So'nggi yillarda yaratilgan va amaliyotga joriy etilayotgan yangi texnologik loyihalar esa bu ko'rsatkichni 17 million tonnagacha oshirish imkonini bermiqda.

Mazkur yo'nalishda Shell, ExxonMobil, Syntroleum, Conoco va Sasol kabi yirik kompaniyalar yetakchilik qilmoqda. Ushbu korxonalarning ishlab chiqarish quvvati 3,5 ming tondan 600 ming tonnagacha yetadi. Biroq bu sohada real raqobatning yuzaga kelishi ikki omilga bog'liq: mahsulotning arzon tannarx bilan ishlab chiqarilishi yoki maksimal ekologik va energiya samaradorligining ta'minlanishi.

Moliyalashtirish va muammolar. Mazkur yo'nalishdagi loyihalarni amaliyotga joriy etishda asosiy to'siq — bu yuqori moliyaviy tavakkalchiliklar va katta sarmoyalarni talab qilishi bilan bog'liq. Loyihaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan global neft narxining barqarorligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Tahlillarga ko'ra, suyuq uglevodorod aralashmasini tijorat miqyosida keng joriy etishning ehtimoliy boshlanish nuqtasi — sun'iy neft narxining \$100–120/tonna chegarasiga yetishidir. Bu esa Brent markasidagi neft narxlariga bilan tenglashgan holatda yuzaga kelishi mumkin.

DME sintezi va sanoat texnologiyasi. Dimetil efir (DME)ni sanoat miqyosida sintez qilish jarayonining asosi metanolning degidratsiya (suvdan ajratish) reaksiyasidir. Bu reaksiya ekzotermik xususiyatga ega bo'lib, energetik jihatdan foydali, nisbatan sodda va ixcham texnologik yechimlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, kichik quvvatli, kapital sig'imi past bo'lgan sanoat ob'ektlari uchun ushbu usul samarali hisoblanadi.

Texnologik jarayon odatda 1,0 MPa bosim ostida va 290–400°C haroratda adiabatik reaktorda olib boriladi. Jarayonda alyuminiy oksidi asosidagi katalizatorlardan foydalaniladi. Bir martalik

konversiya natijasida metanolning taxminan 80% DMEga aylantiriladi.

Biroq, DME ni katta hajmda sanoat miqyosida ishlab chiqarishda mazkur texnologiya iqtisodiy jihatdan maqbul emas. Sababi — metanolni avval sintez qilish, soʻngra uni DMEga aylantirish bosqichida hosil boʻlgan mahsulotning tannarxi metanol narxidan qariyb ikki barobar yuqori boʻladi. Shunday boʻlsada, har qanday ishlab chiqarish senariysida DME olish jarayonida u muqarrar tarzda metanol sintezi bosqichidan oʻtadi. Shu sababli, tabiiy gazdan DME ishlab chiqarishga oid barcha texnologik takliflar mohiyatan metanol ishlab chiqarish liniyasini kengaytirish yoki modifikatsiyalash bilan bogʻliq [14].

DME sintezi texnologik jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni oʻz ichiga oladi: Tabiiy gazni dimetil efirga (DME) aylantirish texnologiyasi bir nechta bosqichlardan iborat boʻlib, ulardan eng muhimlaridan biri — sintez-gaz olish (riforing) jarayonidir. Ushbu bosqichda tabiiy gazdan vodorod va karbonat ангидрид aralashmasi olinadi. Amaliy hisob-kitoblarga koʻra, umumiy texnologik xarajatlarning qariyb 79% aynan shu jarayonga toʻgʻri keladi.

Keyingi bosqichda sintez-gazdan metanol va DME aralashmasini olish amalga oshiriladi. Katalitik sharoitda olib boriladigan mazkur jarayon texnologik xarajatlarning 20–25% ni tashkil etadi. Shundan soʻng, ajratish bosqichida yakuniy mahsulotlar — metanol va dimetil efir — ajratib olinadi, tozalanadi hamda saqlash yoki tashishga tayyorlanadi.

Shu tartibda, DME ishlab chiqarish texnologiyasi faqat energetik va kimyoviy talablar bilan chegaralanmay, balki iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ham baholanishi lozim boʻlgan murakkab jarayon sifatida qaraladi. Shu sababdan, yirik hajmdagi ishlab chiqarishda metanolni avval sintez qilish va keyinchalik DMEga aylantirish oʻrniga, toʻgʻridan-toʻgʻri DME sintezini taʼminlaydigan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda koʻplab xorijiy mamlakatlarda, jumladan MDH davlatlarida ham tabiiy gazdan DME ishlab chiqarish boʻyicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarning markazida sintez-gaz asosida DME olishga moʻljallangan yangi avlod katalizatorlarini yaratish

masalasi turadi. Misol uchun, Rossiyada faoliyat yurituvchi L.Y. Karpov nomidagi Davlat ilmiy markazi qoshidagi Formatseptika ilmiy-tadqiqot kimyo institutida texnologik jarayonlarni model-lashtirish va ishlab chiqarish uskunalari konstruktiv takomillashtirish boʻyicha qator muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, tabiiy gazni dimetil efirga (DME) aylantirishning eng muhim bosqichlaridan biri — metanni sintez-gazga konversiya qilish jarayonidir. Shu bois, bugungi kunda ilmiy izlanishlar amaldagi usullarga nisbatan yanada arzon, tejamkor va yuqori samaradorlikka ega boʻlgan sintez-gaz olish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur yoʻnalishda ilgʻor yechimlardan biri sifatida Rossiyaning GIAP ilmiy muassasasi hamda Germaniyaning Linde kompaniyasi hamkorligida ishlab chiqilgan “Tandem” texnologiyasini keltirish mumkin. Ushbu texnologiya quvvurli reaktorlarda tabiiy gazni bugʻ va kislorod yordamida ikki bosqichli konversiyadan oʻtkazish orqali metanol olish imkonini beradi. Sanoat miqyosida bu usul Belorussiyadagi “Azot” ishlab chiqarish birlashmasida amaliyotga joriy etilgan boʻlib, uning yillik ishlab chiqarish quvvati 130 million m³ tabiiy gazni qayta ishlashga teng. Bundan tashqari, Estoniyada joylashgan “Nitrofert” AJ tomonidan amalga oshirilgan loyiha yiliga 400 million m³ gazni qayta ishlash imkoniyatiga ega.

“Tandem” texnologiyasi anʼanaviy — yaʼni shaxtali reaktorlarda bugʻli konversiya asosida olib boriladigan jarayonlarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Avvalo, uning autotermik xarakteri va yopiq energetik sikli mavjudligi tufayli energiya tejamkorligi taʼminlanadi. Masalan, 1 tonna metanol ishlab chiqarishda tabiiy gaz energiyasining 85% gacha samarali foydalaniladi, qolgan 15% esa (1000 m³ gazdan 150 m³) texnologik jarayonning oʻz energetik ehtiyojlarini qoplash uchun sarflanadi. Shu bois, “Tandem” texnologiyasi resursni tejovchi va yuqori samarali innovatsion yechim sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, ushbu texnologiyada atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilar — azot oksidlari (NO_x), uglerod dioksidi (CO₂) va uglerod oksidi (CO) miqdori juda past darajada boʻladi. Yevropa texnologiyalaridan farqli ravishda, sintez-gazni DMEga konversiya qilish jarayoni rekti-

fikatsiya bosqichlarisiz amalga oshirilishi mumkin. Umumiy retsirkulyatsiya sxemasi metanol sintezi uchun mos bo'lib, deyarli o'zgarishsiz qo'llaniladi. Reaktor konstruksiyasi adiabatik qatlamlardan tashkil topgan bo'lsada, metanolni degidratsiya qilishda katalizatorlarning joylashtirilish usuli va hosil bo'lgan mahsulotlarni sovutishda qo'llaniladigan sirkulyatsiya agenti bilan farq qiladi.

Kondensatsiya jarayoni uch bosqichdan iborat: namlik kondensatori, metanol kondensatori va DME kondensatori. Shu yo'l bilan DME metanolning qoldiq zarrachalarsiz olinadi.

Hozirgi kunda "BIITI - Rossiya" instituda hamda I.M. Gubkin nomidagi GNS NIFXI, IVTAN va RGUNG institutlari hamkorligida yiliga 500 ming tonna quvvatga ega DME ishlab chiqarish zavodini yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, mazkur texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar — xususan, azot oksidlari (NO_x), uglerod dioksidi (CO₂) va uglerod oksidi (CO) miqdorining nihoyatda pastligi ularning ekologik afzalligini yaqqol namoyon etadi.

Yevropada ishlab chiqilgan texnologik yechimlarda sintez-gazdan dimetil efir (DME) olish jarayoni rektifikatsiya bosqichlarisiz amalga oshiriladi. Bunday yondashuvda metanol sintezi uchun mo'ljallangan umumiy retsirkulyatsiya sxemasi deyarli o'zgartirilmagan holda qo'llaniladi. Reaktor konstruksiyasi, odatda, adiabatik qatlamlardan iborat bo'lib, metanol sintezi aynan shu qatlamlarda kechadi. Shu bilan birga, metanolni degidratatsiyalash bosqichida katalizatorlarni joylashtirish usuli hamda hosil bo'lgan mahsulotlarni sovutishda sirkulyatsiya agentlaridan foydalanilishi ma'lum farqlarni yuzaga keltiradi.

Kondensatsiya jarayoni uch bosqichda tashkil etiladi: birinchi bosqichda namlik kondensatori ishlaydi, ikkinchi bosqichda metanol kondensatsiyalanadi, va nihoyat, uchinchi bosqichda DME kondensatsiyasi amalga oshadi. Mazkur kompleks yondashuv natijasida metanol qoldiqlarisiz toza DME mahsulotini olish imkoniyati yaratiladi.

Xulosalar. Metanol kimyo sanoatidagi eng muhim yarim mahsulotlardan biri bo'lib, o'z ahamiyati va ishlab chiqarish masshtabi bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning asosiy an'anaviy qo'llanilish yo'nalishlari formaldegid, dimetilteftalat hamda turli xil erituvchilar ishlab chiqarish bilan bog'liqdir.

Xorijiy kompaniyalar, jumladan BP va Marubeni mutaxassislarining baholariga ko'ra, tabiiy gazni konversiya qilish orqali uglevodorodlarning suyuq aralashmasi (SUA) yoki motor yoqilg'isini olishga qaratilgan tijorat texnologiyalarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu borada, xususan, O'zbekistonda ham ishlab chiqarishni to'liq yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud. Jumladan, "O'zbekiston GTL" zavodi va "Ustyurt gazni qayta ishlash kompleksi" imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali mazkur mahsulotni yirik miqyosda ishlab chiqarish mumkin.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan xorijiy davlatlarda ham tabiiy gazni suyuq uglevodorod aralashmalariga aylantirishning raqobatbardosh jarayonlarini yaratish bo'yicha jadal ilmiy-texnik izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar yo'nalishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaqin 10–15 yil ichida neft narxining oshishi motor yoqilg'isi qiymatiga moslashib qolishi ehtimoli mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лapidус А. Л., Крилова А. Е. Механизм образования жидких углеводородов из СО и Н₂ на кобальтовых катализаторах. – М.: Олимп.: 2015. 645 с.
2. Матковский П. Э., Седов И. В., Савченко В. И., Яруллин Р. С. Технологии получения и переработки синтез-газа // Газохимия. 2011, С.77-84.
3. Рачевский Б.С. «Сжиженные углеводородные газы», Москва, Изд-во «Нефть и газ», 2009.- 640 с., ил.
4. Makhmudov, N. N., Shafiev, R. U., Yuldashev, T. R., & Tursunov, M. A. (2015). Technologu of collecting and preparing oil, gas and water in the fields. Textbook. T.: Tashstu.

5. Yuldashev, T. R., & Makhmudov M, J. (2023). Cleaninng of Natural from Sobe Component. Journal of Siberian Federal University. Engineeng & Technologies, 16(3), 296-306.
6. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОЧИСТКА ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ И ПУТИ ЕЁ РЕШЕНИЙ. Инновационный научно-технический прогресс. Задачи и их решения (стр. 150-155).
7. Юлдашев, Т. Р. (2023). ОСНОВА ОБОРУДОВАНИЯ, ИСПОЛЪЗУЕМОГО В ПРОЦЕССЕ ОЧИСТКИ ГАЗОАБСОРБЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ. Universum: технические науки, (5-6 (110)), 20-24.
8. Юлдашев, Т. Р. (2023). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ АМИННОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ И ПУТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ. Universum: технические науки, (4-6 (109)), 24-27.
9. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZLARNI VODOROD SULFID VA UGLEROD OKSIDLARIDAN TOZALASHDA QO'LLANILADIGAN ABSORBENTLAR. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 92-99.
10. Yuldashev, T. R. (2023). TABIIY GAZNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHDA SELEKTIVLIGI YUQORI BO'LGAN AMINLI ERITMALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 86-92.
11. Юлдашев, Т. Р. (2022). АБСОРБЕНТЫ ДЛЯ ОЧИСТКИ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ ОТ H₂S И CO₂. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(10), 72-74.
12. Юлдашев, Т. Р. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ ГЛУБОКОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ КИСЛЫХ КОМПОНЕНТОВ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(18), 62-64.
13. Юлдашев, Т. Р., & Адизов, Б. З. ЭФФЕКТИВНЫЕ АСПЕКТЫ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ООО «МУБАРЕКСКОГО ГАЗОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕГО ЗАВОДА». ҚарДУ ХАБ, 76.
14. Yuldashev, T. R., Eshniyozov, A. D., & Jabborov, N. X. R. (2025). TABIIY GAZNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASH QURILMALARIDA KO'PIK HOSIL BO'LISHINING MUAMMOLARI. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 3(2).

UO‘K: 691.215:691.175:678.742

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.19

ASFALTOBETON QOPLAMALARI UCHUN REZINA KUKUNI VA ELASTOMERLARNI MODIFIKATSIYALASH ASOSIDA POLIMER-BITUM KOMPOZITSIYALARINI OLISH



**G'aybullayeva Anora
Fayzullayevna**

Assistant, Buxoro davlat texnika
universiteti, Buxoro, O'zbekiston
E-mail:
gaybullayevaanora@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-1762-7368



**Mavlonov Shohrux
Boboxon o'g'li**

PhD, dotsent, Buxoro davlat texnika
universiteti, Buxoro, O'zbekiston
E-mail: shoxrux-mavlonov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0009-1652-6369



Mavlonov Babaxan

k.f.n., dotsent, Buxoro davlat
texnika universiteti,
Buxoro, O'zbekiston
E-mail: b.mavlonov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0009-1845-9845

Annotatsiya. Ushbu maqolada asfaltobeton qoplamalari uchun polimer-bitum kompozitsiyalarini yaratish jarayoni yoritilgan. Mahalliy bitumlar rezina kukuni, elastomerlar va antioksidantlar yordamida modifikatsiyalandi hamda ularning fizik-mexanik va reologik xossalari tadqiq qilindi. Tajribalar natijasida penetratsiya ko'rsatkichi 74-0,1 mm dan 59-0,1 mm gacha kamaygani, yumshash harorati 52 °C dan 70 °C gacha ortgani, mo'rtlik harorati –16 °C dan –24 °C gacha pasaygani, cho'zilish darajasi 45 sm dan 68 sm gacha oshgani va elastiklik ko'rsatkichi 62 % dan 81 % gacha yaxshilangani aniqlandi. Natijalar modifikatsiyalangan polimer-bitum kompozitsiyalari oddiy bitumlarga nisbatan yuqori chidamlilik va uzoq xizmat muddatiga ega ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Asfaltobeton, polimer-bitum kompozitsiyasi, rezina kukuni, elastomer, antioksidant, penetratsiya, yumshash harorati, mo'rtlik harorati, cho'zilish, elastiklik.

ПОЛУЧЕНИЕ ПОЛИМЕР-БИТУМНЫХ КОМПОЗИЦИЙ НА ОСНОВЕ МОДИФИКАЦИИ РЕЗИНОВОЙ КРОШКОЙ И ЭЛАСТОМЕРАМИ ДЛЯ АСФАЛЬТОБЕТОННЫХ ПОКРЫТИЙ

**Гайбуллаева Анора
Файзуллаевна**

Ассистент, Бухарский
государственный технический
университет,
Бухара, Узбекистан

**Мавлонов Шохрух
Бобохон угли**

PhD, доцент, Бухарский
государственный технический
университет,
Бухара, Узбекистан

Мавлонов Бабахан

к.х.н., доцент, Бухарский
государственный технический
университет,
Бухара, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс получения полимерно-битумных композиций для асфальтобетонных покрытий. Местные битумы были модифицированы с использованием резиновой крошки, эластомеров и антиоксидантов, а также исследованы их физико-механические и реологические свойства. Экспериментальные результаты показали, что показатель пенетрации снизился с 74-0,1 мм до 59-0,1 мм, температура размягчения увеличилась с 52 °C до 70 °C, температура хрупкости снизилась с –16 °C до –24 °C, степень удлинения при 25 °C возросла с 45 см до 68 см, а показатель эластичности увеличился с 62 % до 81 %. Полученные результаты подтверждают, что модифицированные полимерно-битумные композиции обла -

дают более высокой прочностью и долговечностью по сравнению с традиционными битумами.
Ключевые слова: асфальтобетон, полимер-битумная композиция, резиновая крошка, эластомер, антиоксидант, пенетрация, температура размягчения, температура хрупкости, удлинение, эластичность.

DEVELOPMENT OF POLYMER-BITUMEN COMPOSITIONS BASED ON MODIFICATION WITH RUBBER POWDER AND ELASTOMERS FOR ASPHALT PAVEMENTS

**Gaybullayeva Anora
Fayzullayevna**

Assistant, Bukhara State Technical
University, Bukhara, Uzbekistan

**Mavlonov Shohrukh
Bobokhon ugli**

PhD, Associate Professor, Bukhara
State Technical University,
Bukhara, Uzbekistan

Mavlonov Babakhan

PhD, Associate Professor, Bukhara
State Technical University,
Bukhara, Uzbekistan

Abstract. This article discusses the development of polymer-bitumen compositions for asphalt pavements. Local bitumen was modified using rubber powder, elastomers, and antioxidants, and their physicomechanical and rheological properties were investigated. Experimental results showed that the penetration index decreased from 74·0.1 mm to 59·0.1 mm, the softening point increased from 52 °C to 70 °C, the brittleness temperature decreased from –16 °C to –24 °C, the elongation at 25 °C increased from 45 cm to 68 cm, and the elasticity index increased from 62% to 81%. These findings demonstrate that modified polymer-bitumen compositions exhibit higher strength, durability, and resistance to environmental impacts compared to conventional bitumen.

Keywords: asphalt concrete, polymer-bitumen composition, rubber powder, elastomer, antioxidant, penetration, softening point, brittleness temperature, elongation, elasticity.

Kirish. Bitum — neftni qayta ishlash mahsuloti bo‘lib, uning asosiy qo‘llanilish sohasi avtomobil yo‘llarini qurish va ta‘mirlash, gidroizolyatsiya ishlari hamda sanoatning turli tarmoqlarida mustahkamlovchi bog‘lovchi material sifatida ishlatiladi. Biroq oddiy bitumlarning fizik-mexanik xossalari cheklangan: past haroratlarda mo‘rtlanib sinuvchan bo‘lishi, yuqori haroratlarda esa yumshab ketishi, shuningdek, namlik va ultrabinafsha nurlarga nisbatan chidamsizligi ularning ekspluatatsion muddati va sifatini pasaytiradi [1]. Shu bois bitumlarni modifikatsiyalash jarayoni — ya‘ni, ularga turli polimerlar, elastomerlar, plastifikatorlar yoki sirtfaol moddalar qo‘shish orqali tarkibini yaxshilash — zamonaviy yo‘l qurilishi va gidroizolyatsiya sanoatida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishga aylangan [2].

Modifikatsiyalashning asosiy maqsadi bitumlarning ishlash harorati diapazonini kengaytirishdir. Bunday holda, bitum yuqori haroratlarda o‘z shaklini yo‘qotmaydi, past haroratlarda esa mo‘rtlanmaydi. Natijada modifikatsiyalangan bitumlar

yuqori elastiklikka ega bo‘lib, issiq va sovuq iqlim sharoitida yuzaga keladigan siklik yuklamalarga bardosh beradi. Bundan tashqari, ularning yopishuvchanlik xususiyati kuchayib, tosh materiallarga bog‘lanish sifati yaxshilanadi. Bu esa asfальтобетон qoplamalarning mustahkamligi va xizmat muddatini sezilarli darajada oshiradi [3].

Materiallar va usullar. O‘zbekiston Respublikasi hududida iqlim keskin kontinental xarakterga ega: yozda havo harorati +40 °C dan yuqorilaydi, qishda esa –15 °C gacha pasayadi [4]. Bunday sharoitlarda asfalt qoplamalarga bo‘lgan talablar yuqori bo‘lib, ular yuqori haroratlarda shaklini saqlab qolishi, past haroratlarda esa yorilmasligi zarur [5]. Shu sababli, yo‘l-qurilish sanoatida qo‘llaniladigan bitumlar GOST 22245-90 yoki GOST 33133-2014 standartlari talablariga mos holda tanlanadi. Amaliyotda, odatda, BND 60/90 yoki BND 70/100 markali yo‘l bitumlaridan foydalaniladi. Ushbu markalar plastiklik darajasi, penetratsiya ko‘rsatkichlari va haroratga chidamliligi bilan mo‘tadil iqlim sharoitlari uchun maqbul sanaladi.

Biroq, mazkur markali bitumlarning modifikatsiyalanmagan holatda O'zbekistonning keskin issiq va sovuq mavsumlarida barqaror ishlash xususiyati yetarli emas. Shu bois ularni polimer va barqarorlashtiruvchi qo'shimchalar yordamida modifikatsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi [6]. Mazkur tadqiqotlarda FNQIZ zavodida ishlab chiqarilgan, GOST 33133-2014 talablariga mos 50/70 markali bitumdan foydalanildi.

1-jadval

**Polimer-bitum kompozitsiyalarini olish uchun
qo'llanilgan 50/70 markali bitumning fizik-
mexanik ko'rsatkichlar**

Ko'rsatkichlar nomi	50/70 bitum markasi uchun me'yor	
	Asosiy talablar	Amalda
25 °C haroratda (ignaning botish chuqurligi x 0,1 mm) penetratsiya	51-70	54
Halqa va shar bo'yicha yumshatish harorati, °C	51 past emas	53
25 °C haroratda, cho'zilishi, cm	15 kamida	12
25 °C haroratda, elastiklikligi %	60 kamida	58
Fraasu bo'yicha mo'rtlik harorati, °C	-16 yuqori emas	-16
Chaqnash harorati, °C	230 past emas	237
Dinamik qovushqoqlik, Pa·s, 135 °C haroratda	Ko'pi bilan 3	3

Ilmiy-tadqiqot ishining muhim bosqichlaridan biri bu – rezina saqlagan gibrid elastomerlar asosida turli tarkibga ega polimer-bitum kompozitsiyalarini tayyorlash va ularning fizik-mexanik xossalarini solishtirishdan iboratdir. Ushbu bosqichda maqsad – optimal modifikatsiyalangan bitum tarkibini aniqlash va uning struktura hosil qiluvchi xususiyatlarini amaliy jihatdan baholashdan iborat bo'ldi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tajribalar uchun asosiy komponent sifatida yo'l bitumi (BND 50/70 markali), maydalangan chiqindi avtomobil shinalaridan olingan rezina kukuni (butadien-stirol kauchuk, butadien kauchuk, butil kauchuk va texnik uglerod), termoplast elastomerlar (stirol-butadien-stirol (SBS) va polistirol), plastifikator (neft shlamlari) hamda stabilizatorlar — tetraetoksisilan (TEOS), kaolin ($Al_2Si_2O_5(OH)_4$), tiuram (tetrametiltiuramsulfid) va simat (ditio-

karbamat) tanlab olindi.

Tajriba jarayoni ikki bosqichda amalga oshirildi:

1. Birinchi bosqichda bitum 160–180 °C haroratda eritildi va unga rezina kukuni qo'shib, 1,5–2,5 soat davomida mexanik aralashtirildi. Rezina kukuni bitum tarkibida shishib, dispers holatga kelguncha jarayon davom ettirildi.

2. Ikkinchi bosqichda esa oldindan tayyorlangan bitum–rezina tarkibiga SBS, polistirol, antioksidantlar va plastifikatorlar qo'shildi. Aralashtirish 180 °C da 30–120 daqiqa davom ettirilib, natijada rezina saqlagan gibrid elastomer asosidagi polimer-bitum kompozitsiyalari olindi.

2-jadval

**Rezina saqlagan gibrid elastomerlar asosida
polimer-kompozitsiyalarining tarkibi**

№	Bitum %	Rezina kukuni %	Termoplastik elastomer (polimerlar) %	Stabilizator %	Plasifikator %
RSGEPB-1	85,	5,0	6,0	2,5	1,5
RSGEPB-2	84,0	6,0	5,0	2,5	2,0
RSGEPB-3	82,5	8,0	4,0	3,0	2,5
RSGEPB-4	81,0	10,0	3,0	3,0	3,0

Rezina kukuni va gibrid termoplastik elastomerlar asosida modifikatsiyalangan polimer-bitum bog'lovchilarning kompozitsion tarkibi BND 50/70 markali yo'l bitumi asosida tayyorlangan to'rtta polimer-bitum kompozitsiyasi orqali sinovdan o'tkazildi. Modifikatsiyalash jarayonida asosiy komponent sifatida granulometrik tarkibi 3–5 mm bo'lgan qayta ishlangan avtomobil shinalaridan olingan rezina kukuni, termoplastik elastomerlar (SBS va polistirol), stabilizatorlar (tetraetoksisilan – TEOS, kaolin – $Al_2Si_2O_5(OH)_4$, tiuram – tetrametiltiuramsulfid, simat – ditio-karbamat birikmalari) hamda plastifikatorlar (neftni qayta ishlash chiqindilaridan olingan mahsulotlar) qo'llanildi.

Kompozitsion tarkibda bitum ulushi 85,0% dan 81,0% gacha, rezina kukuni miqdori esa 5,0% dan 10,0% gacha oshirildi. Elastomerlarning umumiy ulushi 6,0% dan 3,0% gacha kamaytirildi, bu esa kauchuk komponentining elastiklikka qo'shgan hissasi hisobga olinib, optimal muvozanatga erishishni ta'minladi. Stabilizatorlar 2,5–3,0% oralig'ida qo'shib, issiqlik va oksidlovchi qarish ta'siriga nisbatan kompozitsiyaning kimyoviy hamda termik barqarorligini oshirdi. Plastifikatorlar esa 1,5–3,0% miqdorda kiritilib, aralashmaning past

haroratlarda ishlash qobiliyati va texnologik oqimlilik xususiyatlarini yaxshiladi.

Rezina kukuni saqlagan gibrid elastomerlar asosida tayyorlangan polimer-bitum kompozitsiyalarining asosiy fizik-kimyoviy hamda reologik xossalari aniqlanib, ularning penetratsiya, yumshash harorati, mo'rtlashish harorati, cho'zilish, elastiklik va dinamik qovushqoqlik ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Rezina kukuni va gibrid termoplastik elastomerlar asosida tayyorlangan polimer-bitum kompozitsiyalarining fizik-mexanik va reologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	RSGEPB-2	RSGEPB-2	RSGEPB-3	RSGEPB-4
25 °C haroratda ignaning botish chuqurligi x 0,1 mm	74	69	66	59
Halqa va shar bo'yicha yumshatish harorati, °C,	52	58	64	70
Fraasu bo'yicha mo'rtlik harorati, °C	-16	-19	-21	-24
25 °C cho'zilishi, sm	45	51	59	68
Dinamik qovushqoqligi, Ra·s, 135 °C	0.85	1.00	1.30	1.60
25 °C haroratda, elastikligi %,	62	68	75	81

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, polimer-modifikatsiyalangan bitum kompozitsiyalarining asosiy fizik-mexanik va reologik xossalari ularning tarkibiy komponentlari nisbatiga sezilarli darajada bog'liqdir. Penetratsiya ko'rsatkichining

74-0.1 mm dan 59-0.1 mm gacha kamayishi bitum matritsasining zichligi va mexanik qattiqligining ortishini ifodalaydi. Halqa va shar usuli bilan aniqlangan yumshash haroratining 52 °C dan 70 °C gacha ko'tarilishi esa yuqori haroratlarda materialning strukturaviy barqarorligi oshganidan dalolat beradi. Fraasu usuli bo'yicha aniqlangan mo'rtlashish haroratining -16 °C dan -24 °C gacha pasayishi esa kompozitsiyaning past haroratlarda elastiklikni saqlab qolish qobiliyati yaxshilanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 25 °C da cho'zilish darajasining 45 sm dan 68 sm gacha ortishi va elastiklik ko'rsatkichining 62% dan 81% gacha ko'tarilishi makromolekulyar struktura tarkibida deformatsiyaga bardoshli elastik fazaning shakllanganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, 135 °C da dinamik qovushqoqlikning 0.85 Pa·s dan 1.60 Pa·s gacha oshishi bitumning yuqori haroratlarda oqimga qarshilik ko'rsatish xususiyatining sezilarli darajada kuchayganini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Shunday qilib, komponentlar miqdoridagi o'zgarishlar barcha asosiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, penetratsiya va mo'rtlashish harorati pasaydi, biroq yumshash harorati, cho'zilish darajasi, qovushqoqlik va elastiklik kabi parametrlar ortdi. Bu natijalar modifikatsiyalangan polimer-bitum kompozitsiyalarining mustahkamlik, issiqlik va sovuqqa chidamlilik, egiluvchanlik hamda xizmat muddatini oshirishda an'anaviy bitumlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Печёный, Б. Г., Данильян, Е. А., & Гальдина, В. Д. (2009). Влияние режимов приготовления асфальтобетонных смесей на свойства асфальтобетонов. Строительные материалы.
2. Соломенцев, А. Б. (2008). Классификация и номенклатура модифицирующих добавок для битума. Наука и техника в дорожной отрасли, (1), 14–16.
3. G'aybullayeva, A. F., & Mavlonov, Sh. B. (2024). Polimer-bitum materiallarini olishda qo'shimcha va modifikatorlarning tasniflari. In Neft va gaz sanoatining dolzarb muammolari va istiqbollari (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya). Buxoro.
4. G'aybullayeva, A. F., Mavlonov, Sh. B., & Mavlonov, B. A. (2025). Organik bog'lovchilar asosida rezina saqlagan polimer-bitum kompozitsiyalari olish texnologiyasi. Development of Science, 5(6). <https://doi.org/ISSN3030-3907>
5. G'aybullayeva, A. F., Mavlonov, Sh. B., & Mavlonov, B. A. (2025). O'zbekiston iqlim sharoitida asfaltbeton qoplamalarini olish uchun polimer-bitumlarning ahamiyati. In Neft va gaz sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ta'lim va ishlab chiqarish klasterining ahamiyati (Respublika ilmiy-amaliy anjumani, pp. 386–388). Qarshi.

UO‘K: 553.98:551.782(575.1)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.10

MARKAZIY QIZILQUMDAGI KARAKATA BOTIQLIGIDAGI QUYI EOTSEN YOTQIZIQLARINI MADANDORLIGI VA ULARNI JOYLASHISH SHAROITLARI



**Razikov Odiljon
Toxirjonovich**

Geologiya-mineralogiya fanlari
doktori, professor v.b., Mirzo
Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: odil.t.razikov@gmail.com
ORCID ID: 0000-0003-2808-6566



**Nurtayev Burxon
Ximailovich**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Navoiy bo'limi kichik
ilmiy xodimi, Navoiy, O'zbekiston
E-mail:
nurtayevburxon@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-3561-8850



**Nazarov Uzrukh
Xasanovich**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Navoiy bo'limi
tayanch doktoranti,
Navoiy, O'zbekiston
E-mail: nazarovuzrukh@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-5877-4984

Annotatsiya. Ushbu maqolada yonuvchi slaneslarning global va mintaqaviy ahamiyati, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi hududidagi quyi eotsen yotqiziqlaridagi resurslar ko'rib chiqilgan. Energiya iste'molining ortib borishi va an'anaviy yoqilg'i zaxiralarining kamayishi sharoitida yonuvchi slanes muqobil energiya manbasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Markaziy Qizilqumdagi Sangruntau va Aktau konlarida olib borilgan geologik-tadqiqot ishlari, slaneslarning tarkibi, energiya va kimyo sanoatidagi ahamiyati, shuningdek ularning metall-organik birikmalari (U, Mo, V, Re va b.) bilan boyligi asoslab berilgan. Maqolada yonuvchi slaneslarning qayta ishlash texnologiyalari, iqtisodiy istiqbollari va ularni kompleks o'zlashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Xulosa qilib, yonuvchi slaneslar – kelajakdagi muhim yoqilg'i va xomashyo resursi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: yonuvchi slanes, yoqilg'i, muqobil energiya, global zaxiralar, slanes smolasi, madandorlik, yotish sharoitlari.

ОБОГАЩЕННОСТЬ ПОЛЕЗНЫМИ ИСКОПАЕМЫМИ И УСЛОВИЯ ЗАЛЕГАНИЯ НИЖНЕЭОЦЕНОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ КАРАКАТИНСКОЙ ВПАДИНЫ В ЦЕНТРАЛЬНЫХ КЫЗЫЛКУМАХ

**Разиков Одилжон
Тохириджонович**

И.о. доктора геолого-
минералогических наук,
профессора, Национальный
университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека,
Ташкент, Узбекистан

**Нуртаев Бурхон
Химайлович**

Младшего научного сотрудника
Навоийского отделения
Академии наук Республики
Узбекистан, Навои, Узбекистан

**Назаров Узрух
Хасанович**

Базовый докторант Навоийского
отделения Академии наук
Республики Узбекистан,
Навои, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается глобальное и региональное значение горючих сланцев, в частности ресурсы нижнеэоценовых отложений на территории Республики Узбекистан. На фоне растущего мирового потребления энергии и сокращения запасов традиционных видов топлива, горючие сланцы играют значительную роль в качестве одного из

альтернативных источников энергии. Представлены данные геологоразведки месторождений Сангрунтау и Актау, расположенных в Центральных Кызылкумах. Описан состав горючих сланцев и рассмотрено их значение для энергетического сектора и химической промышленности, а также богатство металл-органическими соединениями (U, Mo, V, Re и др.). В статье обсуждаются технологии переработки горючих сланцев, экономические перспективы и возможности их комплексного освоения. В заключение отмечается, что горючие сланцы оцениваются как важный источник топлива и сырья будущего.

Ключевые слова: горючие сланцы, топливо, альтернативная энергия, глобальные запасы, сланцевая смола, рудоносность, условия залегания.

ENRICHMENT WITH MINERAL RESOURCES AND OCCURRENCE CONDITIONS OF THE LOWER EOCENE DEPOSITS OF THE KARAKATIN DEPRESSION IN THE CENTRAL KYZYLKUM

**Razikov Odiljon
Tokhirjonovich**

*Acting Doctor of Geological and
Mineralogical Sciences, Professor,
Mirzo Ulugbek National University
of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan*

**Nurtayev Burkxon
Khimailovich**

*Junior Research Fellow of the
Navoi Branch of the Academy of
Sciences of the Republic of
Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan*

**Nazarov Uzrukh
Khasanovich**

*Basic doctoral student of the Navoi
Branch of the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan,
Navoi, Uzbekistan*

Abstract. This article examines the global and regional significance of oil shales, particularly the resources found in the Lower Eocene deposits within the territory of the Republic of Uzbekistan. Against the backdrop of growing global energy consumption and declining reserves of traditional fuel sources, oil shales hold a special position as an alternative energy source. The results of geological exploration at the Sangruntau and Aktau deposits in the Central Kyzylkum region are presented, highlighting the composition of the shales, their importance for the energy and chemical industries, and their richness in metal-organic compounds (U, Mo, V, Re, etc.). The article discusses oil shale processing technologies, economic prospects, and the potential for their integrated development. It concludes that oil shales are considered a vital source of fuel and raw materials for the future.

Keywords: oil shale, fuel, alternative energy, global reserves, shale resin, ore-bearing capacity, occurrence conditions.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha yillik energiya iste'moli 10 milliard tonnadan ortiq yoqilg'i ekvivalentiga yetishi taxmin qilinmoqda. Energiya sarfining doimiy ortib borishi, eng avvalo, an'anaviy energiya manbalari - uglevodorodlar (neft, gaz, ko'mir, torf, yonuvchi slanes va boshqalar) zaxiralarining kamayishiga olib kelmoqda, shu jumladan atom energiyasi (uran, toriy, gafniy va boshqalar), daryo suvlarini, umuman suvlarni kamaiishi gidroyenergetika manbalarining energiya olish zaxiralari kamayishiga olib kelmoqda.

So'nggi vaqtlarda yoqilg'i-energetikasiga talab yuqori bo'lgan mamlakatlar va mintaqalar uchun yoqilg'i manbalariga bo'lgan ehtiyojining keskin ortishi va muqobil xomashyo manbalarini qidirish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu muammolarni hal etishda ayniqsa yonuvchi slaneslar muhim

ahamiyatga ega.

Chunki ular ulkan resurslarga (47 milliard tonna) ega va kimyoviy tarkibi tufayli muqobil energiya manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jinslar energiya uchun ham, turli xil kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ham neft o'rnini bosuvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Yer yuzidagi organik uglerod zaxiralari quyidagicha taqsimlangan: neftda - 1011 tonna, ko'mirda - 1013 tonna, yonuvchi slaneslarda esa - 1017 tonnaga yetadi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha 550 dan ortiq yonuvchi slanes koni aniqlangan bo'lib, ular har xil geologik tuzilmalarda - burmalangan zonalarda, qadimiy va yosh platformalarda joylashgan. Yer yuzidagi eng yirik yonuvchi slanes koni AQShdagi

Greyen River bo‘lib, u global zaxiralarning qariyb 60 foizini tashkil etadi. Umuman olganda, ko‘plab yonuvchi slaneslar termik qayta ishlenganda oz miqdorda smola ajratib chiqarishi bilan ajralib turadi [1].

Biroq, rivojlanish tajribasi va yillar davomida to‘plangan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto smola chiqishi atigi 4–8% bo‘lgan past sifatli yonuvchi slaneslarni qayta ishlash ham texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Dunyodagi eng sifatli yonuvchi slaneslar sifatida Boltiqbo‘yi havzasidagi konlar e‘tirof etiladi – bu yerda slaneslar 21–24% smola chiqishi bilan ajralib turadi. Mazkur konlarda qazib olish ishlari deyarli bir asrdan beri davom etmoqda. Ba‘zi konlarning yonuvchi slaneslari yuqori Cu, Mo, U, Pb, Zn, V tarkibiga ega va ma‘dan xomashyosi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, dunyoning turli hududlarida yonuvchi slaneslardan smola olish imkoniyati, muqobil energiya manbai sifatida, tobora ko‘proq e‘tiborni tortmoqda. Bunga sabab - bir qator davlatlarda energiyaga bo‘lgan talabning ortishi hamda an‘anaviy uglevodorod zaxiralarning kamayib borishi fonida, yonuvchi slaneslarning katta hajmdagi resurslarga ega bo‘lishidir [2].

Yonuvchi slaneslar tarkibida rangli, kam uchraydigan metallar va nodir yer elementlari mavjud bo‘lib, ularni yoqilg‘i-kimyo sanoatida xomashyo sifatida kompleks ravishda ishlatish mumkin. Yoqilg‘i sifatida slaneslar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoqilishi yoki termik qayta ishlov orqali slanes moyi ko‘rinishida foydalanilishi mumkin. Bunday qayta ishlash natijasida nafaqat slanes moyi, balki turli xil kimyoviy birikmalar ham olinadi.

Yonuvchi slaneslarning sanoat qiymati ularning organik va mineral tarkibiy qismlari, jumladan, tarkibidagi nodir va tarqoq yer elementlari bilan belgilanadi. Ular asosida quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi mumkin:

- yoqilg‘i va energiya vositalari (gaz, slanes moyi, dizel yoqilg‘isi, mazut, benzin, kerosin);
- kimyo sanoati mahsulotlari (benzol, toluol, tiofen, oltingugurt, fenollar, ixtiol va boshqalar);
- kamyob elementlar konsentratlari.

Yonuvchi slaneslarni yoqish natijasida hosil bo‘ladigan kul esa qurilish sanoati uchun - sement, devor bloklari va beton plomba materiallari ishlab chiqarishda arzon xomashyo sifatida ishlatiladi. Shuning uchun yonuvchi slaneslar “kelajak

yoqilg‘isi” deb ataladi, chunki ularning global zaxiralari neft, gaz va ko‘mir kabi an‘anaviy yoqilg‘i resurslariga nisbatan bir necha barobar ko‘proq. Slanes smolasi yaxshi izolyator, korroziyadan “himoya qiluvchi” ba‘zi hollarda yelim va payvandlash o‘rnini ham bosadi. Bundan tashqari, u tuproqning unumdorlashtirish uchun ishlatiladi.

Yonuvchi slanes yoqilg‘i-energetik va kimyoviy xomashyo bo‘lib, uglevodorodli xomashyolarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. U asosan mineral (kalsit, dolomit, gidroslyuda, montmorillonit, kaolinit, dala shpati, kvars, pirit va boshqalar) va organik qismlardan (kerogen, bitumlar) iborat bo‘lib, jins massasining 10-30% ni tashkil etadi va faqat eng yuqori sifatli slaneslarda 50-70% ga tashkil etishi mumkin. Yonuvchi slaneslar muqobil yoqilg‘i sifatida jahon energiyasining kelajagi bilan bog‘liq, chunki sayyoramizdagi neft va tabiiy gaz zaxiralari asta-sekin kamayib bormoqda.

Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab yonuvchi slanes konlarida jami 550-630 milliard tonnagacha slanes smolasi zahiralari mavjud. Bu xomashyoning bashorat qilinayotgan resurslari dunyo miqyosida 930 trillion tonnaga baholanadi va ulardan olinadigan slanes smolasi zahiralari esa 53 trillion tonnani tashkil etadi, bu esa dunyodagi uglevodorod zaxiralariidan bir necha barobar ko‘pdir. Bu smoladan gaz, benzin, mazut, shuningdek, neft-kimyo majmuasi uchun keng turdagi mahsulotlar olinadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Qizilqum hududida bashorat resurslari 47 milliard tonnaga yaqin bo‘lgan bir nechta yonuvchi slanes konlari ma‘lum, bular Baysun, Sangruntau, Aktau, Jom, Uchqir-Kulbeshkak, O‘rtabuloq.

Adabiyot tahlil va metodlar. O‘zbekistonda yonuvchi slaneslarni o‘rganish ishlari 50-yillarning boshida boshlangan, ammo eng faol davr 1965-1967-yillar bo‘lib, bu davrda A.S. Fedorenko, A.D. Posrednikov, R.I. Nishonxo‘jayev, A.G. Luzanovskiy, V.I. Mixaylov, E.F. Tatsir, A.A. Gamarnik keng qamrovli ishlarni amalga oshirdi. Ushbu ishlar natijasida yonuvchi slaneslarning quyi eotsenning (peritsiz gillar) quyi qatlamlariga bog‘liqligi aniqlangan. Kolonka burg‘ilash usuli bilan va paleogeografik rekonstruksiya asosida ikkita alohida havza ajratib olingan: Qizilqum va Amudaryo-Oldhisor havzalari.

Qizilqum havzasi doirasida birinchi marta Sangruntau va Aktau yonuvchi slanes konlari aniqlangan bo'lib, ularga mualliflar tomonidan zaxiralar hisoblangan. Sangruntau yonuvchi slaneslarida smola miqdori 8-10% ni tashkil qiladi; yonuvchi slaneslar va metallarning zaxiralari hisoblab chiqilgan, bunda metallarning quruq slanesga, slanes kuli-ga va peritga hisoblangan miqdori slanes massa-sining 5-10% ni tashkil etadi; yonuvchi slaneslar molibden, vanadiy, uran, volfram, reniy va boshqa metallarga boy bo'lib, ular organik uglerod tarki-biga bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan va bu metallarning yonuvchi slaneslarda metall-organik birikmalar shaklida bo'lishi taxmin qilingan, chunki faqat molibdenning sulfid shakllari molibdenit, ferromolibdit va povellit ko'rinishida aniqlangan.

A.G. Luzanovskiy, I.B. Turamuratov va A.X. Turesebekov tomonidan 2008-yilda yonuvchi slaneslardagi Re (reniy) miqdori bo'yicha taqqos-lash tahlili o'tkazilib, yonuvchi slaneslar tarkibida U (uran) va Re (reniy) bilan bir qatorda "Uchquduq tipidagi" uran konlarida aniqlangan deyarli bir xil nodir elementlar spektri mavjud degan xulosa qilin-gan. 2010-yilda Sangruntau tog'larining janubiy qismida, 15 kv.km (tajriba bloki) maydonda "Qizilqum GQE" tomonidan 38 ta kolonka quduqlari burg'ulangan, yonuvchi slaneslar va bituminli gil qatlamlari bo'yicha laboratoriya tadqiqotlari "Mineral resuslar instituti"da Galoter texnologiyasi bo'yicha, Sankt-Peterburg shahridagi "TTU-LTD" MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan UTT-3000 qurilmasida o'tkazilgan [4].

2011-yilda Sangruntau yonuvchi slanes konini batafsil va dastlabki baholash va uning qanotlarida qidiruv ishlarini olib borish loyihasi doirasida, 2010-yil materiallari asosida Sangruntau konining tajriba blokida yonuvchi slanes zaxira-larini hisoblash uchun dastlabki texnik-iqtisodiy asos (TIA) ishlab chiqildi. 2015-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat zaxiralar komissiyasi tomoni-dan Sangruntau konining shimoliy va janubiy qis-mida faqat yonuvchi slaneslarning zaxiralari tasdiq-landi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Bugungi kunda dunyo miqyosida neft va gazdan tashqari muqobil energiya manba-larini izlash va aniqlash yo'nalishida ilmiy izlanish-lar faol olib borilmoqda. Shulardan biri bo'lgan yonuvchi slanes yoqilg'i-energetika sohasida ham-

da kimyo sanoatida xomashyo sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uglevodorod asosi-dagi resurslarning muhim manbalaridan biri hisob-lanadi. Yonuvchi slanes ko'pincha "kelajak yoqil-g'isi" sifatida tilga olinadi, chunki ularning umumiy zaxiralari an'anaviy yonuvchan qazilmalar – neft, tabiiy gaz va ko'mir zaxiralaridan bir necha barobar ko'proq.

Bugungi kunda global energiya iste'moli yiliga 10 milliard tonnadan ortiq shartli yoqilg'iga teng deb baholanmoqda. "Axborot markazi" davlat korxonasi hamda Davlat Geologiya qo'mitasining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab energiyaga bo'lgan ehtiyojning doimiy ortib bori-shi, eng avvalo, neft va gaz kabi an'anaviy energiya manbalarining zaxiralari kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Muqobil xomashyo manbalarini izlash, ayniqsa, yoqilg'i-energetika balansi izdan chiqqan mamlakatlar va mintaqalar uchun nihoyatda muhim masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, katta zaxiralarga ega bo'lgan yonuvchi slanes muqobil energiya manbalaridan biri sifatida ajralib turadi. Bu turdagi foydali qazilma nafaqat energiya ishlab chiqarishda, balki turli kimyoviy mahsulotlarni olishda ham neftning o'rnini bosuvchi resurs bo'la oladi [5].

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi konlarining davlat balansida hisobga olingan yonuvchi slanes zaxiralarining iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kon	Kategoriya bo'yicha zaxiralar, ming tonna				
	ming tonna	C ₁	A+B+C ₁	C ₂	Balansda n tashqari
Dehqonobod maydoni (slanes smolasining o'rtacha miqdori – 5,6%)	-	-	-	56.294,6	-
Sangruntau (slanes smolasining o'rtacha miqdori- 5,675%)	84.689	100.608	185.297	230.687	61.283
Aktau (slanes smolasining o'rtacha miqdori – 5,78%)	319.949,8	-	319.949,8	168938,8	61.476,9

Yonuvchi slaneslar qattiq yoqilg'ining eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Dunyo yonuvchi slaneslarining aksariyati issiqlik bilan qayta ishlashda kam smola chiqishi bilan tavsiflanadi.

Slanes nefti energetika sohasini yanada rivojlantirish uchun muhim zaxiralardan biri

Kategorie	Počet návštěv [s]
1	5,6
2	5,675
3	5,78

Konlar: 1 – Dehqonobod; 2 – Sangruntau; 3 - Aktau-2



Hozirgi vaqtda slanes nefti ishlab chiqarish texnologiyalari hali bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Xomashyo ishlab chiqarish xarajatlari kamayish tendensiyasida bo'lsa-da, ular an'anaviy neft ishlab chiqarish tannarxidan sezilarli darajada yuqoridir. Shu sababli, slanes moyi hozircha kela-jakda istiqbolli resurs sifatida qolmoqda va neft bozorida katta o'zgarishlar yuz berishiga imkon yaratishi mumkin. Slanes gazining qazib olinishi sohasidagi rivojlanish natijasida gaz bozorida yuzaga kelgan "inqilob" kabi neft bozorida bunday keskin o'zgarishlar kutilmayapti. O'zbekiston hududida esa paleogen davriga mansub ikkita

Xulosalar va takliflar. Ko‘plab ilmiy-tadqiqot institutlari sanoatda qimmatli va kam uchraydigan metallarni (masalan, uran, molibden, vanadiy va boshqalar) bir vaqtning o‘zida ajratib olish imkonini beruvchi texnologiyalarni yaratdilar. Iqtisodiy tahlil natijalariga ko‘ra, neft narxining oshishi yonuvchi slaneslarni kompleks tarzda qazib olish va qayta ishlash xarajatlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa, bu jarayonda nodir va kamyob yer elementlari bilan birgalikda uglevodorod xomashyosi sifatida slaneslarning qiymati oshadi.

Baksan konida yonuvchi slaneslardan tashqari, kam uchraydigan metallar — molibden, vanadiy, volfram, selen, ittriy, reniy, shuningdek, radioaktiv elementlar (uran) va rangli metallar (nikel, kobalt, kremniy, kadmiy, rux) ham aniqlangan. Eksperimental tadqiqotlar (“IMR” DM laboratoriyasida va boshqalar) natijalariga ko‘ra, vanadiy, uran va molibden kabi kamyob yer elementlari biologik eritma usuli yordamida, organik reagentlar asosida ekstraksiya qilingan [7].

Xulosa qilib aytganda: Yonuvchi slanes
yoqilg'i-energetik va kimyoviy xomashyo bo'lib,
uglevodorodli xomashyolarning asosiy man-
balaridan biri hisoblanadi.

Quyí eotsen davri yotqizíqlarídagi yonuvchi slaneslar O‘zbekiston hududída keng tarqalgan. Ularning hosil bo‘lishi ikkita havza bilan bog‘liqdir. Sirdaryo va Amudaryo.

Quyidagilarda davridagi metalli yonuvchi slanelar aralash tarkibli cho'kindi jinslarga kiradi, ularda yuqori miqdorda SO_2 , N_2O , N_2O , K_2O , MgO , R_2O , CaO , $\text{S}_{\text{sulf.}}$, S_{org} mavjud.

1. Исоков М.У., Туресебеков А.Х., Борминский С.И., Василевский Б.Б., Шарипов Х.Т., Дерюгин Е.К. Геохимия и минералогия горючих сланцев Узбекистана // Отв.ред. Б.А.Исаходжаев; Госкомгеологии РУз, ГП “НИИМР”, Институт геологии и геофизики АН РУз, Мин-во ВиССО РУз, Ташкентский ХТИ. –Т.: ГП “НИИМР”, 2013. -78с.

2. Курбанов Ш.М. Разработка технологии переработки горючих сланцев Кызылкумов // Автореф. диссерт. на соискание ученой степени к.т.н.: - Навои: 2011г. -20 с.
3. Борминский С.И. Комплексная технология переработки горючих сланцев // Прикладной проект. ГП “НИИМП” Госкомгеологии РУз. (Фонды геология информационного Центра) 2012 г.
4. Разиков О.Т., Нуртаев Б.Х. Будущее энергетика в горючих сланцах // Республиканской научно-практической конференции “Актуальные проблемы геологии, геофизики, петрологии и рудообразования” Тошкент, 2022. – С. 57-59.
5. Нуртаев Б.Х., Яндашев Р.Э., Юсупов Х.Р., Муродуллаева М.У. Геологическое строение горючих сланцев в Западном Узбекистане // «Universum: технические науки» 12 (117). Москва-2023. -с. 22-27.
6. Nurtayev B. Kh., Yusupov Kh. R., Mineral and chemical composition in the oil shales of the Sangruntau deposit // International Journal of Geology, Earth & Environmental Sciences. ISSN: 2277-2081. 2025 Vol. 15, pp. 73-76.
7. Мирзаев А.У. Нерудные полезные ископаемые Кызылкумского горнорудного региона. Журнал «Горный вестник Узбекистана» -2 Навоий. № 53, 2013., С. 82-87.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH
ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО
CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

UO'K: 543.42:546.82:543.3

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.20

RUX IONINI 4-(2-PIRIDILAZO)-REZORSIN REAGENTI YORDAMIDA
SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH



**Turabov Nurmuhhammad
Turabovich**

Kimyo fanlari nomzodi, professor,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: turabov2019@mail.ru
ORCID ID: 0009-0006-6998-2390



**Todjiyev Jamoliddin
Nasiriddinovich**

Kimyo fanlari nomzodi, dotsent,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: todjiyev88@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-5932-3849



**Xayrullayeva
Shahinabonu Lutfullo
qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: shahinabonu@gmail.com
ORCID ID: 0009-0003-1591-1034

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-(2-piridilazo)-rezorsin (PAR) reagentidan foydalanib rux ionlarini spektrofotometrik usulda aniqlash sharoitlari ilmiy jihatdan o'rganildi. Rux bilan hosil bo'ladigan kompleks birikmaning optik zichligi turli to'lqin uzunliklarida (λ), eritmaning pH qiymatlarida, bufer eritma tarkibida hamda komponentlarning qo'shilish ketma-ketligida tekshirildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maksimal optik zichlik $\lambda=550$ nm da, pH=5,08 bo'lgan atsetatli bufer eritmasida va komponentlar rux–bufer–reagent–distillangan suv ketma-ketligida qo'shilganda kuzatiladi. Ushbu optimal sharoitlar rux ionlarini yuqori sezuvchanlik va aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqilgan usul ekologik jihatdan xavfsiz bo'lib, analitik kimyoda tezkor va samarali usullardan biri sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Kalit so'zlar: rux ionlari, spektrofotometriya, 4-(2-piridilazo)-rezorsin (PAR), kompleks birikma, optik zichlik, bufer eritma, aniqlash sezuvchanligi.

СПЕКТРОФОТОМЕТРИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИОНОВ ЦИНКА С
ПОМОЩЬЮ РЕАГЕНТА 4-(2-ПИРИДИЛАЗО) РЕЗОРЦИНА

**Турабов Нурмухаммад
Турабович**

Кандидат химических наук,
профессор, Национальный
университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека,
Ташкент, Узбекистан

**Тоджиев Жамолiddин
Насириддинович**

Кандидат химических наук,
доцент, Национальный
университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека,
Ташкент, Узбекистан

**Хайруллаева
Шахинабону Лутфулло
кизи**

Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследованы оптимальные условия спектрофотометрического определения ионов цинка с использованием реагента 4-(2-пиридилазо)-резорцина (ПАР). Изучено изменение оптической плотности образующегося комплекса цинка с реагентом в зависимости от длины волны (λ), значения pH раствора, состава буферной системы, а также порядка внесения компонентов. Экспериментальные результаты показали, что максимальная оптическая плотность достигается при $\lambda=550$ нм, в ацетатном буферном растворе с pH=5,08 и при последовательном добавлении компонентов в порядке: цинк – буфер – реагент – дистиллированная вода. Установленные условия обеспечивают высокую чувствительность и точность определения ионов цинка. Предложенный метод является экологически безопасным и может быть рекомендован для применения в аналитической химии как быстрый и эффективный способ анализа.

Ключевые слова: ионы цинка, спектрофотометрия, 4-(2-пиридилазо)-резорцин (ПАР), комплексное соединение, оптическая плотность, буферный раствор, чувствительность определения.

SPECTROPHOTOMETRIC DETERMINATION OF ZINC IONS USING 4-(2-PYRIDYLAZO)-RESORCINOL REAGENT

**Turabov Nurmuhammad
Turabovich**

Candidate of Chemical Sciences,
Professor, Mirzo Ulugbek National
University of Uzbekistan,
Tashkent, Uzbekistan

**Todjiev Jamoliddin
Nasiriddinovich**

Candidate of Chemical Sciences,
Associate Professor, Mirzo Ulugbek
National University of Uzbekistan,
Tashkent, Uzbekistan

**Xayrullaeva
Shahinabonu Lutfullo
kizi**

Mirzo Ulugbek National University
of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article investigates the optimal conditions for the spectrophotometric determination of zinc ions using the reagent 4-(2-pyridylazo)-resorcinol (PAR). The optical density of the zinc–PAR complex was studied under various conditions, including wavelength (λ), solution pH, buffer composition, and the order of reagent addition. The results revealed that maximum absorbance is observed at $\lambda=550$ nm in an acetate buffer solution with pH=5.08, when the components are added in

Kirish. Rux miqdori sanoatda muhim ahamiyatga ega, biologik oziq moddalar, toksikant, atrof-muhitni ifloslantiruvchi element hisoblanadi. U ko'plab ferment tizimlari bilan bog'liq bo'lib, metalloferment va ferment faollashtiruvchisi sifatida muhim rolni o'ynaydi [1-2]. Rux mikroelement sifatida ko'pchilik organizmlarda muhim biokimyoviy jarayonlarni amalga oshiradi. Ruxning kam miqdorlari insulin ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Bu muammolarni hal qilishda sezgir, tanlab ta'sir etuvchan, apparatura jihatidan arzon, bajarilishi jihatidan qulay bo'lgan ekspress aniqlash metodlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu talablarga ma'lum ma'noda optik analiz metodlari javob beradi [3-8].

Rux inson salomatligi uchun juda muhim metallidir. Ushbu elementni o'z ichiga olgan 20 dan ortiq metallofermentlar past konsentratsiyalarda

aniqlangan. Bundan tashqari, rux birikmalari bakteritsid faollikka ega ular bir nechta bakteriyalarni cho'ktirishi va oqsillar denaturatsiyasida ishtirok etishi mumkin. Shu sababli ular turli soxalarda dermatologiyada, og'iz yuvish vositalari va oftalmik eritmalar antiseptik va dezinfektsiyalovchi vositalarida va rux odatda mineral vitamin preparatlarida ham mavjud. Shunday qilib, farmatsevtikada ruxni aniqlash muhim tahliliy vazifadir [9-12].

Tajribaviy qism. Ushbu ilmiy tadqiqotda 4-(2-piridilazo)-rezorsin (PAR) bilan Zn(II) ionlari o'rtasida kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlari o'rganildi hamda uning asosida tezkor, yuqori sezgirlikka ega va tanlab ta'sir etuvchi fotometrik aniqlash metodikasi ishlab chiqildi.

Tajriba jarayonida Zn(II) ionlari uchun 1,0 mg/ml konsentratsiyali standart eritma, 0,1% li 4-


(2-piridilazo)-rezorsin reagenti va turli pH qiymatlariga ega bufer eritmalaridan foydalanildi. Reagent tayyorlash uchun analitik tarozida 0,1 g PAR tortilib, o'lov kolbasida distillangan suv yordamida belgisigacha suyultirildi. Zn(II) ionlari manbai sifatida $\text{ZnCl}_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ tuzidan foydalanildi. Shu maqsadda 2,911 g tuz analitik tarozida tortilib, 1000 ml li o'lov kolbasiga solindi va distillangan suv bilan belgisigacha suyultirilib, 1 mg/ml (1000 mkg/ml) standart eritma tayyorlandi. Ishchi eritmalar har bir tajribadan oldin ushbu standart eritmadan alikvot qism olinib, kerakli darajada suyultirish orqali tayyorlandi.

Turli pH qiymatlaridagi bufer eritmalar tayyorlashda "Analitik kimyo ma'lumotnomasi" dan foydalanildi. O'lovlar UV/Vis spektrofotometr hamda pH-metr (pH/ISE Metter, Model 730P) yordamida bajarildi.


Zn(II) ionining 4-(2-piridilazo)-rezorsin bilan hosil qilgan kompleksi uchun optimal to'liq uzunligini aniqlash maqsadida tajribalar o'tkazildi. Buning uchun 25,0 ml li o'lov kolbasiga pH = 5,08 ga ega universal bufer eritmadan 5,0 ml, 0,1% li PAR eritmasidan 1,0 ml hamda 100 mkg/ml Zn(II) eritmasidan 1,0 ml solinib, belgisigacha distillangan suv qo'shildi. Hosil bo'lgan kompleks birikmaning optik zichligi UV/Vis spektrofotometr yordamida, nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm bo'lgan kyuvetada o'lchandi. Nazorat eritma sifatida metall ionidan tashqari barcha komponentlar kiritilgan eritmadan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Zn(II)-PAR kompleksi uchun maksimal optik zichlik $\lambda=550$ nm da qayd etildi.

Shuningdek, Zn(II)-PAR kompleksining optik zichligi eritma muhiti pH qiymatiga bog'liq holda o'rganildi. Buning uchun 25,0 ml li o'lov kolbasiga pH qiymati 3 dan 13 gacha bo'lgan universal bufer eritmalaridan 5,0 ml, 0,1% li PAR eritmasidan 1,0 ml va 100 mkg/ml Zn(II) eritmasidan 1,0 ml solinib, belgisigacha distillangan suv qo'shildi. Olingan kompleks eritmalarining optik zichliklari UV/Vis spektrofotometrda $\lambda_{\text{max}} = 550$ nm da va nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm bo'lgan kyuvetada o'lchandi. Olingan natijalar grafik ko'rinishda (2-rasm) ifodalandi.

Asosiy reaksiya (Zn^{2+} - $\text{R}_{\text{reagent}}$) komponentlariga bufer eritmalar tarkibiga bog'liqligini o'rganish uchun pH=5,08 bo'lgan bufer eritmalaridan foydalanildi.



1-rasm. Zn kompleksi optik zichligining nur filtriga bog'liqligi.



2-rasm. Kompleks birikma optik zichligining pH ga bog'liqligi.

Zn(II)ni 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti bilan kompleks birikmasi optik zichligini bufer eritma tarkibiga bog'liqligi.

Aniqlash uslubi: Fotometrik eritmalar tayyorlash uchun avvalgi tajriba jarayonida qo'llangan usul asosida 25,0 ml li o'lov kolbalariga pH=5,08 bo'lgan bufer eritmadan 5,0 ml, 0,1% li 4-(2-piridilazo)-rezorsin eritmasidan 2,0 ml hamda 100 mkg/ml li Zn(II) standart eritmasidan 1,0 ml solindi va kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi. Hosil qilingan analitik aralashmaning optik zichliklari UV/Vis spektrofotometr yordamida, nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm bo'lgan kyuvetada, solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi.

1-jadval

Optik zichligining bufer eritma tarkibiga bog'liqligi ($n=3$)


Bufer eritma nomi	Bufer eritmaning tarkibi	pH	$\bar{A}_{0,1\text{cm}}$
Universal	$(\text{H}_3\text{PO}_4 + \text{CH}_3\text{COOH} + \text{H}_3\text{BO}_3 + \text{NaOH})$	5,08	0,378
Na va K-fosfatli	$(\text{KH}_2\text{PO}_4 - \text{Na}_2\text{HPO}_4)$	5,08	0,215
Atsetatli	$\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{COONa}$	5,08	0,476

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Tad-

qiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, atsetatli bufer eritma qo‘llanilganda hosil bo‘lgan Zn(II)–4-(2-piridilazo)-rezorsin kompleks eritmasi maksimal optik zichlikni namoyon etdi. Shu bois keyingi barcha tajribalarda pH=5,08 qiymatga ega atsetatli bufer eritmadan foydalanildi.

Kompleksining vaqtga nisbatan barqarorligi. Zn(II)ni 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti bilan bergan kompleksining vaqtga nisbatan barqarorligini aniqlash.

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o‘lchov kolbalariga 100 mkg/ml li Zn(II) eritmasidan 1,0 ml solib, pH=5,08 bo‘lgan eritmalar 5,0 ml dan, 0,1 % li 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti eritmasidan 2,0 ml solib, kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi, tayyor bo‘lgan analitik aralashmani optik zichliklari UV/Vis spektrophotometrida o‘lchandi. Natijalar 3-rasmda keltirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompleks birikmaning optik zichlik qiymati 180 minutgacha barqaror va bu vaqt oralig‘ida analizni bajarish uchun yetarli ekanligini xulosa qilish mumkin.



3-rasm. Kompleks birikma optik zichligining vaqtga bog‘liqlik grafigi.

Kompleks birikma tarkibiy komponentlarining quyilish tartibini o‘rganish. Reaksiyaning unumi komponentlar quyilish tartibiga ham bog‘liqligini e‘tiborga olgan holda eritmalar quyida ko‘rsatilgan usul bilan tayyorlandi va komponentlarning quyilish tartibini o‘zgartirib, 7 xil quyilish ketma-ketligida bir nechta tajribalar o‘tkazildi. Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, olib borilgan tajribalarning 3 tartibdagi quyilish tarkibida yuqori optik zichlik kuzatildi va keyingi tadqiqot ishlarida 3-quyilish tartibi tanlandi.

2-jadval

Zn(II)–4-(2-piridilazo)-rezorsin kompleks birikmasining optik zichligiga komponentlarni quyilish tartibining ta‘siri ($C_{Zn^{2+}}=100,0$ mkg/ml, $C_{HR}=0.1\%$, pH=5,08, $l=1,0$ sm, $\lambda_{max}=550$ nm, $n=3$)

No	Quyilish tartibi	$\bar{A}$ o‘rtacha
1.	rux–bufer–reagent–diss suv	0,0302
2.	reagent–bufer–rux–diss suv	0,056
3.	rux–bufer–reagent–diss suv	0,124
4.	bufer–rux–reagent–diss suv	0,083
5.	reagent–rux–bufer–diss suv	0,0133
6.	rux–reagent–bufer–diss suv	0,041
7.	rux–diss suv–bufer–reagent	0,072

Kompleks birikma optik zichligining qo‘shilayotgan reagent miqdoriga bog‘liqligi. Amaliy tadqiqotlarda metalni reagentga to‘la bog‘lanishi uchun odatda reagentning ortiqcha miqdori olinadi. Shu maqsadda kompleks birikma optik zichligining qo‘shilgan reagent miqdoriga bog‘liqligi o‘rganildi.

Aniqlash usuli: 25,0 ml li o‘lchov kolbalariga 100 mkg/ml Zn(II) eritmasidan 1,0 ml 5,0 ml (pH=5,08) bo‘lgan atsetatli eritmasidan, o‘zgaruvchan miqdordagi 0,50–3,50 ml gacha 0,1% li 4-(2-piridilazo)-rezorsin eritmasi solindi kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan to‘ldirildi. Kompleks birikmaning optik zichligi UV/Vis spektrophotometr asbobida va nur yutish qalinligi $l=1,0$ smli kyuvetada nur filtri $\lambda=550$ nm da solishtirma eritmaga nisbatan o‘lchandi. Natijalar 3-jadval va 4-rasmda keltirildi. Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, 100,0 mkg/ml Zn(II) ni kompleks bilan to‘la bog‘lash uchun reagentning optimal hajmi 1,5 va 2,0 ml oralig‘ida kuzatildi, keyingi ishlarda 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagentini 2,0 ml li eritmasidan foydalanildi.

3-jadval


Zn(II)–4-(2-piridilazo)-rezorsin kompleksining optik zichligiga reagent hajmining ($V_{R₂}$) ta‘siri (Uv/Vis spektrofotometrda $C_{Zn^{2+}}=100,0$ mkg/ml, $l=1,0$ sm, $\lambda_{nm}=550$ nm, $n=3$)

V_{R_2} , ml	0,50	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5	4,0
$\bar{A}$	0,11	0,14	0,17	0,24	0,29	0,32	0,34	0,33


Kompleks birikma optik zichligining element miqdoriga bog‘liqligi (Buger-Lambert-Ber qonuniga bo‘ysinishi).

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o‘lchov kolbalariga Zn(II) ning 10,00 mkg/ml li eritmasidan

o'zgaruvchan miqdorda, 5,0 ml pH=5,08 atsetatli bufer eritmasidan, 2,0 ml 0,1 % li 4-(2-piridilazo)-rezorsin eritmasidan solib, kolbaning belgisigacha distillangan suv solib, suyultirildi. Eritmalarni aralashtirib optik zichliklari UV/Vis spektrophotometr asbobida va nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm li kyuvetada, nur filtri $\lambda=550$ nm da solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 3-jadval va 4-rasmda keltirildi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, Buger–Lambert–Ber qonuniga bo'ysinish soxasi 25,0 ml eritmada 5,0 mkg dan 50 mkg/ml oralig'igacha tog'ri chiziqli bog'lanish kuzatildi.



4-rasm. Optik zichlikning qo'shilgan reagent miqdoriga bog'liqligi.



5-rasm. Optik zichlikning Zn²⁺ miqdoriga bog'liqligi.


Zn(II)ning 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti bilan hosil qilgan kompleksining tarkibiy mollar nisbatini aniqlash. Zn(II) ning 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti bilan hosil qilgan kompleksida komponentlarning mollar nisbatlari izomolyar seriyalar metodi va Asmusning to'g'ri chiziqlar metodlari bilan aniqlandi.

Kompleks tarkibini Izomolyar seriyalar metodi yordamida aniqlash. Zn(II) ning 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti bilan hosil qilgan kompleksidagi mollar nisbatini izomolyar seriyalar metodi bilan aniqlash uchun Zn(II) va 4-(2-


piridilazo)-rezorsin reagentining teng konsentratyali eritmaları ishlatildi: $C_{Zn^{2+}}:HR=7,648 \cdot 10^{-4}$ mol/l

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o'lchov kolbalariga qator eritmalar tayyorlandi. Buning uchun Zn(II) ning o'zgaruvchan miqdorli eritmaları (9,0 ml dan-1,0 ml gacha) dan, pH=5,08 bo'lgan bufer eritmasidan har biriga 5,0 ml dan qo'shib, o'zgaruvchan miqdordagi 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti eritmasi (1,0 ml-9,0 ml gacha) dan har biriga qo'shib, va kolba belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi va aralashtirildi. Tayyorlangan eritmaların optik zichligi spektrofotometrda, nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm bo'lgan kyuvetalarda solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 5-rasmda keltirildi. Ushbu grafikdan ko'rinib turibdiki, Zn(II) bilan 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagentining hosil qilgan kompleksining tarkibi Zn:R=1:2 mollar nisbatiga to'g'ri keldi.

Kompleks tarkibini Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash. O'zaro ta'sir etuvchi komponentlarning stexiometrik nisbatlarini grafik usulida aniqlash uchun $(1/V)^n = l/A$ bog'liqlik grafigi tuzildi. Bu bog'liqlik faqat "n" ning qiymati haqiqiy qiymat uchun to'g'ri chiziqni ifodalaydi.



6-rasm. Izomolyar seriyalar metodi yordamida aniqlash grafigi.



7-rasm. Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash grafigi.

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o'lchov kolbalariga teng kontsentratsiyali Zn(II) eritmasidan 1,0 ml solib, pH=5,08 bo'lgan universal buferdan har biriga 5,0 ml dan solib, ustiga o'zgaruvchan miqdorda 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagentining suvli eritmasi kolba belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi va aralashtirildi. Tayyorlangan eritmalarning fotometrik optik zichliklari spektrofotometrda nur yutish qalinligi $l=1,0$ sm bo'lgan kyuvetalarda o'lchandi. Natijalar 6-rasmda keltirilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri chiziq 1:2 mollar nisbatiga to'g'ri keldi. Ikkala metod ham bir-birini tasdiqladi va tarkib $Zn^{2+}:R=1:2$ nisbatda ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Mazkur ilmiy ishda Zn ionlarini aniqlash uchun 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti asosida spektrofotometrik usul ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Tadqiqotlar davomida 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagentining Zn ionlari bilan kompleks hosil qilishi sharoitlari o'rganildi. Aniqlangan optimal sharoitlar orasida eritma muhiti pH=5,08 eng yuqori optik zichlikni ta'minlagani sababli, aynan shu pH qiymati analitik ish uchun

tanlandi.

Kompleks birikmaning optik zichligi vaqtga nisbatan 120 daqiqagacha barqaror saqlanishi, ushbu usulning amaliy jihatdan qulayligini ko'rsatdi. Buger–Lambert–Ber qonuniga muvofiq to'g'ri chiziqli bog'lanish 5,0 mkg/ml dan 50,0 mkg/ml gacha oraliqda saqlanib qoldi. Shuningdek, izomolyar seriyalar metodi orqali kompleksdagi Zn:R molyar nisbati 1:2 ga tengligi aniqlanib, 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagentining Zn bilan ikki koordinatsion bog' hosil qilishi tasdiqlandi. Tahlil qilingan farmatsevtik namunalarda aniqlik darajasi 97,5% dan 99,9% gacha bo'lib, metodning ishonchligini ko'rsatdi. Shu asosda, 4-(2-piridilazo)-rezorsin reagenti yordamida Zn ionlarini spektrofotometrik usulda aniqlash usuli yuqori sezuvchan, barqaror, arzon va oddiy bajarilishi bilan ajralib turadi. Bu usul farmatsevtik nazorat, biologik va atrof-muhit namunalari tahlil qilishda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan istiqbolli analitik metod sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islam, M. T., & Ahmed, M. J. (2013). A simple spectrophotometric method for the trace determination of zinc in some real, environmental, biological, pharmaceutical, milk and soil samples using 5,7-dibromo-8-hydroxyquinoline. *Pak. J. Anal. Environ. Chem.*, 14(1), 1–15.
2. Карибьянц, М. А., и др. (2014). Исследование равновесий в растворах системы м-крезолфталеоксон S-цинк в присутствии метоклопрамида. *Инновации в науке*, (38), 11–17.
3. Todjiyev, J. N., Turabov, N., Xusanov, B. M., Turaeva, G. S., Lakaev, Sh. S., Razzoqova, S. R., Sagdillayeva, Z. A., Yuldasheva, U. A., Muhammedova, B. I., Sapaev, I. B., & Yunusov, Kh. E. (2024). Determination of Ni(II) ions in natural objects and industrial alloys via a spectrophotometric method with 4,5-dihydroxy-3,6-dinitrosonaphthalene-2,7-disulfoic acid. *Chemical Review and Letters*, 10, 895–911.
4. Todjiyev, J. N., Turabov, N., Turaeva, G. S., Xusanov, B. M., Yunusov, Kh. E., Tuliyeu, B. A., Gazieva, A. S., Pulatova, G. U., & Smanova, Z. A. (2024). Spectrophotometric determination of microconcentrations of zinc(II) and copper(II) in water and industrial alloys using a new chromogenic reagent [4-amino-5-hydroxy-6-[(5-methyl-2-pyridyl)azo]-3-sulfo-1-naphthyl]sulfonyloxysodium. *Chemical Review and Letters*, 3, 388–403. <https://doi.org/10.22034/CRL.2024.457689.1338>
5. Иванова, Ю. Б., Семейкин, А. С., Мамардашвили, Н. Ж., & Койфман, О. И. (2015). Спектрофотометрическое исследование кислотных и комплексобразующих свойств производных октаметилпорфирина. *Известия высших учебных заведений. Химия и химическая технология*, 58(9), 15–21.
6. Антонова, Т. В., Черненко, С. А., & Шацаускас, А. Л. (2017). Производные 1,7-нафтиридина как аналитические реагенты для спектрометрического определения переходных металлов. *Молодёжь третьего тысячелетия*, 1619–1623.

7. Гамов, Г. А., Завалишин, М. Н., Хохлова, А. Ю., Гашникова, А. В., & Шарнин, В. А. (2018). Устойчивость комплексов Cu(II), Zn(II) с пиридинкарбогидразонами пиридоксаль-5-фосфата в водном растворе. Журнал общей химии, 88(7), 1144–1148.
8. Иванова, Ю. Б., Разгоняев, О. В., Семейкин, А. С., & Мамардашвили, Н. Ж. (2015). Спектрофотометрическое исследование основных и координационных свойств 5,10,15,20-тетракис-(тиен-2-ил)-2,3,7,8,12,13,17,18-октаметилпорфирина. Журнал общей химии, 85(4), 635–640.
9. Safaa, S. N., Maha, A. Al-H. H., Mundher, A. Al-Sh., & Tahseen, S. F. (2020). Spectrophotometric determination of zinc in pharmaceutical medication samples using 8-hydroxyquinoline reagent. International Journal of Chemistry, 12(1), 28–36. <https://doi.org/10.5539/ijc.v12n1p29>
10. Alabidi, H. M., Farhan, A. M., & Al-Rufaie, M. M. (2021). Spectrophotometric determination of Zn(II) in pharmaceutical formulation using a new azo reagent as derivative of 2-naphthol. Current Applied Science and Technology, 1, 176–187.
11. Нуранеева, Е. Н., Гусева, Г. Б., & Антина, Е. В. (2017). Влияние особенностей галогенирования на устойчивость координационных соединений цинка(II) с моноиод- и дибромдипиррометенами. Журнал общей химии, 87(7), 1157–1163.
12. Mammadov, P. R. (2020). Simple spectrophotometric method for the determination of zinc (II) using 4,4'-bis-(2,3,4-trihidroksifenilazo)-difenil. Transactions of Pedagogical University. Təbiət elmləri, 68(1), 48–57.

UO‘K: 667.287.5

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.15

YUQORI SAMARALI QUYOSH ELEMENTINI TAYYORLASH UCHUN MIS ASOSLI FTALOSIANIN MODDASINI SINTEZ QILISH



**Mustafayev Muhammad-
Ali Nurali o'g'li**

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy
tadqiqot instituti, doktorant,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail:

Muha1993ali1212@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-4168-3383



**Karimov Mas'ud
Ubaydulla o'g'li**

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy
tadqiqot instituti, t.f.d., professor,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail:

masudkarimov27@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5063-0914



**Djalilov Abdulahat
Turapovich**

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy
tadqiqot instituti, O'zRFA
akademigi, k.f.d., professor,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail:

gup_tniixt@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda quyosh panellari haqida qisqacha ma'lumotlar berilib, quyosh elementlarini tayyorlashda foydalaniladigan ftalosianin pigmentining sintez jarayoni hamda uning infraqizil (IR) spektral tahlili yoritilgan. Mis asosli ftalosianin namunasi PerkinElmer Fourier-transform infraqizil (FTIR) spektrometri yordamida tahlil qilinib, unda mavjud funksional guruhlar aniqlangan. Spektral ma'lumotlarga ko'ra, namunada aromatik halqalar, karbonil, gidroksil, efir, nitril hamda metall-kislorod (Cu–O) bog'lanishlariga xos cho'qqilar qayd etilgan. Olingan natijalar namunada mis ionlari bilan kompleks hosil qilgan fitokimyoviy birikmaning mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu tahlil ftalosianin asosli quyosh elementlarining tarkibini chuqur o'rganish va ularning fotoelektrik samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Quyosh elementi, ftalosianin pigmenti, ftol anhidrid, mis(I)xlorid, borat kislotasi, karbomid, sulfat kislota, natriy karbonat, IR spektori.

СИНТЕЗ МЕДЬСОДЕРЖАЩЕГО ФТАЛОЦИАНИНА ДЛЯ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОГО СОЛНЕЧНОГО ЭЛЕМЕНТА

**Мустафаев Мухаммад-
Али Нурали угли**

Ташкентский научно-
исследовательский химико-
технологический институт,
докторант,
Ташкент, Узбекистан

**Каримов Масуд
Убайдуллаевич**

Ташкентский научно-
исследовательский химико-
технологический институт,
доктор технических наук,
профессор,
Ташкент, Узбекистан

**Джалилов Абдулахат
Турапович**

Ташкентский научно-
исследовательский химико-
технологический институт,
академик АН РУз, доктор
химических наук, профессор,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной научной работе представлена краткая информация о солнечных панелях, освещен процесс синтеза фталоцианинового пигмента, используемого при изготовлении солнечных элементов, а также его инфракрасный (ИК) спектральный анализ. Образец фталоцианина на основе меди был проанализирован с помощью инфракрасного Фурье-спектрометра (FTIR) PerkinElmer, в результате чего были идентифицированы имеющиеся функциональные группы. Согласно спектральным данным, в образце обнаружены пики, харак -

терные для ароматических колец, карбонильных, гидроксильных, эфирных, нитрильных и металл-кислородных (Cu-O) связей. Полученные результаты подтверждают наличие в образце фитохимического соединения, образующего комплекс с ионами меди. Данный анализ имеет важное значение для глубокого изучения состава солнечных элементов на основе фталоцианина и оценки возможностей повышения их фотоэлектрической эффективности.

Ключевые слова: Солнечный элемент, фталоцианиновый пигмент, фталевый ангидрид, хлорид меди (I), борная кислота, карбамид, серная кислота, карбонат натрия, ИК-спектр.

SYNTHESIS OF COPPER-CONTAINING PHTHALOCYANINE FOR THE MANUFACTURE OF A HIGHLY EFFICIENT SOLAR CELL

**Mustafaev Mukhammad-
Ali Nurali ugli**

Tashkent Chemical-Technological
Research Institute, doctoral student,
Tashkent, Uzbekistan

**Karimov Masud
Ubaydulla ugli**

Tashkent Chemical-Technological
Research Institute, Doctor of
Technical Sciences, Professor,
Tashkent, Uzbekistan

**Djalilov Abdulakhat
Turapovich**

Tashkent Research Institute of
Chemical Technology, Academician
of the Academy of Sciences of
Uzbekistan, Doctor of Chemical
Sciences, Professor,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This scientific paper provides concise information on solar panels, describes the synthesis process of the phthalocyanine pigment used in the production of solar cells, and presents its infrared (IR) spectral analysis. A copper-based phthalocyanine sample was analyzed using a PerkinElmer Fourier-transform infrared spectrometer (FTIR), which resulted in the identification of existing functional groups. According to the spectral data, peaks characteristic of aromatic rings, carbonyl, hydroxyl, ether, nitrile, and metal-oxygen (Cu-O) bonds were detected in the sample. The obtained results confirm the presence of a phytochemical compound in the sample that forms a complex with copper ions. This analysis is crucial for an in-depth study of the composition of phthalocyanine-based solar cells and for evaluating the potential to enhance their photoelectric efficiency.

Keywords: Solar cell, phthalocyanine pigment, phthalic anhydride, copper (I) chloride, boric acid, urea, sulfuric acid, sodium carbonate, IR spectrum.

Kirish. Hozirgi kunda ekologik toza va samarali elektr energiyasini ishlab chiqish tobora dolzarblashib, unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Elektr energiyasini olishning samarali usullaridan biri – quyosh panellari yordamida ishlab chiqarishdir. Eng keng tarqalgan panellar kremniy asosida bo'lsa-da, bugungi kunda yangi izlanishlar natijasida boshqa moddalar yordamida ham quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish ishlari olib borilmoqda.

Ftalosianin asosli quyosh elementlarini tayyorlashning bir necha usullari ishlab chiqilgan. Ftalosianin ekologik tozaligi, inson salomatligi va atrof-muhitga zararsizligi, ishlab chiqarishning qulayligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy energetika sohasida ekologik toza va samarali elektr energiyasi manbalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. An'anaviy kremniy asosli quyosh panellari keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, yangi avlod mate-

riallari, jumladan ftalosianin asosli quyosh elementlari ilmiy tadqiqotlarning markaziga aylanmoqda.

Ftalosianinning ekologik xavfsizligi, arzonligi, yuqori optik xossalari va ko'p funktsiyali qo'llanilish imkoniyatlari uni quyosh nurlarini elektr energiyasiga aylantirishda istiqbolli modda sifatida ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada ftalosianin asosli quyosh elementlarini ishlab chiqish usullari va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ftalosianin organik modda bo'lib, u bo'yoq sifatida, elektronika sohasida turli elektron qurilmalar tayyorlashda, tibbiyotda va boshqa yo'nalishlarda keng qo'llanib kelmoqda. Ftalosianinning yuqori optik xossalari quyoshdan kelayotgan nurni o'zlashtirib, elektronlarning harakatlanishini ta'minlaydi va natijada samarali elektr energiyasi olish imkonini beradi [1].

Tajribaviy qism. Mis asosli ftalosianin pigmentini olish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

Birinchidan, 100 g ftol angidrid, 16 g mis xlorid, 2,8 g borat kislotasi va 240 g karbamid olinib, yaxshilab aralashtiriladi. Aralashma hovonchada ezilib, elakdan o'tkaziladi. Hosil bo'lgan aralashma 300 °C da 1 soat davomida pechga qo'yiladi. Natijada to'q ko'k rangli ftalosianin moddasi hosil bo'ladi.


Hosil bo'lgan moddani erimay qolgan va ortiqcha qo'shimchalardan tozalash uchun uni 200 g sulfat kislotaga solib eritiladi. Eritma yaxshi erigach, ustiga asta-sekin distillangan suv qo'shilib, cho'kmaga tushiriladi.

Neytrallashtirish jarayoni: 20 g natriy karbonat 100 ml distillangan suvda eritilib, hosil bo'lgan eritma cho'kma ustiga asta-sekin qo'shiladi. Aralashma yaxshilab aralashtirilib, tindirish uchun qoldiriladi.

Cho'kma hosil bo'lgach, modda ajratib olinadi va kislotaliligi yo'qolguncha bir necha bor distillangan suv bilan yuviladi. pH-indikator yordamida kislotalilik darajasi muntazam tekshirib turiladi [1-2].

Kislotaliligi to'liq yo'qolgach, modda filtrlab olinadi va 70 °C da pechda 24 soat davomida quritiladi. Natijada toza 74,87 g mis asosli ftalosianin pigmenti hosil bo'ladi.

Reaksiyaning borish mexanizmi quyidagicha tasvirlanishi mumkin:




1-rasm. Mis-ftalosianin pigmentini sintez qilish reaksiyasi mexanizmi.

Mazkur maqolada mis asosli ftalosianin namunasining funksional guruhlarini PerkinElmer FTIR (Fourier-transform infrared) spektrometri yordamida olingan infraqizil (IR) spektri asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, namunada aromatik halqalar, karbonil, gidroksil, efir, nitril hamda metall-kislorod (Cu–O) bog'lanishlariga xos

spektral cho'qqilar aniqlandi. Bu esa mis ionlari bilan kompleks hosil qilgan ftalosianin birikmasining mavjudligini tasdiqlaydi.

Infraqizil spektroskopiya (IR) organik va noorganik moddalar tarkibidagi funksional guruhlarini aniqlashda keng qo'llaniladigan analitik usuldir. Ushbu metod molekuladagi kovalent bog'lanishlarning cho'zilish, burchak ostida egilish yoki siljish vibratsiyalarini qayd etish orqali moddani strukturasi tasvirlaydi.

Ushbu tadqiqotda mis asosli ftalosianin namunasining IR spektri asosida uning kimyoviy tarkibi va funksional guruhlarini aniqlandi. IR spektr PerkinElmer Spectrum IR dasturiy ta'minotining 10.7.2 versiyasi yordamida 4000–400 cm⁻¹ oralig'ida yozib olindi. Asosiy transmittans cho'qqilari qayd etilib, ularning har biri tegishli funksional guruhlar bilan taqqoslandi.



1-rasm. Ftalosianin IR spektroskopiyasi.

IR spektrda aniqlangan asosiy cho'qqilar va ularning ehtimoliy bog'lanishlari quyidagicha:

- Birinchi cho'qqi (gidroksil va amin guruhlarini, O–H / N–H): 3047.32 va 3191.96 cm⁻¹ – keng va kuchli cho'qqilar bo'lib, spirtlar, fenollar yoki birlamchi/ikkilamchi aminlarning mavjudligini ko'rsatadi.

- Ikkinchi cho'qqi (nitril yoki alkin guruhlarini, C≡N / C≡C): 2213.32, 2167.59, 2117.62 cm⁻¹ – uch bog'li guruhlar mavjudligini, ayniqsa nitril (C≡N) mavjudligiga ishora qiladi.

- Uchinchi cho'qqi (karbonil va konjugatsiyalangan tizimlar, C=O / C=C): 1898.63, 1773.46, 1724.15, 1664.16, 1604.80 cm⁻¹ – kuchli cho'qqilar karbonil guruhlarini (keton, karboksil kislotasi, ester) va konjugatsiyalangan tizimlarning mavjudligini bildiradi [3-5].

- To'rtinchi cho'qqi (aromatik halqa): 1507.50, 1480.26, 1466.14, 1375.08 cm⁻¹ – C–C va C–H vibratsiyalari aromatik halqaning mavjudligini

tasdiqlaydi.

- Beshinchi cho‘qqi (efir va spirtli guruhlar, C–O): 1333.27, 1286.90, 1189.43, 1141.12, 1090.41, 1069.25 cm^{-1} – C–O cho‘zilish vibratsiyalari fenolik, efir yoki spirtli guruhlarining mavjudligiga dalildir.

- Oltinchi cho‘qqi (aromatik, Ar–H): 802.40, 793.38, 753.68, 719.22 cm^{-1} – benzol halqali tizimlarga xos tashqi bog‘ burchak ostida egilish yoki siljish vibratsiyalarini ko‘rsatadi.

- Yettinchi cho‘qqi (metall–ligand, Cu–O): 505.14, 533.96, 549.04, 572.25 cm^{-1} – zaif cho‘qqilar metall (mis) va kislorod atomlari orasidagi bog‘lanishni bildiradi.

Infraqizil spektr tahlili asosida mis asosli ftalosianin namunasi tarkibida quyidagi funksional guruhlar aniqlandi: Aromatik halqa (benzol tizimi); Karbonil guruhlar (C=O); Gidroksil (O–H) va ehtimol amin (N–H) guruhlar; Efir yoki spirtli guruhlar (C–O); Nitrit yoki alkin guruhlar (C≡N / C≡C); Mis ionlari bilan koordinatsiyalangan

kislorod atomlari (Cu–O).

Xulosa. Sintez qilingan ftalosianin pigmenti elektr energiyasini yaxshi o‘tkazishi va quyosh nuri ta’sirida yetarli darajada elektronlarni harakatga keltirishi aniqlangan. Ushbu tadqiqotda mis asosli ftalosianin namunasi infraqizil (FTIR) spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilindi.

Olingan spektral ma’lumotlar asosida namunada bir qator funksional guruhlar – gidroksil (O–H), amin (N–H), karbonil (C=O), nitrit (C≡N), efir yoki spirtli (C–O), aromatik halqalar hamda metall–kislorod (Cu–O) bog‘lanishlari mavjudligi aniqlandi [5].

Mazkur guruhlarining mavjudligi ftalosianin molekulasi va mis ionlari o‘rtasida kompleks hosilalarning shakllanganini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari FTIR spektroskopiyani modda tarkibini aniqlashda ishonchli analitik usul ekanini ko‘rsatadi va mis asosli ftalosianinlarning kimyoviy tuzilishini chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shukurov, D. Kh., Turaev, Kh. Kh., Kholnazarov, B. A., Kasimov, Sh. A., Jumaeva, Z. E., & Tillayev, Kh. R. (2023). Synthesis of zinc phthalocyanine pigment and its application to new generation solar cells. *International Journal of Engineering Trends and Technology*, 71(4), 453–461. <https://doi.org/10.14445/22315381/IJETT-V71I4P238>
2. Богуславский, Е. Г., Прохорова, С. А., & Надолинный, В. А. (2005). Эволюция упорядоченных пленок фталоцианина меди по данным ЭПР. *Журнал структурной химии*, 46(4), 1055–1063.
3. Diacon, A., Rusen, E., Boscornea, C., Pandele, A. M., & Cincu, C. (2011). New phthalocyanine–fullerene dyads sensitizers for solar cells. *UPB Scientific Bulletin, Series B*, 73(3), 87–98.
4. Geerts, Y. H., Debever, O., Amato, C., & Sergeyev, S. (2009). Synthesis of mesogenic phthalocyanine–C60 donor–acceptor dyads designed for molecular heterojunction photovoltaic devices. *Beilstein Journal of Organic Chemistry*, 5(49). <https://doi.org/10.3762/bjoc.5.49>
5. Fayziyev, J. B., Djalilov, A. T., & Tillayev, A. T. (2019). Tarkibida metal tutgan yangi ftalosianin pigmentini tadqiq qilish [Study of a new metal-containing phthalocyanine pigment]. [Unpublished/Local source].
6. Исмаилов, Ф. С., и др. (2024). Испытание на прочность бетонных смесей с добавлением суперпластификаторов и базальтовой фибры. *Universum: технические науки*, 6(10[127]), 15–18.

UO‘K: 661.832.043

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.24

KALIY NITRAT ISHLAB CHIQUARISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNING TA’SIRI



Normamatov Farxod
Haydarali o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti
dotsenti, Qarshi, O‘zbekiston



Uljayeva Aziza
Qahramon qizi

Qarshi davlat texnika universiteti
magistratura talabasi,
Qarshi, O‘zbekiston



Inatova Moxichexra
Ermat qizi

Qarshi davlat texnika universiteti
bakalavr talabasi,
Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada mahalliy xom ashyolardan kaliy nitrat olish jarayonining energiyatejamkor texnologiyasi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida xom ashyo sifatida Dehqonobod kaliy zavodi kaliy xloridi va Navoiyazot AJ ammoniy nitratidan foydalanilgan. Jarayon 90°C haroratda olib borilib, hosil bo‘lgan mahsulot 10°C gacha sovutilgan. Maqolada shuningdek reaksiya sharoitlari, xom ashyolarning nisbati va haroratning mahsuldorlikka ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, jarayonning optimal texnologik parametrlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari kaliy nitrat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: kaliy xlorid, ammoniy nitrat, kaliy nitrat, konversiya, eritma, kristallanish, filtrlash.

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ НИТРАТА КАЛИЯ

Нормаматов Фарход
Хайдарали угли

Доцента Каршинского
государственного технического
университета,
Карши, Узбекистан

Ульджаева Азиза
Кахрамон кизи

Студент магистратуры
Каршинского государственного
технического университета,
Карши, Узбекистан

Инатова Мохичехра
Эрмат кизи

Студент бакалавриата
Каршинского государственного
технического университета,
Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной научной статье рассматривается энергосберегающая технология процесса получения нитрата калия из местного сырья. При проведении исследований в качестве сырья использовались хлористый калий Дехканабадского калийного завода и аммиачная селитра АО «Навоизот». Процесс проводился при температуре 90°C, а полученный продукт охлаждался до 10°C. В статье также проанализированы условия реакции, соотношение сырья и влияние температуры на производительность, определены оптимальные технологические параметры процесса. Результаты исследований включают практические рекомендации, которые могут послужить повышению эффективности производства нитрата калия.

Ключевые слова: хлорид калия, аммиачная селитра, нитрат калия, конверсия, раствор, кристаллизация, фильтрация.

TECHNOLOGICAL IN THE PRODUCTION OF POTASSIUM NITRATE EFFECT OF PARAMETERS

**Normamatov Farkhod
Khaidarali ugli**

*Docent of Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan*

**Uljayeva Aziza
Kahramon kizi**

*Master's student of Karshi State
Technical University,
Karshi, Uzbekistan*

**Inatova Mohichekhra
Ermat kizi**

10. Al-Sahari, M., Al-Gheethi, A. A. S., & Radin Mohamed, R. M. S. (2020). Natural coagulants for wastewater treatment: A review for application and mechanism. *B Prospects of Fresh Market Wastes Management in Developing Countries* (pp. 17–31). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-42641-5_2
11. Amran, A. H., Zaidi, N. S., Muda, K., & Loan, L. W. (2018). Effectiveness of natural coagulant in coagulation process: A review. *International Journal of Engineering & Technology*, 7(3.9), 34–37.
12. Isaeva, N. F., Ibodullaev, S., Khodjiev, R., Mirzaeva, Ye., Turdieva, D., & Mamatkulov, Sh. (2022). Complex processing of adsorbent used in the purification of hydrogen-containing gas. *Bulletin of Chemical Reaction Engineering & Catalysis*, 17(1), 32–45. <https://bcrec.id>
13. Mustafayev, B. J., Turdieva, D. R., Rahimov, X. B., Yunusov, M. P., Xudayberdiev, A. J., Sayidov, U. X., Maxkamov, X. M., & Isaeva, N. F. (2023). Газ ва суюкликлар таркибидаги хлорли бирикмаларни ютувчи адсорбент олиш усули [Патентная заявка № FAP 20220168]. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги. (Талабнома келиб тушган сана: 08.06.2023; № FAP 2411).
14. Исаева, Н. Ф., Турдиева, Д. П., Искандаров, Н. Э., & Ходжиев, Р. Г. (2020, 26 ноября). Получение коагулянтов для очистки воды в процессе переработки использованных адсорбентов хлорсодержащих соединений. В Международная конференция «Наука и инновации» (г. Ташкент) (с. 127–129).
15. Исаева, Н. Ф., Ялгашев, Э., Турдиева, Д., & Мирзаева, Е. (2024). Преобразование отходов и природного сырья в адсорбенты для очистки окружающей среды от вредных веществ. *Наука и инновационное развитие*, 7(3), 8–26. ONLINE ISSN 2181-4317.

УДК: 661.81

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.37

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ГЛУБОКОЙ ПЕРЕРАБОТКЕ ОТРАБОТАННЫХ АДСОРБЕНТОВ, НАСЫЩЕННЫХ ХЛОРСОДЕРЖАЩИМИ СОЕДИНЕНИЯМИ, ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ НОСИТЕЛЕЙ И КОАГУЛЯНТОВ



Исаева Нурхон Фархатовна

Доктор философии по техническим наукам, старший научный
сотрудник Ташкентского научно-исследовательского
института химической технологии, Ташкент, Узбекистан
E-mail: nurhonisaeva@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-8513-6975



Каримов Маъсуд Убайдулла угли

Доктор технических наук, профессор, Ташкентского научно-
исследовательского института химической технологии,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается одно из перспективных направлений инновационного развития – глубокая переработка промышленных отходов, в частности, отработанных адсорбентов, содержащих оксид алюминия. Представлен системный подход к повторному использованию таких материалов в качестве сырья для синтеза гидроксида алюминия и носителей катализаторов. Обсуждаются технологические решения по получению алюминатов и коагулянтов, включая стадии соосаждения, созревания и трансформации компонентов, а также экологические и экономические аспекты переработки. Особое внимание уделено возможностям регулирования морфологических характеристик материалов, что позволяет создавать сорбенты и катализаторы с заданными свойствами.

Ключевые слова: отработанные адсорбенты, гидроксид алюминия, алюминаты, коагулянты, оксид алюминия, техногенное сырье, рецикл, хлорсодержащие соединения.

TASHUVCHILAR VA KOAGULYANTLAR OLIISH UCHUN XLORLI BIRIKMALAR BILAN TO'YINGAN ISHLATILGAN ADSORBENTLARNI CHUQUR QAYTA ISHLASHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Isayeva Nurxon Farxatovna

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Toshkent kimyo-
texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,
Toshkent, O'zbekiston

Karimov Ma'sud Ubaydulla o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti texnika fanlari
doktori, professor,
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri — sanoat chiqindilarini, xususan, aluminiy oksidi saqllovchi ishlatilgan adsorbentlarni chuqur qayta ishlash masalalari ko'rib chiqilgan. Bunday materiallarni aluminiy gidroksidi va katalizator tashuvchilarini sintez qilish uchun xomashyo sifatida takroran ishlatishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv taqdim etilgan. Alyuminatlar va koagulyantlar olish texnologiyasi, jumladan, birga cho'ktirish, yetilish va komponentlarni transformatsiya qilish bosqichlari hamda qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy jihatlarini muhokama qilingan. Materiallarning morfologik xususiyatlarini boshqarish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan sorbentlar va katalizator-

larni yaratishga imkon beradi.

Kalit soʻzlar: ishlatilgan adsorbentlar, aluminiy gidroksidi, alyuminatlar, koagulyantlar, aluminiy oksidi, texnogen xomashyo, qayta ishlash, xlor saqlovchi birikmalar.

INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEEP PROCESSING OF SPENT ADSORBENTS SATURATED WITH CHLORINE-CONTAINING COMPOUNDS TO OBTAIN CARRIERS AND COAGULANTS

Isaeva Nurkhon Farkhatovna

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Senior Researcher at
the Tashkent Chemical Technology Research Institute,
Tashkent, Uzbekistan

Karimov Masud Ubaydulla ugli

Doctor of Technical Sciences, Professor, Tashkent Chemical
Technology Research Institute, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The article discusses one of the promising areas of innovative development — the advanced processing of industrial waste, in particular, spent adsorbents containing aluminum oxide. A systematic approach is presented for the reuse of such materials as raw sources for the synthesis of aluminum hydroxide and catalyst supports. Technological solutions for the production of aluminates and coagulants are discussed, including stages of co-precipitation, aging, and component transformation, as well as the environmental and economic aspects of recycling. Special attention is given to the potential for controlling the morphological characteristics of the materials, which enables the design of sorbents and catalysts with tailored properties.

Keywords: spent adsorbents, aluminum hydroxide, aluminates, coagulants, aluminum oxide, technogenic raw materials, recycling, chlorine-containing compounds.

Введение. Одним из актуальных направлений в контексте устойчивого развития и экологической безопасности является внедрение безотходных технологий и повторное использование промышленных отходов. Отработанные адсорбенты, обогащенные оксидом алюминия, представляют собой высококачественное техногенное минеральное сырье, пригодное для синтеза новых функциональных материалов [1]. Использование отработанных адсорбентов в качестве сырья для синтеза гидроксида алюминия и последующего получения носителей катализаторов представляет собой перспективный подход к переработке промышленных отходов [2].

Существенным экономическим аспектом является переработка механически прочных гранул отработанных адсорбентов с установок риформинга, насыщенных хлорсодержащими соединениями, с последующим повторным использованием. Разрушенные гранулы адсорбентов предлагается направлять на получение востребованного сырья для производства носителей различных катализаторов и адсорбентов широкого профиля с удельной поверхностью и

морфологией, регулируемые на стадиях осаждения и созревания гидроксида алюминия. В связи с важностью процесса получения гиббсита были подробно исследованы факторы, определяющие размер частиц $Al(OH)_3$, кристаллизацию активных гидроксидов алюминия, кинетические закономерности формирования грубодисперсного гиббсита и другие аспекты осаждения различных модификаций гидроксида алюминия из натрий-алюминатных растворов. Особо отмечена роль трансформации части оксида алюминия в соответствующие алюминаты не только для эффективного удаления хлорсодержащих соединений, но и для значительного снижения образования хлорированных олигомеров, особенно при очистке водородсодержащего газа каталитического риформинга, проводимого при пониженном давлении [3]. Использование отработанных адсорбентов в качестве сырья для синтеза гидроксида алюминия позволяет получать носители катализаторов с регулируемыми текстурными характеристиками. Процесс включает стадии осаждения, созревания, сушки и растворения в кислоте. Подход также ориентирован на

создание технологий с максимальным использованием местного сырья [4,5]. Формирование носителей на основе $Al(OH)_3$ осуществляется через контролируемое осаждение из натрий-алюминатных растворов. Исследования показали, что морфология и дисперсность получаемого гиббсита зависят от температуры, времени выдержки и состава раствора. Трансформация части оксида алюминия в алюминаты способствует не только улавливанию хлорорганических соединений, но и снижает вероятность образования хлорированных олигомеров в риформинг-процессах [3].

Методология исследования. Существенным экономическим аспектом является переработка механически прочных гранул отработанных адсорбентов с установок риформинга, насыщенных хлорсодержащими соединениями, с последующим повторным использованием. Разрушенные гранулы предлагается

2. Масса соляной кислоты варьируется от 190 до 330 г, что позволяет изменять мольное соотношение $Al(OH)_3$: HCl в диапазоне от 1:1,75 до 1:3,0.

3. Объем растворов (V) колеблется от 300 до 430 cm^3 , а плотность (ρ) растворов находится в диапазоне 1,22–1,23 $г/см^3$.

4. Значение pH раствора после реакции варьируется от -0,7 до 1,8 в зависимости от условий синтеза.

Состав растворов и показатели:

1. Концентрация ионов алюминия (Al^{3+}) в растворе после синтеза достигает максимума 47,2 $г/дм^3$.

2. Общая концентрация хлорид-ионов (Cl^-) варьируется от 185 до 214 $г/дм^3$, из которых часть приходится на $NaCl$.

3. Свободная соляная кислота (HCl) остается в растворе в количестве от 33 до 62 $г/дм^3$.

Таблица 1.

Описание эксперимента по взаимодействию гидроксида алюминия с соляной кислотой

№ опыта	Исходные компоненты		Условия синтеза	Состав раствора и др. показатели после синтеза										Степень извлечения алюминия из отходов, %
	Отход, г	Кислота, г	Мольное соотношение $Al(OH)_3$: HCl	Al^{3+} , $г/дм^3$	Cl^- , общ., $г/дм^3$	Cl^- , ($NaCl$), $г/дм^3$	HCl своб., $г/дм^3$	V , $см^3$	ρ , $г/см^3$	pH	Al_2O_3 , %	Ос новность (N), %	Формула соединения	
1	200	330	1:3,0	47,0	214	25	62	430	1,22	-0,7	7,34	0	$AlCl_3$	98
2	200	290	1:2,67	47,2	205	27	40	390	1,23	1,1	7,25	5	$Al(OH)_{0,14}Cl_{2,86}$	89
3	200	275	1:2,55	46,7	202	28	38	378	1,23	1,4	6,85	5	$Al(OH)_{0,15}Cl_{2,85}$	85
4	200	230	1:2,12	42,5	191	31	35	340	1,23	1,6	6,72	5	$Al(OH)_{0,15}Cl_{2,85}$	72
5	200	190	1:1,75	40,0	185	35	33	300	1,23	1,8	6,22	5	$Al(OH)_{0,16}Cl_{2,84}$	58

направлять на получение востребованного сырья для производства носителей катализаторов и адсорбентов с удельной поверхностью и морфологией, регулируемые на стадиях соосаждения и созревания гидроксида алюминия. Предлагаемый подход позволяет сократить объёмы промышленных отходов и снизить зависимость от природных ресурсов.

Эксперименты проводились с целью получения соединений алюминия и оценки степени извлечения алюминия из отходов. Ниже приводится описание основных параметров экспериментов.

Исходные компоненты и условия синтеза:

1. Масса гидроксида алюминия фиксирована и составляет 200 г для каждого опыта.

В результате реакции образуются следующие соединения алюминия: при максимальном мольном соотношении (1:3,0) формируется хлорид алюминия ($AlCl_3$), при снижении количества кислоты образуются смешанные соединения гидроксихлоридов алюминия, такие как $Al(OH)_{0,14}Cl_{2,86}$ и $Al(OH)_{0,16}Cl_{2,86}$. $Al(OH)_{0,14}Cl_{2,86}$ и $Al(OH)_{0,16}Cl_{2,86}$ являются представителями гидроксихлоридов алюминия с очень низким коэффициентом основности. Их свойства делают их полезными в различных промышленных и бытовых приложениях.

Выявлено, что во время эксплуатации адсорбентов в их составе происходит накопление следующих основных продуктов хемо-

сорбции: NaCl , AlCl_3 , $\text{AlCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ и возможно $\text{Al}_2(\text{OH})_n\text{Cl}_{(6-n)}$. Соотношение указанных веществ варьировалось для каждого исследованного адсорбента в довольно широких пределах. Максимальное количество хлорсодержащих соединений алюминия, обладающих коагулирующими свойствами, было обнаружено в составе отработанных Уз-АД-1 и SAS-857. При контрольном замачивании пяти параллельных проб каждого из исследуемых образцов в воде или слабощелочном растворе ($\text{pH} \approx 9$), более 50% гранул разрушались, вследствие высокого содержания гигроскопичных веществ. При аналогичном тестировании гидролитической устойчивости других отработанных адсорбентов выход целых гранул был выше. Целевым продуктом переработки использованных адсорбентов являются гранулы, которые в процессе термохимической обработки в значительной степени восстанавливают сорбционную способность, сохраняя первоначальную сферическую форму и механическую прочность. Промывные воды и осадки, полученные в процессе модификации адсорбентов, были использованы как сырье для получения коагулянтов. После отделения NaCl , маточный раствор упаривали до необходимой плотности, а твёрдые остатки, представляющие собой осколки гранул, сушили, измельчали и растворяли в 20%-ной HCl при $\text{Ж:Т}=6:1$ в течение 3 ч. Раствор применялся для дальнейших целей получения высокоосновных коагулянтов [2].

Результаты и их обсуждение. В процессе получения новых адсорбентов выявлено, что большее количество полезных побочных продуктов может быть получено из отходов (при выбранных условиях), остаток состоит из смеси оксидов алюминия, преимущественно в гамма форме. Получение нового адсорбента Уз-АД-6 осуществлялось в несколько этапов с учетом неравномерности распределения и химических свойств адсорбируемых веществ в отработанном адсорбенте Axstrap. Водород и углеводороды в составе очищаемого газа слабо связаны с материалом адсорбента (в основном физическая адсорбция) и легко вытесняются с его поверхности полярными молекулами HCl и H_2O в процессе адсорбции. Хемосорбция, т.е. адсорбция с образованием новых химических

соединений, протекала при взаимодействии со щелочными веществами, а затем с гидроксидами алюминия в составе свежего адсорбента Axstrap (рис.1).




Рис.1. Дифрактограммы образцов на разных стадиях приготовления модифицированного адсорбента Уз-АД-6.

(1)-отработанный Axstrap-860; (2)-промытый и высушенный Axstrap-860; (3) - свежий Ax-strap-860; (4)- Уз-АД-6.

Максимальная концентрация хлоридов натрия и алюминия наблюдалась во фронтальном слое промышленного адсорбера и постепенно снижалась до полного отсутствия AlCl_3 на выходе. При взаимодействии бёмита в составе свежего адсорбента с HCl , а также NaCl с поверхностными рентгеноаморфными алюминатами натрия образуются хлориды и гидроксохлориды алюминия (рис.1).

Закключение. Глубокая переработка отработанных адсорбентов с получением носителей и коагулянтов представляет собой перспективное направление в области устойчивой химической технологии. Разработка эффективных методов осаждения и переработки позволяет создавать материалы с заданными свойствами и повышенной функциональностью, в том числе в условиях очистки газов и вод.

Проведённые исследования показали, что разработанные технологии также позволяют использовать промышленные отходы в качестве источников алюминия, повышая ресурсную эффективность. Анализ отработанных адсорбентов показал возможность их вторичной переработки с получением качественного сорбционного материала (например, Уз-АД-6),

способного частично восстановить исходные свойства. Полученные результаты могут быть применены для оптимизации промышленных

процессов очистки газов, воды и в производстве экологически устойчивых материалов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Yunusov, M. P., Jalalova, Sh. B., Molodozhenyuk, T. B., Isaeva, N. F., Mirzaeva, Ye. I., Gulomov, Sh. T., Makhamov, Kh. M., Bakhramov, R., & Nasullaev, Kh. (2013, July 12). Neft fraksiyalarini gidrotozalash katalizatori va uni tayyorlash usuli [Patent application No. IAP 2013 0289; Registration No. IAP 05423]. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi.
2. Исаева, Н. Ф., Турдиева, Д. П., Искандаров, Н. Э., & Ходжиев, Р. Г. (2020, 26 ноября). Получение коагулянтов для очистки воды в процессе переработки использованных адсорбентов хлорсодержащих соединений. В Международная конференция «Наука и инновации» (Ташкент) (сс. 127–129).
3. Mustafayev, B. J., Turdieva, D. R., Rahimov, X. B., Yunusov, M. P., Xudayberdiev, A. J., Sayidov, U. X., Maxkamov, X. M., & Isaeva, N. F. (2023, June 8). Gaz va suyuqliklar tarkibidagi xlorli birikmalarni yutuvchi adsorbent olish usuli [Patent application No. FAP 20220168; Registration No. FAP 2411]. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi.
4. Isaeva, N. F., Ibodullaev, S., Khodjiev, R., Mirzaeva, Ye., Turdieva, D., & Mamatkulov, Sh. (2022). Complex processing of adsorbent used in the purification of hydrogen-containing gas. Bulletin of Chemical Reaction Engineering & Catalysis, 17(1), 32–45. <https://bcrec.id>
5. Исаева, Н. Ф., Курбанова, Д. Г., Турсункулов, О. М., Рахимжонов, Б. Б., & Юнусов, М. П. (2020, 26 ноября). Получение гидроксида алюминия на основе местного сырья для катализаторов гидропроцессов. В Международная научная конференция «Наука и инновация» (Ташкент) (сс. 62–64).

UO‘K: 621.31

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.13

ELEKTR YOYLI PECHLARDA GENETIK ALGORITM ASOSIDA OPTIMAL TIRISTOR BOSHQARUVI




Raxmonov Ikromjon Usmonovich

*T.f.d., prof, Elektr ta'minoti kafedrası mudiri, Toshkent davlat
texnika universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: ilider1987@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0003-2076-5919



Xolixmatov Baxriddin Berdi o'g'li

*Elektr ta'minoti kafedrası assistenti, Toshkent davlat texnika
universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: xolixmatov.b22@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-6954-1145

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr yoyli pechlar ishlash jarayonida elektr energiyasi sifatiga salbiy ta'sirlari va kuchlanish nosimmetriyasi hamda reaktiv quvvat oqimi tahlil qilinadi. Pechlar ish faoliyatidagi uzluksizlik va yuqori haroratni ushlab turish ehtiyoji elektr energiyasining barqaror va sifatli bo'lishini talab qiladi. Shu sababli, tadqiqotning asosiy maqsadi – tiristorli boshqaruv tizimida tiristorlarning ochilish burchagini optimal tanlash orqali elektr energiyasi sifatini oshirish va texnologik jarayon samaradorligini ta'minlashdir. Bunda ochilish burchagi nafaol fazalardagi reaktiv quvvat kompensatsiyasiga ta'sir etuvchi boshqaruv parametr sifatida olinadi va genetik algoritmi (GA) yordamida optimallashtiriladi. Modelda obyektiv funktsiya sifatida reaktiv quvvat oqimi, kuchlanish nosimmetriyasi mezonlari qabul qilingan. Natijalarda optimal burchak tanlanganda tizimning elektr energiya sifati ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani va kuchlanish nosimmetriyasi kamayganligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: elektr yoyli pech, tiristor ochilish burchagi, elektr energiyasi sifati, genetik algoritmi, kuchlanish nosimmetriyasi, reaktiv quvvat, optimal boshqaruv, texnologik jarayon barqarorligi.

ОПТИМАЛЬНОЕ ТИРИСТОРНОЕ УПРАВЛЕНИЕ НА ОСНОВЕ ГЕНЕТИЧЕСКОГО АЛГОРИТМА В ДУГОВЫХ ЭЛЕКТРОПЕЧАХ

Рахмонов Икромжон Усманович

*д.т.н., проф., заведующий кафедрой электроснабжения
Ташкентского государственного технического университета,
Ташкент, Узбекистан*

Холихматов Бахриддин Берди угли

*Ассистента кафедры электроснабжения Ташкентского
государственного технического университета, Ташкент,
Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассматриваются негативные воздействия на качество электроэнергии в процессе работы электродуговых печей, а также анализируются несимметрия напряжения и потоки реактивной мощности. Необходимость обеспечения непрерывной работы печей и поддержания высоких температур предъявляет высокие требования к стабильности и качеству электроснабжения. В связи с этим основная цель исследования заключается в повышении качества электроэнергии и обеспечении эффективности технологического процесса за счёт оптимального выбора угла открытия тиристорov в системе тиристорного управления. При этом угол открытия используется в качестве управляющего параметра, влияющего на компенсацию реактивной мощности в нерабочих фазах, и оптимизируется с помощью генетического алгоритма (ГА). В предложенной модели в качестве целевой функции приняты критерии потоков реактивной мощности и несимметрии напряжения. Результаты показывают, что при выборе оптимального угла открытия значительно улучшаются показате-

ли качества электроэнергии системы, а также существенно снижается уровень несимметрии напряжения.

Ключевые слова: электродуговая печь, угол открытия тиристора, качество электроэнергии, генетический алгоритм, несимметрия напряжения, реактивная мощность, оптимальное управление, стабильность технологического процесса.

OPTIMAL THYRISTOR CONTROL BASED ON GENETIC ALGORITHM IN ELECTRIC ARC FURNACES

Rakhmonov Ikromjon Usmanovich

Doctor of Technical Sciences, Professor, Head of the Department
of Electricity Supply, Tashkent State Technical University,
Tashkent, Uzbekistan

Kholikhmatov Bakhiddin Berdi ugli

Assistant of the Department of Electricity Supply, Tashkent State
Technical University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article examines the negative impacts on power quality during the operation of electric arc furnaces, with a particular focus on voltage asymmetry and reactive power flows. The need to ensure continuous furnace operation and maintain high temperatures imposes stringent requirements on the stability and quality of power supply. Accordingly, the primary goal of this study is to improve power quality and enhance the efficiency of the technological process by optimally selecting the thyristor firing angle in a thyristor-based control system. In this context, the firing angle is used as a control parameter influencing the compensation of reactive power in non-working phases, and is optimized using a genetic algorithm (GA). In the proposed model, the objective function incorporates criteria related to reactive power flows and voltage asymmetry. The results demonstrate that selecting an optimal firing angle significantly improves the system's power quality indicators and substantially reduces voltage asymmetry.

Keywords: electric arc furnace, thyristor firing angle, power quality, genetic algorithm, voltage asymmetry, reactive power, optimal control, stability of the technological process.

Kirish. Elektr yoyli pechlar (EYP) metallurgiya sanoatida keng qo'llaniladigan yuqori quvvatli qurilmalardan bo'lib, ular intensiv elektr energiyasi iste'moli orqali metall eritish vazifasini bajaradi. Ularning ish rejimi yuklamaning yuqori o'zgaruvchanligi, impulslik va notekis fazaviy taqsimoti bilan ajralib turadi. Aynan mana shu fazalar bo'yicha yuklamaning notekisligi sababli elektr ta'minot tizimida kuchlanish nosimmetriyasi, nolinci tok oqimi, umumiy garmonik buzilish kabilar paydo bo'ladi. Bu esa faqat elektr energiyasi tizimiga emas, balki pechning o'z ish faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi – texnologik jarayon uzluksizligi buziladi, solishtirma energiya sarfi ortadi va uskunalarning ishonchliligi pasayadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tizimda fazalardagi yuklamaning balanslashtirish, ya'ni har bir fazadagi reaktiv quvvat oqimini boshqarish zarur. Shu maqsadda tiristorli boshqaruvga ega kompensatsiya tizimlari qo'llaniladi. Tiristor orqali har bir fazaga kondensatorni faqat kerak bo'lgan vaqtda ulanadigan qilib sozlash orqali

fazalardagi reaktiv quvvatni tenglashtirish, ya'ni kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish mumkin bo'ladi.

Biroq real sharoitda yuklama tez-tez va noma'lum tarzda o'zgarib turadi. Shuning uchun tiristorlarning ochilish burchagini avtomatik tarzda va doimiy ravishda optimal holatda ushlab turish talab etiladi. Ushbu tadqiqotda aynan shu boshqaruv muammosiga yechim sifatida genetik algoritmi (GA) taklif etiladi. GA yordamida ochilish burchagi tanlanadi va bu orqali kuchlanish nosimmetriyasi, reaktiv quvvat farqi va THD kabi energiya sifatini aniqlovchi mezonlar minimallashtiriladi. Taklif etilgan yondashuv natijasida EYP ishlash barqarorligi, energiya samaradorligi va elektr tarqoq sifati oshishi kutilmoqda. Tizimga real vaqtli avtomatik boshqaruv imkoniyatini qo'shish orqali texnologik jarayonlar uzluksizligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. EYP sanoat elektr tarmoqlarida kuchlanish sifati bilan bog'liq muammolar, xususan kuchlanish nosimmetriyasi,

reaktiv quvvat muvozanatsizligi va yuqori garmonikalarni keltirib chiqaradi. Buning sababi – uch fazali yuklamaning o'zgaruvchan va nomutanosib xarakterga ega bo'lishidir. Aynan shu muammo tarmoqda kuchlanishning simmetrik bo'lmagan shaklda tarqalishiga olib keladi.

Grünbaum va Pernoto'z ishlarida SVC va STATCOM qurilmalarini EYP lar tomonidan chaqirilgan nosimmetriklik va kuchlanish silkinishlarini bartaraf etishda samarali deb topishgan. Ayniqsa STATCOM qurilmasi tezkor javob berish imkoniyati orqali kuchlanishni real vaqt rejimida muvozanatga keltirishda yuqori natijalarni bergan. Ularning natijalariga ko'ra, tarmoq sifati 35–40% ga yaxshilangan [1].

Shunga o'xshash tarzda Yazdani va boshqalar tomonidan taklif etilgan STATCOM uchun nolinear nazorat strategiyasi kuchlanishning RMS qiymatidagi tebranishlarni kamaytirgan. Simulyatsiya natijalari asosida, kuchlanish nosimmetriyasini barqarorlashtirishda STATCOM qurilmasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgani tasdiqlangan [2].

Kashani va Babaei o'z izlanishlarida EYP samaradorligini oshirishda SVC va STATCOM qurilmalarining qo'llanishini amaliy jihatdan asoslashgan. Ular kuchlanish nosimmetriyasini 27% gacha kamaytirganlarini tajriba natijalari bilan ko'rsatishgan [3].

D-STATCOM qurilmasining qo'llanilishi ham ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Masalan, Alzate va Escobar elektr yoyli pechlardan kelib chiqadigan kuchlanish nosimmetriyasi, nolinch tok va garmonikalarni D-STATCOM orqali kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan. Ularning natijalari RMS kuchlanish o'zgarishini 18% dan 4.7% gacha kamaytirgan [4].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, EYP larda kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish bo'yicha turli qurilmalar (STATCOM, SVC, D-STATCOM) va yondashuvlar (fuzzy logic) ishlatilgan. Lekin ularning ko'pchiligi doimiy yoki yarim-moslashuvchan sharoitlar uchun mo'ljallangan. Elektr tizimining real vaqtli, keskin o'zgaruvchan yuk sharoitlarida maksimal barqarorlikni ta'minlash uchun tiristor ochilish burchagini GA orqali optimallashtirish – dolzarb va yuqori aniqlikdagi yechim hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – elektr yoyli pech tizimida yuzaga

keladigan kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish orqali elektr energiyasining sifatini oshirish va tizimning energetik samaradorligini yaxshilashdan iborat. Buning uchun har bir ishchi bo'lmagan fazaga kondensatorlar ulangani holda, ularning ulanishi tiristorlar orqali boshqariladi. Tiristorlarning ochilish burchagini optimal tanlash esa GA asosida amalga oshiriladi.

EYP zamonaviy metallurgik ishlab chiqarish tizimlarining ajralmas qismi bo'lib, ular kuchli o'zgaruvchan uch fazali yuklama sifatida ishlaydi. Ushbu pechlar fazalar bo'yicha tok va kuchlanishlarning nomutanosib taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Bu, o'z navbatida, elektr tarmog'ida kuchlanish nosimmetriyasini yuzaga keltiradi. EYP tizimida bu nosimmetriya quyidagi sabablarga asoslanadi: har bir fazadagi tokning qiymati va yo'nalishi vaqt davomida keskin o'zgarib turadi; ishlov berilayotgan metallning elektr o'tkazuvchanligi, harorati va fizik xossalari fazalar bo'yicha farqlanadi; elektromagnit induksiyaning notekisligi esa magnit maydonlarni fazaviy nomutanosib holatga keltiradi. Bu sharoitlarda pechlar "nolinch sistemasiz yuklama" sifatida namoyon bo'ladi va fazalar bo'yicha reaktiv quvvat oqimi keskin farq qiladi. Bunday tizimdagi kuchlanish nosimmetriyasi to'g'ri, teskari va nol ketma-ketlik tashkil etuvchilari asosida aniqlanadi:

$$\begin{cases} U_1 = \frac{1}{3} \cdot (U_A + a \cdot U_B + a^2 \cdot U_C) \\ U_2 = \frac{1}{3} \cdot (U_A + a^2 \cdot U_B + a \cdot U_C) \\ U_0 = \frac{1}{3} \cdot (U_A + U_B + U_C) \end{cases} \quad (1)$$

$$k_{U2} = \frac{U_2}{U_1} \cdot 100\% \text{ va } k_{U0} = \frac{U_0}{U_1} \cdot 100\% \quad (2)$$

Agar usbu koeffitsient qiymati 2-4% dan oshsa, bu elektr energiyasi sifatining sezilarli pasayganini bildiradi. Ushbu nosimmetriyani bartaraf etish uchun tadqiqot doirasida har bir ishchi bo'lmagan fazaga kondensatorlar ulangani holda, ularning ulanishi tiristorlar orqali tartiblanadigan boshqaruv qurilmasi taklif etiladi. Har bir tiristorning ochilish burchagi α orqali fazadagi reaktiv quvvat taqsimoti boshqariladi. Kondensator quvvati va tiristorning ochilish burchagi orasidagi bog'liqlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_L = \frac{U^2}{\omega \cdot L} \cdot \left[\frac{2}{\pi} \cdot \left((\pi - \alpha) \cdot (2 + \cos 2\alpha) + \frac{3}{2} \cdot \sin 2\alpha \right) \right] \quad (3)$$

Yuqorida bayon etilgan usul orqali EYP

tizimidagi kuchlanish nosimmetriyasi fazaviy reaktiv quvvat muvozanatini boshqarish orqali kamaytiriladi. Buning uchun har bir fazaga ulanadigan kondensatorlar tiristorlar yordamida individual tarzda boshqariladi. Tiristorlarning ochilish burchagi fazadagi yuk holatiga mos tanlanib, kerakli miqdordagi kompensatsiya ta'minlanadi. Ushbu burchaklar genetik algoritm asosida optimallashtiriladi va elektr energiya sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Natijalar. Elektr yoyli pech (ДСП-30) da metallni eritish jarayoni davomida ishchi fazadagi yuklanish va shuningdek, fazalar bo'yicha kuchlanishlar keskin dinamik o'zgarishga uchraydi. Jarayonning o'zgaruvchan tabiati sababli har bir vaqt momentida ishchi faza o'zgaradi, hamda unga mos ravishda reaktiv quvvat sarfi va kuchlanishlar farqi vujudga keladi. Aynan ushbu jarayonni fazalararo kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish va energiya sifatini yaxshilash maqsadida boshqarish talab etiladi. Buning uchun GA algoritm orqali optimal ochilish burchaklari tanlanadi.

Jarayonning real fizik xususiyatlarini model-lashtirish uchun quyidagi bosqichlar asosida ish olib borildi:

- ishchi faza real vaqt davomida o'zgaradi (fazalar A, B, C bo'ylab siklik ravishda almashadi).
- har bir vaqt momentida ishchi fazadagi reaktiv quvvat sanoat amaliyotiga mos tarzda belgilanadi.
- qolgan fazalardagi kuchlanishlar nosimmetrik tarzda shakllanadi, bu esa ularni tenglashtirish uchun kompensatsion reaktiv quvvatni kiritishni talab etadi.

Quyidagi jadvalda eritish jarayonining ma'lum vaqtlaridagi ishchi faza reaktiv quvvati va barcha fazalardagi kuchlanishlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar keyingi bosqichda GA algoritmga kirish ma'lumotlari sifatida ishlatiladi.

1-jadvalda keltirilgan ishchi fazadagi reaktiv quvvat va fazalardagi kuchlanishlar asosida keyingi bosqichda har bir vaqt momentida qolgan fazalarga qanday kompensatsion reaktiv quvvat kiritish kerakligi hisoblab chiqildi.

Eritish jarayonining fizik xususiyatidan kelib chiqib, ishchi faza va uning kuchlanish qiymati jarayon davomida dinamik tarzda o'zgaradi. Shuning uchun bu kuchlanish qat'iy etalon sifatida

olinmaydi, balki har bir optimallashtirish siklida real vaqtda o'lchanadi va shu o'lchangan qiymatga asoslangan holda kompensatsiya hisoblanadi.

1-jadval

Reaktiv quvvat va kuchlanish o'zgarishi

Vaqt, min	Ishchi faza	$Q_{sh.f}$	U_A, V	U_B, V	U_C, V
1	A	6000	320	410	425
5	B	5800	400	340	420
10	C	5500	410	400	330
15	A	5000	315	405	420
20	B	4700	395	335	415
25	C	4500	405	390	325
30	A	4200	310	400	410
35	B	4000	390	330	405
40	C	3700	400	395	335
45	A	3400	305	395	405

Ya'ni, har bir vaqt momentida ishchi fazadagi hozirgi kuchlanish qiymati U_{ish} tizim uchun joriy maqsadli kuchlanish nuqtasi sifatida ishlatiladi. Qolgan har bir fazadagi kuchlanish U_i ($i = A, B, C$) o'lchanadi va quyidagi tarzda har bir faza uchun kuchlanish farqi aniqlanadi:

$$\Delta U_i(t) = U_{ish}(t) - U_i(t) \quad (4)$$

Har bir fazaning kuchlanish farqiga asoslangan holda kerakli kompensatsion reaktiv quvvat quyidagicha hisoblanadi:

$$Q_{kom,i}(t) = \Delta U_i(t) \cdot I_{nom} \quad (5)$$

Bu yerda: $U_{ish}(t)$ – hozirgi vaqt momentida ishchi fazadagi kuchlanish; $U_i(t)$ – hozirgi vaqt momentida qolgan fazadagi kuchlanish; I_{nom} – fazaviy nominal tok.

Hisoblangan kompensatsion reaktiv quvvatlar keyingi bosqichda GA algoritmga kirish ma'lumotlari sifatida beriladi. GA esa ushbu qiymatlarga mos ravishda tiristor ochilish burchaklarini optimal tarzda aniqlaydi va natijada tizimga kerakli reaktiv quvvat yetkaziladi. Shu orqali GA algoritmnining real vaqt boshqaruvdagi samaradorligi va energiya sifatini yaxshilashga qo'shgan hissi baholanadi.

GA algoritmi ishlashida tiristorlar uchun ochilish burchaklari quyidagi oraliqda belgilandi:

$$\alpha_i \in [0^\circ, 90^\circ] \quad (i = A, B, C) \quad (6)$$

Bu cheklov sanoatdagi tiristor boshqaruv tizimining texnologik imkoniyatlariga mos ravishda tanlangan bo'lib, burchakning 0° qiymatida maksimal reaktiv quvvat hosil qilinadi, 90° da esa reaktiv quvvat nolga yaqinlashadi.

GA yondashuvining asosiy ustunligi shundaki, u murakkab, nohiziq va o'zgaruvchan

jarayonlar uchun samarali optimallashtirish imkonini beradi [5]. Elektr yoyli pechda esa kuchlanish va reaktiv quvvatlarning bog'lanishi va o'zgarishi yuqoridagi xususiyatlarga ega. GA algoritmda optimallashtirish jarayonining muvaffaqiyatli bajarilishi uchun mos fitness funksiyani tanlash juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda tiristorlar orqali boshqariladigan kompensatsion reaktiv quvvat miqdorlarini va fazaviy kuchlanish nosimmetriyasini minimal darajaga tushirish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Fitness funksiya. GA da optimallashtirish maqsadi sifatida quyidagi ko'p maqsadli fitness funksiya tanlandi:

$$J(\alpha_A, \alpha_B, \alpha_C) = \omega_u \cdot K_u^2 + \omega_q \cdot \sum_{i=A,B,C} \left(\frac{Q_i(\alpha_i) - Q_m}{Q_m} \cdot 100\% \right)^2 \quad (7)$$

GA algoritmi asosida optimal tiristor ochilish burchaklari tanlanadi. Har bir vaqt momentida algoritmnining maqsadi kuchlanish nosimmetriya koeffitsienti va fitness funksiyasi qiymatini minimallashtirish hisoblanadi [6]. Tanlangan α burchaklar kombinatsiyasi tizimda kuchlanish nosimmetriyasini va reaktiv quvvat xatoligini samarali ravishda minimallashtirishga imkon berdi.

Natijalarining chuqur tahlili uchun fazaviy kuchlanish nosimmetriya koeffitsienti va fitness funksiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishi grafigi qurildi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, GA algoritmi asosida tanlangan optimal tiristor ochilish burchaklari kombinatsiyasi orqali K_u qiymati 2–2.4% diapazonida ushlab turilgan. Shu bilan birga, fitness funksiyasi qiymati J ham 0.027–0.035 oralig'ida barqaror past qiymatlarda saqlanmoqda (1-rasm).


2-jadval

Minimallashtirish funksiyasi qiymatlari

Vaqt, min	Ishchi faza	Q_{ish} , kVAr	α_1 , (°)	α_2 , (°)	K_u (%)	J (fitness funksiya qiymati)
1	A	6000	70	60	2.25	0.032
5	B	5800	65	55	2.10	0.028
10	C	5500	50	60	2.40	0.035
15	A	5000	55	50	2.20	0.030
20	B	4700	55	55	2.15	0.029
25	C	4500	52	57	2.35	0.031
30	A	4200	58	54	2.18	0.030
35	B	4000	60	52	2.12	0.027
40	C	3700	55	58	2.22	0.032
45	A	3400	62	56	2.20	0.031

Ushbu natijalar kuchlanish simmetriyasini saqlash va reaktiv quvvatning maqsadli qiymatlariga optimal yaqinlashish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshganligini isbotlaydi. Bu esa GA algoritmining elektr energiyasi sifati va

tizimning barqaror ishlashini ta'minlashdagi yuqori samaradorligini ko'rsatadi.



1-rasm. GA optimallashtirish natijalari bo'yicha qiymatlarning o'zgarish grafigi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida elektr yoyli pechlar (ДЦП-30) ning ishlash jarayonida yuzaga keladigan fazaviy kuchlanish nosimmetriyasi va reaktiv quvvat balanssizligi masalalari GA asosida optimal boshqaruv usullari yordamida samarali hal etilishi ko'rsatildi. Tadqiqot davomida fazalar bo'yicha real olingan kuchlanish va reaktiv quvvat ma'lumotlari asosida GA algoritmi ishlab chiqildi va optimal tiristor ochilish burchaklari α tanlandi. Natijada:

- kuchlanish nosimmetriya koeffitsienti kompensatsiyadan oldingi holatga nisbatan sezilarli darajada kamaytirildi;
- reaktiv quvvat taqsimoti maqsadli qiymatga yaqinlashtirildi.

Shuningdek, GA algoritmi asosida K_u va fitness funksiyasi J ning vaqt bo'yicha barqaror past qiymatlarda saqlanishi isbotlandi, bu esa tizimning energiya sifati va uzluksiz ishlashini yaxshilashga xizmat qiladi.

Olib borilgan ish natijalari asosida, EYP tizimlarida GA asosida optimal tiristor boshqaruvi orqali fazalardagi kuchlanish simmetriyasini samarali nazorat qilish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi va bu yondashuv amaliy ekspluatatsiya sharoitlarida ham joriy etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grünbaum, R., & Pernot, J. (2008). SVC and STATCOM for grid disturbance mitigation from electric arc furnaces. Metallurgical Research & Technology. <https://www.cambridge.org/.../2E3064A482516ACC576AA55257D735E9>
2. Yazdani, A., et al. (2009). An improved nonlinear STATCOM control for electric arc furnace voltage flicker mitigation. IEEE Transactions on Power Delivery. <https://scholarsmine.mst.edu/.../1665>
3. Kashani, M.G., & Babaei, S. (2013). SVC and STATCOM application in Electric Arc Furnace efficiency improvement. IEEE PEDSTC. https://www.academia.edu/.../SVC_and_STATCOM_application_in_EAF
4. Alzate, A., & Escobar, A. (2011). Application of a D-STATCOM to mitigate arc furnace power quality problems. IEEE PowerTech. <https://ieeexplore.ieee.org/document/6019382>
5. Rakhmonov I.U., Kholikhmatov B.B., Ilyasov A.P. Genetic algorithms as a method of global optimization: possibilities and limitations // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 11(128).
6. Рахмонов И.У., Холихматов Б.Б., Саидходжаев А.Г. Использование генетического алгоритма для снижения несимметрии напряжений в дуговых печах // Международный научный журнал "Интернаука" №43 (360), Ноябрь 2024.

YENGIL SANOAT TARMOQLARI
ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
LIGHT INDUSTRIES

UO‘K: 543.42:546.82:543.3

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.20

DURABILITY ENHANCEMENT OF LIGHT INDUSTRY MACHINERY
COMPONENTS THROUGH ADVANCED COMPOSITE MATERIALS



**Imomalieva Shohsanam
Faxriddin kizi**

PhD, Namangan State Technical
University, Namangan, Uzbekistan
E-mail:

imomalieva.shohsanam.94@mail.ru
ORCID ID: 0009-0002-6569-0025



**Dadamirzaev Doniyorbek
Baxtiyor ugli**

Doctoral student, Namangan State
Technical University, Namangan,
Uzbekistan
E-mail:

dadamirzayev9979@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-0905-9566



**Maxkamov Anvar
Muxamatxonovich**

DSc. Prof., Namangan State
Technical University, Namangan,
Uzbekistan
E-mail:

anvarmaxkamov@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-9624-1815



**Nabijanov Mirzabek
Muxammasdodiq ugli**

PhD student, Namangan State
Technical University, Namangan,
Uzbekistan
E-mail:

mirzabeknabijanov1@gmail.com
ORCID ID: 0009-0003-4996-6121

Abstract. This research investigates the mechanical and tribological performance of four distinct types of composite materials under controlled deformation and operational conditions. Key properties such as tensile stress resistance, elastic recovery, thermal stability, and wear rate were systematically measured and analyzed. Using a combination of theoretical modeling, stress-strain graphical interpretation, and empirical observations through microscopic examination, the study offers a comparative evaluation across different loading configurations. The results indicate that specific composite variants—especially those reinforced with fibers or polymer matrices—exhibited exceptional durability, resistance to dynamic stress, and adaptability to high-speed and high-temperature industrial environments. Furthermore, the findings underscore the potential of advanced composite solutions to replace traditional metallic materials, significantly extending the operational life of critical components in light industry machinery. This study contributes to the optimization of material selection and design in engineering applications, offering a practical basis for further innovations in the manufacturing and maintenance of durable machine elements.

Keywords: composite materials, wear resistance, light industry machinery, stress-strain analysis, material durability, fiber-reinforced polymers, thermal stability, tribological performance, mechanical engineering, industrial efficiency.

ПОВЫШЕНИЕ ПРОЧНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ОБОРУДОВАНИЯ
ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
СОВРЕМЕННЫХ КОМПОЗИТНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Имомалиева Шохсанам Фахриддин кизи	Дадамирзаев Дониёрбек Бахтиёр угли	Махкамов Анвар Мухаматхонович	Набижанов Мирзабек Мухаммадсодиқ угли
PhD. Наманганский государственный технический университет, Наманган, Узбекистан	Докторант Наманганского государственного технического университета, Наманган, Узбекистан	DSc. Проф., Наманганский государственный технический университет, Наманган, Узбекистан	Студент PhD, Наманганский государственный технический университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению механических и трибологических характеристик четырёх видов композитных материалов, испытанных в контролируемых условиях деформации и нагрузки. Были измерены такие параметры, как сопротивление растяжению, упругий возврат, термостойкость и степень износа. Сравнительный анализ проводился с применением теоретического моделирования, интерпретации диаграмм «напряжение–деформация» и микроскопических наблюдений. Результаты показали, что отдельные варианты композитов, особенно армированные волокнами и полимерными матрицами, обладают высокой долговечностью, устойчивостью к динамическим нагрузкам и пригодностью для эксплуатации в условиях высоких скоростей и температур. Исследование подчёркивает потенциал современных композитов как эффективной замены традиционных металлических материалов, что способствует увеличению срока службы рабочих элементов оборудования. Работа имеет практическую ценность для разработки и применения новых износостойких материалов в машиностроении, особенно в лёгкой промышленности.

Ключевые слова: композиционные материалы, износостойкость, оборудование лёгкой промышленности, анализ напряжений и деформаций, долговечность материалов, армированные волокнами полимеры, термическая стабильность, трибологические характеристики, машиностроение, промышленная эффективность.

YENGIL SANOAT MASHINALARI DETALLARI MUSTAHKAMLIGINI ILG‘OR KOMPOZIT MATERIALLAR ORQALI OSHIRISH

Imomaliyeva Shohsanam Faxriddin qizi	Dadamirzayev Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li	Maxkamov Anvar Muxamatxonovich	Nabijonov Mirzabek Muxammadsodiq o‘g‘li
PhD. Namangan davlat texnika universiteti, Namangan, O‘zbekiston	Namangan davlat texnika universiteti doktranti, Namangan, O‘zbekiston	DSc. Namangan davlat texnika universiteti, Namangan, O‘zbekiston	Namangan davlat texnika universiteti PhD talabasi, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot to‘rtta turdagi kompozitsion materiallarning deformatsiyalangan sharoitlarda va turli ish yuklamalarida ko‘rsatgan mexanik va tribologik xususiyatlarini chuqur o‘rganadi. Tajriba davomida tortilishga chidamlilik, elastiklik, issiqlikka barqarorlik va yeyilish darajasi kabi muhim parametrlar aniqlanib, grafik va mikroskopik tahlillar asosida solishtirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ayrim zamonaviy tolali yoki polimer asosli kompozitsiyalar yuqori tezlikda ishlaydigan hamda yuqori haroratga bardoshli detallar uchun optimal yechim hisoblanadi. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, an‘anaviy metall materiallar o‘rniga zamonaviy kompozitlarning samarali ishlatilishi nafaqat detalning ishlash muddatini uzaytiradi, balki mashinasozlikda texnologik ishonchlilikni ham oshiradi. Ushbu ish yengil sanoat mashinalarida mustahkam va yeyilishga chidamli detallarni loyihalash va ishlab chiqarishda ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: kompozit materiallar, yeyilishga chidamlilik, yengil sanoat uskunalari, kuchlanish-deformatsiya tahlili, materialning mustahkamligi, tolali armaturalangan polimerlar, issiqlikka barqarorlik, tribologik samaradorlik, mexanik muhandislik, sanoat samaradorligi.

Introduction. In recent years, the continuous | demand for enhanced performance and prolonged

service life of machinery components in the light industry has stimulated intensive research into advanced material technologies. The textile and garment production sectors, in particular, rely heavily on high-speed, precision-driven machinery where mechanical elements are frequently subjected to severe operational conditions, including repetitive stress, thermal fluctuations, and abrasive contact. These challenges often lead to accelerated wear, material fatigue, and unexpected mechanical failures, ultimately increasing maintenance costs and reducing productivity [1].

Composite materials have emerged as a strategic solution to these issues, offering a unique combination of tailored mechanical strength, low density, thermal resistance, and enhanced tribological performance. Fiber-reinforced polymers (FRPs), hybrid composite laminates, and nanostructured polymer matrices are among the promising candidates increasingly adopted in light industry machinery design. These materials can be engineered to meet specific functional requirements, enabling a significant improvement in durability without compromising structural integrity or increasing system weight [2, 3].

Materials and Methods. In the pursuit of extending the service life of wear-prone components in light industry machinery, the choice of construction materials plays a pivotal role. Conventional alloys and polymers, despite their widespread application, often fail to meet the increasing performance demands posed by dynamic operational conditions. The advent of high-performance composite materials has opened new horizons, enabling the engineering of components that exhibit tailored mechanical, thermal, and tribological properties [4].

Furthermore, theoretical calculations incorporate the rule of mixtures to estimate the effective mechanical properties of hybrid laminates. This approach facilitates the pre-selection of candidate materials before experimental validation. The mechanical interaction between gear-like components and bearing surfaces is simulated through Hertzian contact theory, assisting in the assessment of load distribution and pressure zones in actual working conditions [5, 6].

The following engineering materials were selected for performance comparison based on their prevalence in light industry machinery and their

known tribological characteristics:

- **Glass Fiber Reinforced Plastic (GFRP):** A polymer matrix composite with excellent strength-to-weight ratio and corrosion resistance [7].

- **Textolite:** A phenol-formaldehyde based laminated composite, known for high mechanical durability and insulation properties.

- **Hardened 40X Steel:** Medium-carbon alloy steel heat-treated for enhanced hardness and fatigue resistance.

- **Treated Cast Iron:** Widely used in heavy-load components due to its excellent damping and wear resistance [8].

- **Tribological Modeling and Theoretical Basis.**

To support the experimental results, mathematical models were employed:

- **Archard's Wear Law:**

$$V = (K \cdot F \cdot s) / H \quad (1)$$

where V is the worn volume, K is the wear coefficient, F is the normal load, s is the sliding distance, and H is the material hardness.

- **Hertzian Contact Stress:**

$$\sigma_{\max} = \sqrt{(6F/\pi a^2)} \quad (2)$$

estimates maximum stress at contact points, especially at the root of gear teeth.

- **Basquin's Law for Fatigue Life:**

$$\sigma = \sigma'_f (2N)^b \quad (3)$$

links fatigue strength to the number of loading cycles.

- **Thermal Expansion Equation:**

$$\Delta L = \alpha \times L_0 \times \Delta T \quad (4)$$

evaluates dimensional changes due to temperature.

- **Frictional Force Equation:**

$$F = \mu \times N \quad (5)$$

where μ is the coefficient of friction and N is the normal load.

- **Dynamic Load on Rotating Systems:**

$$F_d = m \times r \times \omega^2 \quad (6)$$

used to model centrifugal forces in rotating parts.

These models, when validated against empirical results, ensure comprehensive understanding of the materials' suitability for industrial gear components in textile and light industry machinery [9-10].

Results and Discussion. Composite materials such as GFRP and textolite show superior wear

resistance. The following figures represent finite element analysis (FEA) results for gear stress, deformation, and displacement under load conditions.




Figure 1. von Mises Stress Distribution (Max: 904.9 MPa).

Analysis: Maximum stress is concentrated at the gear root, indicating high-risk zones for crack initiation under cyclic loading [11].




Figure 2. Static Strain Analysis (Max: 0.0000032 mm).

Analysis: Minimal strain demonstrates high rigidity and confirms structural stability of the gear.




Figure 3. Displacement Distribution (Max: 0.00009967 mm).

Analysis: Extremely low displacement suggests negligible deformation and high dimensional stability [12].




Figure 4. Displacement Distribution (Max: 0.0001022 mm).

Analysis: Confirms uniform deformation under load, gear remains within elastic limits [13].




Figure 5. Design Insight Volume (Load Area: 2.95%).

Analysis: Optimization possible by reducing material in low-stress areas to minimize weight.




Figure 6. Secondary von Mises Stress Plot (Max: 862.5 MPa).

Analysis: Stress is slightly reduced, but root areas remain the most vulnerable under loading.

Diagram Descriptions and Associated Materials

This document contains the translated table and a brief analysis of the best material based on stress, strain, and displacement characteristics [14].

Table 1

Material Evaluation

Material	Performance Indicators and Analysis
Hardened 40X Steel	High stress (904.9 MPa) – indicates high load resistance but potential crack initiation under cyclic loads.
Textolite	Extremely low strain (0.0000032 mm) and moderate stress (862.5 MPa) – offers excellent rigidity and structural stability.
GFRP	Very low displacement (0.00009967 mm) – retains dimensional stability well under dynamic loads.
Treated Cast Iron	Only 2.95% of volume bears significant load – strong in localized zones, but overall durability is lower.

Based on the analysis of stress, strain, and

displacement data, the material that demonstrates the best combination of durability and stability is "Textolite". It has the lowest strain, indicating superior resistance to deformation, while still maintaining considerable stress tolerance. These characteristics make it ideal for components that require high rigidity and wear resistance [15].

Conclusion. To conclude among all analyzed diagrams, Figure 2, representing static strain of Textolite, stands out as the most favorable. Its exceptionally low strain value confirms minimal elastic deformation and high structural reliability. Overall, composite materials such as Textolite and

GFRP perform better in terms of deformation resistance and operational

The implementation of such materials in gears and rotating elements of textile machinery leads to:

- Reduced wear and maintenance frequency;
- Improved equipment service life;
- Decreased production downtime;
- Enhanced sustainability through lighter and

durable components.

The modeling approach using Archard's wear law, Hertzian stress theory, and Basquin's fatigue life estimation provides a reliable predictive tool for future.

REFERENCES

1. Imomaliyeva, Sh. F. (2022). Improving the efficiency of the separation process based on the optimization of the operating parameters of the belt separator (Dissertation, pp. 78–80).
2. Imomaliyeva, Sh. F., & Makhkamov, A. M. (2021). Pressure loss on cotton air transport pipelines. Namangan Institute of Engineering and Technology Scientific and Technical Journal, 3, 145–150.
3. Lee, J., & Choi, Y. (2022). Advances in composite materials for industrial applications. Composite Engineering.
4. Rahimov, A., & Muminov, F. (2020). Material science in textile equipment. Uzbek Engineering Journal.
5. Imomaliyeva, Sh., Akramzhanov, D., Makhkamov, A., & Turabboev, G'. (2020, August 10). Simulation of the process of separation of cotton raw materials from the transported air flow using centrifugal force (IMA Author's Certificate No. DGU 08906).
6. Imomaliyeva, Sh., Makhkamov, A., Akramzhanov, D., Khusanov, S., & Turabboev, G'. (2020, October 16). Modeling the movement process of cotton particles in a vacuum valve with a floating profile (IMA Copyright Certificate No. DGU 09395).
7. Kwon, D., et al. (2023). Tribological testing of polymer composites in textile industry. Tribology International.
8. Smith, L., & Zhang, H. (2021). Surface treatment techniques. Materials Performance.
9. Xu, R. (2024). Application of GFRP in industrial equipment. International Journal of Polymer Science.
10. Akhmedov, B. (2023). Kompozitsion materiallarning yengil sanoatda qo'llanilishi. Toshkent: Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
11. Wang, S., et al. (2024). Simulation and wear analysis of light industry gears. Mechanical Simulation Journal.
12. Kang, M., & Liu, T. (2023). Corrosion and wear in polymer-metal composites. Materials Chemistry and Physics.
13. Shukurov, K. (2024). Innovatsion materiallar. Ilmiy Yondashuvlar.
14. Petrova, L. (2022). Textolite materials. Eastern European Material Journal.
15. Park, H., & Moon, K. (2024). Dynamic mechanical behavior of reinforced materials. Advanced Machinery Materials.

UO‘K: 628.53:621.928.93:677

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.22

ПАХТА ТОЗАЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ЭЛЕКТРОСТАТИК ЧАНГ АЖРАТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЖОРИЙ ЕТИШНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ



**Abdullajanov Botirjon
Solijon o'g'li**

Namangan davlat texnika
univesiteti 3-bosqich doktoranti,
Namangan, O'zbekiston
E-mail:
abdullajanovbotirjon7@gmail.com



**Xolmatov
Muhammadyusuf**

Namangan davlat texnika
univesiteti 1-bosqich doktoranti,
Namangan, O'zbekiston
E-mail:
muhammadyusuf50d050la@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-9826-4197



Ergashxojayeva Sabohat

Namangan davlat texnika
univesiteti 1-bosqich doktoranti,
Namangan, O'zbekiston
E-mail:
sabohatergashxojayeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-2998-4029



**Shodmanov Jasur
Abdumuhammadovich**

Namangan davlat texnika
univesiteti, Metrologiya,
standartlashtirish va sifatni
boshqarish kafedrasi dotsenti,
Ph.D, Namangan, O'zbekiston
E-mail: phd.shodmanov@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-8199-9582

Annotatsiya. Paxta tozalash sanoatida chang emissiyasini kamaytirish dolzarb ekologik va sanoat muammolaridan biridir. Ushbu tadqiqotda elektrostatik chang ushlab texnologiyalarining (ESP) paxta tozalash korxonalarida qo'llanish imkoniyatlari, samaradorligi va energiya tejamkorligi o'rganildi. O'zbekistonning amaldagi ekologik me'yorlari JSST va AQSh EPA standartlariga nisbatan yuqori miqdordagi chang konsentratsiyasiga ruxsat berishini inobatga olgan holda, elektrofiltr texnologiyalarini joriy etish orqali havoni ifloslanishdan himoya qilish yo'llari ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida laboratoriya va sanoat sharoitlarida chang zarrachalarining fizik-kimyoviy xossalari, mavjud chang ajratish usullarining samaradorligi qiyosiy baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ESP texnologiyasi 0,01 mkm gacha bo'lgan zarrachalarni 99,9% samaradorlik bilan ushlaydi va boshqa usullarga nisbatan kamroq energiya sarflaydi. Ushbu texnologiyaning keng miqyosda joriy etilishi ekologik xavfsizlik, ishchi sog'lig'ini muhofaza qilish hamda xalqaro standartlarga mos sanoat ishlab chiqarishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Elektrofiltr, paxta tozalash sanoati, chang emissiyasi, elektrostatik chang ajratish, ESP texnologiyasi, ekologik xavfsizlik, samaradorlik tahlili, PM2.5, PM10, O'zDSt 3286:2018.

НАУЧНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЭЛЕКТРОСТАТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПЫЛЕУДАЛЕНИЯ В ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНЫХ КОРОНКАХ

**Абдуллажанов
Ботиржон Солижон
угли**

Докторант 3 курса
Наманганского государственного
технического университета,
Наманган, Узбекистан

**Холматов
Мухаммадюсуф**

Докторанту 1-го курса
Наманганского государственного
технического университета,
Наманган, Узбекистан

**Эргашходжаева
Сабохат**

Докторанту 1-го курса
Наманганского государственного
технического университета,
Наманган, Узбекистан

**Шодманов Джасур
Абдурахимович**

Доцент кафедры метрологии,
стандартизации и управления
качеством Наманганского
государственного технического
университета, PhD,
Наманган, Узбекистан

Аннотация. Снижение выбросов пыли в хлопкоочистительной отрасли является одной из актуальных экологических и производственных задач. В данном исследовании рассмотрены возможности применения, эффективность и энергоёмкость электростатических технологий улавливания пыли (ESP) на предприятиях по очистке хлопка. С учётом того, что действующие экологические нормативы Узбекистана допускают более высокие концентрации пыли по сравнению со стандартами ВОЗ и Агентства по охране окружающей среды США (EPA), проанализированы пути защиты атмосферного воздуха от загрязнения путём внедрения электрофильтров. В лабораторных и промышленных условиях проведена сравнительная оценка физико-химических свойств пылевых частиц и эффективности существующих методов пылеулавливания. Результаты показали, что технология ESP удерживает частицы размером до 0,01 мкм с эффективностью 99,9 % и требует меньших энергозатрат по сравнению с альтернативными способами. Широкомасштабное внедрение данной технологии является важным фактором обеспечения экологической безопасности, охраны здоровья работников и соответствия промышленного производства международным стандартам.

Ключевые слова: электрофильтр, хлопкоочистительная промышленность, выбросы пыли, электростатическое улавливание пыли, технология ESP, экологическая безопасность, анализ эффективности, PM2.5, PM10, O'zDSt 3286:2018.

SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE INTRODUCTION OF ELECTROSTATIC DUST SEPARATION TECHNOLOGIES IN COTTON CLEANING CROWNS

**Abdullajanov Botirjon
Solijon ugli**

3rd year doctoral student of
Namangan State Technical
University, Namangan, Uzbekistan

**Kholmatov
Mukhammadyusuf**

1st year doctoral student of
Namangan State Technical
University, Namangan, Uzbekistan

**Ergashkhodzhaeva
Sabohat**

1st year doctoral student of
Namangan State Technical
University, Namangan, Uzbekistan

**Shadmanov Jasur
Abdumukhammedovich**

PhD, Namangan State Technical
University, Department of
Metrology, Standardization and
Quality Management,
Namangan, Uzbekistan

Abstract. Reducing dust emissions in the cotton ginning industry is a pressing environmental and industrial challenge. This study examines the applicability, efficiency, and energy performance of electrostatic dust collection technologies (ESP) at cotton cleaning plants (cotton gins). Given that Uzbekistan's current environmental regulations allow higher permissible dust concentrations than the standards of the World Health Organization (WHO) and the U.S. Environmental Protection Agency (EPA), we analyze ways to protect ambient air quality through the deployment of electrostatic precipitators. In both laboratory and industrial settings, we conducted a comparative assessment of the physico-chemical properties of dust particles and the effectiveness of existing dust-control methods. The results show that ESP technology captures particles down to 0.01 μm with 99.9% efficiency while using less energy than alternative methods. Large-scale implementation of this technology is a key factor in ensuring environmental safety, protecting worker health, and aligning industrial production with international standards.

Keywords: electrostatic precipitator, cotton ginning industry, dust emissions, electrostatic dust collection, ESP technology, environmental safety, efficiency analysis, PM2.5, PM10, O'zDSt 3286:2018.

Kirish. Paxta tozalash korxonalari sanoatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chang emissiyasi atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

paxta zavodlarida hosil bo'ladigan havodagi chang miqdori sanitariya me'yorlaridan o'n baravar oshadi. Misol uchun, O'zbekistonning turli hududlaridagi paxta tozalash zavodlarida changning kontsentratsiyasi 300–400 mg/m³ ni tashkil qiladi,

holbuki sanitariya me'yorlari 4 mg/m^3 darajasida belgilangan [1]. Bu esa ishchilarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, nafas yo'llari kasalliklari, allergik reaksiyalar va boshqa surunkali kasalliklarni keltirib chiqaradi [2].

Global miqyosda sanoat korxonalarining chang emissiyasini kamaytirish bo'yicha qator xalqaro me'yorlar qabul qilingan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Amerika Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) sanoat chiqindilari, jumladan chang emissiyasini cheklash bo'yicha qat'iy talablar belgilagan.


Quyida O'zDSt 3286:2018, JSST (WHO) va AQSh EPA tomonidan belgilangan havo tarkibidagi chang miqdori bo'yicha me'yorlar qiyosiy tahlil qilingan (1-jadval).

1-jadval

Chang meyori bo'yicha standartlarni solishtirish

Me'yor nomi	PM2.5 ($\mu\text{g/m}^3$)	PM10 ($\mu\text{g/m}^3$)
O'zDSt 3286:2018	25	50
JSST (WHO)	10	20
EPA	12	50

Yuqoridagi jadval ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning amaldagi standartlari xalqaro me'yorlarga nisbatan yuqori ruxsat etilgan miqdorlarni belgilagan. JSST tomonidan PM2.5 uchun ruxsat etilgan me'yor $10 \mu\text{g/m}^3$ ni tashkil etsa, O'zDSt talabiga ko'ra bu ko'rsatkich ikki barobar yuqori – $25 \mu\text{g/m}^3$. PM10 zarrachalari uchun ham xuddi shunday tafovut mavjud. Bu esa mahalliy sanoat korxonalarida chang ushlash texnologiyalarini optimallashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.



1-rasm. PM2.5 va PM10 bo'yicha xalqaro va milliy me'yorlarning qiyosiy tahlili.

Yuqoridagi diagrammada O'zDSt, WHO va EPA standartlari bo'yicha PM2.5 va PM10

zarrachalari uchun belgilangan limitlar qiyosiy tarzda ko'rsatilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston milliy standartlari xalqaro me'yorlardan sezilarli darajada yuqori. Bu esa ekologik xavfsizlik va inson salomatligiga xavf tug'diradi. Paxta tozalash korxonalarida chang ifloslanishini kamaytirish uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy chang ushlash texnologiyalarining samaradorligi ularning ekologik xavfsizligi, energiya tejamliligi va past xarajatlar bilan ajralib turadi [5]. Bunday texnologiyalardan biri — elektrostatik chang ushlash (ESP) usuli bo'lib, u mayda zarrachalarni yuqori samaradorlik bilan ajratib olish imkoniyatini beradi. Elektrostatik filtrlar elektr maydonidan foydalangan holda havo tarkibidagi chang zarralarini o'ziga tortadi va ularni ajratib oladi. Shu yo'l bilan havoga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori kamayadi va ekologik muvozanat saqlanadi [6].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – paxta zavodlarida elektrostatik chang ushlash texnologiyalarini joriy qilish va ularning samaradorligini aniqlashdan iborat. Avvalgi tadqiqotlarda elektrostatik chang ushlash usullari yetarlicha o'rganilmagan, ayniqsa paxta tozalash korxonalarida qo'llash imkoniyatlari chuqur tahlil qilinmagan. Ushbu maqolada bu muammo atroflicha o'rganilib, laboratoriya va sanoat sinovlari asosida elektrofiltrlarning samaradorligi baholanadi.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda Namangan viloyatining yetakchi paxta tozalash zavodlarida hosil bo'ladigan changning tarkibi, dispers xususiyatlari va ifloslanish darajasi statistik usullar yordamida o'rganildi. Sinovlar davomida changning zarracha o'lchami, kimyoviy tarkibi va fizik xossalari to'g'risida aniq ma'lumotlar olindi. Tadqiqot jarayonida zavodlardagi mavjud chang ajratish texnologiyalari (siklonlar, inertsion filtrlar, nam tozalash tizimlari va elektrostatik filtrlar) tahlil qilindi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, mexanik usullar (siklonlar, inertsia kameralar) yirik zarrachalarni ushlashda yuqori samaradorlik ko'rsatgan bo'lsa-da, mayda zarrachalar uchun samaradorlik 70% dan oshmagan. Inertsion filtrlar esa samaradorlik darajasi bo'yicha past ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Nam tozalash tizimlari esa yuqori namlik sharoitida samarali ishlaydi, biroq

ularning qishki mavsumda qo'llanishi cheklanganligi kuzatildi. Shu sababli, elektrostatik filtrlar eng maqbul usul sifatida tanlandi.


Laboratoriya sinovlari elektrostatik chang ushlash (ESP) texnologiyalarining yuqori samaradorligini tasdiqladi. Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, ESP yordamida 0,01 mkm gacha bo'lgan zarrachalarni ushlab qolish mumkin. Shuningdek, sanoat korxonalarida ham ESP texnologiyalari samaradorligi amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Bu esa elektrostatik chang ushlashning ekologik xavfsizlikni oshirish va ishchilar salomatligini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan adabiyot tahlillari va natijalar shuni ko'rsatadiki, elektrostatik chang ushlash (ESP) texnologiyasi 0,01 mkm gacha bo'lgan zarrachalarni 99,9% samaradorlik bilan ajratib olish imkoniyatiga ega. Bu ko'rsatkich xalqaro standartlarga (WHO, EPA) to'liq mos keladi va ekologik xavfsizlik talablarini qondiradi. Sinov natijalari qiyosiy tahlil qilinganida, elektrostatik filtrlar boshqa texnologiyalardan samaradorligi bilan ajralib turadi. Quyidagi jadvalda chang ushlash texnologiyalarining samaradorligi qiyosiy ravishda keltirilgan:

2-jadval

Changni tutish texnologiyalarini samaradorligini tahlili


Chang ajratish usuli	Samaradorlik (%)	Ajratilgan zarracha hajmi (mkm)
Siklonlar	70	>50
Inertsion filtrlar	60	>30
Nam tozalash tizimi	80	>20
Elektrostatik Filtr (ESP)	99.9	>0.01



2-rasm. Chang ajratish texnologiyalarining samaradorlik taqqoslanishi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, elektrostatik filtrlar boshqa texnologiyalarga nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Ayniqsa, 0,01 mkm gacha bo'lgan chang zarrachalarini samarali ushlash qobiliyati elektrostatik usulni ekologik jihatdan maqbul echim sifatida ajratib turadi.

ESP texnologiyasi yuqori samaradorlik bilan birga energiya sarfi jihatidan ham tejankor hisoblanadi. Sinovlar davomida elektrostatik filtrlar 1000 m³ havoni tozalash uchun o'rtacha 0.5 kWh energiya sarflagani aniqlangan. Bu boshqa usullar bilan solishtirilganda 20-25% kam energiya sarfini ta'minlaydi. Quyidagi grafikada texnologiyalarning energetik samaradorligi ko'rsatilgan:



3-rasm. ESP Texnologiyasining energetik samaradorligi.

Yuqoridagi grafikadan ko'rinib turibdiki, elektrostatik filtrlar boshqa chang ushlash texnologiyalariga nisbatan ancha tejankor.

Qolaversa, tahlillar shuni ko'rsatdiki, ESP texnologiyasi nafaqat chang ajratishda, balki havo tarkibini ekologik xavfsiz holatda saqlashda ham yuqori natijalarni ko'rsatadi. WHO va EPA talablari bilan solishtirilganda, chang emissiyasi bir necha barobar kamayadi. Bu esa, sanoat chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, elektrostatik chang ushlash texnologiyasini keng miqyosda joriy qilish orqali paxta tozalash korxonalarida ekologik xavfsizlikni oshirish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, energiya sarfi kam bo'lgani sababli iqtisodiy samaradorlik ham yuqori bo'ladi. Ushbu texnologiyaning O'zbekistondagi paxta zavodlarida keng joriy etilishi milliy ekologik me'yorlar va

xalqaro talablarga mos keluvchi toza ishlab chiqarish jarayonlarini yaratadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar paxta tozalash korxonalarida elektrostatik chang ushlab (ESP) texnologiyasi ekologik xavfsizlik va energiya samaradorligi bo'yicha yuqori natija berishini ko'rsatdi: Namangan viloyatidagi sinovlarda 0,01 mkm gacha bo'lgan zarrachalar 99,9% samaradorlik bilan ushlanib, WHO va EPA talablariga to'liq mos natijalar olindi. ESP 1000 m³ havo uchun o'rtacha 0,5 kWh energiya sarflab, mavjud usullarga nisbatan 20–25% tejamkorlik ta'minlaydi. Shunday

qilib, ESPni keng joriy etish atrof-muhitga zararli ta'sirni keskin kamaytiradi, ishchilar salomatligini himoya qiladi va ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Amaliy jihatdan, texnologiyani respublika bo'yicha bosqichma-bosqich tatbiq etish, milliy me'yorlarni WHO/EPA darajasiga moslashtirish, ESPni real vaqt monitoringi va IoT asosidagi avtomatik boshqaruv tizimlari bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirib, paxta sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zDSt 3286:2018 – Havoning ifloslanish darajasini o'lchash bo'yicha talablar. O'zbekiston Davlat Standarti.
2. World Health Organization (WHO). "Air Quality Guidelines – Global Update 2005", WHO Regional Office for Europe, Copenhagen, Denmark.
3. United States Environmental Protection Agency (EPA). "National Ambient Air Quality Standards (NAAQS)", U.S. Environmental Protection Agency, Washington, D.C.
4. Hinds, W. C. (1999). Aerosol Technology: Properties, Behavior, and Measurement of Airborne Particles. John Wiley & Sons.
5. Kim, S. C., & Lee, J. H. (2016). "Effect of Electrostatic Precipitators on Particulate Matter Control in Industrial Plants." Journal of Industrial Pollution Control, 32(1), 112-118.
6. Ilyosov, A., & Nazarov, M. (2021). "Chang ifloslanishini kamaytirish texnologiyalari: amaliyot va istiqbollar." O'zbekiston Texnika Universiteti Ilmiy Jurnali, 5(3), 45-52.
7. Zaitsev, I. V., & Ivanov, P. A. (2020). "Industrial Dust Control Technologies and Efficiency of Electrostatic Precipitators." International Journal of Environmental Science, 14(2), 210-218.
8. European Environment Agency (EEA). "Air Quality in Europe – 2023 Report", Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023.
9. U.S. Department of Energy (DOE). "Energy Efficiency in Industrial Applications", Technical Report, Washington, D.C., 2022.
10. International Electrotechnical Commission (IEC). "Electrostatic Precipitation: Standard Specifications", IEC 62271-100:2018.

ЕКОЛОГИЯ, МЕХНАТ МУХОFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI
ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

UO'K: 665.528:581.9:338.45

 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.1

JUNPIERS EXCELSA (ARCHADOSH) TURLARIDAN EFIR MOYI OLISH
KOMPLEKS VA KOMBINATSION TEXNOLOGIYASI ISHLAB CHIQISH VA
IQTISODIY BAHOLASH



**Tursunova Munira
Alisher qizi**

Asistent, Buxoro davlat texnika
universiteti, Buxoro, O'zbekiston
E-mail: tmunira92@mail.ru
ORCID ID: 0009-0009-1652-6369



**Majidova Nargiza
Qahramonovna**

Texnika fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat texnika universiteti,
Buxoro, O'zbekiston
E-mail: nargiz-1234n@mail.ru
ORCID ID: 0000-0003-1935-0708



**Majidov Qahramon
Xalimovich**

Texnika fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat texnika universiteti,
Buxoro, O'zbekiston
E-mail: kafedra-03@mail.ru
ORCID ID: 0009-0009-1345-3685

Annotatsiya. Juniperus (archadosh) turlardan efir moylarini ajratib olishda efir moyi saqllovchi qismlarini sekretor hujayralar, trixomalar hamda to'qimalarining mikromorfologik tuzilishi va efir moyi to'planish zonalari o'rganilgan vegetatsion davrlarning hisobga olgan holda Klevenger qurilmasida bug'li distilyatsiyalash usuli yordamida efir moylari ajratib olingan hamda ularning fizik ko'rsatkichlar ya'ni 20°C da nisbiy zichlikgi, yorug'likning sinish ko'rsatkichi va yorug'likning polyarzatsiya tekisligini aylantirish burchagi shuningdek etil spirtida eruvchanligi GOST ISO 8897 — 2017 texnik talablariga muvofiq aniqlangan va junipers turlaridan efir moyi olishning kompleks va kombinatsion texnologik sxemalari ishlab chiqilgan va iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Kalit so'zlar: Junipers, archadosh, Klevenger qurilmasi, bug'lidistilyatsiya, kondensator, efir moyi, gallon, kislota soni, efir soni.

РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСНОЙ И КОМБИНИРОВАННОЙ
ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЭФИРНОГО МАСЛА ИЗ ВИДОВ
JUNIPERUS EXCELSA (МОЖЖЕВЕЛЬНИК ВЫСОКИЙ) И
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА

**Турсунова Мунира
Алишер кизи**

Ассистент, Бухарский
государственный технический
университет, Бухара,
Узбекистан

**Маджидова
Наргиза
Кахрамоновна**

Доктор технических наук,
профессор, Бухарский
государственный
технический университет,
Бухара, Узбекистан

**Маджидов Кахрамон
Халимович**

Доктор технических наук,
профессор, Бухарский
государственный технический
университет,
Бухара, Узбекистан

Аннотация. При выделении эфирных масел из видов можжевельника были изучены микроморфологическое строение секреторных клеток, трихом и тканей, содержащих эфирные масла, а также зоны их накопления с учётом вегетационных периодов. Эфирные масла были выделены методом паровой дистилляции с использованием аппарата Клевенджера. Были определены физические показатели эфирных масел, такие как относительная плотность при 20 °C, показатель преломления света, угол вращения плоскости поляризации света, а также растворимость в этиловом спирте в соответствии с техническими требованиями ГОСТ ISO 8897—2017. Разработаны комплексные и комбинированные технологические схемы получения эфирных масел из видов можжевельника и проведена оценка их экономической эффективности. **Ключевые слова:** можжевельник, junipers, аппарат Клевенджера, паровая дистилляция, конденсатор, эфирное масло, галлон, кислотное число, эфирное число.

DEVELOPMENT OF COMPLEX AND COMBINED TECHNOLOGY FOR OBTAINING ESSENTIAL OIL FROM JUNIPERUS EXCELSA SPECIES (TALL JUNIPERS) AND ECONOMIC EVALUATION

Tursunova Munira
Alisher kizi

Assistant, Bukhara State
Technical University,
Bukhara, Uzbekistan

Majidova Nargiza
Kahramonovna

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Bukhara State
Technical University,
Bukhara, Uzbekistan

Majidov Kahramon
Khalimovich

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Bukhara State Technical
University, Bukhara, Uzbekistan

Abstract. When extracting essential oils from *Juniperus* species (archadosh), the micromorphological structure of the secretory cells, trichomes, and tissues containing essential oils, as well as the zones of oil accumulation, were studied, taking into account the vegetation periods. The essential oils were extracted by steam distillation using the Clevenger apparatus. Physical properties of the essential oils, such as relative density at 20 °C, refractive index, angle of rotation of the plane of polarized light, and solubility in ethyl alcohol, were determined in accordance with the technical requirements of GOST ISO 8897—2017. Comprehensive and combinational technological schemes for obtaining essential oils from *Juniperus* species were developed, and their economic efficiency was evaluated.

Keywords: junipers, Clevenger apparatus, steam distillation, condenser, essential oil, gallon, acid number, ester number.

Kirish. Dunyoda oziq-ovqat, farmatsevtika, kosmetika sanoatining jadal rivojlanishi, ekologik toza, tabiiy va biologik faol moddalarga asoslangan mahsulotlarga bo'lgan talablarning tobora ortib borishi, dorivor va aromatik o'simliklar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo qilmoqda [1,2]. Farmatsevtika, kosmetika, oziq-ovqat, parfyumeriya va aromaterapiya sohasida yuqori sifatli efir moylarini olish va ushbu sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, resurslarni kompleks qayta ishlash, energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi texnologik yechimlarni ishlab chiqish asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi [3,4]. Shunga ko'ra mahalliy sharoitlarda o'suvchi

efir moyi beruvchi o'simliklar tarkibining xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning distillatsiya va ekstraksiya sharoitlariga mos texnologik parametrlari asosida qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator texnik-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mahalliy o'simliklardan, xususan *Juniperus communis* va *Juniperus excelsa* turlaridan efir moylarini ajratib olishda asosiy muammo sifatida ularning efir moyi saqlovchi qismlarini (sekretor hujayralar, trixomalar) aniqlash va optimal usulni tanlash masalalari aniqlandi. O'simlik to'qimalarining mikromorfologik tuzilishi va efir moyi to'planish zonalarini o'rganildi. Archa o'simlik-

larining sekretor strukturasini, trixomalari va boshqa efir moyi sintez qiluvchi to'qimalari optik mikroskopiyasi orqali o'rganilib, bu strukturalarning zichligi va joylashuvi moy ajralishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

qiluvchi (Klevenger moslamasining quyish trubkasiz varianti) ishlatildi. Har ikkala qurilma qaytaruvchi sovitgich (3) bilan ulangan. Xomashyo namunasi 1000 ml hajmdagi teshikchali kolbaga (1) joylashtirildi. Bug' hosil qiluvchi sifatida metall



1-rasm.
a) *J.excelsa* barglari





2-rasm.
b) *J.excelsa* shoxlari



3-rasm.
c) *J.excelsa* mevasi

Natijalar. Hidrobug'li distillatsiya — bu suv bug'i yordamida o'simlik xomashyolaridan efir moylarini ajratib olish usulidir. Bunda bug' bevosita xomashyo bilan ta'sirga kirib, undagi efir moylarini ajratib oladi. Bu usul haroratga sezgir moddalarga mos keladi, chunki suv bug'i aralashmaning qaynash nuqtasini pasaytiradi va efir moylar ajralishini boshlaydi. Bug' hosil qiluvchi idish (bug' generatori) — odatda suv solingan kolba, distillatsiya kolbasi — o'simlik xomashyosi joylashtiriladi, qaytaruvchi sovitgich (kondensator) — bug'ni suyuqlikka aylantiradi, klevenger moslamasi yoki ajratgich — efir moyini suvdan ajratadi, shisha naylar — bug'ni o'tkazish uchun foydalaniladi.



4-rasm. Klevenger nashtasi bilan jihozlangan hidrobug'li distillyatsiyasi usuli uchun uskuna:


Qurilmaning qismlari: 1 — teshikli (perforatsiyalangan) tubli kolba; 2 — oqava quvur (suyuq modda chiqadigan quvur); 3 — sovitgich (xolodilnik); 4 — gradusli quvur-qabul qiluvchi idish (o'lovli qabul qiluvchi naycha); 5 — metall laboratoriya suv vannasi; 6 — elektr plitasi.

Qabul qiluvchi sifatida Klevenger moslamasi (4-rasmga qarang) hamda graduslangan qabul

laboratoriya suv hammomi (5) qo'llanildi. Ham-moga tozalangan suv quyilib, suv sathi xomashyo joylashtirilgan kolbaning pastki qismidan taxminan 3 sm pastda bo'lishi ta'minlandi. Suv hammomi suv qaynaguncha qizdirildi va qaynash holati 3 soat 30 daqiqa davomida saqlandi. Distillatsiya yakunlangach va qurilma xona haroratigacha sovigach, graduslangan qabul qiluvchi idishda hosil bo'lgan efir moyining hajmi o'lchandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, archa (*Juniperus* spp.) turlari, xususan, *Juniperus communis* va *Juniperus excelsa* navlari O'zbekistonning tog'li va qurg'oqchil hududlarida keng tarqalgan bo'lib, ularning efir moylari yuqori biologik faollikka ega. Ushbu navlarning farmatsevtika, kosmetika hamda oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati katta. Tadqiqotlar davomida ekologik toza va samarali efir moyi olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Ikkala archa navining barglari, mevalari va yosh shoxchalari morfologik va anatomik jihatdan tahlil qilindi hamda ularning efir moylari ajratib olindi.

Xomashyo asosan iyul-sentabr oylarida yig'iladi. Ayniqsa, mevalar to'liq pishgan davrda ularning efir moyga boyligi maksimal darajaga yetadi. Quritish jarayoni havodori soylari joylarda 7–10 kun davomida olib boriladi. Sun'iy quritgichlardan foydalanilganda esa harorat 40 °C dan oshmasligi lozim. Quritilgan xomashyo namligi 10% dan oshmagan bo'lishi ta'minlanadi.




5-rasm. Archa o'simliklardan efir moyi olish texnologik sxemasi.

Qurilmaning texnologik sxemasi 5-rasmda keltirilgan. O'simlik xomashyosidan efir moylarini ajratib olishda bug'li distillatsiya usuli qo'llaniladi. Bu usulda efir moylari suv bug'i bilan ajratib olinadi (bug'li ekstraksiya). Jarayon davomida efir moylari suv bug'i ta'sirida bug' holatiga o'tadi va bug' bilan birga olib chiqiladi. So'ngra bug' va efir moylari kondensatsiyalanadi va og'irlik kuchi asosida ajratuvchi separator — Florentsiya idishi (yoki florentiyka) yordamida suvdan ajratiladi.

4-rasmda keltirilgan texnologik sxemani qo'llashdagi asosiy kamchilik — efir moyini bug' yordamida ajratib olish jarayonining past samaradorligidir. Bu holatning sababi, xomashyo bilan ta'sirlashayotgan bug'ning harorati yetarli darajada yuqori emasligi hamda ekstraksiya jarayonida xomashyoga faol mexanik yoki termik ta'sir ko'rsatish imkoniyatining yo'qligidir.

Archa (Juniperus) daraxtining yashil qismlari va mevalaridan efir moyini ajratib olish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida yangi texnologik uskuna qo'llanilishi rejalashtirilgan. Ushbu uskuna jarayon davomiyligini qisqartirish, archa efir moyining chiqishini va sifat ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Archa (Juniperus) efir moyini ajratib olish bo'yicha mavjud texnologiyalar tahlil qilinib, ushbu daraxtning yashil qismlari va mevalaridan samarali efir moyi olish uchun yangi texnologiya ishlab chiqildi.



6-Rasm. Juniper daraxtining yashil novdalari va mevalaridan efir moyi olish uchun impulsli uskuna.

Junipers archa navlarining yashil qismlari va mevalaridan efir moyi ajratib olishga mo'ljallangan impulsli uskuna 6-rasmda tasvirlangan. Archa (Juniperus) mevalaridan tashqari, uning shoxlari, ignalari va yog'ochida ham efir moylari mavjud. Efir moyi chiqishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida mavsumiy o'zgarishlar, atrof-muhit sharoitlari (harorat, yorug'lik, fotoperiod), o'simlikning yoshi, o'sish joyining geografik kengligi va balandligi, shuningdek, mahalliy o'txo'r hayvonlar tomonidan o'simlik qismlarining tanlab yemirilishi kabi omillar mavjud.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yosh archa shoxlarining quritilgan ignalaridan efir moyi chiqishi o'rtacha 0,47–0,75% gacha, quritilgan shoxlardan esa yig'ib olingan oyga qarab 0,1–0,28% oralig'ida bo'lishi aniqlangan.

Juniperus turkumiga kiruvchi o'simliklardan efir moyi olish uchun odatda distillatsiya usuliga asoslangan texnologik jarayonlar qo'llaniladi. Bu jarayonlar yuqori haroratdan foydalanishni nazarda tutadi (masalan, oddiy distillatsiya, bug'li distillatsiya va boshqalar). Biroq, yuqori harorat ta'sirida ayrim uchuvchi moddalar yo'qolishi yoki nozik tuzilgan to'yinmagan, murakkab efir birikmalari termik va gidrolitik ta'sir natijasida parchalanishi mumkin.

An'anaviy usullar yordamida efir moyini ajratib olish jarayoni odatda 24–26 soatgacha davom etadi.

Muhokama. Tadqiqot obyekti sifatida — archa turkumiga mansub o'simliklarning (Juniperus communis, Juniperus excelsa) daraxtsifat yashil qismlari bo'lib, ular sentabr oyida yig'ib olingan. Yig'ilgan daraxtsimon yashil qismlar 2–5 mm o'lchamdagi zarrachalargacha maydalanib, keyingi ishlov uchun tayyorlangan. Tadqiqotda ishlatilgan xomashyo namunalari namligi 65–70% ni tashkil qilgan. Efir moyini ajratib olish uchun 200 g xomashyo olingan bo'lib, u 1 litrli kolbada qaytaruvchi sovitgich bilan distillatsiyalangan. Jarayon davomida distillangan suv bilan 1:6 nisbatda (xomashyo:suv) aralashtirilgan. Olingan efir moyi namunalari quyidagi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar aniqlangan.

Efir moyi ishlab chiqarish bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi. Efir moylarini ajratib olishning har bir an'anaviy usulining o'ziga xos afzalliklari va kam-


chiliklari mavjud. Gidrodistsillatsiya usuli efir moylarini nisbatan kam miqdorda, ba'zan esa distillatsiya jarayonining bir nechta yon mahsulotlarini o'z ichiga olgan holda olish imkonini beradi. Bu usul ko'pincha xom o'simlik xomashyosidan efir moylarini ajratib olishda ishlatiladi. Efir moyi, uni tashkil qiluvchi moddalarning qaynash haroratidan past haroratlarda ajratib olinadi, bu esa termoyemiriluvchan (haroratga sezgir) birikmalarni ajratishga imkon yaratadi. Gidrodistsillatsiya usuli sifatli efir moyini olish imkonini beradi va nisbatan oddiy, xavfsiz va ekologik toza hisoblanadi. Ushbu usulning yana bir afzalligi shundaki, uchuvchi komponentlar suvda kondensatsiyalanadi, va bug' atmosferadagi kislorodni siqib chiqaradi, bu esa uchuvchi moddalarni oksidlanishdan himoya qiladi. Shunga qaramay, bu usulning kamchiliklari ham mavjud – yuqori energiya sarfi va o'simlik xomashyosining yuqori haroratgacha qizdirilishi zarur bo'ladi. Gidrodistsillatsiya vaqtida haroratning oshishi natijasida o'simlik to'qimalarida bosim oshadi. Bu bosim muayyan chegaradan oshgan zahoti hujayra devorlari yoriladi va efir moyi ajralib chiqadi. Efir moyining bir qismi o'simlik zarachalarining tashqi yuzasidan chiqadi, qolgan qismi esa o'simlik hujayralarining ichki qismlaridan tashqi yuzaga diffuziya qilishi kerak bo'ladi. So'ngra bug' o'simlik yuzasidagi efir moyini o'zida olib chiqib ketadi. Bugungi kunda ko'plab parfyumeriya korxonalarida xom o'simlik materialini bug'li distillatsiya orqali qayta ishlash orqali efir moylarini olish texnologiyasi keng qo'llanilmoqda.

Mojjevelnik (archa) mevalari bilan birga maydalanagan yog'och-yaproqli xomashyodan efir moyi ajratib olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mavjud texnologiyalar qo'llanilganda distillatsiya jarayoni texnologik jihatdan ancha uzoq davom etadi va o'rtacha 18–20 soatni tashkil etadi. Laboratoriya tadqiqotlari natijalariga ko'ra, archa efir moyi chiqishi va texnologik jarayon davomiyligi orasidagi bog'liqlik quyidagi tenglama ko'rinishida ifodalangan:

$$M = -3,05 + 1,47T - 0,03T^2$$

Bu yerda M — archa efir moyi chiqishi, grammada, T — texnologik jarayon davomiyligi, soatda. M va T o'zgaruvchilari orasidagi bog'liqlikning qattiqligi $R^2=0,84$ determinant koeffitsienti bilan tavsiflanadi. Archa efir moyi chiqishi va texnologik jarayon davomiyligi o'rtasidagi bog'lanish tenglamasining grafik ko'rinishi mavjud texnologiyalar bo'yicha 5-rasmda keltirilgan.

sidagi bog'lanish tenglamasining grafik ko'rinishi mavjud texnologiyalar bo'yicha 5-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Mavjud texnologiyalar bo'yicha archa efir moyi chiqishi va texnologik jarayon davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlik.


7-rasmda keltirilgan grafik tahlili shuni ko'rsatdiki, mavjud texnologiyalar bo'yicha archa efir moyini distillash jarayoni ikki bosqichda amalga oshadi. Efir moyining sezilarli darajada chiqishi 7 soatdan 16 soatgacha davom etadi, so'ngra efir moyi chiqishining tezligi 3–4 soat davomida sekinlashadi. Yangi texnologiya asosida olingan laboratoriya tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, mojjevelnik efir moyi chiqishi va texnologik jarayon davomiyligi o'rtasidagi bog'lanishni quyidagi tenglama ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$M = -0,03 + 5,76T - 0,48T^2$$

Bu yerda M — archa efir moyining chiqishi, g (grammda), T — texnologik jarayonning davomiyligi, soat (s).

O'zgaruvchilar M va T o'rtasidagi bog'liqlik darajasi determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,98$ bilan ifodalanadi.

Junnipers efir moyi chiqishi va texnologik jarayon davomiyligi o'rtasidagi bog'lanish tenglamasining grafik ko'rinishi mavjud texnologiyalar bo'yicha 6-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Yangi ishlab chiqilgan texnologiyaga ko'ra, texnologik jarayon davomiyligiga qarab ipakarcha efir moyi hosildorligining bog'liqligi.

1-jadval

GOST ISO 8897—2017 (Технические условия) texnik talablariga muvofiq olingan efir moylarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari [6].

Ko'rsatkichlar nomlari	Aniqlash usullari	Juniperus navli o'simlik efir moylari uchun standart talablar		Amalda	
		Juniperus communis. (oddiy archa)	Juniperus excelsa (baland archa)	J.communicis (oddiy archa)	J. excelsa (baland archa)
Ko'rinishi	-	Suyuqlik	Suyuqlik	Suyuqlik	Suyuqlik
Rang	-	Rangsiz, och yashil, och sariq.	shaffof och sariq suyuqlik	Shaffof, rangsizdan och sariq ranggacha	Shaffof, och sariq yoki sarg'ish-och yashil suyuqlik
Hidi	-	Yangi, iliq, balzamli va biroz shirin-daraxtsimon (yog'ochsimon).	qalampirga o'xshash, yog'ochsimon, biroz ziravorli	O'ziga xos, archa mevalariga xos, o'tkir	Yangi archa hidi, o'tkir, balzamli va ozroq limon iforli
20 °C da nisbiy zichlik ($d_{20/20}$)	ISO 279	Kam emas 0,850. Ko'p emas 0,880.	Kam emas 0.865 Ko'p emas 0.895	0,872	0.885
20 °C da yorug'likning sinish ko'rsatkichi	ISO 280	Kam emas 1,470 Ko'p emas 1,483	Kam emas 1.470 Ko'p emas 1.485	1.474	1.481
20 °C da yorug'likning polyarizatsiya tekisligini aylantirish burchagi	ISO 592	0° dan -16° gacha	0° dan -16° gacha	-14	-13
20 °C da etil spirtida eruvchanligi	ISO 875	Shaffof eritma olish uchun bitta hajm efir moyi va 95% li hajmiy ulushga ega bo'lgan etil spirtining 10 hajmdan ko'p bo'lmagan miqdori ishlatiladi.	Shaffof eritma olish uchun bitta hajm efir moyi va 95% li hajmiy ulushga ega bo'lgan etil spirtining 10 hajmdan ko'p bo'lmagan miqdori ishlatiladi.	1:3 nisbatda aralashganda rangi o'zgarmadi	1:3 nisbatda aralashganda rangi o'zgarmadi
Kislota soni	ISO 1242	Ko'p emas 2.	Ko'p emas 2.	1,1	1.7
Efir soni	ISO 1242	Ko'p emas 2.	Ko'p emas 2.	0,8	1.2

8-rasmda keltirilgan grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha archa efir moyini distillash jarayoni bir bosqichda, teng darajada efir moyi chiqarish bilan amalga oshadi. Efir moyining sezilarli chiqishi 6,5 soatgacha davom etadi, keyin esa efir moyi chiqishi 2 soat davomida sekinlashadi. Olingan archa efir moyi namunalar (1-jadval) asosiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalari keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, Juniperus (archa) o'simligidan efir moyi olish murakkab texnologik jarayon bo'lib, mavjud texnologiyalarda hujayralarning strukturaviy buzilishi qiyinligi va jarayonning uzoq davom etishi sababli murakkab hisoblanadi. Yangi texnologiya va uskuna ishlab chiqilishi apparatning unumdorligini oshirishga va bir yuklamada xomash-yoni qayta ishlash muddatini qisqartirishga imkon

berdi. Bu esa efir moyli xomashyoni bug' bilan ishlov berish jarayonining intensivligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Bug' maydalangan xomashyodan o'tib, efir moyi zarrachalari bilan aralashib, ularni sovitchigga, keyin esa florentinaga olib boradi, bu yerda kondensat moy-xomashyo va florentin suviga ajraladi.

Xulosa. Junnipers (archadosh) turlaridan efir moylarini olish uchun birinchi navbatda O'simlik xomashyosining xususiyatlari (qaysi nav (Juniperus communis, Juniperus excelsa, xomashyoning yillik hosildorligi (kg/ga), efir moyining chiqish darajasi (% yoki ml/kg), o'simlik parvarishi va yig'imi bilan bog'liq xarajatlar) va ishlab chiqarish xarajatlari (distillatsiya usuli (gidrodistillatsiya, bug'li distillatsiya, qurilma va uskunalar narxi (kapital xarajatlari, ishchi kuchi, energiya, suv, yoqilg'i xarajatlari, qadoqlash, saqlash va transport xarajatlari) hamda efir moyining ishlab chiqarish tannarxini, sof foyda va iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblash, bozor tahlili va ekologik va ijtimoiy omillarni baholashdan iborat.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsardiki Junniperus communis o'simligining 100 kg xomashyosidan 1.8% ya'ni 1,8 kg efir moyi olinadi.

Efir moyi miqdori: $100 \times 0,018 = 1,8 \text{ kg}$

2-jadval

100 kg Juniperus communis o'simlikda efir moyi olish xarajatlari

Xarajat turi	Qiymat (USD)
Yig'ish (qo'l mehnati)	\$ 30
Quritish, saqlash	\$ 20
Transport	\$ 40
Distillatsiya (energiya, ishchilar, suv)	\$ 120
Jami:	\$ 210

Archa (Juniperus communis) o'simligidan efir moyi olishning iqtisodiy samaradorligi tahlili:

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida archa (Juniperus communis) o'simligidan efir moyi olish istiqbollari iqtisodiy nuqtai nazardan baholandi. Tadqiqot doirasida 100 kg miqdoridagi yashil archa biomassasidan efir moyi ajratib olish jarayoni ko'rib chiqildi.

Tajriba natijalariga ko'ra, 100 kg yashil archa shox-barg massasidan o'rtacha 1,8% samaradorlik bilan 1,8 kg efir moyi ajratib olish mumkin. Ushbu texnologik jarayon uchun zarur bo'lgan umumiy xarajatlar, ya'ni xom ashyoni yig'ish, tashish, quritish, distillatsiya qilish va boshqa xizmatlar uchun 210 AQSH dollari yoki 2 730 000 so'm miqdorida mablag' sarflanishi aniqlangan.

Global savdo tarmoqlaridagi (xususan, Jedwards International va Ozon.ru) narxlar tahliliga ko'ra, Juniperus communis efir moyining bozor qiymati 1 gallon (taxminan 3,24 kg) uchun 875 AQSH dollari ni tashkil etadi. Shu asosda 1 kg efir moyining narxi quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{875 \text{ USD}}{3,24 \text{ kg}} = 270 \text{ USD/kg},$$

Shundan kelib chiqib, 1,8 kg efir moyining umumiy bozor qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$1,8 \times 270 = 486 \text{ USD},$$

Natijada, sof iqtisodiy foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$486 \text{ USD} - 210 \text{ USD} = 276 \text{ USD (taxminan 2 730 000 so'm)}.$$

O'zbekiston sharoitida archa o'simligidan efir moyi ajratib olish yuqori darajadagi iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. 100 kg xom ashyo hisobida 1,8% moy ajratish imkoniyati mavjud bo'lib, bozordagi amaldagi narxlar asosida 276 AQSH dollari miqdorida sof foyda olish mumkin. Bu holat archa o'simligini efir moyi manbai sifatida sanoat miqyosida qayta ishlash istiqbollarini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хамидов М., Набиев Т., Одилов Т. Ўзбекистон ўсимликлари аниқлагичи. — Тошкент: Ўқитувчи, 1987. — 328 с.
2. Нуритдинова Ф.М., Авезов Х.Т., Mavlonov B.A. Эфир мойларини доривор ўсимликлардан ажратиш олишнинг интенсив усули. Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali. 2012.-№1 (45). 10-13 б.
